

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

MANUCHEHR IBRAGIMOV

F U T B O L M A D A N I Y A T I

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi
tomonidan 5112000 “jismoniy madaniyat” yo‘nalishdagi
talabalar uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan.*



**«Tafakkur Bo‘stoni»
Toshkent – 2013**

Muallif:

Buxoro davlat universiteti pedagogika fakulteti o'qituvchisi

Manuchehr Ibragimov Baxtiyorovich

Taqrizchilar:

R.E.Nurimov	O'zDJTI "Futbol nazariyasi va usuliyoti" kafedrasini mudiri, professor
X.A.Botirov	Professor
G.N.Najmiddinova	BuxDU dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi
F.Xayrullaev	"Kogon" professional mini-futbol klubi bosh murabbiysi
S.Gulyamov	Buxoro futboli faxriysi

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan.

S O‘ Z B O S H I

Mamlakatimizda sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o‘z ijodiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish, mamlakatimiz yigit-qizlarini XXI asr talablariga to‘liq javob beradigan, har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli, aniq yo‘naltirilgan chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ham yosh avlodni jismonan baquvvat qilib tarbiyalashga, chuqur va mustahkam bilim berishga katta e‘tibor berilmoqda. Shunday ekan, jismoniy tarbiya jarayonida jismoniy xatti-harakatlarni egallash va takomillashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ga muvofiq o‘tib kelayotgan yosh avlodning jismoniy va ma’naviy salomatligini shakllantirishda sog‘lom turmush tarzini yaratish va sportga mehr-muhabbatni jonlantirishning g‘oyat muhim sharti ommaviy sportni rivojlantirishdir. Shu maqsadda asta-sekin o‘quvchi va talabalar uchun sport o‘yinlarining uch bosqichli, ya’ni “Umid nihollari”, “Barkamol avlod” va “Universiada” musobaqalari ommaviylashib bormoqda.

Jismoniy madaniyat va sport ta’limini takomillashtirishda davlatimizning yetakchi mutaxassis olimlari samarali mehnat qilmoqdalar. Ularning ilmiy tadqiqot ishlari asosida sohaga doir darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, monografiyalar, metodik qo‘llanmalar ishlab chiqilmoqda. Bular kadrlar tayyorlash, aholini sog‘lamlashtirish, sport mahoratini oshirish jarayonini takomillashtirishda o‘ziga hos samara bermoqda.

Oxirgi yillarda respublikamizda eng asosiy, muhim vazifalaridan biri sport o‘yinlarini rivojlantirish masalasi bo‘lib turibdi. Mustaqil O‘zbekistonning ma’nan sog‘lom avlodini, bo‘ljak vatanparvarlarni tarbiyalash vazifasi pirovard o‘qituvchilar, mutaxassislar zimmasiga tushadi.

Jismoniy tarbiya o'qituvchilarining, sport mutaxassislarining, ustoz-murabbiylarining chuqur bilim, yuksak malaka, boy tajriba va mahoratga ega bo'lishi, har tomonlama yetuk, ma'naviy barkamol kadrlar tayyorlash garovidir. Zero, ustozlar har jihatdan shogirdlariga namuna bo'la olsagina, kelajakka ishonchli zamin tayyorlanadi. Bunga erishish uchun o'qituvchilar tinimsiz izlanishlari, o'z bilim va malakalarini oshirib borishning barcha imkoniyat va vositalaridan samarali foydalanishlari zarur. Rivojlangan mamlakatlarning o'quv muassasalaridagi zamonaviy ta'lim texnologiyalari, ilg'or tajribalari bilan tanishishlari, uni o'quv jarayonida qo'llay bilishlari lozim.

Ushbu vazifalar ta'lim-tarbiyaning hamma bosqichlarida va har bir fan bo'yicha olib borilishi kerak. Shu boisdan jismoniy tarbiya darslarida, sinfdan tashqari olib boriladigan sport mashg'ulotlarida, turar joylarida o'tkaziladigan mashg'ulotlarda bu masalaga jiddiy e'tibor berish talab etiladi.

Ushbu qo'llanmaning maqsadi mamlakatimizda futbolni, futbol madaniyatining sifati va salohiyatini yanada keng yoyish, futbol haqida oz bo'lsa-da, ko'pchilik bilmagan ma'lumotlarni yoritib berish hamda futbolimizni jahon talablariga keltirishdir.


Hozirda pedagog-o'qituvchilar va murabbiylar uchun futbolga oid o'quv adabiyotlar juda kam. Ammo qisqa vaqt ichida hukumatimiz tomonidan futbolni rivojlantirishga oid qarorlar qabul qilindi. Jumladan, 1993 yil 18 martda «O'zbekiston Respublikasida futbolni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 1996 yil 17 yanvarda «O'zbekistonda futbolni rivojlantirishning tashkiliy asoslari va tamoyillarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi hamda 2006 yil 1 mayda «O'zbekistonda futbolni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qaror va farmonlar bunga yaqqol misol bo'la oladi. Umumta'lim maktablarida futbol yo'nalishi bo'yicha sinflarning, maxsus sport maktab-internatlarining tashkil qilinishi, bolalar va o'smirlar sport maktablarining ochilishi davlatimiz rahbarining ushbu sohaga bo'lgan katta g'amxo'rligi nishonasidir.

Respublikamiz ijtimoiy taraqqiyotining hozirgi bosqichida jismonan sog'lom, ma'nan teran, axloq-odob va umumbashariy g'oyalar ruhida kamol topgan, bilimli, dono avlodni tarbiyalash, milliy genofondni sog'lomlashtirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Yoshlar o'rtasida sportga bo'lgan qiziqishni orttirish, sportni ommaviylashtirish

borasida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Lekin sohaga oid o'zbek tilidagi adabiyotlarning yetarli emasligi, g'oyatda achinarlidir. Futbol to'g'risidagi adabiyotlar ham bundan istisno emas. Biroq futbol o'yini millionlar o'yini bo'lib, hamma uni sevib yoqtiradi. Futbolni barcha yoshdagi odamlar o'ynaydilar. Aminmanki, u bo'yicha o'zbek tilida hozirgi zamon talablariga javob beradigan adabiyotlar uning ixlosmandlarini aslo befarq qoldirmaydi.

Ushbu o'quv qo'llanmadan futbol bilan shug'ullanayotgan mutaxassislar, murabbiylar, oliy o'quv yurtlarining va o'rta-maxsus ta'lim muassasalarining sport o'qituvchilari, qolaversa, butun futbolni yaxshi ko'radigan va ushbu sport turi bilan shug'ullanadigan, qiziqadigan kelajak avlod foydalanishi mumkin.

I BOB. FUTBOL MADANIYATI VA KELIB CHIQISH TARIXI



Futbol madaniyati – bu bir nechta madaniyat majmuasining futbol atrofida sport turi sifatida yig‘ilishidir. Mashhurligi va yoyilganligiga qarab futbol jahonda birinchi raqamli sport turi hisoblanadi. 208 ta davlat futbol federatsiyasi FIFA (Xalqaro Futbol Federatsiya assosatsiyasi)ga a‘zodir. FIFAgaga a‘zo davlatlar soni BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti) ga a‘zo bo‘lgan davlatlar sonidan ko‘pdir.

Futbol Yevropa, Janubiy Amerika, Lotin Amerikasi davlatlarida, Afrika va qisman Osiyo qit‘asida mashhurligining eng cho‘qqisiga yetgan. Ko‘pgina davlatlarda futbol ushbu mamlakatlar madaniyatining bir bo‘lagi hisoblanib, milliy fikr-ehtirom ob‘ekti sifatida butun dunyoda futbolga berilayotgan katta e‘tibordan dalolat beradi.

Futbol dunyodagi eng mashhur jamoaviy o‘yin bo‘lib, unda hatto eng kam ochko uchun ham kurashish kerakdir. Hozirga qadar ko‘pchilik futbolning vatanini Angliya deb o‘ylashadi, ammo bu unchalik to‘g‘ri fikr emas. Aniqrog‘i, juda ham noto‘g‘ri fikr. Haqiqatda “oyoq to‘pi” tarixi bir necha yuz yillarni o‘z ichiga olib, ko‘p mamlakatlarni qamrab olgan.

1.1. Qadimgi futbol

Eng qadimiy manba – bu Xan sulolasining solnomalari bo‘lib, bu sulola qadimiy Xitoyda hukmronlik qilgan. Bu solnomalar 2000 yillik tarixga ega. To‘p tepishga o‘xshaydigan va o‘ynaladigan o‘yin - Tsu Chu (qadimgi Xitoyda miloddan oldingi 250- yilda paydo bo‘lgan).

“Tsu” - oyoq bilan to‘pga zarba berish degan ma’noni anglatadi, “Chu”



esa “havo berilgan charm to‘p” deb tarjima qilinadi. Solnomadagi yozuvlarda aytilishicha, bu o‘yin imperator tug‘ilgan kuni sharafiga o‘ynalgan. “Tsu – Chu” o‘yinida kichkina tirqishga, ya’ni darvozaga to‘p kiritish talab etilgan. Darvoza sifatida bambuk tayochchalarini vertikal holatda qo‘yib, tirqish kattaligi 30-40 santimetr diametrdagi

past bo‘lib, 9 metr balandlikda joylashgan bo‘lib to‘pni 9 metr balandlikda 30-40 smli teshikdan o‘tkazish kerak edi. Ko‘rib turganingizdek, bu o‘yinni o‘ynash uchun kishi ma’lum bir qobiliyat egasi bo‘lishi kerak, aks holda darvozani ishg‘ol eta olmaydi.

Tsin sulolasi davrida (miloddan avvalgi 255-206 yillar) Tsu – Chu o‘yini, asosan, askarlarga o‘rgatilgan. Xan sulolasi davriga kelib (miloddan avvalgi 206 yil, milodning 220 yillari) Tsu – Chu keng yoyilib, ommaviy o‘yin turiga aylangan. O‘sha davr solnomalarida Tsu – Chu nomi bilan atalgan mashg‘ulotlar yig‘indisi haqida ushbu o‘yin tasvirlanadi. Bu mashg‘ulotlar pat va jun bilan to‘ldirilgan charm to‘pli mashq turlarini o‘z ichiga olgan. Tsu – Chuga o‘xshash o‘yinlar ham bo‘lgan, ularning har birining maqsadi raqib o‘yinchilariga to‘p kiritishga imkon bermaslik edi, bu maqsadda oyoqdan tashqari tananing barcha qismidan foydalanishga ruxsat etilgan.

Yaponiyada ham futbolga o‘xshash o‘yin bo‘lgan. Bundan 1400 yil oldin, tarixiy ma’lumotlarga qaraganda, milodning 300-600 yillarida yaponlar “Kemari” (ayrim ma’lumotlarda “Kenatt”) nomli o‘yinni ixtiro qilishgan, o‘yinda sakkiz nafargacha kishi qatnashgan, to‘pning diametri 5 sm bo‘lib, yumshoq charm bilan qoplangan va ichi qchizimchaliq bilan to‘ldirilgan. O‘yinchi to‘pni erga tegizmasligi kerak edi, u to‘pni havoda jamoadoshiga yetkazib berib yoki bo‘lmasa havoda oyoqda tepib turib saqlashi zarur bo‘lgan. “Kemari” o‘ynaladigan maydon “Kikutsubo” deb atalgan. “Kikutsubo” maydon shakli to‘g‘ri to‘rtburchak shaklda bo‘lib, burchaklarida yosh daraxtlar ekilardi. Yaponlarda o‘yinda ishlatadigan o‘ziga hos so‘zlari bor edi, masalan: to‘p o‘yinga kiritilganda o‘yinchi “Ariyaaaa!” (“ketdik”) deb qichqirsa, o‘yinchilar to‘pni jamoadoshlariga uzatganda “Ari!” (“mana”) deb qichqirishardi.

XX asr bilan XVI asr oralig‘i “Kemari” o‘yining oltin asri bo‘ldi. O‘yin aholining oddiy qatlamlari orasida ham mashhur bo‘lib, bu o‘yin shoir, yozuvchilarni ijod qilishga undar edi. Yapon solnomalarida aytilishicha, bir imperator o‘z jamoasi bilan to‘pni ming zarba bilan havoda ushlab turgan va o‘yindan so‘ng yashirilgan shu to‘p uchun imperatorning shaxsan o‘zi shu to‘pga unvon hadya etgan. XIII-XIV asrdan boshlab “Kemari” o‘yini uchun maxsus kiyim ishlatila boshlandi. “Kemari” o‘yinchilari uzun engli kiyim kiyishgan. Hozirgi vaqtda ham Yaponiya mamlakatida “Kemari” o‘ynaydiganlar topiladi. Asosan bu o‘yinni urf-odatlarini saqlab qolishni istagan ishqibozlar o‘ynashadi.

Markaziy Amerikada to‘p bilan o‘ynaladigan o‘yinlarning tarixi miloddan avvalgi 1600 yilga borib taqaladi va bu o‘yin “Pok-A-Tok”, ya’ni (“Paso de la Amada”) deb nomlangan. “Paso-de-la-Amada” o‘ynash uchun mo‘ljallangan maydonlar 150 yil davomida kengayib borgan va takomillashgan. Bu maydonlar uzunligi 80 metr, eni tor, tekis bo‘lib, atrofida o‘rindiqlar bo‘lgan. Olimlar fikriga ko‘ra, bu inshoot butun Amerika bo‘ylab yoyilgan bo‘lib, o‘zaro chambarchas bog‘langan inshootlarni o‘zida mujassamlashtirgan maydonning bir bo‘lagi bo‘lgan. Devor va sopol idishlardagi rasmlar, tasvirlar asosida, arxeologlarning fikricha, qadimiy o‘yin hisoblangan “Pok-A-Tok” (“Paso de la Amada”) Amerikani bosib olgan ispan konkistadorlari qoldirgan 1519 yildagi hujjatlarda nomi tilga olingan “Tlachtli o‘yini”ga o‘xshash bo‘lib, o‘yin maydoni “I” shakliga ega bo‘lgan ikki yotqizilgan devorga to‘g‘ri burchak ostida uchta aylana plitalar o‘rnatilgan. Ular “markerlar” deb atalgan. Agar to‘p markerga tegsa yoki aylana ichidan olib o‘tilsa gol hisoblangan. “Markerlar” va aylanalar yerdan taxminan 9 m gacha balandlikda joylashgan. O‘yinchilar diametri 10-15 sm bo‘lgan rezina to‘plarga faqatgina tirsaklari, tizzalari va bellari bilan tegishlari mumkin bo‘lgan. Gol shunchalik katta yutuq bo‘lganki, hatto gol urilgandan so‘ng o‘yinlar tugari edi. Tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, “Pok-A-Tok” ga o‘xshash o‘yinlar siyosiy, diniy va ijtimoiy hayotda “Mokayya” (tarjima qilinganda “makkajo‘xori odamlari”) xalqlarida katta ahamiyatga ega bo‘lib, ular, ya’ni “Mokayya”lar taxmin qilinishicha, “Ol’mek” va mayya xalqlarining ajdodlari hisoblanishgan. O‘sha paytlarda mavjud bo‘lgan to‘p bilan o‘ynaydigan o‘yinlar oddiy badantarbiyasidan gohida o‘rtada (konga) katta narsalarni qo‘yib o‘ynaydigan o‘yinlar darajasida

tugar edi. Gohida mag‘lub bo‘lgan jamoa sardorining boshi tanasidan judo qililib, g‘olib jamoa vakillarini qahramon deb e‘lon qilishgan. Ol‘meklar zamonida (taxminan miloddan 1200 yil oldin) kuch-qudratli kishilarni boshlariga charmli shlem kiygan to‘p o‘ynovchi o‘yinchilar sifatida tasvirlashgan. Bir antropologiya fani professori “Bu shlemlarga bir vaqtning o‘zida ham sport anjomi ham urush uchun kiyiladigan bir himoya vositasi sifatida qaralar edi”, - deb o‘z sharhini bergan. U o‘z so‘zini davom ettirib, shunday deydi: “Qadimda buyuk jangchi, futbol o‘yinchisi va yo‘lboshchi o‘rtasida unchalik katta farq bo‘lmagan”. Miloddan avvalgi 900-250 yillarda mayya qabilalari vakillari “Pok-A-Tok” o‘yinini to‘liq o‘zlashtirishgan. Atsteklar bo‘lsa “Pok-A-Tok”ning o‘zlari uchun hos bo‘lgan usulini va qonun qoidasini ishlab chiqishgan (milodning 1200 – 1521 yillarida).

Ma‘lum bo‘lishicha, Shimoliy Amerika hindularining ham oyoq bilan tepib o‘ynaladigan o‘yini bo‘lgan va u “pasuckuakohowog” deb nomlanib, tarjima qilinganda u “ular oyoqlari bilan to‘p o‘ynashgani uchun yig‘ilishgan” ma‘nosini bildiradi. O‘yinlar XVII asrlar boshida o‘tkazilib, bir-biridan 2 kmli masofada joylashgan, kengligi 1 km keladigan darvozalarda o‘tkazilgan. “Rasuckuakohowog” o‘yinida 1000 tagacha odam ishtirok etgan. Ko‘p hollarda o‘yinchilar qo‘pol va shikast yetkazadigan darajada o‘ynashgan. O‘yinchilar turli xil taqinchoqlar kiyishar va badanlariga turli xil bo‘yoqlarni surtishar va shu sababli o‘yindan so‘ng o‘yinchilar raqiblaridan o‘yindagi jarohat uchun bir-biridan o‘ch olisha olmas edi, chunki raqiblarda bir-birini topish imkoni yo‘q edi. O‘yinlarni yakunlash uchun keyingi kunga ko‘chirish odatiy hol bo‘lib, o‘yin tugagach, uning yakunlanishi o‘yin-kulgu bilan nishonlangan.

“Askaktuk” o‘yini esa unchalik mashhur emas, uni eskimoslar o‘ynashgan. Ular o‘t va karibu (kanadalik bug‘u turi) juni bilan to‘ldirilgan og‘ir to‘pda “Askaktuk” o‘yinini o‘ynashgan. Rivoyat qilishlaricha, bir kuni ikki qishloq vakillari o‘zaro “Askaktuk” o‘yinini o‘ynashganda, darvozalardan bir-biridan 30 km uzoqlikda joylashgan ekan.

Avstraliyada to‘plar kisali kemiruvchilar terisidan, yirik hayvonlarning siydik qovuqlaridan, to‘qilgan sochlardan qililib o‘ynalgan o‘yinlar, ya‘ni Avstraliyada o‘ynalgan futbol o‘yinlarining qonun – qoidasi bizgacha yetib kelmagan.

Qadimgi Misrda to'p bilan o'ynash o'yinlari boshqa davlatlarga nisbatan ancha oldin mavjud bo'lgan. Ya'ni, miloddan 2500 yil oldin katta bo'lmagan Misrda topilgan "artefak"lar shundan dalolat beradiki, o'sha davrda Misr hududida futbolga o'xshash o'yin mavjud bo'lgan.

Qadimgi Gretsiyada to'p bilan o'yin o'ynash kamida miloddan avvalgi IV asrdan boshlangan. Rivoyatlarga ko'ra, Erosga birinchi to'pni ma'buda Afrodita berib, shunday degan: "Men senga ajoyib o'yinchoq beraman, bu tezyurar shardir, bundan yaxshisini hatto Gefesdan ham topa olmaysan". To'pni maqsadga qarab Quyosh, Oy va Yerga ham o'xshatish mumkin.

Futbolni eslatadigan va unga o'xshash to'pli o'yinlar, qadimdan ko'plab xalqlar orasida ma'lum bo'lgan.

Qadimgi Xitoy va Yaponiya yozuvlari manbasida ularni topish va uchratish mumkin. Qadimgi Misr fir'avnlari va qadimgi Gretsiya bareflari dahma (sag'ana)larida "futbol syujetlari" tasviri topilgan. Bular o'yinlar nafaqat ko'ngilochar o'yinlar, balki harbiylarning ham jismoniy tayyorgarligini ta'minlagan. Tarixchilar qadimgi futbolning paydo bo'lishini tildan tilga o'tgan taxminlardan kelib chiqqanligiga asoslanib, futbol to'pini quyoshga qiyoslaganlar (Quyosh hammani isitadi – futbol esa hammani birlashtiradi).



Sparta jangchilari o'rtasida ham to'p bilan o'ynaladigan "episkiros" o'yini mashhur bo'lib, bu o'yinda ham oyoq va qo'ldan foydalanilgan. Bu o'yinda asosan erkaklar o'ynashgan, lekin amaliyot uchun ayollar ham o'ynashlari mumkin bo'lgan. Jinsidan qat'iy nazar, greklar odatda yalang'och holda futbolga o'xshash

o'yin o'ynashar edi. Afina Davlat Arxeologiya muzeyida o'zining granit rel'efida tizzasida to'pni ko'tarib turgan atlet surati tasvirlangan bo'lib, ehtimol atlet bu qobiliyatini yonidagi bolakayga ko'z-ko'z qilayotgan bo'lishi mumkin. Xuddi shunday tasvir hozirgi kunda Yevropa Chempionlar ligasi kubogida ham tasvirlangan. Rel'efda tasvirlangan to'p ehtimol "follis" yoki "dam urilgan to'p" deb nomlangan. Dastavval to'plar Misrda bo'lgani kabi **l'ndan** yoki jundan chizimcha bilan o'ralgan va

birgalikda tikilgan. Ular deyarli yerga urilganda sapchimas edi, ya'ni bunday to'plar yerga urilganda sakramagan. Keyinchalik grek modeli "follis" nomi bilan mashhur bo'lgan to'p turi cho'chqaning qovuqlaridan shishirib, charm bilan mahkam o'ralar edi. To'plarni boshqa usulda yasash, dengiz gubkalarini maydalab kesib, ularni mato va chizimcha bilan o'rashdan iborat bo'lgan.

Rim futboli – garpastum

Greklarning "Episkiros" o'yinini keyinchalik rimliklar o'zlariga o'zlashtirishdi va ular "Episkiros" o'yinini "Garpastum" o'yini deb nomlashdi. "Episkiros" o'yinining qoidalari ham bir muncha o'zgartirilib, u "Garpastum" o'yiniga ishlatildi. "Garpastum" (tarjimada – mayda to'p bilan o'yin) 700 yil davomida odamlar orasida mashhur edi. Unda asosan kichkina, lekin og'ir to'p bilan o'ynashgan. Bu o'yinda to'pni ikki tayoq o'rtasidan o'tkazish zarur bo'lgan va bu o'yin harbiylarni mashq qildirish uchun ishlatilardi. O'yinda har ikki jamoadan 5 tadan 12 tagacha o'yinchilar ishtirok etardi. O'yinlar teng ikkiga bo'lingan to'g'ri to'rtburchak shakldagi maydonda o'tardi. Har bir jamoa a'zolari to'pni iloji boricha uzoqroq vaqt mobaynida o'zlarida saqlab turishlari, raqib o'yinchilari esa to'pni o'z maydonlariga olib kirishlari shart edi. O'yin o'zining shafqatsizligi bilan ajralib turgan. "O'yinchilar ikki jamoaga bo'linishgan, to'p maydon markazidagi chiziqqa qo'yilib, har bir o'yinchi oldidan chiziq tortilib, har ikkala jamoaning vazifasi to'pni chizilgan chiziq ichkarisiga olib kirish kerak bo'lgan, to'pni raqib jamoa o'yinchilarni chetga itarib kirish orqali amalga oshirishi kerak edi". Qadimgi Rim zamondoshlarining ta'kidlashlaricha, yuqorida berilgan ta'rif futbolni eslatadigan garpastumga berilgan ta'rifdir.

"Garpastum" o'yinining asosiy qoidalaridan biri to'p bilan muomala qilayotgan o'yinchining yo'lini to'sish bo'lgan, bunday qoida o'yinchilar o'rtasida to'p oshirib o'ynash kerakligini oshirdi, murakkab to'p uzatishlarning rivojlanishiga turtki bo'ldi va boshqa o'yinlarning qoidasiga asos bo'ldi. O'yin davomida maydonda ko'pgina ayyorlik va mug'ombirliklarning bo'lgani aniqdir.

O'yinda deyarli oyoqlardan foydalanilmas edi. "Garpastum" o'yini qay-sidir jihatlari bilan **regbi** o'yiniga o'xshab ketardi. Imperator Yuliy Tsezar (o'zi ham o'ynagan bo'lishi mumkin) harbiy askarlarining jismoniy holatini va harbiy kuch-quvvatini rivojlantirish maqsadida askarlarini "Garpastum"

o'yini bilan shug'ullantirar edi. Rim bolalarining ko'chada to'p o'ynaganliklari haqida ma'lumotlar bor. Sitseronning (Rim dramaturgi) ham "...sartaroshga to'p tekkani uchun o'lgan..." to'g'risidagi, "...erkakning jinoiy ishi haqidagi ma'lumoti keltirilgan yozma ta'rifi..." bizgacha yetib kelgan. Ehtimol bu futbol tufayli halok bo'lgan kishi haqida ilk yozma ma'lumotdir (eng kamida Yevropa miqyosida, chunki Mezo Amerika ma'lumotlarda yozilishicha, futbol musobaqalarida mag'lub bo'lgan jamoa o'yinchilari engilganliklari uchun jazo sifatida o'ldirilgan).



Afiney degan kishi "Garpastum" o'yini haqida quyidagilarni yozib qoldirgan: "Garpastum", boshqacha qilib aytilganda, "Fainin" mening eng sevimli o'yimdir. Bu o'yinda ko'p harakat va charchoq kuzatiladi, to'p bilan muomalada bo'lganda shafqatsiz qayirishlar va bo'yin sinishlari uchraydi". Shu o'rinda Antifen ham; "La'nati bo'yin yomon og'riq beryapti (demak, bundan shu kelib chiqadiki, u ham o'zi "Garpastum" o'yinini o'ynagan)", - deb qo'shib qo'ygan. Afiney o'yinni shunday tasvirlaydi: "...u to'pni ushlab olib, uni jamoadoshiga yetkazadi, bir vaqtda boshqasidan qochishga harakat qilib boshqa bir o'yinchiga to'pni tutqazadi. U yiqilgan o'rtog'ini oyoqqa turg'izadi. Uzoq vaqt davomida maydondan uzoqda bo'lgan olomon shovqini eshutiladi. Uzoqda, uning orqasida, boshi ustida, yerda, havoda, juda yaqin, to'daga to'p yetkazilishi" va o'yindagi boshqa harakatlar, ma'lum bo'lishicha, rimliklar Britaniya orollarini o'zlariga bo'ysuntirganlarida "Garpastum" o'yinini Britaniyaga ham olib kelishgan. To'g'risini aytganda, rimliklarning Britaniyaga kelishganlariga qadar to'p bilan o'ynaladigan o'yin allaqachon Britaniya orollarida o'ynalar edi. Ma'lumotlarda rimliklar va Britaniya aholisi – brit va kel'tlar o'rtasida "Garpastum" o'yini bo'yicha musobaqa o'tkazilgani haqida aytib o'tilgan. Bu o'yinni britaniyaliklar yaxshi o'rganuvchi ekanlar, milodiy 217-yilda Britaniya aholisi rim legionerlari bilan bo'lib o'tgan o'yinda ularni mag'lubiyatga uchratganlar. Ammo bosqinchilarning mag'lub bo'lishiga qaramay, "Garpastum" o'yini vaqt o'tishi bilan yo'qolib ketganligi va uning zamonaviy futbol rivojiga turtki bo'lishiga sabab bo'lgani ehtimoli kam emas. Lekin shunisi aniqki, rimliklarning "Garpastum" o'yini zamonaviy futbol o'yinining ajdodi hisoblanadi.

Qadimgi Greklarda to‘p bilan o‘ynaladigan o‘yin ulkan shon-shuhratga ega bo‘lib, gimnastlarning asosiy jismoniy dasturlaridan o‘rin egallagan edi.

Futbolga o‘xshagan o‘yin haqidagi ilk ma’lumotlar 180-yilga taaluqli bo‘lib, greklarning “Polluksa” lug‘atida ta’kidlanishicha, o‘yindagi o‘yinchilar ikki bo‘limga jamoaga bo‘linib o‘ynashgan va asosiy maqsad to‘pni raqib jamoa maydonchasiga olib kirishdan iborat bo‘lgan. Bu hozirgi regbi o‘yiniga o‘xshab ketgandi, unda esa asosan oyoqdan foydalanilgan. Ko‘pchilikning fikricha, futbolning paydo bo‘lishiga Rim legionerlari tomonidan Britaniya orollariga qadimgi rim o‘yini – “Garpastum” bilan uzviy bog‘liq deb hisoblashadi. Inglizlar oyoq bilan o‘ynaladigan o‘yin Britaniya orollarida IX asrdan ma’lum, degan qarashni isbotlashga harakat qilishmoqda, taxmin qilinishicha, unga o‘xshagan o‘yinlar G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida bir-biridan ma’lum bir xususiyatini o‘zlashtirib rivojlana borgan.

1.2. O‘rta asrda futbol o‘yini

Rim imperiyasi parchalangandan so‘ng uning o‘rnida vujudga kelgan davlatlarda “Garpastum” turli xil nomlar ostida saqlanib qoldi: Frantsiyada “Pa sup”, Italiyada esa “Kalchio”.

To‘p bilan o‘ynaladigan o‘yin - Kal’chio (Florentsiya shahri) Italiyada taxminan XVI asrlarda paydo bo‘ldi. Florentsiyada ushbu o‘yin P‘yatstva della Noverenning sport o‘yinini belanchagi hisoblanadi. Vaqt o‘tishi bilan o‘yin “giuoco del Calcio fiorentino” (oyoq bilan o‘ynaladigan fiorentina o‘yini) yoki oddiy qilib “Kalcho” deb nom oldi. “Kalcho” o‘yining rasmiy qoidalari Djovanni Bardi tomonidan 1580-yilda chop etildi. Rimliklarning “Garpastum” o‘yini singari “Kalcho”ni ham qo‘l, ham oyoq bilan o‘ynashgan bo‘lib, o‘yinchilar soni 27 tani tashkil etgan. Maydonda belgilangan nuqtadan to‘pni olib o‘tgan jamoaga gol yozilgan. Boshida “Kalcho” asosan yuqori tabaqa vakillari uchun mo‘ljallangan o‘yin bo‘lib, asosan diniy bayramlar arafasida o‘ynalgan. Hattoki, Vatikan papalari Klement VII, Lev IX va Urban VIII larning o‘zlari ham “Kalcho” o‘ynashgan.

Hatto mashhur Leonardo da Vinchi ham tabiatan kamgap, o‘z hissiyot va emotsiyalarini jilovlab olgan odam bo‘lishiga qaramay, “Kalcho”ni o‘ynab, o‘z xotiralarida u haqda yozib qoldirgan.

Avvaldan “Kalcho” ishbilarmon odamlar o‘yini bo‘lgani uchun u halqaro miqyosda katta kuchga ega bo‘ldi. Ingliz xususiy maktab direktori Richard Mulkaster yoshlarning tarbiyasi haqida 1561-yilgi traktatida “Kalcho”ning britanacha shakli “futbol olomoni” (futbol tolpi) paydo bo‘lgani haqida so‘z yuritadi. Shundan so‘ng “Kalcho” deyarli ikki asrga unutiladi va XX asrga kelib u yana ommalashib boradi. O‘yinlar 30-yil-



larda yana o‘tkazila boshlandi. Hozirda Florentsiyaning Pyatstsa Santa Kroche shahrida iyul oyining 3-haftasida uchta o‘yin o‘tkaziladi. Zamonaviy qoidalar bosh, qo‘l va tirsak bilan o‘ynashga ruxsat etsa, ammo kutilmagan zarbalar, ayniqsa, boshga oyoq bilan zarba berish va hiylakor zarbalar ta’qiqlangan. XVII asrda qatl etil-

gan Angliya qiroli Karl I ning tarafdorlari Italiyaga qochib kelishgach, ingliz saroy amaldorlari “Kalcho” o‘yini bilan shu yerda tanishishadi. 1660-yilda Angliya taxtiga Karl II kelgach, “Kalcho”ni Angliyaga olib kirishdi va bu saroy ayollarning o‘yiniga aylandi. Angliyaning “Kalcho” o‘yiniga o‘xshash beshafqat va mashhur o‘yini “ommaviy futbol” deb atalgan va odatda turli xil qishloqlar o‘rtasida bayram va tantanalarda o‘ynalgan.

O‘rta asrlarda “futbol” o‘yini madaniylashtirildi va bu narsa birinchi navbatda Britaniya orollarida, Italiya va Frantsiyada bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan boshqa davlatlarda ham tarqaldi. Ma’lumki, Angliyada mahalliy hokimiyat va monarxlar bu xavfli o‘yinni ta’qiqlashga harakat qilganlar. Ba’zan bu o‘yinlar qonli urushlarga olib kelgan (aytgancha, bunday ma’lumotlar o‘sha paytda qabul qilingan qarorlardan birida, birinchi marotaba “futbol” so‘zi ishlatilgan hujjat hisoblanadi). O‘rta asr Angliya futbol o‘yinida oyoq, qo‘l o‘yini ishtirokchilari soni chegaralanmagan (ta’qiqlanmagan) bo‘lib, bu sohada qonunlar yoki tartiblar ko‘p bo‘lmagan va shu holatlarda (ular bilan esa hech kim hisoblashmas edi) o‘yinlarga ruxsat berilgan. Shunday qilib, zamondoshlar so‘zlariga ko‘ra, 1565-yilda Angliyada ochiq-oydin futbol o‘ynagan. O‘rta asrlar futboli Angliyada qo‘pollik va shafqatsizlik bilan o‘ynalgan.

O‘yinning naqadar shafqatsiz va chegarasiz ekanligini shundan ham bilish mumkinki, o‘yin o‘tkaziladigan hudud aholisi o‘yin oldidan derazalarni tamg‘alab, mix bilan qoqib yopishar edi. Ikkala jamoa a‘zolari ham to‘pni raqib jamoa jarima maydonchasiga kiritishni maqsad qilib, qo‘shni qishloq yoki tuman jamoalari bilan o‘ynash uchun markaziy ko‘cha yoki maydonda to‘planishar edi. Futbolning olomon bo‘lib o‘ynash haqida ko‘pgina farazlar ham bor. “Futbolning ajdodi” bo‘lgan Maslenitsadagi “Futbol qoidalari”ga ko‘ra, faqatgina odamni o‘ldirmaslik kerak bo‘lgan, ya‘ni boshqa hamma narsaga ruxsat etilgan. Yana bir afsonaga ko‘ra, futbol Britaniyada III asrda rimliklar ustidan erishilgan g‘alabani nishonlashda paydo bo‘lgan. Boshqa bir afsonaga ko‘ra, hammasi mag‘lubiyatga uchratilgan daniyalik shaxzodaning uzilgan kallasini to‘p qilib o‘ynashdan boshlangan. Bundan tashqari, o‘yin diniy marosimning bir bo‘lagi bo‘lib, to‘pni quyoshni anglatib maydon bo‘ylab uni olib o‘tish yaxshi hosil yig‘ishtirib olishni belgilagan. Bizgacha yetib kelgan ko‘rsatmalarga asosan (Shotlandiya) regbi bo‘yicha ham o‘yinlar o‘tkazilib, uylangan va bo‘ydoqlar o‘rtasida o‘yin o‘tkazilgan, ehtimol, bu ham diniy udumlardan biri bo‘lgan. Balki, olomonli futbol Angliyada Normand istilosi davrida paydo bo‘lgan. Ma‘lum bo‘lishicha, o‘sha yerlarda zamonaviy futbolga o‘xshash o‘yin Angliyada paydo bo‘lmasdan oldin mavjud bo‘lgan. O‘yinning ildizlarini aniq ko‘rsatishning iloji bo‘lmasa ham, lekin taq-iqlarga qaraganda, o‘yin odamlarning holatiga ta‘sir qilgan. Inglizlar va shotlandlar o‘rtasidagi o‘yinlar shunchalik asabiy o‘tar ediki, o‘sha paytlar aniq qonun-qoida bo‘lmagani sababli o‘yinlar ko‘p hollarda o‘yinchi va ishqibozlarning jiddiy jarohat olishi yoki insonlar o‘limi bilan ham tugar edi. O‘sha vaqtlarda ko‘pchilik odamlarning futboldan nafratlani-shi bejiz emas. Futbol va olomon tufayli sodir bo‘lgan baxtsiz xodisalar haqida yozma ma‘lumotlar ham berilgan (1280- va 1312-yilga oid). Bunday baxtsiz xodisalarning sodir bo‘lishi ta‘qiqqlarga olib kelib, keyinchalik yozilmagan qonun-qoidalarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan.

Ajablanarli holat emaski, hukumat futbolga qarshi kurashib, hatto qi-rollarning ham futbol o‘ynashini man etadigan farmonlarni chiqargan. 1314-yil 13-aprelda London aholisiga qirol Eduard II ning farmonini o‘qib eshittirishdi. Unga ko‘ra, shahar ichkarisida futbol o‘ynash qat’iyan man etilib, futbol o‘ynagan kishi esa qamoqqa olinishi haqida e‘lon qil-ingan.

1365-yil navbat Eduard III ga yetib keldi, askarlar futbol o‘ynashdan ko‘ra kamon otish mahoratini oshirishni afzal ko‘rishdi. Qirol Richard II 1389-yilgi chiqargan taqiqi bilan “futbol”, “tennis” va “suyak” o‘yinlarini o‘ynashni chekladi. Futbol keyingi qirollarga ham yoqmas edi. 1399-yil Genrix IV, 1413-yil Genrix V, 1449-yil Genrix VI, 1471-yil Eduard IV, 1491-yil Genrix VII, 1512-yilda Genrix VIII va nihoyat, Elizaveta I 1572-yillardagi hukmronlar futbol o‘yiniga qarshi chiqib, qonun bilan bu o‘yinni ta’qiqlashgan.

Aslida esa futbol o‘yinini taqiqlash uni o‘ynashni to‘xtatish degani emasligi uchun o‘rta asrlarda futbol minglab odamlar tomonidan Yevropa mamlakatlarining ko‘pchiligida o‘ynalgan.

1.3. Yangi davrda futbol o‘yini

Vaqt o‘tishi bilan o‘yin o‘zining tsivilizatsiyalashgan (madaniyatlashtirilgan) formasini egallagan. Ayrim pedagoglar esa futbolning nafaqat yoshlarning jismoniy rivojlanishiga, balki ularning jismoniy tayyorgarligiga ham g‘oyat foydasi bor ekanligini ta’kidlab berganlar. XIX asr boshlarida esa futbol Angliyaning imtiyozli o‘qish muassasalarida madaniyatlashtirildi. Bu esa nafaqat o‘yinga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirdi, balki, o‘yinning o‘zini ham o‘zgartirishga muvaffaq bo‘ldi. Birinchi futbol qoidalari ishlab chiqila boshlandi, lekin ular hozirgacha “erkin” va bir-biridan farq qiladigan tartib va qonunlar edi. Shu bilan birgalikda asosiy muammo shunda ediki, futbol o‘yinida qo‘l bilan o‘ynashni ruxsat berish kerakmi yo yo‘qmi? Bundan tashqari, ko‘plab mutaxassislar tomonidan yagona qoida ishlab chiqishga urinishlar bo‘lgan. Misol uchun 1863-yil o‘tkazilgan har xil maktab va klublarning vakillari o‘rtasidagi uchrashuvda, “futbol va regbi” namoyondalari majlisida “regbi” mutaxassislari (o‘yinda qo‘l bilan o‘ynash mumkin) norozilik bildirib, yig‘ilishda kamchilikni tashkil etganliklari uchun majlisni tark etishgani natijasida, “Oyoq futboli” tarafdorlari futbol o‘yinini tartibga soladigan birinchi qonun – qoidalarni ishlab chiqishgan. Oxir- oqibat esa futbol va regbi o‘yinlari sport turlarining ajralishi sodir bo‘lgan.

1863-yil rasmiy ravishda zamonaviy futbol tug‘ilgan yili hisoblanadi. Tarixda birinchi futbol klubi “Sheffild Yunayted” hisoblanib, u 1855-yilda tashkil etilgan (tuzilgan). XIX asrning 70-yillarida esa Angliya Futbol Assosiyatsiyasi tarixda futbol bo‘yicha birinchi rasmiy Assosiyatsiya kubogi musobaqasi bo‘lib o‘tdi. Bu esa dunyodagi qadimiy umummilliy futbol turniri edi. Bu trafeyning birinchi sovrindori “Uanderers” klubi bo‘ldi. 17

yildan soʻng professional futbol liga chempionati oʻtkazila boshlandi. Birinchi chempion unvonini “Preston Nors Endi” klubi qoʻlga kiritishadi. 1872-yil futbol boʻyicha birinchi xalqaro uchrashuv boʻlib oʻtdi. Unda Angliya va Shotlandiya futbol terma jamoalari kurash olib bordi, uchrashuv 0:0 hisobida yakuniga yetgan. Qiziqarlisi shundaki, shotlandiyaliklarning terma jamoa vakillari nomidan chiqmay, balki, mamlakatning eski klubi – “Kuins Park” Angliya terma jamoasiga qarshi boʻlgan uchrashuvda qatnashgan. Shotlandiya Futbol Assosiatseyasi esa bu oʻyindan bir necha oydan keyin tashkil qilingan. Bunday Assosiatseyiya Uelsda 1875-yilda tashkil topadi, 1880-yilda esa Irlandiyada tashkil etiladi.

Shundan soʻng juda yaqin vaqtda Angliyalik dengizchilar va savdo sotuvchilar harakati bilan futbol oʻyini dunyoning barcha mamlakatlariga tarqala boshladi. Birinchi navbatda Yevropa va Lotin Amerikasi mamlakatlarida, asrning oxirigacha Daniya, Gollandiya, Chili, Argentina, Belgiya va boshqa davlatlarda futbol Assosiatseyalari tashkil etila boshlanib, joylarda milliy birinchilik oʻyinlari oʻynaldi.

Futbolga oid ilk qoidalarni 1848-yilda Kembridjning futbol jamoasi amalga kiritgan, afsuski bu qoidalar matni bizgacha yetib kelmagan. Bizgacha yetib kelgan ilk futbol qoidalari 1863-yil 8-dekabrda nashr ettirilgan va ular quyidagilardir:

1. Maydon uzunligi 183 metr, kengligi 91,5 metrdan oshmasligi kerak. Maydon burchaklarida bayroqchalar turishi kerak. Darvozalar ikki (metall, yogʻoch, daraxt) ustunlaridan iborat boʻlib, ular bir-biridan 7,32 metr uzoqlikda joylashgan. Darvoza toʻsini boʻlmagan.

2. Oʻyin boshlanishida jamoalarning qaysi tomon darvozani tanlashi qurʼa tashlash orqali amalga oshirilgan. Oʻyinda qaysi jamoa toʻpni maydon markazidan boshlashi, jamoadan bitta oʻyinchining toʻp tepishda (jonglyorlik qilish) gʻolib chiqqani maydon markazidan birinchi boʻlib toʻpni oʻynashni boshlagan. Oʻyinni boshlayotgan jamoa toʻpga tegmaguncha raqib jamoa oʻyinchilari toʻpdan radiusi 9,1 metr uzoqlikda boʻlishi kerak boʻlgan.

3. Oʻyin vaqtida toʻp darvozaga kiritilgach jamoalar darvozarini almashtirishgan.

4. Oʻyindan tashqari holat va autlar hisobga olingan (zamonaviy futbolda boʻlgani kabi).

5. Qo‘l bilan o‘ynash ta‘qiqlangan.

6. O‘yinda o‘yinchilarni yiqitish, urish ta‘qiqlangan.

7. Temir jism bo‘lgan poyafzalda o‘ynash taqiqlangan.

8. Himoyalananayotgan jamoa vakili to‘pni maydon tashqarisiga chiqarib yuborsa, to‘pni oxirgi marta tekkan joyidan erkin zarba bilan o‘yinchi kiritadi. Agar to‘p hujum qilayotgan jamoa a‘zolari tomonidan maydonni tark etsa, u holda darvoza chizig‘idan 13,6 metrdan erkin zarba bilan to‘p o‘yinga kiritiladi.

1866-yilda darvozalar vazifasini bajaruvchi ikki tayoq ustiga gorizont tal bo‘yicha 5,5 metr tepalikda chizimcha bog‘lab darvoza ikki to‘sinini birlashtirgan.

1871-yildan boshlab darvozabonga qo‘l bilan o‘ynashga ruxsat etilgan.

1873-yilda himoyalananayotgan jamoa o‘yinchilaridan to‘p yon chiziqdan maydondan chiqib ketganda, burchak zarbasi qoidaga kiritilgan.

1875-yilda darvoza ustidagi chizimcha to‘singa almashtirildi (2,44 metr balandlikda). Bundan tashqari darvozalarga gol kiritilganida emas, balki 1-bo‘lim (taym) tugagach, jamoa o‘yinchilari o‘z darvozalarini almashtirishga qaror qilingan.

Hakamlar maydonga 1880-1881 - yillarda tushishni boshlashgan. 1891-yildan hakamga ikki yordamchi hakam maydonda yordam bera boshlagan.

Halqaro miqyosdagi birinchi futbol o‘yini rasman 1873-yilda Angliya va Shotlandiya futbol terma jamoalari o‘rtasida bo‘lib o‘tgan. O‘yindagi o‘yinchilarning maydondagi joylashuvi hozirgidan ancha farq qilgan, lekin ularning soni hozirgidek bo‘lgan, ya‘ni 11 kishidan oshmagan. Angliya terma jamoasi safida 7 nafar o‘yinchi hujumda, 2 nafari yarim himoyada, 1 ta himoyachi va 1 ta darvozabon bo‘lgan. Shotlandiya terma jamoasi quyidagi tarkibda maydonda o‘ynagan: 6 nafar hujumchi, 2 ta yarim himoyachi, 2 ta himoyachi va 1 ta darvozabon bo‘lgan.

1896-yilda futbol o‘yini Olimpia o‘yinlari tarkibiga kiritilgan bo‘lsa-da, ammo 1908-yildagina futbol o‘yinlarining rasman olimpia o‘yinlari tarkibiga kiritilishi tasdiqlangan.

1904-yilda Halqaro Futbol Federatsiyasi (FIFA) tashkil etildi. Hozirda bu federatsiyaga 150 dan ortiq mamlakat a‘zo. FIFA bilan bir qatorda 1954-yil Yevropa futbol ittifoqi UEFA tashkil etilib, hozirgi vaqtda 40 dan ortiq mamlakatlar UEFAga a‘zo.



UEFA boshqaruvi ostida quyidagi kubok o'yinlari o'tkaziladi, Yevropa chempionlar kubogi (1956-yildan), kubok egalari kubogi (1961-yildan), Yarmarka kubogi (1958-yildan, hozirda UEFA kubogi deb ataladi).

UEFA boshqaruvi ostida quyidagi musobaqalar o'tkaziladi:

1. Yevropa mamlakatlari chempionati kuboklari
2. Kubok egalari kubogi
3. UEFA kubogi

1930-yildan boshlab har to'rt yilda bir marotaba Jahon Futbol chempionati, 1958-yildan esa Yevropa futbol chempionati o'tkazilib kelinmoqda.

Futbol bo'yicha jahon chempionatlari					
№	Yil	O'tkazilgan joyi	Chempion	Finalist	Final o'yin hisobi
1	1930	Urugvay	Urugvay	Argentina	4:2
2	1934	Italiya	Italiya	Chehoslovakiya	1:1 (qo'sh.vaqt. 2:1)
3	1938	Frantsiya	Italiya	Vengriya	4:2
4	1950	Braziliya	Urugvay	Braziliya	2:1 *
5	1954	Shveysariya	Germaniya	Vengriya	3:2
6	1958	Shvetsiya	Braziliya	Shvetsiya	5:2
7	1962	Chili	Braziliya	Chehoslovakiya	3:1
8	1966	Angliya	Angliya	Germaniya	2:2 (qo'sh.vaqt. 4:2)
9	1970	Meksika	Braziliya	Italiya	4:1
10	1974	Germaniya	Germaniya	Gollandiya	2:1
11	1978	Argentina	Argentina	Gollandiya	1:1 (qo'sh.vaqt. 3:1)
12	1982	Ispaniya	Italiya	Germaniya	3:1
13	1986	Meksika	Argentina	Germaniya	3:2
14	1990	Italiya	Germaniya	Argentina	1:0
15	1994	AQSh	Braziliya	Italiya	0:0 (0:0, pen. 3:2)
16	1998	Frantsiya	Frantsiya	Braziliya	3:0
17	2002	Koreya/ Yaponiya	Braziliya	Germaniya	2:0
18	2006	Germaniya	Italiya	Frantsiya	1:1 (0:0, pen. 5:3)

19	2010	JAR (Janubiy Afrika Respublikasi)	Ispaniya	Gollandiya	1:0
* 1950-yilgi jahon futbol chempionatida final uchrashuvi bo'lib o'tmagan, chunki eng zo'r to'rta futbol terma jamoalari, musobaqaning oxirida bir guruhga joylashib qolgan. Musobaqadagi «Oltin» kubokning taqdiri Braziliya va Urugvay terma jamoalari o'rtasidagi o'yinda hal bo'lgan.					

1.4. Hozirgi kunda futbol o'yini

Futbol (inglizcha football “foot” – oyoq, “ball” – to'p) – bu jamoaviy sport o'yini, maqsad esa raqib jamoa darvozasiga to'p kiritishdan iborat. Bu maydonda, qo'l (harakati)dan tashqari, individual to'pni olib yurish, sheriklarga to'pni oshirib berish, bosh va boshqa tana a'zolari harakatidan foydalaniladi. O'yinda ko'p gol urgan jamoa g'olib hisoblanadi.

Bugungi kunda futbol dunyodagi sport turlari ichida eng birinchisidir. XX asrning ikkinchi yarmida milliy terma jamoalarning har xil turnirlarda qatnashishi bilan xalqaro musobaqalarda klub jamoalari orasida mashhurligi ortdi. Ayollar futboli rivojlanishi ham ko'zga ko'rinmoqda. Ko'plab mamlakatlarda “mini-futbol”, “sohil futboli” va har xil futbol turlari rivojlanib madaniylashtirilmoqda.

FIFA ma'lumotlariga ko'ra, 2001-yilda dunyoda 250 mln. kishi futbol o'ynagan (bu yer yuzidagi taxminan har bir 25 yashovchisidan biridir). Ularning, jumladan 20 mln. kishisini ayollar tashkil etadi. Dunyoda 1,5 mln ta jamoa ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lib, 300 ming ta professional klublar mavjuddir. Mamlakatlar miqiyosida ko'rib chiqadigan bo'lsak, futbol bilan shug'ullanayotgan mamlakatlar ichida birinchi o'rinda AQSh (taxminan 18 mln kishi, shu jumladan 40% ayollar tashkil etadi), Indoneziya (10 mln kishi), Meksika (7,4 mln kishi), Xitoy (7,2 mln kishi), Braziliya (7 mln kishi), Germaniya (6,2 mln kishi), Bangladesh (5,2 mln kishi), Italiya (4, mln kishi), Rossiya (3,8 mln kishi).

Futbolning nomlanishi.

O'yinning to'liq nomi (inglizchada *association football*) “oyoq to'ppi-si” deb, boshqa oyoq bilan o'ynaladigan o'yinlardan farqlash uchun o'y-lab topilgan edi. Ayrim davlatlarda futbolni “sokker” (inglizcha Soccer) deb atashadi. Bu so'zni amerika futboli bilan chalkashtirmaslik uchun

ishlatiladi. Ayniqsa, regbi sport turidan futbol sport turini ajratish uchun. 1880-yilda futbolning qisqartirilgan shakli “Soccer” nomi paydo bo‘ldi va hozirda ingliz tilida gaplashadigan mamlakatlarda “Soccer” nomi ancha ommalashgan.

Boshqa tillarda futbolning aytilishi.

Angliyada - “*football*”, Rossiyada - futbol, Portugaliyada - “*futebol*”, ayrim hollarda tarjimasi germanlarda - “*Fußball*”, greklarda - “*ποδόσφαιρο*”, fin tilida - “*jalkapallo*”, karel tilida - “*jalgamiäččy*”, yoki bo‘lmasa “tepmoq”, yoki “oyoq” so‘zi o‘zagi olinib ishlatiladi. Masalan, italyanchada futbol - “*calcio*”, xorvat tilida - “*nogomet*” deb aytiladi.

“Futbol” – xalqaro nom sifatida FIFA va Halqaro Olimpiya Qo‘mitasi tomonidan ishlatiladi.

Futbol turlari.

Futbol o‘yinining o‘yinchilar soni kam bo‘lgan juda ko‘p turlari bor. Shular jumlasiga futdablbol (2 ta to‘p bilan o‘ynaladi), qumloq futboli (qumda o‘ynaladi), futzal (AMF), va futzal (FIFA) (mini-futbol) (sport zal ichida maxsus qoplamali yerda (polda) o‘ynaladi), botqoq futboli (asosan botqoqli joylarda o‘ynaladi), fristaylli futbol (bunda turli xil fint va aldanchi harakatlar namoyish etiladi).

II BOB. FUTBOLNING SAN'ATDA TUTGAN O'RNI

2.1 Futbol va rangli tasvir

Pablo Pikasso Atletlar va sportchilarning – «Futboldagi o'yinchi» kartinasida o'yinchilarning ilk ko'rinishlari qadimgi Gretsiyaga borib taqalib, bu ko'rinish baquvvat insonlar ko'rinishida aks ettirilib, ne-onlissitsizm ruhida bo'lgan. Lekin, bu futbolga tegishli emas edi, futbolda asosiy e'tibor xatti-harakatga berilgan bo'lib, bu futbolning ilk mashhurlik pillapoyalarida italyan modernistlarini o'ziga jalb qildi. Futbolga bag'ishlangan asarlarda haqiqatdan chekinishni kuzatish mumkin edi, bunda Jorj Brak, Robert Delone, Fernan Leje va Pablo Pikassoning «Futboldagi o'yinchi»sini misol qilish mumkin. Futbol sahnasini va Jon Jakob sahnasini o'z asarlarida rassomlar ham aks ettirishga harakat qilishdi. Jon Jakob «Korner» asarining yaratilishida Parijdagi Olimpiada turniri (1924-y) turtki bo'ldi.

Polotnoda ikki hujumchi boshiga kelayotgan to'pni qaytarishga harakat qilayotgan darvozabon aks ettirilgan.

Rassom Aleksandr Dayneka (1924-yil) futbolni chizardi (yozardi). U o'yinni o'n minglab hayajonlangan mushtariylar, minglab tengdoshlari kabi bilardi, sevardi. «Har gal o'yin meni chizishga undar va har gal uni chizishga bo'lgan ishtiyoqim oshib borardi. O'ntalab rasm chizar, yoqmagan, o'zim istaganchalik chiqmagan eskizlardan birini uloqtirar edim. Men chizgan eskizlarimda o'zim istagan va bilgan kompozitsiyalar yo'qligini bilib oldim».

Men yangi plakat jihatlarini o'nlab topardim va tarixiy qarashlarsiz ishlashga majbur edim. Oxir oqibat ko'pchilikni hayajonlantiradigan, qiziqtiradigan tomonni chizishga qaror qildim. Mening iste'dodimga omad keldi. Futbol o'yini meni mustaqil tilga ega bo'lishga undadi.

Keyinchalik atrofda ola-bula kiyingan kiyimlar (teplushkalarda yurishi, o'liklarni aravalarda olib yurishgani – fuqarolar urushi bo'layotganini keyinchalik anglab yetdim. Ko'pchilik rassomlar oddiy narsalarni chizishardi: fransuzcha peyzaj «dam v krinolinax»). Ular ko'rayotgan narsalarini emas, balki o'sha yillarda umuman daxlsiz bo'lgan narsalarni (yozishardi) chizishardi.

Keyinroq rasmlar plakatlarga nisbatan inqilobiy yuzini topa boshladi.

Futbol voqeasi bu— alohida oddiy voqea.

«Men haqiqiy rassomchilik san'ati, qaysiki barcha tengqurlar savoliga javob beruvchi, yangi g'oyaviy masalalarni hal qiluvchi va shu bilan bir-



galikda shu davrning yuqori cho‘qqisida turuvchi asarni ko‘rmaganman” derdi (A.A.Dayneka).

Urushdan keyingi birinchi o‘n yillik san’at ahli tomonidan futbolga bo‘lgan qiziqish bilan ifodalanadi va bu davr san’at ahlining futbolga qiziqqan davrining eng baland cho‘qqisi bo‘lib, bu qiziqish 1970–1980

- yillarda butunlay so‘ndi (bu davrda stadionlar ayrim davlatlarda zo‘ravonlik markazlariga, qatl joylariga aylanganligi sababli tushkunlik kuzatildi). Keyingi o‘n yillikda futbol o‘yini jahonni qamrab oldi va unga ulkan pullar oqib keldi, buning natijasida ayrim mamlakatlarda futbol san’ati rivojlandi. Bu orada rassom Mark Vallinger ijodi rivojlandi va u «Manchester Yunayted» (Angliyadagi yetakchi jamoa) bayrog‘ini DNK spirali shaklida o‘z rasmida tasvirlagan va futbolchilar haykallari (Eysebio Lissabonda, Stenli Metyuzu Xenli shahrida, Moskvada esa Lev Yashin) qo‘yildi.

2.2. Futbol va adabiyot

Badiiy adabiyotda sportga unchalik e‘tibor berilmay, uni holat sifatida to‘liq qamrab olmagan va futbol ham xuddi sportning o‘zi kabi adabiyotda unchalik yoritilmagan, lekin shunday bo‘lsa ham, turli jahon tillarida futbol haqida chop etilgan badiiy adabiyotlar sanoqli bo‘lib, buning asosiy sababi futbol yuksak madaniyat atributiga tegishli emasligi uchundir. Ko‘zga ko‘rinarli futbol haqidagi badiiy adabiyotlar quyidagilardir:

• «Hujum himoyadan boshlanadi»	— Akmal Azizxo‘jaev (O‘zbekiston)
• «Futbol ertaklari»	— Aldir Shlee (Braziliya)
• «Futbol kasalligi»	— Nik Xornbi (Angliya)
• «Xem va futbol»	— Nalinakshi Bxattcharya (Indiya)
• «Futbol fabrikasi»	— Djon King (Angliya)
• «Biz boryapmiz»	— Dugi Brimson (Angliya)
• «Ingliz kasalligi»	— Bill Buford (Angliya)
• «Ingliz yo‘li»	— Djon King (Angliya)

Futbol hakamlari, o'yinchilar, murabbiylar tomonidan yozilgan avtobiografik mavzudagi futbol asarlari mavjud bo'lsa-da, lekin ularni ko'zga ko'rinarli asarlar qatoriga qo'shib bo'lmaydi, negaki ular ham sub'ektlikdan holi emas. FIFA (halqaro futbol federatsiyasi) 1957-yilda futbolga oid eng yaxshi adabiy asar uchun mukofot ta'sis etgan edi, lekin ikki yildan so'ng bu fikrdan voz kechildi, sababini esa halqaro maydonda bu g'oyani amalga oshirish qiyin ekanligi, deb izohlashadi.

1.3. Futbol va teatr

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, dramaturgiyada futbol mavzusida asar yaratilmagan. Futbolga bag'ishlangan birinchi jiddiy asar ingliz tilida bo'lib, u «O'yin» deb nomlanib, muallifi Garold Brikxauza (1913-y) edi. Unda futbolchilar pulga sotilmaydigan va o'ta mahoratli sportchilar sifatida tasvirlanadi. Futbol rivojlangan mamlakatlardan biri bo'lgan Braziliyada ham Angliyada bo'lgani kabi futbol mavzusida unchalik jiddiy asarlar yaratilmagan. Diqqatni o'ziga tortadigan asarlardan biri «Marhuma» bo'lib (muallifi – Nelson Rodrigues 1953-yil), uning mazmuni shundan iboratki, ayoli vafot etgan er xotini unga xiyonat qilganini bilib, aza uchun to'plangan pulning hammasini futbolga harajat qiladi.

Ko'zga ko'rinarli holatdan biri bu – 1967-yilda Piter Terson tomonidan yozilgan pesa «Zigger Zagger» bo'lib, o'sha paytlarda endi kuch va ommaviylik tusini olayotgan, o'ziga hos futbol bezorilari muammosiga bag'ishlangan edi.

Oxirgi yillarda faqatgina Artur Smit va Kris Inglandning «Gari Lineker bilan kecha» nomli asarini tilga olish mumkin, unda 1990-yil Italiyadagi futbol bo'yicha jahon chempionatining yarim finalida Angliya jamoasi alamlri mag'lubiyati aks-sadosining guvohi bo'lishingiz mumkin.

1.4. Futbol va kinematografiya

Futbol mavzusi kinematografiyada unchalik keng yoritilmagan, buning asosiy sababi futbol atrofida sodir bo'ladigan turli futboldagi ziddiyatlar va his – tuyg'ularni kinematografiya anjomlari orqali to'liq tasvirlab berish qiyindir. Lekin shunday bo'lsa ham, bir nechta futbol mavzusidagi filmlarni ta'kidlab o'tish mumkin. Ular quyidagilar:

- «Darvozabonning 11 metrlik jarima oldidagi qo'rquvi» - rejissyor Vim Vendrs 1972-yil. Filmda asta – sekinlik bilan inson qadri tushayotgani haqida hikoya qilinadi;

- «Kubok finali» - rejissyor Yoran Riklis (1982-yil). Asarning asosiy g'oyasini ikki qahramon tashkil etadi: asir yahudiy va uni tutqunlikda

ushlab turgan terrorchi, u Falastinni ozod qilish tashkiloti a'zosi. Asardagi voqealar 1982-yildagi jahon chempionati paytida sodir bo'ldi. Ular binokl orqali jahon chempionatida italiyaliklarning hujumchisi Paolo Rossining Braziliya darvozasiga to'p kiritganini, final o'yinida esa italyanlarning Germaniya darvozasiga so'nggi kiritgan to'pini ko'rishadi, vaholanki, isroillikning bu o'yinga chchizimchatasi bor edi va eng og'ir paytda u chiptani qo'lida g'ijimlardi;

- «Guvohnoma» - rejissyor Filip Devis (1995-yil). Asar voqealari Angliyada sodir bo'ladi. To'rt politsiyachiga futbol o'yinlaridagi bezori «Itlar» guruhiga a'zo bo'lib kirish va ular faoliyatini o'rganish vazifasi yuklatiladi. Politsiyachilar qiladigan birinchi ish bu bezorilar bilan piva-xonalardan birida tanishish bo'lib, keyinchalik ikkinchi divizion jamoasi «Shedvel» bilan mehmonda bo'ladigan o'yinga ketishga qaror qilishadi. Filmdagi asosiy qahramonlardan biri (Djon Trevel) mehmondagi o'yin-larning birida futbol bezorilari janjalida ishtirok etishga qaror qiladi va bunga qiziqib, uyi va ishida muammolar paydo bo'la boshlaydi;

- «Kubok» - rejissyor Kaneste Norbu (1999-yil). Film haqqoniy vo-qealarga asoslangan bo'lib, unda Tibet bolalarining tarixi aks ettirilib, ularning ota-onasi katta pul va farzandlarining jonini xatar ostiga qo'yib, Himolay tog'lari bag'ridagi Chok-Ling monostirida diniy ta'lim olish uchun yuborishgan. Bolalarga esa qo'shni qishloqqa borib, 1998- yilgi jahon chempionati final uchrashuvini ko'rish uchun borish taqiqlangan, lekin taqiqlangan meva eng shirindir;

- «Bekxemday o'yna» — rejissyor Gurinder Chadxi (2002-yil). Filmda Britaniyadagi madaniy qarama-qarshilikka ijobiy tomondan qarashga harakat qilingan hind muhojirlarining qizi ota-onasi bilan ziddiyatlarni boshidan kechirib, AQShga ketish uchun futbol grantini yutib faoliyatini professional o'yinchi sifatida boshlaydi;

- «Futbol fabrikasi» —rejissyor Nik Lov (2004-yil). Film ikki asosiy qismga bo'lingan: futbol atrofidagi zo'rvonlikni tasvirlash va zamonaviy Angliya jo'g'rofik shaharlarining hayotini tasvirlab berishdir. Filmdagi chin hodisalar futbol madaniyatini o'z ichiga olganligini ko'rsatsa, boshqa tomondan uning tan olinmaganligi, lekin ushbu voqealarni rad etib bo'lmasligi tasvirlagan;

- «Gol» — rejissyor Denni Kenon (2005-yil). Film AQShda istiqomat qilayotgan meksikalik muhojir haqida hikoya qiladi. Butun bo'sh vaqtini film qahramoni futbol o'ynash bilan o'tkazadi va iqtidori tufayli mashhur futbol agentining nazariga tushadi va bu futbol agenti bor imkoniyatini ishga solib, uni Angliya premer ligasi klubi «Nyukastl Yunayted» jamoasi mutasaddilari tomonidan qabul qilinishiga erishib, film qahramoni shon-

shuhrat vasvasasi va yulduzlik kasalligidan eson-omon o'tib olib, Yevropa chempionlar ligasi finali (Yevropa mamlakatlarida futbol bo'yicha eng nufuzli musobaqa)da raqib darvozaga to'p kiritadi;

- Sobiq Ittifoq filmlaridan «Darvozabon» — rejissyor Sergey Timoshenko (1936-yil). Bu filmda Anton Kadidov ismli darvozabon haqida hikoya qilinadi, bu darvozabon jamoadoshlari bilan manmanlik kasalligiga uchragani sababli raqib jamoasiga o'tib ketadi, ammo keyinchalik yana o'z jamoasiga qaytadi;

- «Mening eng yaqin o'rtog'im general Vasiliy Iosif o'g'li» filmini rejissyor Viktor Sadorovskiy 1991-yili suratga olgan. Bu film tarixiy faktga asoslangan bo'lib, asar qahramoni havo kuchlarining harbiy boshlig'i Vasiliy Stalinning eng hurmat qiladigan sportchisi bo'lib, bu film o'sha paytdagi sport olamida va mamlakat hayotida sodir bo'lgan voqealarni aks ettiradi.

III BOB. FUTBOLNI TASHKIL ETUVCHI IJTIMOIY HOLAT

3.1. Derbi

Derbi – futbolda, odatda, bir shahar yoki viloyat sha'nini himoya qilayotgan futbol klublarining o'zaro to'qnashuvlari nazarda tutiladi.

Misol uchun:

Bunyodkor	—	Paxtakor	O'zbekiston
Boka Xuniors	—	River Pleyt	Argentina
Penyarol	—	Nasonal	Urugvay
Flamengo	—	Vasko da Gama	Braziliya
Milan	—	Inter	Italiya
Fenerbaxche	—	Galatasaray	Turtsiya
Manchester Yunayted	—	Manchester Siti	Angliya
Arsenal	—	Tottensexem	Angliya
Liverpul	—	Everton	Angliya
Reyndjers	—	Seltik	Shotlandiya
Bavariya Myunxen	—	Myunxen 1860	Germaniya
Gvadalaxara	—	Amerika	Meksika
Real	—	Barselona	Ispaniya
Spartak	—	TsSKA	Rossiya
Dinamo	—	Shaxtyor	Ukraina

Bu klublar o'rtasidagi o'yinlarni **derbi** deb atashimiz mumkin. Yoki biror-bir mamlakat futbol chempionati o'yinlarida tarixiy raqiblar bo'lib kelgan ikki kuchli jamoalarning ro'baro' kelishiga ham **derbi** deyiladi, masalan Real – Barselona.

“**Derbi**” so'zining kelib chiqishi haqida turli farazlar va nazariyalar bor, bir nazariyaga ko'ra bu so'z qirollikda bo'ladigan futbol bayrami o'tkaziladigan o'yin nomidan, Angliyaning derbi haqidagi ikki jamoa o'rtasidagi to'qnashuvdan kelib chiqqan ekan; yana bir farazga ko'ra, bir joyning ikki jamoasi o'rtasidagi o'zaro to'qnashuvning nomi **derbi** deb atalishiga sabab; ot choptirish chavandozlikdagi bir musobaqaga atab qo'yilgan bo'lib, unga 1780-yil 12 graf Derbiga asos solgan bo'lib,

ishqibozlardagi keskinlik va shijoat bu hozirgi kundagi derbilardan hech qolishmaganligi uchun ham shunday deb atalgan ekan. Yana bir faraz, Derbi soʻzi “Liverpool” va “Everton” oʻrtasidagi toʻqnashuvlardan keyin paydo boʻlgan deyildi, lekin bu taxmin haqiqatdan yiroqroqdir. Otchoparlik musobaqalari “Liverpool” klubi tashkil topgandan ancha oldin boʻlib oʻtgan. Boshqa manbalarga koʻra, “Derbi” soʻzi aynan shahar nomidan kelib chiqqan boʻlib, diniy bayram maslenitsa paytida odatiy futbol oʻyini mashhur boʻlib, bu musobaqa odatda tartibsiz harakatlanishga asoslangan va unga butun shahar aholisi jalb etilardi. Oʻyinning maqsadi toʻpni Derbi shahrining ikki qismi: shimolidagi monaxinlar istiqomat qiluvchi cherkovga va janubdagi qatl doriga olib borish kerak edi, koʻp hollarda oʻyin baxtsiz hodisalar bilan yakunlanar edi. Oʻyinning koʻp qismi Deuent daryosi boʻyida oʻtib, bu oʻyinni kuzatgan frantsuz sayyohi 1829-yilda bu haqida shunday deb yozgan: «Agar inglizlar shuni oʻyin deb atashsa, unda kurash deb ular nimani atashini faraz qilishga ham odam qoʻrqadi». Oʻyin shunchalik shijoatli va asabiy ediki, uni hozirda Derbi oʻyinlarga taqqoslash mumkin.

Derbini quyidagi tamoyillar boʻyicha guruhlariga ajratishimiz mumkin:

- ijtimoiy (aristokrat klublari va ishchilar klublari oʻrtasidagi derbi uchrashuvlar);
- hududiy (bir viloyatni himoya qilayotgan klublar kim eng kuchli ekanligini maydonga tushib aniqlaydi);
- siyosiy (siyosiy dunyoqarashdan bir-biriga zid boʻlgan futbol jamoalarining oʻzaro toʻqnashuvi);
- tarixiy (bu holat, asosan, tarixda bir klub yoki jamoa ikkinchi jamoani magʻlubiyatga uchratgan koʻp yillar oldin shu jamoa oliy ligadan 1 - ligaga tushib qolgan boʻladi va butun ayb yutib chiqqan jamoaga va uning muxlislariga yuklanadi).

Ayrim hollarda derbi oʻyinlar ruhiga diniy va siyosiy qarash, kuch qoʻshishi mumkin. Diniy derbilar qarama-qarshiligiga Shotlandiyadagi ikki klubni koʻrishimiz mumkin. Masalan: biri «Seltik» va ikkinchisi «Reyndjers» klublari. Bu ikkala klub oʻrtasidagi derbi diniy qarama-qarshilik – katolik va protestantlar qarama-qarshiligida oʻz aksini topadi.

Boshqa bir derbi Turkiya mamlakati Istanbul shahrining ikki nomdor klublari oʻrtasida boʻlib oʻtmoqda. Bular “Galatasaroy” va “Fenerbaxche” klublaridir.

Bu ikki klubning o‘zaro o‘yinlari derbiga aylanishining asosiy sababi, jug‘rofiy joylashuvidir. Ya’ni “Galatasaroy” klubi Istambul shahrining Yevropa qismida joylashgan bo‘lsa, “Fenerbaxche” klubi esa shaharning Osiyo qismida joylashgan, lekin har ikkalasi ham Istambul shaxrining jamoalaridir.

Tarixiy derbilarga esa Gollandiyaning «Ayaks» va «Feyenord» klublari orasidagi o‘yinlarni **tarixiy derbi** o‘yinlari deyish mumkin. Bu (derbi) termin mamlakatlar terma jamoalari o‘rtasidagi o‘yinlarga nisbatan qo‘llanilmaydi.

Afsuski, Angliyadagi Derbi shahrining o‘zida “Derbi” o‘yini yo‘q, chunki ushbu shaharda bitta jamoa bor – “Derbi Kaunti”, ilgari bu shaharda “Derbi” o‘yini bor edi, “Derbi Kaunti” va “Derbi Midlend” klublari o‘zaro to‘qnashishardi, lekin keyinchalik bu ikki klub birlashtirildi. Hozirda ushbu “Derbi” klubining eng yaqin raqibi “Nottingham Forest” klubi hisoblanib, u Nottingham shahri sharafini himoya qiladi.

Roman tillariga mansub davlatlarda shijoatli va ehtirolarga boy o‘yinlarga nisbatan «klassiko» so‘zini qo‘llashadi. Eng ko‘zga ko‘rinadigan mamlakatlardagi derbi o‘yinlar:

O‘zbekiston

- * Paxtakor – Bunyodkor (Toshkent shahri derbisi)
- * Nasaf – Mash’al (Qashqadaryo viloyati derbisi)

Angliya

- * Chelsi – Arsenal
- * Tottenxem Xotspur – Arsenal (shimoliy London derbisi)
- * Chelsi – Fulxem (g‘arbiy London derbisi)
- * Vest Xem – Milluoll (sharqiy London derbisi)
- * Manchester Yunayted – Manchester Siti (mankunians derbisi)
- * Manchester Yunayted – Liverpool (shimoliy – g‘arbiy derbi)
- * Manchester Yunayted – Lids Yunayted (atirgullarning qarama–qarshiligi)
- * Everton – Liverpool (Mersisayd derbisi)
- * Aston Villa – Birmingem

Avstriya

- * Avstriya – Rapid

Argentina

- * Boka Xuniors – River Pleyt (Argentinaning superklassikosi – El Superclasico)
- * Independente – Rasing (Avelyanedning klassikosi)
- * Boka Xuniors – Independente
- * River Pleyt – Independente
- * Urakan – San-Lorenzo (Urakan - San-Lorenzo klassikosi)
- * Ferrokaril Oeste – Veles Sarsfild («gʻarbiy klassiko» – Buenos-Ayres gʻarbi klassikosi – Clasico del Oeste)
- * Estudiantes – Ximnasiya i Esgrima (laplat klassikosi – clasico Platense)
- * Nyuells Old Boyz– Rosario Sentral (Rosario klassikosi)
- * Belgrano – Taleres (Kordova klassikosi)
- * Kolon – Union – Santa-Fe shahar klassikosi (Santafesino klassikosi)

Belorussiya

- * Dinamo Minsk –MTZ-RChizimchaO (Minsk derbisi)
- * MTZ-RChizimchaO – Lokomotiv (Minsk derbisi)
- * Lokomotiv – Dinamo-Minsk (Minsk derbisi)
- * BATE Borisov – Dinamo-Minsk (Belorus derbisi)
- * Neman Grodno – Dinamo Brest (gʻarbiy derbi)

Bolgariya

- * TsSKA Sofiya – Levski
- * Botev – Lokomotiv (Plovdiva derbisi)

Braziliya

- * Palmeyras – San-Paulu (hayratga soladigan qirollar – Choque Rei)
- * Korintians – Santos (qora-oqlar konfrontatsiyasi – Confronto dos Alvi-negros), (Golead klassikosi – Classico das Goleadas), (tabu klassikosi – O Classico dos Tabus).
- * Korintians – Palmeyras (San-Paulu shtati derbisi, Paulista derbisi – Derby Paulista), (buyuk derbi – O Grande Derby).
- * San-Paulu–Korintians (Majestoso–Majestoso klassikosi)
- * Palmeyras – Santos (tinchlik klassikosi – Classico da Saudade).
- * Santos – San-Paulu (San-San – San-Sgo)

- * Ponte-Preta – Guarani (Kampinas shahri, Kampineyro derbisi – Derby Campineiro)
- * Vasko da Gama – Flamengo (millionlar klassikosi — Classico dos Milhxes)
- * Flamengo – Fluminense (Fla-flu – Fla-Flu)
- * Botafogo – Vasko da Gama (o‘rtoqlik klassikosi / Amizadi klassikosi Classico da Amizade)
- * Fluminense – Vasko da Gama (gigantlar klassikosi – Classico de Gigantes)
- * Botafogo – Fluminense (qarilar klassikosi Vovo klassikosi – Classico Vovf)
- * Flamengo – Botafogo (Rivalidadi klassikosi / Classico da Rivalidade)
- * Gremio – Internasonal (Gre-Nal – Riu-Grandi-du-Sul shtati va Portu-Alegri shahar asosiy klassikosi— Gre-Nal)
- * SER Kashias – Juventude (Kashias-du-Sul shahar klassikosi – Ka-ju – Ca-Ju)
- * Atletiko Mineyro – Kruzeyro (Minas-Jerays shtati Belu-Orizonti shahar asosiy klassikosi– Mineyro klassikosi / Atletiko qarshi Kruzeyroga – Atletico contra Cruzeiro)
- * Amerika Mineyro – Atletiko Mineyro (to‘dalar klassikosi – Classico das Multidxes yoki quyon xo‘rozga qarshi – Coelho versus Galo)
- * Atletiko Paranaense – Koritiba (Parana shtati va Kuritiba – Atletiba shahri asosiy klassikosi – Atletiba)
- * Baiya – Viktoriya (Salvador va Baiya shtati asosiy klassikosi – Ba-vi – Ba-Vi)
- * Fortaleza – Seara (Seara shtati va shahri asosiy klassikosi Fortaleza — Klassiko-rey – Classico-Rei)
- * Nautiko – Sport Resifi (Resifi shahri va Pernambuku shtati klassikolaridan biri – barcha klassikolar klassikosi – O Classico dos Classicos)
- * Sport Resifi – Santa-Kruz (Resifi shahar va Pernambuku shtati klassikolaridan biri – xalq klassikosi – O Classico das Multidxes)
- * Santa-Kruz – Nautiko (Resifi shahar va Pernambuku shtati klassikolaridan biri – emotsiyalar klassikosi – O Classico das Emozxes)

Germaniya

- * Borussiya Dortmund – Schalke 04 (Rursk derbisi)

- * Gamburg – Verder (shimoliy derbi)
- * Myunxen 1860 – Bavariya Myunxen (Myunxen derbisi)
- * Gamburg – Sankt-Pauli (Gamburg derbisi)
- * Gannover 96 - Ayntraxt Braunshveyg (Quy-i-sakson derbisi)

Daniya

- * Brondbyu – Kopengagen (New Firm)

Italiya

- * Internatsionale – Milan (Milan derbisi)
- * Latsio – Roma (Rim derbisi)
- * Yuventus – Torino (Turin derbisi)
- * Sampdoriya – Djenoa (Fonar derbisi)

Ispaniya

- * Real – Barselona (El klassiko)
- * Real – Atletiko (Madrid derbisi)
- * Barselona – Espanol (Kataloniya derbisi)
- * Sevilya – Betis (Sevilya derbisi)
- * Deportivo – Selta (galisiy derbisi)
- * Valensiya – Vilyarreal (levantiy derbisi)

Kolumbiya

- * Independente Santa-Fe – Milonarios (Kolumbiyaning poytaxt klassikosi)
- * Atletiko Nasonal – Independente Medelin (Montanya klassikosi)
- * Amerika Kali – Deportivo Kali (Asukarero klassikosi)
- * Onse Kaldas – Deportivo Pereyra – kofe klassiko (Clasico del Eje Cafetero)
- * Amerika Kali – Atletiko Nasonal
- * Milonarios – Atletiko Nasonal
- * Amerika Kali – Milonarios
- * Atletiko Nasonal – Deportivo Kali
- * Independente Santa-Fe – Amerika Kali

Meksika

- * Amerika – Gvadalaxara (Meksika superklassikosi)
- * Amerika – Krus Asul – Mexikoning ikki eng kuchli titul sohibi klublari (Xoven klassikosi)
- * Amerika – UNAM Pumas – Mexikoning eng taniqli ikki klubi (Kapitalano klassikosi)

* Nekaksa – Atlante – tarixiy qarama-qarshi klublar, xar bir klub o‘zining joylashuvini almashtirib, Mexikodan boshqa shahriga, «Nekaksa» hozirgi kunda Aguaskalenteseda o‘ynashmoqda, «Atlante» – Kankuneda (Meksikaning eski klasikosi)

* Monterrey – UANL Tigres – Monterrey shahrining ikki klubi (Regiomontano klasikosi)

* Gvadalaxara – Atlas – Gvadalaxara shahri klasikosi (Tapatio klasikosi)

Niderlandiya

* Ayaks – Feyenoord (Gollandiya derbisi)

* Sparta – Feyenoord (Rotterdam derbisi)

Paragvay

* Olimpiya – Serro Porteno (Paragvay superklassikosi)

* Olimpiya – Libertad (qora va oqlar klasikosi)

* Olimpiya – Guarani (eski klassiko)

Polsha

* Visla – Krakoviya (Krakov derbisi)

* Legiya – Poloniya

Portugaliya

* Benfika – Portu (Portugaliya klasikosi)

* Sporting – Benfika (Lissabon derbisi)

* Boavishta (Portu futbol klubi) – Portu (Portu shahri derbisi)

Rossiya

* Spartak – Dinamo (Sobiq Ittifoqning qadimiy derbisi hisoblanib, birinchi chempionatdan boshlangandan to hozirgi kungacha davom etmoqda)

* Spartak – TsSKA (1990–2000-yillarda mutaxassislar va ishqibozlar tomonidan Rossiyaning eng dolzarb derbisi etib belgilandi)

* TsSKA – Lokomotiv

* Spartak – Lokomotiv

* Zenit – Spartak (Rossiyada doimiy ravishda ikki shahar, ya’ni Moskva va Sankt-Peterburg o‘rtalarida doimiy raqiblik kuchayishi munosabati bilan Zenit va Spartak futbol klublari ham doim raqiblik ruhida o‘yinga tushadilar)

* Zenit – Dinamo

* Zenit – TsSKA

- * Lokomotiv – Torpedo
- * Rostov – SKA (Rostov derbisi)
- * Chernomorets – Kuban (Krasnodar klublari qarama-qarshiligi)
- * Rubin – Krilya Sovetov (eng yosh qarama-qarshiliklardan biri)
- * Tom – Sibir (Sibir derbisi)
- * Rusichi – Dinamo (Bryansk) (Gʻarbiy derbisi)
- * FK Nijniy Novgorod – Volga (Nijniy Novgorod shahri derbisi)
- * SKA-Energiya – Luch-Energiya (Uzoq Sharq derbisi)
- * Rubin – KAMAZ (Tatar derbisi)
- * Saturn – FK Ximki (Qiyi Moskva derbisi)
- * Kuban – FK Krasnodar (Yangi Krasnodar derbisi)
- * Salyut – Avangard Kursk (Qora er derbisi)
- * Alaniya – Spartak-Nalchik (Kavkaz derbisi)
- * Amkar – Ural (Ural derbisi)
- * Sokol – Salyut (Saratov derbisi)

Ruminiya

- * Dinamo – Styaua

Serbiya

- * Partizan – Tsrvena Zvezda (abadiy derbi)

Turkiya

- * Galatasaray – Fenerbaxche (Turk derbisi)
- * Galatasaray – Beshiktosh (Stambul derbisi)
- * Beshiktosh – Fenerbaxche (Stambul derbisi)

Ukraina

- * Dinamo – Shahtyor (Ukraina derbisi)
- * Dinamo – Arsenal – Obolon (Kiev derbisi)
- * Dnepr – Metallist
- * Dnepr – Metallurg (Zaporoje) (Dnepr derbisi)
- * Metallurg (Donetsk) – Shahtyor (Donetsk derbisi)
- * Karpati – FK Lvov (Lvov derbisi)
- * Tavriya – Chernomorets (Janubiy derbi)
- * Dnepr – Krivbass (Dnepr viloyati derbisi)
- * Metallurg (Donetsk) – Metallurg (Zaporoje) (metallurgchilar derbisi)

- * PFK Sevastopol – Tavriya (Krim derbisi)
- * Stal – Zarya (Lugan viloyati derbisi)
- * Karpati – Metallist (Lvov va Xarkov shaharlari o‘rtasidagi derbi)
- * Zirka – PFK Aleksandriya (Kirovograd viloyati derbisi)

Urugvay

- * Penyarol – Nasonal (Urugvay superklassikosi) – jahon futboldagi asosiy derbilaridan biri)
- * Danubio – Defensor Sporting –Urugvayning eng yaxshi klublari
- * Serro – Rampla Xuniors –Montevideo derbisi
- * Montevideo Uonderers – River Pleyt – Belya Vista – Montevideo derbisi
- * Serrito –Rentistas –Montevideo derbisi
- * Sentral Espanol –Miramar Misiones – Montevideo derbisi
- * Penyarol – Serro
- * Rasing – Feniks

Frantsiya

- * Olimpik Marsel – Pari Sen-Jermen

Xorvatiya

- * Dinamo Zagreb – Xayduk Split

Chexiya

- * Slaviya– Sparta

Chili

- * Kolo-Kolo – Universidad de Chili (Chili superklassikosi)
- * Universidad de Chili – Universidad Katolika (universitet klassikosi)

Shotlandiya

- * Aberdin – Dandi Yunayted (New Firm)
- * Aberdin – Inverness Kaledonian Tistl (shimoliy-sharqiy derbi)
- * Gamilton Akademikal – Moteruell (Ianarkshir derbisi)
- * Dandi Yunayted – Dandi (Dandi derbisi)
- * Dandi Yunayted – Sent-Djonston (teysayd derbisi)
- * Seltik –Reyndjers (Old Firm)
- * Xibernian – Xart of Midlotian (Edinburg derbisi)

3.2. Futbol dasturchalari

Futbol dasturchalari o'zi nima? U odatda unchalik katta bo'lmagan, kam sonli bir yoki bir nechta futbol o'yinlariga bag'ishlangan nashr hisoblanib, odatda unda jamoalar tarkibi, hakamlar brigadasi, turnir jadvalining ma'lumotlari beriladi va oldingi o'yin natijalari berilib boriladi. Futbol dasturchalarida mezbon va mehmon jamoalarining o'zaro o'yinlar natijalari, tarixiy xronikalar, futbol to'g'risidagi fikrlar, hakamlar va hokazolar haqida ma'lumot beriladi.

Futbol dasturchalarining bosilib chiqish an'anasi XIX asr oxirida Angliyada paydo bo'ldi. Rossiyada birinchi futbol dasturchalarining paydo bo'lishi F.K «Nadejda» o'yinida 22-avgust (4-sentyabr) 1909-yilga borib taqaladi.

Birinchi dasturchalar asosan varaq – afisha ko'rinishida bo'lib, o'z ichiga juda oz miqdordagi ma'lumotni olgan. Ayrim istisnolar umumiy qoidalarni isbotlar edi, ya'ni 1933-yildagi futbol dasturchasi sobiq Ittifoq va Turtsiya o'rtasidagi uchrashuvga bag'ishlangan bo'lib, to'la ma'lumotli va keng qamrovli futbol dasturi hisoblangan edi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng futbol dasturchalari nafaqat keng qamrovli balki, keng hajmli bo'lishni boshlaydi. Sobiq Ittifoqda futbol dasturchalarining rivojlanishiga turtki bo'lgan yana bir holat muassasalar va tashkilotlar o'rtasida futbol musobaqalarining tashkil etilishiga sabab bo'ldi. 1946-yil 1-avgustda Leningradning «Dinamo» va Belgradning «Partizan» klublari orasidagi halqaro o'yinida birinchi marta uch rangli futbol dasturchasi chiqarildi. Futbol dasturchalarining rivojlanishiga hissa qo'shmagan, ya'ni amalga oshmagan o'yin Yevropa kubogi, sobiq Ittifoq va Ispaniya (29-may 1960-yilga belgilangan edi) o'yini uchun o'sha yillarda noodatiy jurnal hajmida o'ziga hos bezaklar, ya'ni turli xil rasm va suratlar keng ma'noli matnlar bilan ajralib turgan edi.

Oxirgi yillarda futbol dasturchalarini tayyorlashda Moskva «Dinamo» klubining matbuot markazi ishlari diqqatga sazovor, u muxlislarni rang-barang rasmlar, mamlakat futbol o'yinlari tarixi, ulkan xalqaro futbol musobaqalari haqida keng qamrovli ma'lumot berib bordi. 70-80 - yillar Barnaul, Dnepropetrovsk, Zaporozhe, Kiev, Rostov-na-Donu, Saransk, Chelyabinsk, Ekaterinburg shaharlari ham futbol dasturchalarining sifati va ularga bezak berish usullarining yaxshilanishi bilan diqqatga sazovor edi.

Futbol dasturlarini nashrdan chiqaruvchi mualliflarni yaxshiroq ishlashga da'vat etuvchi, ularga kuch bag'ishlovchi omillardan biri 1981- yildan buyon sobiq Ittifoqda futbolni tashviqot qiluvchi futbol qo'mitasi tomonidan yilning "Eng yaxshi futbol dasturchasi" nominatsiyasining ta'sis etilganligidadir.

Futbol dasturchalari broshurkalardan iborat bo'lib, odatda mezbon jamoa tomonidan raqib jamoa bilan bo'ladigan o'yindan oldin chiqarilib, unda ikki jamoa tarkibi, jamoadagi oxirgi xabarlar, ikkala jamoaning o'zaro o'tmishdagi ro'baro' kelgan uchrashuvlar tahlili, o'yin oldidan o'yin haqidagi fikrlar beriladi. Agar terma jamoalar orasidagi o'yin muhim o'yin bo'ladigan bo'lsa, futbol dasturchalarining hajmi kattalashadi.

3.3. Futbol va gazeta

Ko'pgina jurnal va gazetalar millionlar o'yiniga bag'ishlangan bo'lib, quyidagilari eng mashhurlaridir:

- Har haftada chiqadigan «Futbol» jurnali
- «Buyuk klublar» jurnali

«France Football»

La Gazzetta dello Sport

Kicker

Four-four-two

O'zbekistonda quyidagi futbol haqida gazetalar nashr etiladi :

1. "Futbol ekspress"
2. "O'zbekiston futboli"
3. "Asr futboli "
4. "Buxoro sporti"
5. "Futbol info"
6. "Sport + Futbol"
7. "Inter futbol"

3.4 Fan – zinlar

Fan-zinlar – bu vaqt-vaqti bilan chiqib turadigan *futbol nashridir*.

Fan-zinlar odatda futbol mavsumining oxirida chiqadi (muxlislarning hisobidan chiqariladi) va unda mavsum davomida jamoaning o'z uyida va mehmonda o'ynalgan o'yindagi ko'rsatgan natijalaridir. Boshqa jamoalarning o'zaro muxlislari bilan janjallashgan natijalari singari ma'lumotlar fan-zinga kiritilgan bo'ladi.

Fan-zinlar turli xil shaklda, varaqda, A4 formatda va bukletlarga o'xshagan bo'lishi (rangli yoki oq-qora rangda) mumkin.

Har bir o‘zini hurmat qiladigan ishqibozlar harakatida futbolda o‘zining matbuot nashriyoti mavjud. Moskva qizil-oq «Spartak»chilarda ikkita shunday matbuot nashriyoti bor. To‘g‘ri uchinchi nashriyotni ochish harakatlari ham bo‘ldi, lekin u juda qimmat va o‘zini oqlamaganligi sababli № 2-3 - soni chiqib, keyin chop etilmay qo‘yildi. Lekin birinchi, ikki nashri o‘z faoliyatini davom ettiryapti. Birinchisi “Gladiator” nashri bo‘lib, yaqinda uchinchi soni bosilib chiqdi, to‘rtinchi soni bosilish arafasida. Bu holat, albatta, ushbu klub muxlislarini xursand qiladi. Demak, nashr to‘xtatilmaydi va chop etilishi davom etadi, degan umid bor. Ikkinchi nashr «ULTRAS NEWS» bo‘lib u Flint’s Crew (ya’ni Flint ekipaji) brigadasi tomonidan 1995-yildan beri chop etiladi. Oxirgi sonining muqaddimasida shunday so‘zlar bor: UN (ULTRAS NEWS).

“Spartak” klubi ishqibozlarining norasmiy nashriyoti shunday bo‘lsa ham, u ishqibozlarning rasmiy qarashlarini ifodalaydi”. Muallif va qahramonlar qizil-oq ranglilarning ishqibozlaridir. Mart oylarida bu nashrning sakkizinchi soni chiqishi kerak. Bir klubning ikkita nashri borligi bu sog‘lom raqobat bo‘lib, sohani rivojlantiradi va har bir nashr o‘zining sonini yaxshiroq va sifatli qilishga harakat qiladi.

3.5. Futbol bannerlari


Futbol bannerlari – o‘zi yasab olgan transparantlar, ular futbol o‘yini vaqtida yoyiladi va mehmonlar yoki mezbonlarni olg‘a intilishga da‘vat etuvchi yozuvlar bo‘ladi. Muxlislar bannerlarning kattaligi va undagi ijod qilish orqali bir-birlaridan o‘tib ketishga harakat qiladilar, bu holat OAV (ommaviy axborot vositalarining) xabarlarida «Banner urushi» nomi bilan ataladi. Banner urushida hatto josuslik ham bo‘ladi, tarixda derbi uchrashuvi “Latsio”–“Roma” (ikkalasi ham Rimning klubi) klublari uchrashuvida “Roma” klubining ishqibozlari quyidagi bannerni ishlatishga, ya’ni – «Roma bir zum to‘xta va teppaga nazar sol, u yerda faqat xudo va sen!», – degan yozuv rimliklarni qo‘llab-quvvatlagan bir paytda “Latsio” klubi ishqibozlari bunga: «Ha, to‘g‘ri, u yerda faqat xudo bor va u ko‘k kiyimdadir» («Latsio» klubining an’anaviy kiyimi ko‘kdir!!!), – degan bannerni tayyorlab javob berganlar.

Bannerlardan foydalanish asosan Janubiy Amerika va Yevropa mamlakatlarida rivojlangandir.



3.6. Futbolda tatuirovka

Futbol tatuirovkalari - ayrim futbol muxlislari o‘z jamoalariga sodiqlikni bildirish uchun o‘z tanalariga turli xil tasvirlarni tushuradilar. Ularda jamoa tamg‘a gerbi, ishqibozlar guruhining belgisi, jamoa ko‘zmunchog‘i vazifasini bajaruvchi jism, jins, hayvonlar aksi, hodisalar va boshqalar aks ettirilgan qisqa yozuv bilan hamohang bo‘lib, jamoa kiyimi qaysi rangda bo‘lsa, tatuirovkaga ham o‘sha rang beriladi. Yevropada futbol bezorilari o‘rtasida “kelt hoji” tasviri ommalashgan bo‘lib, ko‘p hollarda ingliz ishqibozlari (fanat)ning badanida quyidagi qisqa yozuvlarga duch kelishingiz mumkin. Masalan; «A.S.A.V» yozuv, ya’ni «hamma milit-ionerlar yomon»dir degan ma’noni bildiradi.



Hozirgi zamonaviy futbolda kimnidir nima bilandir lol qoldirish mushkuldir. Ammo ko‘pchilikdan ajralib turish uchun keng tarqalgan usul bor – bu (tatuirovka) tanaga rasm solishdir. Hozirda tatuga bo‘lgan intilish futbol muhitida ham asta-sekinlik bilan tarqalmoqda.


Tanaga rasm chizmoq qadim davrlarda ilohiy (magiya) xususiyatlar bilan amalga oshirilardi. Ilgari (tatuirovka) tanaga rasm solish qariyalarni turli kasalliklardan, jangchilarni o‘limdan, dengizchilarni turli to‘fonlardan asrardi. XVIII asrda ingliz dengizchilari (orqalarida raspyatiya chizi-

shardi) ularni tana urishidan asraydi, deya surat yaxshi ovchini, qo‘rqmas jangchini boshqalardan ajratib turardi. Xuddi shunday sportda ham tana surati sportchining ijtimoiy mavqeini ko‘tarardi, uning ichki dunyosi haqida izoh beradi.

Tanaga surat chizish ishtiyoqmandlari haqida to‘xtalsak. Tatuirovkalar soni bo‘yicha Milanning «Inter» klubi vakili Marko Materatsi so‘zsiz birinchilar qatorida turadi. Uning tanasini qariyb ko‘p qismi turli rasmlar bilan o‘ralgan. Balki u tatu-salon bilan qo‘shni turar?

Uning bu tatuirovkalari asosan uning uchun eng zarur narsalarga: oilasi va futbolga bag‘ishlangan, futbolchi tanasidagi tatuirovkalarning ko‘pchiligida «Men Danielaga tegishliman», qizlarning ismini ko‘rishingiz mumkin, raqam – 23, Jahon chempionati kubogi, inter bilan g‘oliblik chempionati sanasi, shuningdek, kaltakesak, ilon vikining, ajdar, kapalaklar, gul, yurak va h.k. larni ham ko‘rish mumkin.

Italiyaliklarning tatuirovkalariga, haqiqiy raqobatchi fransuz futbolchisi Djabriil Sisse bo‘lishi mumkin. Tatu saloniga u ko‘p qatnagan bo‘lsa-da, lekin futbol Djabriilning gavdasini tugatilgan surat bilan qoplagan. Bu shunday tatuirovkaki, u futbolchining ko‘krak, qorni va qo‘llarini qoplagan.



Uning kuragida, ko‘kragidagi tatuirovka ikki qanot tasviridan iborat. Djabriil Sissening bo‘ynidagi tatuirovkada yuqoridan pastga chiziq

bo‘ylab 5 harfdan iborat yozuv bor. Nima yozilganini anglash qiyin emas. Bu albatta, “Ilona” – qiz bola ismi bo‘lib, albatta Sisse qizining ismidir!



O‘z tatuirovkalarini namoyish etish va ko‘z-ko‘z qilishni yoqtirgan, ingliz mushtariylarining sevimli futbolchisi Devid Bekxem hamdir. Uning butun tanasi bo‘ylab turli tatuirovkalarni ko‘rishingiz mumkin. Umrbod sevgisini namoyish etish maqsadida Bekxem o‘z turmush o‘rtog‘i Viktoriya Devid nomiga chap qo‘lining ustki qismida sevgilisining nomini chizdirgan. Bu bilan u «The Real David Beckham» (Haqiqiy Devid Bekxem) videofilmi orqali yana bir bor izohlab, «Men bunday tatuirovkani

chizdirishni azaldan istagan edim. Faqat Viktoriya so‘zi inglizcha yozuvda chiroyli chiqmaydi deb o‘ylagan edim», – degan.

Ushbu tatuirovka ingliz ro‘znomalarining birinchi sahifalarida paydo bo‘lgan. Hindistonlik til mutaxassislari ushbu yozuvning 2 ta xatosi borligini tanqid qilib, uning har bir qismi 4 bo‘g‘inga bo‘lingan bo‘lib, hind tiliga tarjima qilinganda, «Viktoriya» degan so‘z yo‘q edi.

Bekxemning orqa tomoni (beldan yuqori)da birinchi o‘g‘lining ismi – «Bruklin», o‘ng qo‘lida – VII rim soni, Devid bu raqam ostida “Manchester Yunayted” klubida o‘ynagan. Uning kuraklari orasida 30 santimetrlik ayol kishining tanasi boshini egib, qo‘llari tushirilgan rasm chizdirilgan. Kimdir bu suratda boshqa ma‘noni ko‘rsa, Bekxem balolardan asrovchi farishta deb ta’kidlaydi. Undan so‘ng ikkinchi o‘g‘li tug‘ilgani munosabati bilan Bekxem yana bir «Romeo» yozuvi bilan bezaydi.

3.7 Futbol graffitlari va trafaretlari

Devoriy rasmlar – (graffitlar) futbol mavzusiga doir asosan Yevropaning Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Frantsiya mamlakatlarida ri-vojlaniib, asta-sekin davr o‘tishi bilan bu hodisa butun Yevropa qit‘asida keng tarqaldi. Odatda bu rasmlar taklifsiz, so‘rovsiz va tartibsiz ravishda, devorlarga chiziladi (klub rahbarlarining shahardan tashqaridagi hududda klubni kengroq, mashhur qilish maqsadida chizdirgan devor rasmlari bundan istisnodir).

Devor suratlaridan tashqari futbol olamida trafaretli rasmlar ham ishlatilib, uni odatda Yevropa mamlakatlarining metro bekatlarida yoki stadionlar atrofida ko‘rishingiz mumkin.

Trafaretli rasmlar graffitli rasmlarga qaraganda, ko‘proq urush janjal keltirib chiqarishga mo‘ljallangan bo‘lib, odatda uni azaliy raqiblarning g‘ashiga tegish uchun ishlatishadi.

“Graffit” (italyancha “graffiti” – qirilgan), o‘rta asr va qadimdan ma’lumot beruvchi, ilohiy, odatiy yozuvlar, bino va idishlar qirish orqali yozilgan yozuvlardir, deb ta’rif berishi entsiklopedik lug‘atga asosan bu unchalik to‘g‘ri ma’lumot emas.

Graffitlar hozirgi qarashda turmushda uchraydigan odatiy yozuvlar yoki **Graffitlar** – yashash usulidir.



Graffitlar – yoshlarning ekstrimal ijod namunasi bo‘lib, yoshlar madaniyatini yo‘q qilish uning aslo iloji yo‘q. Chunki, san’atning turi va uni namoyon etish usuli sifatida u egiluvchan, hamma narsani qamrab oladigan va tsenzuradan ham graffit usulida chizilgan rasmlar, shakllar va ko‘rinishlarni yana va yana qurilish maydonchalarida, garajlarda, metro

bekatlarida, avtobus bekatlarida va boshqa binolar devorlarida paydo bo‘laveradi. Ularni ta’qiqlash orqali yo‘q qilib bo‘lmaydi. U o‘ziga hos anonim bo‘lib, ko‘z ilg‘amaydigan dialog shaklida yozuvchining boshqa guruh a’zolari bilan suhbatini aks ettiradi.



Graffitlar muammolari odatda taxallus, laqab, raqamli kod yoki belgilar orqasida yashiringan bo‘ladi. Graffitlar oddiy rasmlar yoki yozuvlarda aks etishi mumkin, lekin odatda u bir xil rangli yoki rangbarang murakkab rasmdan ham iborat bo‘ladi.

Graffitlar - mualliflarini “yozuvchi”lar deb atashadi. Savol tug‘iladi, nima uchun rassomlar deb emas? Diqqat bilan qaraydigan bo‘lsak, asli graffitlarning kelib chiqishi unda so‘zlarni biror bir narsaning ustiga yozish demakdir. Shunday ekan, graffit rasm emas, balki harf va so‘zlar majmuasidan iboratdir. Ilgari graffitni qo‘l ostida nima bo‘lsa, o‘sha bilan yozilgan: qalam, pichoq, bo‘yoq, bo‘r, hatto barmoqlardan ham shishada graffit yozish uchun ishlatilgan.

Graffit ham boshqa san’at turlarida bo‘lgani kabi uzoq va mashaqqatli mehnat va mashqni talab qiladi va graffit madaniyatiga rioya qilmasdan o‘zboshimcha yozuvchilarga “o‘yinchoq” laqabini berishadi. Shunday ekan, bu laqabni olmaslik uchun Graffit yozuvchi malaka va tajribaga ega bo‘lishi kerak.

Graffit yozuvchilar o‘z mukammal asar namunalarini garajlar, uylar, omborxonalar, metrolar, temir yo‘l vagonlari, avtobus, tramvay devorlariga yozishadi. O‘z fikrini namoyon etishning eng zo‘r yo‘li balonchali kraska bo‘lib, uni ishlatish dezodorantni ishlatgandek osondir. Uni olib yurish qulay, tezligi bo‘yicha ham, chizish bo‘yicha ham, rangni berishi va mavjud hamma sirtlarni yopish uchun etishi bilan qoniqarlidir. Rang chiqadigan uchini almashtirib kerakli shakl va hajm berishlari mumkin.

Graffit o‘zida kub texnikasini mujassamlashtirgan bo‘lib, odatda uni o‘qish uchun qiyinchilik tug‘dirib bu o‘ziga hos qandaydir sirni beradi.

Ko‘pchilik davlatlarda graffit yozuvini yozish qonun bilan taqiqlangan bo‘lib, bu holatda ham graffit ishlatilishi “mumkin” va “mumkin bo‘lmagan” joylar ham bor.

Bir guruhga shunday devorlarni ko‘rsatishimiz mumkinki, mahalliy hokimiyat ularni to‘laligicha graffitichilar hukmiga topshiradi, buning asosiy sababi, shahar ko‘rkini buzib turgan ayrim binolarga jozibali va rangli shakl berib, ular “Six ham kuymasin, kabob ham” maqomiga amal qilib, o‘z xayrixohliklarini bildirishadi, chunki bu ayrim shaharlar uchun foydali harakatdir. Lekin, Taqiqlangan narsa doim shirindir, deganlaridek, oy yorug‘ini yarim kechada graffitichilar o‘z ishlariga sho‘ng‘ib “ta’qiqlangan” devorlarda ham o‘z ijod namunalarini yozib, tasavvurlariga erk berishadi.

Graffitichilar sport, sevgi izhori, ajoyib dastxat, turli xil voqea-hodi salarga qarashlar, reklama, siyosiy-ijtimoiy qarashlarni mujassamlashtirgan bo‘lishi mumkin.

Graffitchilarning boshqa bir turiga gangsterlar graffitlarini kiritish mumkin. Bunday graffitchilar namunasi faqat katta shaharlarning devorlarida uchrab, u odatda graffit yozish san'atidan farq qilib, unda shifrlangan so'zlar, kodlar, ism va familiyaning bosh harflari aks etgan qattiq kalligrafiya qoidalariga amal qilinadi. Bezori guruhi vakillari graffitlardan o'z hududlarini belgilash uchun va bu hududning daxlsizligini buzgan insonni qanday jazo kutishi haqidagi ogohlantirishni o'z yozuvlarida aks ettirishadi.

Bu graffit turi tatuirovka san'atidan bevosita alohida bo'lib, o'ziga hos yopiq shahar tizimini shakllantiradi.

Uchinchi graffit turi bu "Nyu-York" usuli yoki "xip-xop" bo'lib, u graffit an'nalaridan kelib chiqib, 1970-yillarda Nyu-York metrolarida vujudga kelgan bo'lsa-da, bu usul Amerikadagi ko'pgina katta shaharlarning maydonlarini qoplagan.

Shunday "zamonaviy" devorlar va yerto'lalar bo'lib, ularda odatda ma'lum bir g'oyaga ishonganlar to'planib, o'z g'oyalari uchun hamma narsaga tayyor bo'lishadi. Bu yerto'lalarning devorlarida fashizm yoki mahalliy hokimiyatga qarshi bo'lgan yozuvlar tasvirlangan bo'lib, bu yozuvlarning aks ettirilishi kishilarda nafrat va ko'ngil aynishi tuyg'usini uyg'otadi. Bu tasvirlarni rasmiy ravishda chizish ancha qiyin, agar mabodo biror-bir "begona yozuvchi" bu yerto'lalarga kirib qolsa va nimanidir devorlarga chizsa, o'sha joyning graffitchilari uni topib kamida do'pposlatib berishadi.

Graffitlar Nyu-Yorkda 1960-yillarning oxirida paydo bo'lgan. Vashingtonda Xaytsmen nomli bir o'spirin yigit birinchi bor o'z taxallusi "TAKI" va ko'cha raqami 183 ni butun Manxetten shahri bo'ylab yozib chiqdi.

Birinchi chiqqan "yozuvchilar" ularning yozuvini biror kishi tuchunadimi yo'qmi, ularni bu qiziqtirmagan, lekin vaqt o'tishi bilan mashhurlikni orzu qilgan 100 ga yaqin "och" yozuvchilar devordagi yozuvlarni o'qiy olishlariga alohida e'tibor berib, buning hammasi atrofda g'ilarning diqqatini o'ziga jalb qilishdan iborat bo'lgan. Bu san'atning rivojlanishi haqida 1984-yilda film suratga olingan (Style Wars (1984)), (urushlar usuli).

"Wild style" (yovvoyi usul) nomli 1982-yilda suratga olingan filmning rejissyori Charli Axerna bo'lib, filmning asosiy qahramoni poezd-

larga graffit yozuvlarni ishlatgan. Lekin, bu asar tomoshabinlar tomonidan unchalik ma'qullanmadi, bir necha muddatdan so'ng ekran yuzini rejissyor Sten Latanning "Beat Street" (ko'cha urishi) filmi egalladi, unda graffit san'ati haqida hikoya qilinadi.

Yer osti poezdlari Nyu-York o'smirlari uchun o'z ijodlarini namoyon etish uchun zo'r jism bo'ldi. Yosh o'spirinlar kech botishi bilan poezdlar saqlanadigan binolarga kirib, vagonlarni bezashar, ertalab esa poezdlar ularning ijod namunalari ko'z-ko'z qilishar edi.

Graffitlarning tarqalishi tezlashdi. U keng atrofga tarqaldi va tez orada ommalashib ketdi, endi ular faqat maktab va hojatxonalar devorlari bilan cheklanib qolishmadi. Yer osti poezdlaridagi tasvirlarni Nyu-Yorkning ko'p joylarida ko'rish mumkin edi. 1975- yilda tomoshabinlar bir vagonni egallagan "polotno" ga guvoh bo'lishsa, bir yildan so'ng esa butun bir tarkibning graffitlarga bo'lganliklarini ko'rishlari mumkin edi. Vagonlar orasida juda ham mashhur bo'lgan vagonlar eski turdagi oq vagonlar va tekis vagonlar bo'lib, eng "noqulay" poezdlarga esa bruklin vagonlari kirardi, chunki ular (gofrirovanlangan) temirdan bo'lgan. Lekin, shashtidan qaytishni istamaganlar uchun tunda ham ijod uchun imkon topilardi. Albatta, bu san'at turi mahalliy hokimiyat vakillariga yoqmas edi va bu to'g'risida gap bo'lishi ham mumkin emas edi. Maqsad "taqiqlangan" degan so'zda emas, ayrim no'noq graffistlar san'atning emas, balki bezorilik yo'lidan borishlari edi.

1980-yillarga kelib mahalliy hukumat graffistlarni yer ostidan siqib chiqardi. Ko'cha rassomi "Futura-2000" ta'kidlaganidek: "Dunyoga o'z san'atini ko'z-ko'z qiladigan yosh zehnlari ijodkorlar borki, ularning yaratgan asarlari MTA yuvish mashinalari tomonidan yuvilib yo'q qilinyapti".

Graffitlarga bag'ishlangan birinchi "Usullar jangi" filmini aytib o'tish joizdir. Zamonaviy ko'cha san'ati rivojlangan bir paytda, bu urushdagi asosiy va oddiy kurash yo'llaridan bir raqib guruh tomonidan chizilgan graffit ustidan o'z graffit tasvirini tushirish yoki bo'lmasa yana ham oddiy yo'li bu graffit ustidan yo'g'on krest shaklida ikki chiziq tortishdir.

Bir paytlar Nyu-Yorkda hatto TSO "the cross outs" (inglizcha "o'chirib tashlash") guruhi faoliyat yuritgan, nomiga qaraganda, kimligidan qat'iy nazar hammaga qarshi urush olib borgan. Hozirda bu yo'sinda masalani hal qilish bolaning qilgan ishi bilan barobardir. Hozirgi kunda o'zaro munosabatlarga oydinlik kiritishning ikki yo'li bor: o'zaro raqobatlasha-

yotgan ikki tomon ma'lum vaqt ichida (bir necha soatdan bir kungacha) bir devorni graffit bilan "to'ldirish"lari kerak. Kimning graffiti eng chiroyli deb topilsa, o'sha jamoa g'olib deb topiladi. Boshqa bir sinovning asosiysi sifat emas, balki sondir. Har ikki jamoachiga shahardagi ma'lum bir hudud beriladi va qaysi bir jamoa o'z maydonini graffitlar bilan tez to'ldirsa, o'sha jamoa g'olib deb topiladi. Shartning bajarilishi va g'olibni aniqlash uchun boshqa bir graffist yoki jamoa taklif etiladi. Yutuq haqida musobaqa boshlanishidan oldin kelishib olinadi. Odatda yutqazgan jamoa raqibiga yutuq sifatida turli xil bo'yoq va shunga o'xshagan narsalarni berish orqali haq to'laydi. Gohida u devorlarda o'z ismini yozish huquqidan mahrum etilishi mumkin yoki nomiga unga jismoniy jazo ko'riladi, ya'ni jazolanadi.

Bunday marosim jazodan ko'ra muhimroqdir. Turli xil haydashlar va taz-yiqlar tufayli vaqtida ko'pgina nyu-yorklik yer osti graffistlari Yevropa davlatlariga qochishga majbur bo'lishgan. Futbol ishqibozi bo'lgan italiyalik yoshlar bu "san'at"ni bag'rikenglik bilan qabul qilganlar.

Hozirda futbol stadionlarida, vokzallarda futbol shaykasidagi ho'kiz tasvirini ko'rib, unda shunday so'zlarni o'qishingiz mumkin: "Milan – rasvo mollar".

Polsha va Chexiya davlatlarida devorlarni bo'yash avjiga chiqqan. Berlinda esa graffit yozish o'ziga hos an'anaga aylangan. Ya'ni balog'at yoshiga yetgan har bir o'spirin o'ziga bir taxallus tanlaydi va bu taxallus toki uni bir necha marta eng ko'zga tashlanadigan va xavfli biror joyga shu taxallusni yozishmasa, u kuchga kirmaydi.

Berlinda graffitlik shu darajada rivoj topganki, u yerda maxsus graffit salonlari bo'lib, har bir istagan graffist o'z yozuvlar namunasini osib chiqishi mumkin yoki biror bir kishi graffitga buyurtma berishi ham mumkin. Har bir sayyoh Finlyandiya yoki Shvetsiya davlatlari territoriyasini poezdga kesib o'tayotgan paytda Skandinaviya peyzajiga chiroy berib turgan graffitlarga guvoh bo'lishi mumkin. Yaponiyada graffitlar ko'rinishi ularning sovuqligi, xiraligi va lekin gohida tasavvurga boyligi bilan ajralib turadi. "O'z usulini namoyish etishning xilma-xil yo'llari bor,– deydi britaniyalik graffit ustasi Chu-asosiysi u chin dildan va did bilan qilinganligidadir". U o'zini kompyuter o'yinlari dizaynini yaratish ustasi sifatida, o'ziga hos rivojlanish va graffitlar taraqqiyotini AQSh dan Buyuk Britaniyaga keltirilgandan so'ng boshidan kechirdi. Britaniya politsiyachilari ko'cha rassomlarini odatiy, kam ta'minlangan, qarovsiz qoldirilgan oila farzandi deb qarashsa, ko'pchilikning fikricha, bun-

day farzandlar kompyuter dizaynerligida omadi chopgan kishilarga aylanmoqda. Bunday bo'lishida, albatta, ikki xil qarash bor, nima yaxshi-yu, nima yomon ekanligi turli xil qarashlardan kelib chiqadi. Hamma vaqt ham graffit uchun qamoqqa olinganlar ko'pchiligi jazolardan, ya'ni ko'priklar va metro-larda paydo bo'lish huquqidan mahrum etilmaydilar. Hozirgi kunda yoshlar orasida graffit san'ati oxirgi o'rinda turadi, desak xato bo'ladi. Ular, ya'ni yoshlar yaratgan graffit ko'rinishlari klublar, diskoteka va jurnallarni bezashda ishlatilmoqda.

Germaniya, Daniya, Norvegiya kabi davlatlarning shaharlarida hatto graffitichilar studiyalari mavjud bo'lib, ular bino, avtobuslarda graffitlar tasvirini tushirib shu orqali pul ishlaydi, lekin graffit yozish bilan yashab bo'lmaydi, ko'pchilik graffitlar boshqa asosiy ishlarda ishlashadi va graffit ular uchun oddiy qiziqish (xobbi)day bir ishdir, uning orqasidan boyib ketib bo'lmaydi.

Klublar va ko'ngil ochar joylarni graffitlar bilan to'ldirish yaxshi, lekin graffitlar asosan ko'chada, devorlar va yerto'lalarda yoziladi. Graffitning tijorat manbaiga aylanishiga ko'pchilik yoshi ulug' graffitichilar qarshi bo'lishmoqda, ularning fikricha, graffit san'ati bu qonunga qarshi bo'lgan san'at va u qonun bilan hech qachon murosasiz ko'chasini tanlamasligi kerak.

3.8. Futbol bezorilari

Futbol bezorilari – jamoa tartibini buzuvchilar bo'lib, o'zlarining bu xatti-harakatlarini futbolga bo'lgan qiziqishlari va uning ashaddiy muxlislari bo'lganliklari bilan izohlashadi.

Odatda, futbol bilan bog'liq tartibsizliklar futbol o'yinlari oldidan yoki bo'lmasa ulardan keyin sodir bo'ladi. Harakatning aynan Angliyada 1846-yil Kingston shahri futbol o'yinidan keyin paydo bo'lishi tasvirda ko'rsatilgan.


Futbolning vatani Angliya mamlakati bo'lganligi sabab futbol bilan bog'liq bezoriliklar ham Angliyada paydo bo'lgan.

Futbol bilan bog'liq tartibsizliklar Angliyada XIX asrdan boshlab sodir bo'la boshlagan. Hali o'sha paytlardayoq jamoa o'yinchilari va jamoa muxlislari bir-birlari bilan o'zaro mushtlashishgan.

Lekin, hozirgi ko'rinishdagi futbol tartibsizliklari Tumanli Albion (Angliya mamlakati)da 1950-yillarda jonlangan.

Angliyaning katta shaharlaridagi ishchi yoshlar asosan shahar chetida istiqomat qilib, qimmatga tushadigan ko'ngil-ochar kechalar uchun mab-

lagʻlari boʻlmagani uchun eng qulay yoʻl qilib futbol oʻyinini tanlashgan. Sekin-asta ular oʻz jamoalarini oʻz stadionlarida qoʻllab-quvvatlashga qanoat qilmay, mehmon oʻyinlarda ham oʻz jamoalarini qoʻllab-quvvatlashni boshlashdi va shundan soʻng katta-katta futbol bezoriliklari sodir boʻla boshladi.



1960-yillarga kelib Angliya futbol tribunalarining qariyb 70% i oʻzini futbol bezoriligida tengi yoʻq deb tasavvur qilayotgan kishilardan tashkil topgan boʻlib, har ikkitadan bir oʻyin bezorilik va toʻqnashuvlar bilan yakunlanar edi. Futbol oʻyinlari paytida ayrim hududlarda yurish oʻta xavfli hisoblanardi. Har bir oʻyinda maʼlum bir maqsadlarni koʻzlab 400 dan 7000 gacha bezori ishqibozlar mehmondagi oʻyinlarga tashrif buyurardi.

Televideniyaning futbol oʻyinlarini ekran orqali uzatishi ham vaziyatni yengillashtirmadi. Ekran orqali beriladigan futbol bezoriliklari lavhalari futbol bezorilarni yanada ruhlantirardi va bezorilar oʻzlarini reklama qilardilar.

Matbuotda ham xuddi shu holat yuz beradi. Chop etiladigan suratlar kolleksiya qilinadigan boʻldi. Vaziyat hukumatning aralashuvini talab qilardi va oʻz navbatida hukumat bir qancha choralar koʻrdi.

Eng ashaddiyisi, futbol bezorilari uchun kartoteka ochilib, jamoat tartibini surunkali buzuvchi bezorilarni qamoqqa olishgan. Angliya polit-siyasi bezorilar guruhiga oʻz xodimlarini kiritib, bezorilarning har bir harakatidan ogohlantirishlari natijasida, ayrim bezori ishqibozlar umrbod

stadionlarga tashrif buyurish huquqidan mahrum etilardi. Oxir-oqibat stadionlar atrofida xavfsizlik video-kameralarning o'rnatilishi futbol o'yinlarida tartibsizliklarni oldini olish imkonini berdi.

1970 - yillar oxiri 1980 - yillar boshida Angliyaning ichki muammosi sekin-asta Yevropaning boshqa davlatlariga ham yoyila boshladi, buning asosiy sababi Angliya chempionatida muvaffaqiyatli ishtirok etayotgan ingliz klublari edi, ya'ni Yevropa ligasida ishtirok etayotgan ingliz futbol klublarini qo'llab-quvvatlash uchun minglab ingliz ishqibozlari o'z klublari bilan borishar edi. «Liverpool» klubining ishqibozlari, chet elda o'z klubini qo'llab-quvvatlash bo'yicha birinchi futbol ishqibozlari bo'lishgan.

Bu klub ishqibozlarining qo'llab-quvvatlashning «inglizcha» usul Yevropa klublarining ishqibozlarida ham havas tug'dira boshladi. Bu usul o'yin tugagandan so'ng, albatta, ishqibozlarning o'zaro janjal va to'polonlar bilan tugashi kerakligini o'z ichiga olgan edi. Oxir-oqibat 1985-yil Angliyaning «Liverpool» va Italiyaning «Yuventus» klublari orasidagi Belgiyaning «Eyzel» stadionida bo'lib o'tgan o'yinda, klublar ishqibozlari orasidagi ommaviy to'qnashuv sodir bo'lib, jami 39 ishqiboz bu to'qnashuvda halok bo'lgan.

UEFA (Yevropada futbol musobaqalarini o'tkazuvchi tashkilot) uch yilga barcha **ingliz** klublarini UEFA kubogi uchun bo'ladigan musobaqadan chetlashtirdi, «Liverpool» klubi esa besh yilga bu turdagi musobaqada ishtirok etish huquqidan mahrum etildi.

«Eyzel» stadionida bo'lib o'tayotgan o'yin to'g'ridan-to'g'ri efirga uzatilayotgani uchun o'yinda sodir bo'lgan fojeani butun dunyodagi milliardlab odamlar tomosha qilayotganliklari sababli bu «Eyzel fojeasi» nomi bilan butun dunyoga tarqaldi.

Hukumat bu voqeadan so'ng ishqibozlarga nisbatan qattiq choralar ko'rishga majbur bo'lib, ko'pgina bezori guruhlar faoliyatini to'xtatdi. Ayrim bezori guruhlar esa ekranda «Eyzel fojeasi»ni ko'rgandan so'ng o'zlariga ijobiy xulosa chiqarib, odatiy hayotga qaytishdi.

Asta-sekin futbol bezorilari Angliyada o'z faoliyatlarini pasaytirishiga bir necha sabablar bor edi. Bular quyidagilar:

1. Futbol bezoriliklari zamon talabidan chiqib, o'z faoliyatini yakunlab, yoshlar asosan boshqa turlarga bo'linib, ular orasida giyohvandlik avjiga chiqq boshladi.

2. 1989-yil 15-aprelda Sheffild shahrining «Xillsboro» stadionida bo'lib o'tgan fojia, ya'ni 96 nafar Liverpool ishqiboz to'polonda oyoq ostida qolib halok bo'ldi va bu inglizlar ongiga qattiq ta'sir qilib, stadionlarga

borishda odamlarda qoʻrquv paydo boʻldi. Bu stadionlarning maʼlum vaqt huvillab qolishiga sabab boʻldi.

Casuals (odatiy, ajralib turmaydigan) – zamonaviy «futbol atrofi» oʻziga hos usuldir. Bu usulning oʻziga hosligi shundaki, ishqibozlarning koʻzga tashlanmasligi, yaʼni ishqibozlarning kiyimi jamoa rangining kiyimida yoʻqligi, ularda belgi va boshqa atributlarning yoʻqligi, ularning olomondan ajratib koʻrsatishidir.

Oʻzaro qarama-qarshi boʻlgan jamoalarning toʻqnashuvlari asosan stadionlardan uzoqroqda, internet yoki telefon orqali ularning oʻzaro toʻqnashuv joyi oldindan kelishib olinardi.

Ingliz ijtimoiy tuzilishining oʻzgarishi futbolga ziyoli va oʻqimishli yoshlarning qiziqishi natijasida, futbol atrofidagi munosabatlarning sir tutilishi ularning tartibli boʻlishiga olib keldi. Oʻtkaziladigan tadbirlar bir necha hafta oldin rejalashtiriladi va har bir daqiqa hisobga olingan boʻldi, axborot urushlari olib boriladi, yolgʻon xabarlar tarqatilib, huquqni muho-faza qiluvchi organlarni chalgʻitishardi.

Inglizlarni xursand qiluvchi hodisa, Yevropa davlatlarida boʻladigan terma jamoa va klublar oʻyini boʻlgan boʻlsa-da, lekin 1993 yili Gollandiyadan 1100 ingliz ishqibozlarining haydab chiqarilishi inglizlarni oʻz ehtiroslarini bosishga majbur qildi.

Oxirgi yillarda futbol bezoriligi kabi muammo Sharqiy Yevropa mamlakatlari: Rossiya, Polsha, Ukraina, Bolgariya, Serbiya, Xorvatiya mamlakatlarini ancha-muncha qiynab qoʻydi.

Futbol ishqibozlari bezoriligining rivojlanishi sobiq Ittifoqda bevosita mehmonda oʻyinlarning oʻtkazilishi bilan bogʻliq boʻlgan. Oʻz klubining mehmondagi oʻyinlariga birinchi boʻlib «Spartak» klubining ishqibozlari bezoriliklarni boshlashgan. Tez orada ularga Moskvaning boshqa klub ishqibozlari ham qoʻshilishgan.

Kievning «Dinamo» va Leningradning «Zenit» klublarining muxlislari ham tez orada «Spartak» klubi bezorilari safiga qoʻshilishgan.



Harakatning sobiq Ittifoqda va sobiq Ittifoq davlati parchalangandan so'ng paydo bo'lgan mamlakatlarda rivojlanishi

1970-yillarga kelib bu harakat sobiq Ittifoqda kuch olaverdi, muxlislar safi kengayaverdi natijada ushbu muxlislarga mahalliy hokimiyat ham e'tiborini qaratdi.

KGB (Davlat xavfsizlik qo'mitasi) tashkiloti bu harakatni salbiy kuch sifatida qabul qilib, uni sovet hokimiyatiga qarshi deb baholadi. Bu harakatda KGB e'tiboriga tushgan talabalar talabalik safidan chiqarilardi, Oliy o'quv yurtlaridan, ishlaydigan yoshlar ishdan haydalardi va hokazolar. Shunga qaramay «Spartak» klubi muxlislari o'z klublarini mehmondagi o'yinlarda 300-400 kishi bo'lib qo'llab-quvvatlashga borishardi.

1980-yillarga kelib vaziyat keskin tomonga o'zgardi. Sobiq Ittifoq hukumati boshiga M.S.Gorbachyov kelishi bilan futbol ishqibozlariga ko'proq imtiyoz berildi. Bu jamoalar ularni qo'llab turuvchi muxlislarning borligi katta kuch beradi deb, ularning o'yinlarida ishtirok etishiga hayrixoxlik bildirib, muxlislarning stadionda bo'lishiga xohish bildirishdi. Harakat kengaya borib, ular ma'lum bir xususiyatlarni Angliya tajribasiga tayanib, ya'ni o'yin paytida qo'shiq kuylash, nutq so'zlash va eng asosiysi, Angliya chempionatlaridan sobiq Ittifoq futbol ishqibozlari o'zlashtirgan salbiy holat ingliz bezorilik xususiyatidir, ya'ni muxlislar o'rtasidagi zo'ravonlikning avjiga chiqishidir.

1987-yilga kelib futbol tarixidagi ulkan to‘qnashuv yuz berdi. Kievning «Dinamo» klubi va Moskvaning «Spartak» o‘yiniga taxminan 450 moskvalik ishqiboz Kievga yo‘l olib, Kievning markazida «Dinamo» klubining muxlislari bilan to‘qnashib, janjal keltirib chiqarishdi.

1990-yilda Sovet ishqibozlari o‘zlarini chet elda ham namoyon etish-di. «Spartak» muxlislari klubining muxlislari Pragada (Chexiya) mahalliy klub «Sparta» bilan janjal chiqarishdi va bu janjal stadion oldidagi ayovsiz mush-tlashish bilan yakunlandi.

1991-yilga kelib sobiq Ittifoqning parchalanishi bilan bir paytlar meh-monga borib kelib, u yerda janjal qilish mumkin bo‘lgan quyidagi klublar ichki chempionatdan ayro holda qoldi: Bular: «Dinamo» (Kiev), «Dinamo» (Tbilisi), «Dinamo» (Minsk), «Jalgiris» (Vilnyus) ularning o‘miga ichki chempionatda (Rossiyada) o‘rta miyona klublar shakllandi. Bu holat futbol bezorilarning ma’lum darajada pasayib ketishiga olib keldi.

Bu xol 1990-yillarning o‘rtalarigacha davom etdi va bundan ham uzoq davom etishi mumkin edi, lekin Sovet davlati parchalanishidan avval ham o‘z ishqibozlari bilan nom qozongan Moskvaning ikki klubi : FK «TsSKA» va FK «Spartak» sababchi bo‘ldi. Aynan shu ikki klubning ishqibozlari tashkil etgan bezori guruhlari Rossiya futbol hayotiga Yevropa miqyosidagi bezorilik guruhini yetkazib berdi. «TsSKA» ning «Red-Blue Warriors» (ya’ni qizil-ko‘k jangchilar) bezorilar guruhi va Spartakning «Flintning guruhi» nomli bezorilar guruhi shundaylardan biridir. Shu ikki guruh o‘zaro kurashi natijasida boshqa klublarda ham xuddi shunday bezori guruhlar rivojlandi.

1994-yilga kelib Rossiya mamlakati futbol chempionati boshlanishidan oldin har bir klubning qo‘llab-quvvatlaydigan o‘z bezori guruhlari mavjud edi.

Bu harakatning rivojlanishi 1995-yilda Moskvaning ikki klubi «Spartak» va «TsSKA»ning 200ga yaqin bezori ishqibozlari tartibsizliklar keltirib chiqishida davom etdi.

Bu voqeadan so‘ng huquq tartibot organlari qattiq kurash olib borib, ko‘rilgan jiddiy choralar natijasida ular bezori-guruh vakillarini hibsga olishgan. Shundan so‘ng futbol ishqibozlari bezorilari Angliyadagi futbol ishqibozlari bezorilari kabi «Casuals»ni, ya’ni odatiy kiyim kiyish usulini tanlashdi, ularning oddiy tinch ishqibozlardan ajratib bo‘ladigan xususiyati qolmadi. Ushbu harakat ommalashib, tez orada butun Rossiya bo‘ylab tarqalib, ayniqsa, Moskva shahrida keng rivojlandi.

1997-yilda Moskvaning ikki klubi oʻrtasida «TsSKA» va «Spartak» derbi uchrashuvida yana bir zoʻravonlik toʻlqini kuzatildi. 23-avgustda bu ikki klub ishqibozlari «Dinamo» oʻyingohida toʻqnash kelishdi va unda “TsSKA” klubi ishqibozlari bezorilarining qoʻli baland keldi. Bu voqealardan soʻng «Spartak» klubi ishqibozlari bezorilari keyingi oʻyinda mehmon boʻladigan klub «Zenit»ning ishqiboz-bezorilariga nisbatan jiddiy tayyorlanishi zarur boʻlib qoldi, chunki ularning obroʻyi ancha pasayib ketgan edi. Moskvaliklarning asosiy nishoni «Zenit» klubining ishqiboz-bezori “Nevskiy yoʻnalishi” nomli guruhi boʻlib, bu guruh mehmon klublarini Sankt-Peterburgga tashrif buyurganida qoʻrquv uygʻotar edi. Lekin «Nevskiy yoʻnalishi» guruhi mehmondagi oʻyinlarda hech qachon toʻqnashuvlar uyushtirishmagan edi. «Nevskiy yoʻnalishi» guruhining 500 ga yaqin vakillari metroning Shelkovskiy bekatidan chiqib, Lokomotiv stadioni tomoniga qator boʻlib yoʻl olganida 200 ga yaqin Moskva ishqiboz-bezorilari oʻzlarining dushmanlari boʻlgan «Nevskiy yoʻnalishi»ga hujum uyushtirishdi. Toʻqnashuv ayni avjiga chiqqanda huquq-tartibot vakillari yetib kelib, bezorilarga qarata oʻq otishdi. Toʻqnashuv tarqatilgach, 170 ga yaqin «Spartak» klubi ishqiboz-bezorilari hibsga olindi. Bu voqea ommaviy axborot vositalarida katta shovshuv bilan yoritilib, «Shelkovskiy jangi» nomini oldi.

Bir oy oʻtgach, «Spartak» va «TsSKA» klublari ishqiboz-bezorilari xokkey oʻyini musobaqasida ham toʻqnash kelib, toʻpolon koʻtarib janjal chiqarishdi, shundan soʻng huquq-tartibot organlari qattiq choralar koʻrishga majbur boʻlishdi.

Stadion va stadion atroflari qattiq nazoratga olindi, maxsus militsiya otryadi (OMON) har qanday futbol janjalini shafqatsizlik bilan tarqatardi va buning natijasi oʻlaroq, 1999-yil sentyabrda «Saturn» va «Spartak» klubining Ramenskdagi stadionida ikki klub bezori-muxlislari oʻrtasida jiddiy toʻqnashuv roʻy berdi va unda maxsus militsiya otryadi (OMON) tartibsizliklarni tarqatishda ishtirok etib vaziyatni chigallashtirdi va Rossiya futboli tarixida birinchi marotaba oʻyinning 15 minutga toʻxtatilishi bilan birga stadion infrastrukturasi ham jiddiy zarar yetkazildi.

1998-yilda Rossiya futbol ishqibozlari bezorilari yana oʻzlarini koʻrsatishdi. Yevropa chempionati – 2000-yilda Rossiya futbol terma jamoasining azaliy raqibi Ukraina futbol terma jamoasi bilan oʻynashi kerak edi. 2000 ga yaqin butun Rossiyadan yigʻilgan eng ashaddiy futbol

ishqiboz bezorilari Rossiya-Ukraina terma jamoalari orasidagi o'yindan oldin Kievga yetib kelishdi. Bundan oldin esa Rossiyadagi butun futbol ishqibozlari bezorilar guruhlarining yetakchilari o'zaro umumiy dushman (ya'ni Ukraina terma jamoasi muxlislari) bilan bo'ladigan uchrashuv uchun o'zaro sulh tuzishdi. Kiev shahridagi to'qnashuvlar o'yin boshlanishidan ikki kun oldin boshlanib, misli ko'rilmagan hajmda «Olimpiyskiy» o'yingohida katta janjal bilan yakunlandi.

Boshqa bir hodisa Belorussiyada yuz berdi. Belorussiya va Rossiya terma jamoalari o'rtasidagi uchrashuvda Minsk shahridagi bir necha futbol ishqibozlari bezori guruhlar vakillari tomonidan ruslarga qarshi qaratilgan chiqishlar va nutqlar yangradi va asosiy nishon rus futboli ishqibozlari bo'ldi. Natijada, Rossiya va Belorussiya terma jamoalarining muxlislari o'rtasida katta janjal kelib chiqdi va uni tarqatishda militsiyaning maxsus bo'linmasi ishtirok etdi. Shunday qilib, Rossiya mamlakatida rivojlanib borayotgan futbol ishqibozlari bezori guruhlari dunyo e'tiborini o'ziga jalb etdi. Rossiya futbol tarixida keyingi qonli voqealar 2002-yil 9-iyunda jahon chempionatida ishtirok etgan Rossiya terma jamoasining Yaponiya terma jamoasiga mag'lubiyatga uchrashi bilan bog'liqdir (1:0). Rossiya terma jamoasining mag'lubiyatidan g'azab otiga mingan minglab futbol ishqibozlari Moskva shahrining markazi Manejniy maydonida tartibsizliklar keltirib chiqarib, 1993-yildan beri kuzatilmagan voqealar ro'y berdi (avtomobillar yoqildi, magazin, ma'muriy binolarga o't qo'yildi va hokazolar). Hozirgi kunda Rossiya futboli atrofidagi voqealarni bevosita Angliya futbolidan olingan andoza sifatida qarashimiz mumkin, jamoalarni mehmonda ham o'z uyidagi o'yinlarida qo'llab-quvvatlaydigan bezori futbol ishqibozlar guruhi shakllangan, ammo angliyaliklardan farqli tomoni shundaki, Rossiya futbolida milliy tuyg'u ancha ustun bo'lsa-da, Buyuk Britaniyada esa bu tuyg'u 70-80 - yillarga nisbatan pasaygan.

Bir nechta futbol ishqibozlari bezori-guruhlardan eng mashhurlaridan biri «Zenit» FK (futbol klub) nikidir. Bundan tashqari quyidagi futbol ishqibozlari bezori-guruhlari mavjud: «Rostov» FK, «Kriilya Sovetov» FK, «Shinnik» FK, «Dinamo Bryansk» FK va «Rusichi» FK (Oryol shahri).

Biroq Rossiya futbol terma jamoasi atrofidagi ishqiboz-bezorilar guruxi tartibsizliklari to'xtamayapti. Ayniqsa, Bolqon orolidagi futbol terma jamoalari bilan bo'lgan o'yinlarda, futbol ishqibozlari bezorilari orasidagi to'qnashuvlar juda ham mashhurdir.

2006-yilda Rossiya va Makedoniya futbol terma jamoalari o'rtasida Skope shahrida bo'lib o'tgan o'yinlarda, futbol ishqibozlari bezorilari o'rtasidagi to'qnashuvlar shular sirasiga kiradi. 2007-yilda Xorvatiya futbol terma jamoasi bilan Zagreb shahrida bo'lgan uchrashuvda kimdir shahar Merlichidagi bayroqni yechib, o'rniga Rossiya bayrog'ini osib ketgan. Aybdor esa topilmadi.

2009-yil 18-noyabr Rossiya va Sloveniya futbol terma jamoalari (0:1) o'yini oldidan va o'yinidan keyin Rossiya va Sloveniya futbol bezorilari o'rtasida jiddiy to'qnashuvlar bo'lib o'tdi. Ikki holatda ham janjalni Sloveniya futbol terma jamoasi bezori muxlislari keltirib chiqargan, ahamiyatli tomoni shundaki, slovenlar orasida bir nechta Serbiya fuqarolari bo'lib, bezori guruhiga esa «Spartak» klubi muxlisi boshchilik qilgan.

Futbol bezorilari orasida keng tarqalgan mashhur kiyimlar ishlab chiqaradigan firmalar:

<ul style="list-style-type: none"> * Addict * Adidas * Alpha Industries * Aquascutum * Burberry * Ben Sherman * Bench * Berghaus * Boxfresh * Burberry * C.P. Company * Carhartt * Kickers* Columbia * K-Swiss * Lacoste * Lambretta * Le Coq Sportif * Lee * Levi's * Lonsdale * Lyle & Scott * Marc O Polo * McKenzie * Merc London * New Balance * Nike * One True Saxon * Paul & Shark * Paul Smith * Wrangler * Yves Saint Laurent 	<ul style="list-style-type: none"> * Diadora * Everlast * Evisu * Fake London Genius * Fila * Firetrap * Fjallraven * Fred Perry * French Connection * Gant * Hackett * Henri Lloyd * Kappa * Colin's * Penguin * Peter Storm * Polo Ralph Lauren * Prada * Puma * Ralph Lauren * Reebok * Rockport * Saucony * Sergio Tacchini * Stone Island * Ted Baker * Thor Steinar * Timberland * Tom Tailor * Tommy Hilfiger * Umbro
--	---

IV BOB. FUTBOL ANJOMLARI

Ma'lum bir jamoaning belgilari, ramzi, gerbi tushirilgan kiyim, sharf, bayroq va hokazolarning majmuiga **futbol anjomlari** deyiladi. Bu anjomlarni ishlab chiqarish va sotish bevosita klub, jamoa mutasaddi rahbarlari tomonidan amalga oshiriladi va futbol infrastrukturasi ajralmas bo'lagi hisoblanadi.

Jamoa rahbariyatidan tashqari futbol anjomlarini dilerlar ham sotishadi va ular klub, jamoa bilan shartnoma imzolab, foydani ma'lum bir qismini jamoaga to'lashadi.

Futbol madaniyati yuqori darajada rivojlangan mamlakatlarda, masalan: Buyuk Britaniya, Ispaniya, Italiya, Frantsiya, Portugaliya, va Germaniyada futbol jamoalarining sport anjomlari bilan savdo qilish ushbu jamoa byudjetining kattagina ulushini tashkil etadi.

4.1. Futbolchining shaxsiy ust-boshi



Kiyim ust-boshi – bu o'yinchining yuzi, demak jamoa yuzidir.

Ular Butsi, darvozabon qo'lqoplari, jamoa kiyimi yoki o'yinchi kiyimini o'z ichiga oladi. Bularning hammasi o'yinchi tomonidan sotib olinadi yoki bo'lmasa murabbiy tomonidan futbolchiga beriladi. Futbol kiyimlari mehmondagi o'yin uchun, o'z uyidagi o'yin uchun va bo'lib o'tadigan mashg'ulotlar uchun mo'ljallangan bo'lishi mumkin. O'yin qayerda bo'lishiga qarab professional klublar,

jamoalar u yoki bu kiyimlarini kiyishi mumkin. Mashg'ulotlar uchun mo'ljallangan kiyimlar ob-havoga qarab kiyiladi. Agar havo bulutli bo'lib, yomg'ir yog'ish ehtimoli, tashqarida havo salqin bo'lsa, mashg'ulotlar kostyumini kiyish kerak. Unga mashg'ulot shimi va yengilgina nimcha (vetrovka) kiradi. Futbol to'pi, charmli bo'lishi kerak. Bu borada hozirgi vaqtda Derbystar va Select firmalari ishlab chiqarayotgan to'plar eng

yaxshi tanlov bo‘la oladi. Butsilar ham iloji bo‘lsa charmdan bo‘lishi ma’qul, chunki o‘yin paytida Butsi yaroqsiz holga kelmasmikan degan fikrdan xoli bo‘lish uchun bu eng ma’qul yechim. Zalda o‘ynash uchun bamplar (qulay oyoq kiyimi) sotib olish maqsadga muvofiqdir. Ular baland va past poshnali bo‘lishi mumkin. Bu esa bamplarning o‘yinchilar oyog‘ida qanday qulay bo‘lishiga bog‘liq. Muhimi, ularning unchalik og‘ir bo‘lmasligidadir. Bundan tashqari qo‘lga tomir urishini o‘lchaydiganni ham sotib olish mumkin, odatda undan o‘yin va mashg‘ulotlarda qo‘lga taqib terini artish uchun foydalaniladi.

Futbol kiyimi tarixi

Futbol kiyimi futbol taraqqiyotining butun tarixi davomida o‘zgarib borib, qalin paxtali futbolka, sport shimlar (triko) va og‘ir qattiq charmdan qilingan Butsi kiyimlar vaqt o‘tib, XX asrga kelib qulay futbolka, kalta va yengil shortik va albatta, zamonaviy Butsilarga o‘zgardi. XX asrda reklamaning taraqqiy etishi bilan homiyilar, ya’ni futbol klublariga moddiy yordam ko‘rsatadigan tashkilot yoki firma belgilari futbolchilar kiyimida o‘z aksini topdi. Bundan tashqari suvenir sifatida sotiladigan anjomlarning yo‘lga qo‘yilishi klublar, jamoalar moddiy, moliyaviy ahvolini bir muncha yaxshiladi.

Angliya qirolichasi Viktoriya davrida futbol anjomlari haqidagi birinchi ma’lumotlar 1526-yilga taalluqlidir. Angliya qiroli Genrix VIIIning kiyim saqlaydigan xizmatchisi birinchi marotaba 1 juft Butsi haqida ma’lumot qoldirgan. Birinchi rangli kiyim haqidagi ma’lumotlar shaxsiy maktablar tarbiyalanuvchilaridan tashkil topgan jamoalarda uchraydi. Ya’ni masalan, 1840-yilga qadar Vinchester kollejida bo‘lib o‘tgan futbol musobaqasi haqida ma’lumot berilib, unda shunday deyiladi: “Bir jamoa qizil, ikkinchi jamoa kollej talabalari esa ko‘k kiyimda”. Ragbi shahrida 1845-1848 - yillarda o‘tkazilgan futbol o‘yinlarining ma’lumoti keltirilgan bo‘lib, futbolchilar kamzul (sviter) va shapkalar rangi bilan ajralib turishgani aytilgan.

1860-yilda futbol o‘yinlari Angliya Futbol Assosiatseyasi rahnamoligida o‘tkazilgan bo‘lib, jamoalar turli xil kiyimlarda o‘yinga tushib, bir-birlarini bosh kiyimi (shapka) rangidan va ularning kiyimidagi turli xil lentalarning rangidan ajratishgan. Bu o‘z navbatida bir qancha noqulaylik tug‘dirgan va 1867-yilda kiyim kiyish bo‘yicha aniq qoida

ishlab chiqilgan, ya'ni o'yindan oldin qaysi rangda maydonga tushish kerakligi kelishib olingan. Bu o'yinda bo'ladigan tuchunmovchiliklarning oldini olishga qaratilgan edi.



Futbol kiyimlarining birinchi standartlari 1870-yillarga kelib paydo bo'la boshladi. Ko'pgina jamoalar o'z kiyimlari uchun rang tanlashda, jamoa paydo bo'lgan ma'lum maktab yoki boshqa sport tuzilmasidan asos olganlar. Masalan "Blekbern Roverz" jamoasi o'zlariga oq-qora yo'l-yo'l kiyimini klubga asos solgan kishilarning ko'pchiligi Kembridj universitetida tahsil olganligi sababli shu kiyimni tanlashgan.

O'yindan-o'yinga jamoalar kiyimlari tubdan o'zgarib bordi, masalan, "Bolton Vanderers" maydonga pushti va oq ranglardagi kiyimlarda tushib, 1 yil davomida shu kiyimda maydonda to'p surishgan. Hozirgi zamon o'yinchilarining kiyimlaridan farqli o'laroq 1870- yillarda futbolchilar uzun shim va qalin ko'ylak kiyishar edi. Futbolchilar kiyimida hech qanday raqamlar qo'yilmagan edi va o'yinchilarni ajratib olish imkoni yo'q edi. 1875-yilda Glazgo shahrida "Kvins Park" va "Vanderers" klublari o'rtasidagi o'yinda futbolchilarni bir-biridan shapka va getri ranglaridan ajratish mumkin edi. 1874-yil "Nottingem Forest" jamoa o'yinchisi Sam Veller Vidovson birinchi marta oyoqning tizzadan pastini himoya qiladigan futbol anjomi – qalqonchani kiyib chiqdi, u o'yinda kiyiladigan qalqonchani 2 ga bo'lib futbol getrisining ustidan kiydi. Boshida bu holat unchalik yaxshi qarshi olinmadi, lekin vaqt o'tishi bilan qalqoncha futbolchilarning doimiy kiyadigan futbol anjomiga aylandi va XX asrning boshlarida qalqonchalar o'lchamlari kichrayib, getrilar qalqoncha ustidan kiyiladigan bo'ldi.

Asta-sekin futbol faqatgina yuqori tabaqa vakillarining o'yini bo'lib qolmay, balki ishchilarning ham sevimli sport turiga aylangan futbol kiyimida ham o'zgarishlar yuz berdi. Endilikda futbol klublari futbolchilar uchun zarur bo'ladigan kiyim-kechak va anjomlarni xarid qiladigan bo'ldi.

Futbol ommalashgani sababli o'yinchilarni farqlash zarurati tug'ildi va boshida qo'llanilgan ochiq ranglar o'rinda sekin asta oddiy ranglar aralash-

masi egalladi. 1890-yillarda (aniqrog‘i 1888-y) tashkil topgan futbol ligasi ikki jamoa o‘zaro o‘yin uchun bir rangni tanlashi mumkin emasligi to‘g‘risida qoidani kiritdi, bu o‘zaro o‘yinlarda jamoalar orasida kelishmovchiliklarning oldini olish uchun qaratilgan edi. Keyinchalik barcha jamoalarning har bir o‘yinchisida ikki rangdagi kiyim bo‘lishi kerakligi uqtirildi. Boshida mezbonlarga, agar mehmonlar kiyimining rangi ularning kiyim rangi bilan bir xil bo‘lsa, kiyimlarini o‘zgartirish majburiyati yuklatilib, keyinchalik, ya‘ni 1921-yilda ushbu qoidaga ko‘ra, bu majburiyat mehmonlarga yuklatildi. Sekin-asta futbol rivojlanishi bilan maxsus Butsilar paydo bo‘ldi, ular asta-sekin odatiy poyafzal o‘rnini egalladi. Boshida futbolchilar poyafzal tagiga maxsus charm bo‘laklarini yopishtirishgan, lekin vaqt o‘tgan sayin bu holatni inobatga olgan Futbol Assosiatsiyasi hech qanday temir bo‘laklar Butsilar tashqarisida chiqib turishi mumkin emas, degan qoidani qabul qildi. O‘sha davrdagi Butsilar cho‘ziluvchan teridan qilinib, oldinida temir himoyachisi bo‘lib, u o‘yinchi oyog‘idagi payini himoya qilgan. XX asr boshlari futbol o‘yini Yevropada va undan tashqarida ham mashhur bo‘lgani bilan jamoalar sekin-asta Buyuk Britaniyadagi jamoalarda kiyiladigan kiyimlarga taqlid qila boshladilar va ayrim hollarda britan jamoalarining kiyimlarini to‘liq o‘zlashtirishgan. 1903-yilda Italiyaning “Yuventus” klubi “Nots Kaunti” klubining oq-qora yo‘l-yo‘l kiyimini o‘zini qilib olgan, ya‘ni o‘zlashtirgan. Ikki yildan so‘ng esa Argentinaning “Atletiko Independent” klubi “Notingem Forest” klubi o‘yinlarini ko‘rib “Notingem Forest” klubi jamoasining qizil kiyimini o‘zining klubiga o‘zlashtirgan. 1904-yilda Futbol Assosiatsiyasi o‘yinchilarning shortiklari tizzasigacha bo‘lishi kerak, degan qoidani bekor qilgan va shundan so‘ng o‘yinchilar shortiklarining uzunligi ancha qisqardi.

Boshida ko‘pgina jamoalar futbolka rangiga qarama-qarshi rangdagi shortik kiyishgan. 1909-yilda maydonda hakamning og‘irini yengil qilish maqsadida va buning uchun darvozabonlar kiyimi jamoadoshlari kiyimidan ajralib turishi kerakligi haqidagi qoidani futbolga kiritishi natijasida, endilikda darvozabonlarni o‘yinchilardan ajratib olish imkoni tug‘ilgan. Darvozabonlarning oq-qizil yoki och ko‘k rangdagi kiyim kiyishga kelishib olingan va keyinchalik yashil rang ham shu ranglar qatoriga kiritilgach, darvozabonlar orasida yashil kiyim kiyish ommalashib, birinchi marotaba 1912-yilda bir darvozabon shu rangda maydonga tushgan edi.

1920-yillarda futbol kiyimlarini raqamlash bo'yicha ham bir qancha tajribalar amalga oshirildi. Birinchi raqamlangan kiyimlar 1933-yilda futbol Assosiatseyasi kubogi uchun "Everton" va "Manchester Siti" o'yinida kuzatilgan. Hamma o'yinchilarning raqamini belgilash o'rniga ikki komplekt kiyim final o'yiniga tayyorlangan, biri oq va ikkinchisi qizil. Birdan to o'n birgacha qizil, o'n ikkidan to yigirma ikkigacha oq forma bo'lgan. Qur'a tashlanib qaysi klub qaysi kiyimda to'p surishi aniqlangan. Faqatgina ikkinchi jahon urushi arafasida 1-11 raqamigacha futbolchilar kiyimini raqamlash odat tusiga kirgan. Bundan tashqari ma'lum bir o'yinchini ma'lum bir raqam ostida to'p surishi ko'zda tutilmagan edi. Sekin-asta raqam tanlashda o'yinchining maydondagi joylashuviga qarab belgilanadigan bo'ldi. Masalan: 9 – raqamli futbolka bunga yaqqol misol bo'lishi mumkin, uni asosan jamoaning to'p urariga berishadi. O'tgan asrning 30-yillariga kelib, Butsi ishlab chiqarish sanoati ham bir muncha rivojlandi. Endilikda futbolchilar 20 yil oldin kiygan Butsilardan 2-3 barovar yengil Butsi kiyadigan bo'lishdi. Lekin, ingliz klublarining bir nechta o'yinchilari yangi Butsilardan mamnun emas edilar, ularning fikricha yangi Butsilar futboldan ko'ra baletga ko'proq mos kelar ekan.



Ikkinchi jahon urushi tugashi bilan Yevropadagi ko'pgina jamoalar futbol kiyimidagi ayrim cheklashlar tufayli noodatiy kiyim kiyishlariga to'g'ri keldi. 1950-yilda Yevropa va Janubiy Amerika futbolchilari yoqali futbolka o'rniga, yoqasiz V shakldagi futbolkalar kiya boshlagan. Ular ancha qulay bo'lib, oldingisi kabi

og'ir tabiiy matolardan emas, balki ancha yengil bo'lgan sintetik matolardan qilinadigan bo'lib, ular oyoq tovonini to'liq yopmaydigan birinchi Butsilar "Adidas" sport kiyimlari ishlab chiqaruvchi kompaniya tomonidan ommaga taklif qilingan, "Adidas"ning Butsilar avvalgi Butsilarga qaraganda ikki baravar qimmat bo'lsa ham, futbolchilarga sifat va qulayligi jihatidan ma'qul bo'lib, tez orada kompaniya futbol kiyimlari ishlab chiqaruvchilar bozorida mustahkam o'rin egalladi. Futbol vatani bo'lmish Buyuk Britaniyada futbol yangiliklariga unchalik e'tibor bermay, ikkin-

chi Jahon urushidan oldingi kabi tabiiy matolardan og‘ir Butsilar kiyishgan. Sharqiy Yevropa jamoalari hali ham boshqa davlatlarda eskirgan futbol kiyimi sifatida qaralgan kiyimlarda maydonga tushishgan. 1945-yilda Moskvaning “Dinamo” klubi safarda Sharqiy Yevropa klublari bilan o‘zaro bir nechta o‘rtoqlik uchrashuvlari o‘tkazdi va o‘yin usuli hamda bejirim futbol kiyimi bilan raqib jamoasining e‘tiborini tortdi. Sekin-asta Yevropa kubogi kabi xalqaro miqyosdagi o‘yinlarning o‘tkazilishi bilan urushdan oldin qo‘llanilgan tabiiy, lekin og‘ir va noqulay bo‘lgan kiyim va Butsilar ham baribir tarixga aylangan. 1960-yillarda futbol formasida unchalik o‘zgarish kuzatilmadi. Jamoalar oddiy ranglar jilosidan hosil bo‘lgan va proyektorlar nuri ostida yaxshi ko‘rinadigan futbol kiyimlarini tanlashgan.

Zamonaviy davr



1970-yillarga kelib klublar o‘ziga hos kiyimlar yarata boshlashdi. 1975-yilda “Lids Yunayted” o‘zining odatiy ko‘k va oltin rang kiyimlarini “Real Madrid”ga taqlidan oq rangga o‘zgartirgach (1960 yillarda) o‘z kiyimini suvenir sifatida o‘z ishqibozlariga sotishni boshlagan birinchi klub sifatida tarixda o‘rin egallagan. Tijorat maqsadini ko‘zlab boshqa klublar ham “Lids Yunayted” klubi singari o‘z kiyimlarini ishqibozlarga sota boshladi. Bundan tashqari turli xil sport anjomlarini ishlab chiqaruvchilar belgilarini ham qo‘shib berishgan. 1973-yilda Germaniya mamlakati klubi “Eintracht Braunschweig” mahalliy spirtli ichimlik ishlab chiqaruvchi korxonalar “Jagermeister” bilan shartnoma imzolab, bu korxonalar nomi klub o‘yinchilari futbolkasining old qismiga yoziladigan bo‘ldi. Bir qancha vaqt o‘tgach, boshqa nomdor klublar ham xuddi shunday yo‘l tutishdi va bunday klublarni moddiy ta‘minlagan korxonalar daromadi oshib ketdi. 2008-yilda Myunxenning “Bavariya” klubi Doyche Telekomdan 25 mln. evro miqdorida homiylik mablag‘i olgan. 2005-yilgacha Ispaniyaning “Atletiko Bilbao” va “Bar-

selona” klublarining futbolkalariga biron-bir korxonaga belgisining tasvirini tushirishga qarshi bo‘lganlar. Hatto bugungi kunda ham “Barselona” klubi kiyimida UNICEF (Birlashgan millatlar tashkilotining bolalar jamg‘armasi) belgisining tasvirini tushirishga qarshi chiqishmoqda. Lekin ba’zi bir futbolchilarning o‘zlari mustaqil ravishda boshqa brendlar (mashhur belgilar) bilan shartnoma imzolaganlar. Masalan, 1974-yil Gollandiya futbolchisi Yoxan Kruif terma jamoa libosini kiyishni rad etdi, chunki unda “Adidas” firmasining tasviri tushirilgan bo‘lib, o‘sha payt Yoxan Kruif “Ruma” firmasi bilan shartnoma imzolagan edi. Shu sababli Kruifga “Adidas” belgisi tushirilmagan libosda maydonga tushishga ruxsat berishgan. 1970-yilgi jahon chempionatida braziliyalik yulduz Pelega ham “Ruma” firmasi 120 ming dollar miqdorda pul to‘lagach, Pele “Ruma” kompaniyasi Butsisini kiyishga rozilik bildirdi va “Ruma” kompaniyasining talabiga ko‘ra, o‘yin boshlanishidan oldin Pele o‘tirib Butsini bog‘lashi kerak ediki, unda televizor orqali o‘yinni tomosha qilayotgan muxlislar Butsidagi “Ruma” yozuvini ko‘rib olsinlar.



1980-yillarda “Hummel” va “Adidas” singari kompaniyalar o‘ziga hos bichimga ega kiyimlar ishlab chiqarishni boshlashdi, chunki yangi texnologiyalar fonli pechat va futbolkalarga mayin oq chiziqlarini yopishtirish imkonini berdi. “Hummel” kompaniyasining 1986-yilgi jahon futbol chempionatida Daniya mamlakati

futbol terma jamoasi uchun yaratgan kiyimi ommaviy axborot vositalarida katta shov-shuvlarni keltirib chiqargan.

FIFA o‘z navbatida bu kiyimning tomoshabinlarga yomon ta’sir etishi yuzasidan o‘z e’tirozini bildirdi. Futbol shortiklari 1970-yillarga qaraganda ham kaltalashdi va 80-yillarga kelib shortiklarning old qismida o‘yinchi raqami aks ettirila boshlandi. 1990-yillarda futbolkalar tuzilishi moslashgan shakl tashkil eta boshladi, o‘zaro ranglar uyg‘unlashishini kuzatish mumkin edi. Dizaynerlik yechimlar yaxshi va zamonaviy ko‘rinish istagini o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lib, asosiy maqsad muxlislarda yaxshi taassurot qoldirish va ularning mehrini qozonish edi.

1996-yilda “Manchester Yunayted” klubi “Sautgempton” klubiga qarshi kechgan o‘yinda o‘zining yangi kulrang kiyimida o‘yinga tushadi birinchi bo‘limda va birinchi bo‘lim 3:0 hisobida “Manchester Yunayted” klubi mag‘lubiyati bilan yakunlandi. Jamoa bosh murabbiyi Aleks Fergyson ikkinchi bo‘limda boshqa kiyimda o‘z jamoasini maydonga olib chiqdi va raqib darvozasiga bitta to‘p kiritib, o‘z darvozasi daxlsizligini ta‘minladi va bu holatga Aleks Fergyson oydinlik kiritib, kul rang kiyim ishqibozlarga sovg‘a qilish uchun yaxshi suvenir ekanligini ta‘kidlab, birinchi bo‘limdagi mag‘lubiyatini o‘yinchilar kulrang kiyimda bir-birlarini yaxshi ko‘ra olmaganliklari bilan izohladi.

Yetakchi futbol klublari mavsumdan oldin har bir futbolchi mavsum oxirigacha qaysi raqamda o‘ynashini aniq kelishib va belgilab oladilar. Ko‘p hollarda futbolchilar har bir kiritilgan to‘pdan so‘ng o‘z xursandchiliklarini namoyon etish uchun futbolkalarini yechib, maykasida yozilgan shaxsiy, siyosiy yoki bo‘lmasa, diniy qarashlarini ko‘z-ko‘z qilardi. Shu sababli 2002-yilda Xalqaro Futbol Assosiyatsiyasi futbolchilar maykalarida so‘z, shior va belgining tasvirini yozmasliklarini, bu qoidani buzgan futbolchilarga sariq varoqcha, hatto jarima solinishini e‘lon qilgan. 2004-yildan esa futbolchilar futbolkasini o‘yinda sug‘urganliklari uchun sariq varoqcha bilan jazolanadigan bo‘ldi.




Suvenir sifatida sotiladigan futbolkalar bozori keskin darajada oshib, klub, jamoa moddiy ahvolini yaxshilash va qo‘shimcha pul ishlash manbaiga aylandi. Misol tariqasida Angliyada sovg‘a futbolkalar sotuvidan tushadigan mablag‘ 200 mln. funt sterlingni tashkil etgan. Ayrim klublar, jamoalar sun‘iy usulda suvenir futbolkalar narxini ko‘targanliklari

uchun ularga nisbatan jarima solingan. Masalan, 2003-yilda Angliya raqobatga qarshi kurashish boshqarmasi “Manchester Yunayted” klubi mutasaddilarini klub suvenir futbolkalarining narxini asossiz ravishda ko‘targanliklari uchun ularga 1,65 mln. funt sterling jarima solishgan. Ko‘pgina mashhur klublarning suvenir futbolkalari narxi qimmat

bo'lganligi sababli, ko'pgina ishqibozlar Tayland, Malayziya davlatlaridan va boshqa joylardan soxta suvenir futbolkalarni arzon narxda sotib olishlariga to'g'ri keladi. Shunga qaramay, ishqibozlarning sevimli o'yinchisi raqami tushirilgan futbolvani kiyish istagi, suvenir futbolka ishlab chiqaruvchi korxonalariga va ushbu sohaga katta daromad olib kelmoqda. Chunonchi, birinchi marta 6 oy ichida Devid Bekxem "Manchester Yunayted" klubidan Real Madridga o'tgandan so'ng Bekxem ismi va raqami tasviri tushirilgan 1 mln. futbolka sotildi. Bundan tashqari, muhim uchrashuvlarda o'yinchilar kiygan futbolka narxi ham o'sdi. Bunday futbolka auktsionlarda kolleksionerlar tomonidan sotib olindi va sotildi. Misol tariqasida, 2002-yilda mashhur futbol yulduzi Pelening 1970-yildagi jahon futbol chempionati finalida kiygan futbolkasi 150.000 funt sterlingga sotilgan.

2002-yilda Kamerun futbol terma jamoasi Malida Afrika kubogi uchun o'tkazilgan o'yinda birinchi marta "Puma" sport kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan yengsiz futbolkalarda maydonga tushirilgan, keyinchalik FIFA bu futbolka rasmii o'yinlarda kiyilmasligini va uni futbol kiyimi sifatida kiyish mumkin emasligini belgiladi.



Keyinchalik "Puma" kompaniyasi ushbu futbolkalarga salgina qora yeng qo'shgan bo'lsa ham, FIFA rasman bu kiyimni kiyimaslikni ta'qiqladi. Lekin, Kamerun futbol terma jamoasi bu qoidaga bo'ysunmay, jahon chempionati saralash o'yinlarida 2006-yilda yengsiz futbolkada maydonga tushishdi va bunga javoban FIFA tomonidan Kamerun futbol terma jamoasidan 6 ochko olib tashlangan, keyinchalik apellyatsiyaga bergan Kamerun futbol terma jamoasiga 6 ochko qaytarilgan.

Futbolka ishlab chiqaruvchi boshqa bir kompaniya "Karra" badanga yopishib turadigan futbolkalarni Italiya futbol terma jamoasi uchun ishlab chiqdi va bu futbol kiyimi boshqa futbol jamoalari orasida ham mashhur bo'ldi.

Futbol kiyimi tarixi

Futbol kiyimi (ekipirovka). Ilk futbol jamoalarining tushgan rasmlarida ya'ni "Old Xarrovianz" va "Xempsted-Xitenz" jamoalarining tushgan rasmlarida ular jiddiy futbolchilardan ko'ra "Kichkina lord Fauntleroy" asarining qahramonlariga o'xshab ketishgan. Lekin o'n yilliklar o'tib, professional futbol tuchunchasi rivojlana bordi. Endilikda Angliya mamlakati futbolida, shimoliy Angliya jamoalari yetakchilik qila boshladi, ularda esa asosiy qatlamni oddiy kishilar, ishchilar sinfi tashkil etardi. Albatta, bunday jamoalarda kiyinish talabi boshqacha bo'lib, futbol kiyimi oddiy va arzon bo'lishi kerak edi. Hatto hozir ham, futbol tijorat turi bo'lib, katta mablag'lar keltiradigan bo'lsa ham, futbolchilarning kiyimi boshqa sport turlaridagi kiyimlardan ancha arzon bo'lib. Bunga sabab futbolning ommalashishiga, u bilan shug'ullanuvchilar sonining oshishiga ham turtki bo'lgan. Professional futbol I asr davomida mavjud bo'lgan bo'lsa hamki, o'yinchilarning kiyiladigan dizayni hech ham o'zgaragan, texnologiyaning o'zgarishi bilan futbolchilar tikiladigan matolar va Butsilar matosida o'zgarishlar ro'y berdi. Futbol kiyimining oddiyliigi va ko'p mablag' talab qilmasligi bilan kishilarni o'ziga jalb qiladi. Futbol qoidasiga ko'ra to'rtinchi qoidada shunday deyiladi: "Futbol o'yinchisining kiyimi, kamzul yoki futbolka, shortik, getri, qalqonchalar va sport poyafzal (Butsi) dan iborat bo'lgan. Darvozabon kiyimining rangi maydondagi o'yinchilar va hakam kiyimi rangidan farq qilishi shart".



1994-yilgi Shvetsiya futbol terma jamoasining kiyimi, reklamaning yaqqol misolidir. Chunki, uchta yo'l-yo'l chizig'i sport kiyimini ishlab chiqaruvchi firmaning markasi bo'lib, bunda jamoa urf-odatlariga aloqador emasdi.



1909-yil – ilk futbol kalar qalin jundan ishlab chiqarilgan, lekin vaqt o‘tib, ishlab chiqaruvchilar ancha qulay va arzon bo‘lgan paxtadan foydalana boshlagan. Avval, futbol kalar yoqasi chizimcha bilan bog‘langan, bu xildagi futbol kani “Manchester Yunayted” klubi himoyachisi Djordj Steysi Angliya mamlakati futbol kubogida kiygan.



1911-yil (ikki yil o‘tgach) chizimcha o‘rnini futbolda tugma egalladi.



1948-yilda “Manchester Yunayted” futbol klubi safida to‘p surgan Charli Mitten “Blekpul” futbol klubi bilan bo‘lgan o‘yinda kiyiladigan futbolda o‘yinga tushgan va u haddan tashqari qo‘pol va qalin yoqali bo‘lgan.



1960-yilgi darvozabonning junli qalin kiyimi (Madridning “Real” klubi darvozaboni Dominges kiyimi). Maydondagi o‘yinchilar kiyimidan ajralib turishi kerak, degan yangi qoida 1913-yil futbolga joriy etildi. O‘sha paytgacha darvozabonlar jamoadoshlari kiygan futbolka rangida maydonga tushar edi va darvozabonlarni faqat boshlaridagi bosh kiyimi (kepka) laridan ajratib olish mumkin bo‘lgan.



1982-yil sintetik matolarning ixtiro qilinishi bilan paxtali formalar davri tugadi va futbol kiyimlari ishlab chiqarishda sintetik matolardan keng foydalanila boshlangan. Bu Braziliya futbol terma jamoasi futbol kasi bo‘lib, havo almashinishini ta‘minlab, yengil neylondan ob-havo issiq bo‘lgan mamlakatlar uchun mo‘ljallangan.



1992-yilgi Yevropa futbol chempionatida Daniya terma jamoasi darvozaboni Peter Shmeyxel rang-barang bo‘lgan sintetik matodan tikilgan futbolda o‘yinga tushgan, vaholanki ilgari darvozabonlar kiyimida qat‘iy chegaralar mavjud bo‘lib, uchta asosiy rangdan foydalanish mumkin bo‘lgan: yashil, sariq va oq.



1936-yilda “Arsenal” klubi o‘yinchilari uchun getrilarning vazni qariyb 1 kg bo‘lgan. Buyuk Britaniyada bunday getri va futbol aslahalarining boshqa turlarini II Jahon urishida Savdo vazirligi tomonidan beriladigan maxsus kupon orqali sotib olish mumkin bo‘lgan.



1994-yilda futbol Butsilari ishlab chiqarilishiga katta mablag‘ sarflangan. Va bu o‘z natijasini berdi. Hozirda eng sifatli Butsilar asosan kenguru terisidan tayyorlanmoqda, bunday Butsilarning tagcharmi plastmasadan bo‘lib, cho‘g‘irlari alyumindan qilingan. Futbol aslahalari ishlab chiqarish texnologiyasining rivoji ko‘proq Butsilar dizayni va ishlab chiqarilishida sezilarli bo‘ldi. Hozirda Butsilar ishlab chiqarish – rivojlangan sanoat bo‘lib, fan-texnikaning eng oxirgi yutuqlaridan foydalanadi.



1936-yildagi Butsidagi shpilkalarni tayyorlaydigan asbob. 5 mm.li shpilkalar, yo‘l-yo‘l charmdan qilinib, bu asbob bilan Butsiga tiqib, keyin mix choqiladi shundan so‘ng butsi shpilkasi tayyor bo‘lardi.



1972-yil “Stai yu Matnmeyster” Butsilari shunday usulda ishlab chiqarilgan ediki, bu Butsilar futbolchilarning didiga va kiyinish usuliga to‘g‘ri kelishi shart bo‘lib, bunday butsilda birinchilardan bo‘lib, Djordj Best o‘ynagan, lekin bunday butsilar futbolchi oyog‘ini himoya qilmagan, u ko‘ra oddiy tufliga o‘xshagan.



1930-yil XIX asrda futbolchilar oddiy oyoq kiyim (botinka) lariga shipalarni mix bilan o‘rnatib, futbol o‘ynashgan.



1936-yil Charmli qalaonchalar junli qobig‘ bilan dastavval paypoqlar ustidan kiyilgan. Bu qalaonchalar 1880-yillarda ishlab chiqarilgan edi.



1968-yil “Manchester Yunayted” klubining sardori Bobbi Charlton Yevropa chempionlari kubogi musobaqalarida sardorlik bog‘ichi bilan maydonga chiqar edi, lekin bunday bog‘ich asosan musobaqalarning yakuniy (zarur, juda muhim) o‘yinlarida kiyilar va bu hakamga maydonda jamoa sardorini ajratib olishga yordam berar edi.

Vaqt o‘tishi bilan barcha futbol anjomlari to‘plardan boshlab darvozabon qo‘lqoplarigacha o‘zgartirilib bordi. Terma jamoalar bosh kiyimi (shapka, kepka), medallar dizaynlari ham o‘zgartirilib bordi. Ammo bu yutuqlarga ko‘pchilik sazovor bo‘la olmagan..



1990-yil. Jahon birinchiligi o'yinlaridagi to'p. FIFA sertifikatatsiyasi bo'yicha zamonaviy to'pning og'irligi II Jahon urushidan oldingi bo'lgan to'pdan 30 grammga og'ir bo'lsa-da, lekin zamonaviy to'plar avvalgi to'plardan yengil ko'rinadi. Buning asosiy sababi plastmas qoplama va maxsus texnologiyaning qo'llanilishidir. Bu to'pning suvni o'ziga singdirmaslik xususiyatini oshirgan.



1992-yil. Darvozabonlarning zamonaviy qo'lqoplari esa o'z navbatida sport ashyolarini ishlab chiqaruvchilarga daromad manbai bo'lishiga zamin yaratgan. 1970-yillar o'rtasigacha darvozabonlar qo'lqoplari paxta matosidan tayyorlangan.



1948-yil. Bog'ichli to'plar Angliya federatsiyasi kubogi o'yinlari ikkita finalida sifatsiz charmdan qilinganligi uchun yorilib ketgan. To'plar o'sha payt (1948-yillarda) II Jahon urushidan so'ng sport ashyolaridan qilingan matolardan ishlab chiqarilgan.



1963-yil. “Old Trafford” o‘yinhohida “Manchester Yunayted” klubi bilan o‘rtoqlik uchrashuvda bu vimpel topshirilgan. Bu esa o‘yindan oldin esdalik sovg‘a va boshqalarni berishni an‘anaga aylantirgan.



1930-yil Angliya mamlakati kubogi chempioni “Arsenal” klubi o‘yinchisi Djek Lambertga taqdim etilgan medal. O‘shanda “Arsenal” klubi “Xaddersfild Taun” klubini 2:0 hisobida mag‘lubiyatga uchratgan.



1961-yil. Bosh kiyimni Dennis Vaiiolett Angliya mamlakati futbol terma jamoasi Lyuksemburg mamlakati futbol terma jamoasi bilan bo‘lgan o‘rtoqlik uchrashuvida (6:1) olgan.



1958-yil. 1951-yildan boshlab futbolda oq to'plardan foydalanila boshlangan, jigar rangli to'plar yana bir necha yillar o'ynalgan va asta-sekin oyoqdan qolgan. bog'ichlar bo'rtib chiqqanligi tufayli futbolchilarning bosh bilan o'ynashida noqulayliklar tug'dirardi, bosh bilan zarba berganda to'p bog'lamlari futbolchi boshini jiddiy jarohatlashi mumkin edi



1913-yil. Angliya terma jamoasi bosh kiyimi. Uni "Manchester Yunayted" klubi o'yinchisi Djordj Uollga berishgan. O'sha vaqtlar bunday bosh kiyimlar boshqa ranglarda va naqsh yozuvlarsiz bo'lgan.



1931-yil. Angliya chempioni "Arsenal" klubi to'purar o'yinchisi Djek Lambertga topshirilgan medal. Bugungi kunda o'yinlarda nafaqat o'zining yaxshi o'yini bilan ajralib turgan o'yinchi yoki ko'p o'ynagan o'yinchiga, balki musobaqalarda g'olib chiqqan jamoa o'yinchilarining barchasiga medal topshiriladi.

Futbol o'yini liboslari futbol tarixi davomida muntazam o'zgarib bordi. Bugungi kunga kelib u tenglashgan va qulaylik xususiyatiga ega bo'lib, hozirgi kunda futbolda allaqanday noqulay va beso'naqay kiyimda futbolchilarni tasavvur qilish qiyindir. Futbol kiyimi hozirgi ko'rinishni kasb etishi uchun bizning ajdodlarimiz ko'p ter to'kishgan.

XIX asrning 70-yillarida odatiy futbol kiyimi “plyus 4” nomini olgan edi, chunki, u tizzagacha keladigan paypoqqa tikiladigan ishton (triko), ko‘ylak va bosh kiyimidan iborat bo‘lib, ayrim hollarda tsilindr ham kiyishgan.

Qirolicha Viktoriya hukmronligi davrida Angliyada futbolchilar ishchi yoki bo‘lmasa harbiylar oyoq kiyimini kiyishlariga to‘g‘ri kelgan va bu juda qiyin va shikast yetkazadigan holatlarga olib kelgan. U paytlar futbol endi-endi rivojlana boshlagan edi. Jamiyatdagi ijtimoiy o‘zgarishlar futbolning rivojlanishiga turtki bo‘ldi. XX asrning 10-yillariga kelib, jamoalar umumiy kiyimga ega bo‘lishlari kerak edi. Viktoriya qirolichaligi vaqtidagi kiyimlar kamzul (sviter) va uzun shortiklarga almashtirildi. U paytlar hali rezinka ixtiro qilinmaganligi sababli ular teridan tasma kiyishgan. Shunday qilib, Djim Boun Shotlandiya kubogi o‘yini finali uchrashuvida 1921-yil kiygan shortikning tasmasi uzilib ketib, u shortigini kiyib olguncha qaramog‘idagi o‘yinchi uchrashuvdagi yagona to‘pni darvozaga kiritgan. Sekin-asta futbol kiyimi futbolchilar uchun muhim narsaga aylandi. Uels futbol terma jamoasining darvozaboni Dik Rouz terma jamoadagi 23 ta o‘yinda ham, 1899-yilda xalqaro o‘yinlaridagi ilk uchrashuvida ham o‘zining avval kiygan futbolkasida ishtirok etgan.

Futbol Assosiatitsiyasi futbol shortiklarining tobora qisqarib borayotganidan tashvishlanib, 1904-yilda “Futbol shortiklari futbolchilarning tizzasini yopib turishi kerak” mazmunidagi qaror qabul qilgan. Lekin hakamlar bu borada nima qilish kerakligi noma’lum edi, chunki ayrim hollarda hakamlarning ham tizzasini shortik bilan yopilmagan edi. Futbol uniformasida keng o‘zgarishlar ikkinchi jahon urushidan keyin sodir bo‘ldi. Ayniqsa, bu o‘zgarishlar Italiya va Vengriya mamlakatlarida sezilarli edi. Uzun shortiklarning kamchiligi bor edi, ular noqulay va og‘ir edi. Shundan keyin ularni o‘zgartirishga to‘g‘ri kelgan.

1939-yilga kelib futbol ko‘ylaklarida ilk raqamlar paydo bo‘la boshladi. 1960-yilda bir qiziq voqea ro‘y berdi, ya’ni Shotlandiyaning “Seltik” klubi futbolchilari futbol ko‘ylaklarini emas, balki futbol shortiklarini raqamlagan ilk va yagona klub bo‘lib tarixda nom qoldirdi.

Futbol kiyimida keyingi ulkan o‘zgarish sintetik tolalar bo‘lmish neylon va akrilning ixtiro qilinishi bilan bog‘liqdir. Kiyimlar yengil, ichki va tashqi tomonidan suv o‘tkazmaydigan qilib ishlab chiqilgan, ularda yugurish osonlashdi, chunki vazn borasida bu formalar yengilroq edi. Futbol oyoq kiyimi shipalar tufayli maydonda ilinishi, chirmashishi osonlashgan.

Bugungi kunda tijoratda futbolning daromad manbaiga aylanishi sababli kundan-kunga futbol kiyimining tashqi ko‘rinishi ham o‘zgarib bormoqda. “Nike” kompaniyasi futbol kiyimining atigi 150-200 gr og‘irlikda bo‘lishi, suvni o‘ziga olmasligi va shu orqali futbol kiyimi vaznining oshmasligiga erishgan. Zamonaviy Butsi ham o‘ta yengilligi va qulayligi bilan ajralib turadi. Futbolchilarga ularning poshna va oyoq to‘piqlari xususiyatlarini hisobga olib, Butsilar ishlab chiqilmoqda. Har bir Butsi ma‘lum bir ob-havoga moslab tayyorlanadi. Futbol anjomlari futbolchilarni himoyachisi bo‘lib qolishdi, ya‘ni tizzadan pastiga himoya vositasi – qalqoncha, getri va darvozabonlarga qo‘lqop paydo bo‘ldi. Ko‘pchiligimiz o‘yinchilar futbolkasidagi turli xil reklamalarga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Ayrim hollarda futbolchilar biror-bir narsaga qarshi yoki xayrixoh, hamkorligini ifodalash uchun qo‘llarida bog‘ich bog‘lab chiqishadi. Ayrim hollarda homiylarning futbolchilar bilan tuzilgan shartnomalari, talablari aqlga sig‘maydi. Madridning “Atletiko” futbol klubi bir mavsumda, har o‘yinda o‘yinchilar turli xil futbol kiyimlarida chiqishgan, ularning kiyimlarida aynan o‘sha paytda kinoteatrlarda namoyish etilayotgan filmlar reklamasi o‘rin olgan bo‘lib, o‘sha kiyimlarni arzonroq narxda Madriddagi matras ishlab chiqaradigan zavodda chiqindilardan ishlab chiqarishgan degan mish-mishlar bor, hali ham ayrimlar “Atletiko” klubini “matraschilar” klubi deb ham atab kelmoqda.

Futbol tarixida o‘ziga hos urf-odatlarini kiritmoqchi bo‘lganlar ham bo‘ldi. Ayrimlar, futbolka tagidan mayka kiyib bu maykalarda turli xil chaqiruvlar, yozuvlar, hazillar va reklamalarni aks ettirgan edilar. Mashhur Rossiyalik futbolchi Egor Titov futbolkasi tagidan “Biz kim? - Go‘sh’t”, - degan yozuv tushirilgan maykani kiyib yurar edi. Hatto 2002-yilda Yaponiya va Koreya maydonlarida bo‘lib o‘tgan futbol bo‘yicha Jahon chempionatida Kamerun futbol terma jamoasiga o‘zlarining ajoyib maykalarida o‘ynashiga ruxsat berishmagan. FIFA shtab-kvartirasining rasmiy vakili Keyt Kuper buni shunday izohlagan: “Formaning yuqori qismi, yengsiz kiyim shaklida bo‘lib, u jamoaning milliy kiyimi sifatida ma‘qullanishi mumkin emas. Bu noodatiy sport ko‘ylagi emas, balki jiletidir”. Shunday qilib kamerunliklar futbolda modani ixtiro qilgan futbol terma jamoasiga aylanishdi. Kiyimning bunday turini tanlash bejiz emas edi, chunki bu kiyim aynan Afrika ob-havosiga mos kelar edi. Hatto afrikaliklarning shortik va futbolkani bir kombinezonga birlashtirish borasidagi urinishlari ham bo‘lgan. Yaqin

kunlargacha futbol hakamlari o'yinda ko'zga unchalik ko'rinmaydigan rangdagi kiyim kiyishardi, lekin Italiya A - seriyasidagi Perluidji Kolina boshchiligidagi hakamlar brigadasi bu an'anani buzishdi, ular o'yinga och sariq rangdagi formada maydonga tushishi ularni ko'rmaslikning hech iloji yo'q edi. Ko'rib turganingizdek, zamonaviy futbol kiyimi bizga yetib kelguncha qanchadan-qancha to'siqlarni boshidan kechirib, natijada qulay, chiroyli o'ziga hos shaklga ega bo'ldi. Hozirda yosh futbol ishqibozlari kimlarga ishqibozlik qilishni ham jamoalarning futbol kiyimiga qarab tanlashadi.

Futbol kiyimi

Futbolning haqiqiy o'yinchilarida turli xil maxsus anjomlar mavjud. Ularning eng asosiylaridan biri bu – futbol kiyimidir. U juda ko'p vazifalarni bajaradi. Bu kiyimi futbolchilarga o'yin paytida maydonda o'z jamoasi va raqib jamoasi vakillarini tez ajratish imkonini beradi. Bundan tashqari futbol kiyimi ko'pgina xususiyatlarga ega bo'lib, butun o'yin davomida qulaylik yaratadi. Hozirgi vaqtda futbol kiyimi ko'p afzalliklarga ega. Masalan :

1. Kiyim futbolchi tanasi nafas olishiga imkon berib, yaxshi havo o'tkazadi, bu fanning oxirgi yutuqlaridan biridir;
2. Futbol kiyimlari nam o'tkazmaydi, ya'ni suvni o'ziga shimib olmaydi.

Futbol kiyimlarini turli xil toifadagi o'yinlar uchun ishlatishadi. Ularni oliy liga jamoalari va ko'chada to'p suradigan o'yinchilar ham kiyishadi. Darvozabon va hakamlar uchun alohida kiyim tikiladi. Sportchilarning futbol kiyimi ma'lum, aniq bir o'lchamlarga mos kelishi shart. Maydonga tushayotgan o'yinchining futbolikasi, albatta, yangi bo'lishi kerak. Bir jamoa uchun aynan bir rang tanlanadi (darvozabon ko'p hollarda boshqa rang kiyishi mumkin, o'yinchilardan ajralib turishi uchun). Shortikning rangi futbolkaning rangi bilan bir xil bo'lishi shart emas. Futbolchining ichki kiyimi har doim shortik bilan bir rangda bo'lishi kerak. Bundan tashqari futbol ustalarining asosiy futbol kiyimlariga getri, qalqoncha, (himoya vositasi (oyoq uchun) va Butsilar (futbol oyoq kiyimi) kiradi. Qalqoncha, albatta, getri bilan to'liq qoplanadi va uning asosiy vazifasi futbolchi oyoq qismining tizzadan to to'piqgacha bo'lgan qismini himoyalaydi qalqoncha ko'p hollarda plastmassadan tayyorlanadi. Futbol hakamlari va darvozabonlarning orasidagi futbol kiyimida o'ziga hos

farq mavjud. Ya'ni darvozabonlarga sviter va uzun triko kiyishga ruxsat berilgan. Bundan tashqari darvozabonlar qo'ldop kiyishlari mumkin (qoidaga binoan o'yinchilarga ham qo'ldop kiyishni ta'qiqlashmaydi).

Futbol qoidasi futbol kiyimini tashkil etuvchi qismlarga erkin munosabatdadir. Asosiysi, futbol kiyimining ajralmas qismi bo'lgan anjomlar maydondagi o'yinchilarga zarar yoki shikast yetkazmasligi kerak. Shunday ekan, futbolchilar futbol maydonida turli xildagi boylag'ich, tizza himoyagichlari kiyishlari mumkin. O'yinchilar, hatto o'yin paytida ko'zoynak ham taqishlari mumkin (agar ko'zoynak taqilishi muhim ekanligini isbotlay oladigan sabablari bo'lsa). Bundan tashqari futbol qonun-qoidalarida futbolchilar boshlariga muloyim bosh kiyimi yoki kaska kiyishlari mumkinligi ham ta'kidlangan. Qat'iy ta'qiq o'yinchilarning zargarlik buyumlari va soat taqishlariga qaratilgan bo'lib, bu holatlarda ham ayrim futbolchilar uzuklarini yopishqoq yoki leykoplastr bilan yopib, o'yinga tushishadi. Hakamlar bunga ruxsat berishgan. Lekin bu ko'pincha istisnoga kiradi, bu odatiy holat emas. Bundan tashqari rezina lentalarni ishlatish ham ta'qiqlangan. Futbolka tagida sportchi istalgan narsani kiyishi mumkin, lekin asosiysi, o'sha narsa ko'rinmasligi va boshqalarga xalaqit bermasligi kerak. Ammo kiyimida futbolga tegishli bo'lmagan so'zlar yoki reklamani ko'rsatish qat'iy ta'qiqlangan. Agar bu qoida buzilsa, futbol musobaqasi tashkilotchilari futbolchini katta miqdordagi jarima bilan jazolashadi.

O'yinchilarning o'yinga to'g'ri kiyinganligi zahiradagi hakam tomonidan nazoratga olinadi. Shuni ta'kidlash kerakki, zahirada o'tirgan o'yinchilar kiyimiga ham o'ziga hos talab belgilangan, ya'ni chigil yozdi (razminka qilayotgan) mashqlarini bajarayotgan zahiradagi futbolchining kiyimi o'yinda ishtirok etayotgan futbolchilar kiyimidan ajralib turishi kerak, aks holda o'yin hakam tomonidan to'xtatiladi.

4.2. Futbol Butsilari

Butsi – futbol o'yini uchun mo'ljallangan, charmdan tayyorlangan maxsus oyoq kiyimidir. Oddiy oyoq kiyimidan butsining asosiy farqi, butsida cho'gir va maxsus qo'ng'ning bo'lganligidadir.

Xuddi futbol o'yinining tarixi kabi futbol Butsilarning tarixi ham juda uzoqqa borib taqaladi. Uning ishlab chiqarish texnologiyasi ham futbolning rivojlanishi kabi bir xil bo'lmagan.

1920 yilgi Butsi



Futbol Butsilari o'zining uzoq rivojlanish tarixiga ega. Bu jarayonda ular oddiy oyoq kiyimidan hozirgi zamonaviy mahsulotga aylangan. Futbol-dagi oyoq kiyimi haqida birinchi bo'lib, Angliya qiroli Genrix VIII davrida aytib o'tilgan.

O'yin vaqtida jarohat olgan Genrix VIII o'zining shaxsiy etikdo'zi Kornelius Djonsonga o'zi uchun maxsus oyoq kiyimi tikishiga buyruq beradi. 1526-yil qirolning garderoblar ro'yxatida futbol Butsilari katta garderoab ro'yxatida turardi. Afsuski, bugungi kungacha o'sha Butsilar saqlanmagan.

Futbol Butsilarining tarixini tahlil qiladigan bo'lsak, u 1800-yillarga borib taqaladi. XIX asrda futbolchilar og'ir oyoq kiyimini o'yinlarda ishlatishgan. U esa o'zining oldingi qismida metall (vstavka) va uzun bog'lagichda bo'lgan. Bunday oyoq kiyimi metalldan qilingan shipalardan iborat bo'lib, u oyoqlarga quvvat bergan. Futbol Assosiyatsiyasi 1863-yilda bunday oyoq kiyimi o'yinchilarga jarohat yetkazmasligi uchun o'yinlarda ishlatishni ta'qiqlab qo'ygan.

1891-yil futbol qoidalariga o'zgartirishlar kiritilib, ushbu qoidaning 13-bandida cho'gir charm bo'lsa va uzun bo'lmasa, ulardan foydalanishga ruxsat berilganligi yozilgan edi. Aylana shakldagi cho'gir futbol Butsisining poshnasiga urilgan va bu kiyim maxsuslashtirilgan futbol oyoq kiyimi hisoblanib, u o'ziga hosligi bilan oddiy botinkalardan farq qilgan.

XX asr boshlari va 2 – jahon urushi oxirigacha futbol butsilariga deyarli o'zgartirishlar kiritilmadi. 1925-yildan boshlab ishlab chiqaruvchilar almashtiradigan (olib qo'yadigan) shipalardan foydalashni boshladilar. 1950-yil o'rtalarida butsi uchun rezkali, almashtiriladigan shipalar chiqishi hammani hayratga soldi. Bunday shipalarni almashtirish oson va qulay edi. Qo'laversa, bu Butsilar har qanday ob-havo sharoitiga moslashgan mahsulotdan tayyorlangan edi. Lekin futbol butsilari hali ham vazn borasida og'ir, to'pqi ustini yopadigan uzun himoyalovchi narsadan edi.

Futbol uchun oyoq kiyimlarini ishlab chiqaruvchilar odatdagiday uzun qoplamali va og'ir butsilarni chiqarayotgan bo'lib, Shimoliy Yevropada bu

turdagi oyoq kiyimi uzoq vaqt davomida barchaga ma'qul deb qabul qilingan edi. Chunki ko'pincha futbolchilarning nam va og'ir futbol maydonlarida o'ynashiga to'g'ri kelar edi.

Janubiy Yevropa va Janubiy Amerikada ancha yengil va qisqa qoplama-li futbol butsilari rivojlana boshlandi. Chunki bu yerda futbol o'yini may-doni nam va og'ir emas edi. 1960-yillarda butsilarning dizayniga muhim o'zgarishlar kiritish boshlandi. Past qoplamali butsilar hamma joylarda qo'llanila boshlandi(bu oyoq kiyimi oyoqning to'piq qismini yopmaydigan edi).

Dizayndagi bundagi o'zgarishlar futbolchilarning maydonda tez ha-rakatlanishlariga yordam bergan. Futbol butsilarining texnologiyasi va dizaynida muhim mukammallikni 1990-yil "Adidas" kompaniyasi ish-lab chiqardi. Bunday futbol butsilari modeli (shakl)ni ishlab chiqaruvchi sobiq "Liverpool" klubi futbolchisi Kreyg Djonson edi. Djonson "Adidas Predator" modeli (shakli)ni ishlab chiqardi, bu butsi esa futbol maydoni, chim (gazon) bilan yaxshi mutanosiblikda edi. Ya'ni bu butsi bilan may-donda o'yinchi yugurgan vaqtda ham, to'p urganda ham oson va qulay edi. Bugungi kunda futbol Butsilari tarixida "Adidas Predator" modeli juda ham muvaffaqiyatli modellardan hisoblanadi.

Yangi yuz yillikda yassi tekis shipali (yaxlit) poshnali Butsilar ham mashhur bo'ldi. Bunday futbol butsilari futbol maydoni yuza sirtida maksimal harakatlanish uchun juda yaxshi. Ammo oxirgi vaqtlarda fut-bolchilarning ko'plab jarohat olishini aynan shu butsilarning ishlatilishi bilan bog'laydilar. Angliyaning yetakchi klubi "Manchester Yunayted" klubi o'zining o'yinchilariga o'yinlarda bu butsilardan foydalanishni man-etgan.

Futbol o'yini uchun oyoq kiyimi-butslarining rivojlanish takomil-lashish tarixi:



1526-yil: qirol Genrix VIII hukm-dorligi davrida eng birinchi futbol Butsilari haqida yozilgan.

Qirol Genrix o'yinda jarohat olgandan keyin o'ziga alohida futbol uchun oyoq kiyimi tayyorlashga buyruq bergan.

1800-yil: bu vaqtlarda juda ham qo‘pol o‘ynaganlar. Futbol oyoq kiyimi sifatida charmli ishchi botinka, uzun shnurkali va barmoqlarni himoyalaydigan temirdan foydalanishgan.

1800-yil oxirida: futbol butsisi qalin va qattiq charmdan tayyorlangan. Himoya uchun ularda charmli shpa bo‘lib, ularning og‘irligi 500 gramm edi.



XIX asr oxiridagi futbol Butsisi

1925-yil: olinib almashtiriladigan birinchi shpalar namoyish qilinib, shpalarning joylashishi ob-havo sharoitiga qarab ko‘paytirilgan.

1940-yil: futbol butsilarini ishlab chiqaruvchilar yengil vaznli butsilarni tayyorlash, ishlab chiqaruvchilar oddiy himoya poyafzaldan ko‘ra zarba va to‘pni egallashga moslashtirilgan oyoq kiyimi, ya‘ni butsilarni ishlab chiqarishga diqqatlarini qaratgan edilar.



1950-yil: futbol butsilarini rezinali yoki plastikdan qilinadigan shpalari bilan pochnaga burib kirgizilib, almashtiradigan qilib ishlab chiqarildi.



1950-yil: Butsilar avvalgiday oyoqning to‘piq qismini yopadigan, lekin bunda sintetik material qo‘shib ishlab chiqilgan, bu esa Butsi vaznini ancha yengilroq holatga keltirgan.

1960-yil: dizaynda o‘zgarish vaqti, endi birinchi marta oyoqning to‘piq qismini yopmaydigan futbol butsilari ishlab chiqildi.

1970-yil: bu o‘n yillik futbol butsilarni ishlab chiqaruvchilar o‘yinchilarga homiylik qilishi bilan esda qolgan edi. O‘yinchilarga o‘yinda qaysi ishlab chiqaruvchi korxonalarining ishlab chiqargan butsilarini kiyishsa, ularga mablag‘ to‘lanardi.

Adidas copa mundial



1970-yil: texnologik ishlab chiqarishlar futbol butsilarini oson tayyorlashga yordam berdi. O‘sha yili birinchi oq rangli butsi tayyorlandi.

1990-yil: ayrim ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan oddiy butsi shiplari tig‘ga o‘xshash shiplariga almashtirildi, bu esa o‘yinchilarga maydonda yanada mustahkamlik va turg‘unlikni berardi.



2000-yil: futbol butsilarini ishlab chiqaruvchi (korxonalar, firmalar) yengil va o'yinchilar oyog'ini to'pig'idan quyi qismini himoya qiladigan butsilar ustida ish boshlaydilar.

Concave



Futbol Butsilarini tasnifi

SG (Soft Ground)

Nam va yumshoq futbol (gazonlari) maydonlar uchun. Bu turdagi butsilar rezbali almashinadigan shipli bo'lib, kerak bo'lgan vaqtda shiplar boshqalariga osongina almashtiriladi. Futbol maydoni inobatga olinib, shiplarning kerakli katta-kichikligiga va ishlatiladigan materiali tanlanadi.

FG (Firm ground)

Ko'pchilik tabiiy va qattiq futbol maydonlari uchun mo'ljallangan. Tekis va aylana shakldagi shipalar ko'pincha TPU (termoplastik uretan) yoki PU (poli uretan) materiallardan tayyorlangan. Ko'pchilik futbolchilar shu turkumdagi futbol butsilarini tanlaydi. Chunki bu oyoq kiyimi ochiq futbol maydonlarida yaxshi yuguriladi va oyoqqa turg'unlik beradi.

HG (Hard Ground)

Sun'iy yoki tabiiy maydonlar uchun mo'ljallangan. Bu turdagi butsi kalta shipalardan iborat bo'lib, butsining poshna qismida shipalar bir me'yorda joylashgan. Shipalar tekis va aylana shaklda bo'lib, ular maydonda yugurishni va mustahkamlikni ta'minlaydi.

Futbol butsilari ishlab chiqaruvchi firmalar

XXI asr boshlarida "Nike", "Puma", "Adidas" (2006-yilda "Adidas" va "Reebok" qo'shilishgan) kompaniyalarining ilmiy-tekshirish borasidagi yutuqlari ularning, jahon bozoridagi mavqelarini yanada mustahkamladi. Jahon bozorida sport mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi kichik korxonalar "Diadora", "Lotto", "Mizuno", "Joma", "Nomis", "Kelme", "Hummel", "Demix"ning ham o'z hissalari bor.

Bugungi kunda mashhurligi bilan quyidagi futbol butsi modellari mavjud: "Nike Mercurial Vapor V FG", "Nike Mercurial Superfly FG", "Adidas Copa Mundial FG", "Nike Total90 Laser II FG", "Adidas Predator X FG", "PUMA v1.10 FG", "Adidas adchizimchaURE II TRX FG", "Nike CTR360 Maestri FG", "Nike Tiempo FG".

Oxirgi yillarda dunyoda "Nike" va "Adidas" firmalari sport kiyimlari ishlab chiqaradigan eng nufuzli korxonalar hisoblanadi. Futbolchilar orasida bu korxonalar mahsuloti ko'proq mashhur.

Sport turlariga moslashgan oyoq kiyimining turlari

Mini-futbol uchun butsilarning yopiq siqishli xilidan foydalaniladi. Ularning ko'plab turlari bo'ladi, ayrimlari shipali va ayrimlari shipasizdir. Ular ma'lum darajada oddiy futbol butsilardan farq qiladi.

Regbi sport turi uchun butsilarning shpilka buramali yoki ayrim hollarda metall qalpoqchali butsilar afzalroq hisoblanadi, xususan, o'yin vaqtida tirangan pozitsiyada qulay. Bu shpilkadagi buramalar metalli plastikadan emas, balki butunlay metall konstruksiyali bo'lishi kerak.

Uning maksimal uzunligi 21 mm bo'lishi kerak. Ko'pincha bu oyoq kiyimi og'irdir. Regbi va futbol butsilari orasidagi farq shiplarning tuzilishidadir. Bir necha oyoq kiyimlari mavjud, ular o'yinchilarning joylashishiga qarab tanlanadi.

Butsidagi buraladigan shpilkalarni qo'llash o'yinchilarning og'ir jarohat olishi sababli 1990-yilda Avstraliya futbol qoidalari (ligasi) da ta'qiqlandi. Chunki bu butsilardagi shpilkalar metalldan edi va ular futbolchilarning himoyalalmagan tana qismiga takkanda og'ir jarohatlar yetkazardi. Futbolda hakamlar o'yin boshlanishidan oldin (o'yinchilar jarohat olmasliklari uchun) futbol butsilari va ularning shipalarini tekshirishlari lozim edi. Bundan oldin esa buraladigan shipalarni qo'llash, birinchi navbatda, ob-havoga qaralar va asoslangan edi. Bugungi kunda esa maxsus ishlab chiqilgan futbol butsilari yaxlit poshnalidir. Bu butsilarning poshnalari tifli shaklda tuzilgan bo'lib, nazariy tomondan maydonda yugurish maksimal, oyoqning jarohat olishini ta'minlaydi minimal darajada bo'ladi.

Futbol butsilari savdo markalari va futbol bozori Assosiatsiyasi

Butsi assosiatsiyasi, birinchi navbatda, faqat qora rangli butsilar (krossovka yoki ko'pincha futbol utkalari Amerika va Angliyada) ishlab chiqarishga ruxsat berilgan edi. Lekin oxirgi vaqtlar butsilar: ko'k, yashil, qizil, oq, sariq, kumush, oltin va hatto, pushti ranglarda ham ishlab chiqarishga ruxsat berildi. "Nike", "Adidas", "Umbro" kabi taniqli korxonalarining futbol butsilari sotuvida nufuzlidir "Nike Merkurial" yetakchi hisoblanib, uni Krishtiano Ronaldu kiyib yurdi. Boshqa ma'lumotlarga ko'ra, "Total 90" futbol Butsilarini Ueyn Runi kiyib yuradi. Germaniyaning "Adidas" korxonasi mahsulotini Devid Bexkem, Geri Nevill va Stiven Jerrard kiyadi. 2006-yildagi Jahon futbol chempionatida butun Germaniya futbol terma jamoasi "Adidas" korxonasining oyoq kiyimini kiyishgan. Djon Terri va Maykl Ouen ingliz korxonasi "Umbro" tomonidan ishlab chiqaruvchi "Speciali" ni ma'qulladilar. "Manchester Yunayted" klubi yarim himoyachisi Jon Oshi botiq butsini kiyadi, bu butsi esa Kanada mamlakati korxonalarida ishlab chiqariladi. Korxonalarining ta'kidlashicha, ushbu butsilarni kiyganda oyoqlar jarohat olmaydigan, xavfsiz qilib ishlab chiqarilgan.

Barcha sport tovarlarini ishlab chiqaruvchi korxonalaridan ko‘ra oxirgi yillar “Nike” korxonasi muvaffaqiyatli hisoblanadi. Uning mahsuloti professional futbolchilar orasida shuhrat qozongan. Ronaldino, Ueyn Runi va Krishtiano Ronaldo va ko‘plab boshqa mashhur futbolchilar orasida obro‘ qozongan. “Adidas” korxonasi 1954-yil FIFA World Cup da Germaniya futbol terma jamoasiga burama shpilkali butsisini taqdim etgan. Bular esa zamonaviy bozorda o‘zining katta o‘yinchi nomli indossantlarga ta‘sir etib va ular bilan shartnoma qilishgan. Bular: Devid Bekxem, Fransiya futbol terma jamoasi sobiq sardori Zinedin Zidan, Frenk Lempert, Stiven Jerrard va boshqa muvaffaqiyatli o‘yinchi shular jumlasidandir. “Adidas” korxonasi texnologiya va klass tasviri bilan ishlab chiqarilgan mahsulotlarini sotadiki, ular ham o‘yinchi muvaffaqiyatiga kalit hisoblanadi. “Umbro” - korxonalar orasida unchalik mashhur hisoblanmasa-da, shunga qaramasdan oyoq kiyimi mahsulotlarini sotmoqda. Chunki, Angliya futbol klublari ushbu korxonaga bilan mustahkam aloqadadir. Bu korxonani Jonn Terri va Maykl Ouendek mashhur futbolchilar qo‘llab-quvvatlashmoqda.

Butsi asrlar mobaynida

O‘tgan 300 yil davr vaqtida futbol va uning atributikasi rivojlanishi uchun ushbu davr omadsiz qora vaqtlar davri edi. O‘sha davrdagi qoida bo‘yicha barcha poshnali etiksimon butsilar ta‘qiqlandi.

Ammo 1891-yil mavjud qonun qayta ko‘rib chiqilib, futbol butsilariga shpilkali ishlatilishiga ruxsat berildi. O‘shanda ham agar u talab me‘yori darajasida charmdan, yarim dyuym uzunligi va material bilan mahkam bo‘lib bir xil darajada bo‘lsa.



1925-yil aqlli nemis aka-uka Dasslerlar (Adolf va Rudolf, keyinchalik Adidas va Puma formasiga chiqqan) almashinadigan shipalarni ixtiro qilishdi. Ularning oyoq kiyimi olti-yettita shpilkadan iborat bo‘lib, o‘yinlar vaqtida ob-havo sharoitiga qarab almashtirsa bo‘ladigan edi. Aynan “Adidas” korxonasi 1954-yilda futbol butsilarini tayyorlashi bilan G‘arbiy Germaniya dunyo kubogini qo‘lga kiritdi va bu korxonaga hozirgacha Germaniya futbol terma jamoasini o‘zining sport tovarlari bilan ta’minlamogda.

“Adidas” korxonasi uchun futbol butsisini ishlab chiqarishda 1960-yillargacha raqobatchi bo‘lmay, “Adidas” korxonasi savdo bozorida monopol edi (binobarin, uning nazorat kuchli edi). 1966-yilgi jahon kubogida 75% o‘yinchilar “Adidas” korxonasi butsisini kiyib o‘ynashgan. “Adidas”dan keyin yana futbol butsilarini ishlab chiqaruvchi oltita korxonaga paydo bo‘ldi. Bular **“Gola”** (1905-yilda tashkil qilingan), **“Val-sport”** (1920), **“Hummel”** (1923), **“Mitra”** (1960), **“Joma”** (1965) va **“Asics”** (1964).

Ammo 1956 yil “Adidas” korxonasi futbol butsilarini ishlab chiqarishda ikkita voqea birinchi xomashyo ishlatishda yagona bo‘lib charm o‘rniga “poliamid”ni qo‘shib, ikkinchisi esa kenguru ustki charmini yoki K – charmini (uni gohida shunday atashadi) ishlatishdi. Bunday oyoq kiyimlarining ustki qismini ishlab chiquvchilardan eng zo‘ri edi. Qariyb 50 yil bu charm futbol butsilari uchun eng yaxshi hisoblanib kelmoqda. Bundan oldingi butsilar yetakchi futbolchilar uchun butsi oyoq kiyimini olib yurish qiyinchilik tug‘dirgan.


Hozirgi davrda o‘yinchilarning kiyishi jihatidan qulay va ularning maydonda yaxshi yugurishi uchun 12 shipalik butsilar ishlatiladi.

1997-yilda futbol butsilari olamida zo‘r Butsi – “Adidas Copa Mundial” nomli butsi paydo bo‘ladi. O‘sha vaqtlarda esa **“Lotto”**, **“Puma”**, **“Umbro”**, **“Diadora”**, **“Mizuno”**, **“Patrik”**, **“Kappa”**, **“A-Line”**, **“Reebok”** va **“Nike”** butsilar ishlab chiquvchilar bozorida ko‘plab korxonalar bor edi.



“Followingdecade” futbol butsilari uchun rivojlanish yili bo‘ldi, shu bilan birgalikda, “Adidas Predator” ham

Kelajakdagi butsilar orzusi



“Adidas” va “Nike” futbol butsilarini ishlab chiqish va savdo bozorida peshqadamlik qilishda davom etayotgan bir paytda, ularning mashhurligi va xajmi uncha katta bo‘lmagan sport kiyimlarini ishlab chiqaruvchi “Puma”, “Diadora”, “Umbro”, “Mitre”, “Gummel”, “Kelme”, “Loto” va “Gola”dek korxonalar ma’qullashgan. Bu korxonalar esa “Reebok”, “Puma”, “Adidas” va

“Nike” kabi korxonalar bilan raqobatlashishda maxsuslashtirilgan va ilg‘or texnologiyalarga tayanmoqdalar.

Kelajakdagi butsilar har bir o‘yinchiga mos individual usul, oyoq o‘lchamlari shishada olinib va o‘shanga mos qilib ishlab chiqariladi.

Zamonaviy butsilar

Zamonaviy butsilar nafaqat tabiiy charmdan tayyorlanadi, balki ishlab chiqaruvchi korxonalar tabiiy materiallardan tayyorlashni afzalroq ko‘rishadi. “Nike” korxonasi esa bu yo‘nalishda haqiqiy yuksalishga erishib, butsini aniq futbolchining mahoratiga taalluqli qilib ishlab chiqardi (tezlik, kuchli zarba, texnika). Bundan tashqari, bu korxonalar maxsus poshna (karbon) ishlab chiqdi bu esa futbol butsisining og‘irligini 185 grammdan oshmasligini ta’minlaydi.

Oltin Butsi

“Oltin butsi” – futbol mukofotidir. Bu mukofotni birinchi bo‘lib 1968-yili portugaliyalik mashhur futbol yulduzi Eysebioga Frantsiya

futbol jurnali «France Football» bilan «Adidas» korxonasi birgalikda topshirishgan. Keyinchalik esa bu mukofot mamlakat futbol birinchiligida eng yaxshi to‘purar o‘yinchiga topshirilib, ikkinchi o‘rinni egallagan o‘yinchiga “kumush butsi”, uchinchi o‘rinni egallagan o‘yinchiga “bronza butsi”si topshirilgan. Biroq mukofot ko‘pincha, Sharqiy Yevropa futbol chempionatining nisbatan kuchli bo‘lmagan klub o‘yinchilariga nasib qilgan, natijalarning adolatligiga shubha uyg‘ongan, chunki chempionatning oxirgi turlarida bu futbolchilar tomonidan ko‘p gollar kiritilardi. Bunday mojarolarning kelib chiqishi natijasida “France Football” tashkiloti mukofot berishdan voz kechishga majbur bo‘ldi. Shundan so‘ng “Oltin butsi” mukofoti 1991-yildan keyin hech bir futbolchiga topshirilmadi.

1997-yilda “Oltin butsi” mukofotini berish tizimi o‘zgardi, futbolchi tomonidan kiritilgan to‘plar, futbolchi o‘ynayotgan chempionatning reytingiga ko‘paytirilardi (barcha Yevropa chempionatlari saviyasiga (kuchligiga) qarab, 2, 1,5 va 1 koeffisientlari bilan 3 guruhga ajratilgan edi), va yiqqan ballari asosida eng ko‘p ball to‘plagan o‘yinchi g‘olib deb e‘lon qilinardi.

Barcha yillar mobaynidagi “Oltin Butsi” lauretlari

1968 – 1991 - yillardagi “Oltin Butsi” sohiblari

Yil	O‘yinchi	Klubi	Gollari
1968	 Eysebio	 Benfika	42
1969	 P. Jekov	 TsSKA (Sofiya)	36
1970	 G. Myuller	 Bavariya	38
1971	 I. Skoblar	 Olimpik (Marsel)	44
1972	 G. Myuller	 Bavariya	40
1973	 Eysebio	 Benfika	40
1974	 E. Yasalde	 Sporting	46
1975	 D. Djordjesku	 Dinamo (Buxarest)	33
1976	 S. Kaifas	 Omoniya	39
1977	 D. Djordjesku	 Dinamo (Buxarest)	47
1978	 I. Krankl	 Rapid	41

1979	 K. Kist	 AZ'67	34
1980	 E. Vandenberg	 Lers	39
1981	 G. Slavkov	 Trakiya	31
1982	 V. Kift	 Ayaks	32
1983	 F. Gomesh	 Portu	36
1984	 Ian Rash	 Liverpul	32
1985	 F. Gomesh	 Portu	39
1986	 M. van Basten	 Ayaks	37
1987	 R. Kemetaru	 Dinamo (Buxarest)	44
	 T. Polster	 Avstriya	39
1988	 T. Cholak	 Galatasaray	39
1989	 D. Mateuts	 Dinamo (Buxarest)	43
1990	 X. Stoichkov	 TsSKA (Sofiya)	38
	 U. Sanches	 Real	38
1991	 D. Panchev	 Tsrvena Zvezda	34

1987-yil Rodion Kemetaru “Oltin butsi”ni qo‘lga kiritdi, keyin esa uni ushbu mukofotdan mahrum qilganlar, chunki oxirgi 6 ta o‘yinda kiritgan 18 gollar kelishuv asosida bo‘lganligi isbotlandi. Shuning uchun 1987-yilda “Oltin butsi” sohibi 39 gol kiritgan T.Polster “Avstriya” klubi (Vena, Avstriya) futbolchisi hisoblanadi.

1992 – 1996 yilgi eng yaxshi to‘purarlar

Yil	O‘yinchi	Klubi	Gollari
1992	 Alli Makkoyst	 Reyndjers	34
1993	 Alli Makkoyst	 Reyndjers	34
1994	 Devid Teylor	 Portmadog	43
1995	 Arsen Avetisyan	 AOSS	39
1996	 Zviad Endeladze	 Margveti	40

Bu futbolchilarga “Oltin butsa” mukofoti berilmagan (“Oltin Butsi” mukofotini berish bu yillarda bekor qilingan edi).

1997 – 2010 – yilgi “Oltin Butsi” sovrindorlari

Yil	O'yinchi	Klubi	Gollari	Koef-fitsient	Ballari
1997	 Ronaldo	 Barselona	34	2	68
1998	 N. Maxlas	 Vitess	34	2	68
1999	 M. Jardel	 Portu	36	1,5	54
2000	 K. Fillchizimchas	 Sanderlend	30	2	60
2001	 X. Larsson	 Seltik	35	1,5	52,5
2002	 M. Jardel	 Sporting	42	1,5	63
2003	 R. Makay	 Deportivo	29	2	58
2004	 T. Anri	 Arsenal	30	2	60
2005	 T. Anri	 Arsenal	25	2	50
	 D. Forlan	 Vilyareal	25	2	
2006	 L. Toni	 Fiorentina	31	2	62
2007	 F. Totti	 Roma	26	2	52
2008	 K. Ronaldu	 Manchester Yunayted	31	2	62
2009	 D. Forlan	 Atletiko Madrid	32	2	64
2010	 L.Messi	 Barselona	34	2	68

4.3. Futbol qalqonchalari

Futbol qalqonchasi – bu futbol kiyimi (formasi)ning ajralmas anjomi



hisoblanadi. Qalqonchalar birinchi navbatda oyoqqa jismoniy jarohat etishidan saqlash uchun mo'ljallangan.

Futbol qalqonchalari tarixi.

Taxminlarga ko'ra, Qalqonchadan birinchi foydalangan futbolchi Angliya **“Nottingham Forest”** klubi o'yinchisi Sem Ueller

Uiddoson hisoblanadi. Bu futbolchi 1874-yilda oyoqni himoyalash uchun

junli getri ustidan bir juft qalqonchani bog‘lagan. Boshida bu yangilik o‘yinchilar tomonidan qabul qilinmadi, ammo keyinchalik futbolchilar qalqonchadan foydalana boshladi.

Birinchi futbol qalqonchalari maydonda futbolchining erkin harakatlanishini qiyinlashtirgan va o‘yin sur‘atini pasaytirgan. Keyinchalik, futbol qalqonchalarning qisqa variantidan foydalana boshlangan. Ammo bunday himoya vositasi oyoqning oldingi qismi jarohatlanishiga olib kelgan.

Mo‘ljallanganligi:

Futbol qalqonchasi, birinchi navbatda, sportchi tomonidan olinadigan zarba, yuklamani butun yuza bo‘yicha tarqatishga va oyoqqa olinadigan zarba kuchini kamaytirishga yordam beradi.

Materiallari:

Zamonaviy futbol qalqonchasi materiallari zarbani o‘ziga yutib oladigan xususiyatlar va futbolchilar oyog‘ini jarohatdan saqlaydigan xususiyatlarga ega. Futbol qalqonchalari quyidagi sintetik materiallardan ishlab chiqariladi:

Shishatola – qattiq, mustahkam va yengil material;

Kichik g‘ovakli rezina - yengil, ammo shishatola materialidek chidamli emas;

Poliuretan – og‘ir va mustahkam material, u jarohat yetkazadigan zarbaga qarshi yaxshi himoyachi vazifasini bajaradi;

Plastik – himoyalovchi darajasi katta bo‘lmagan yengil material.

Futbol qalqonchalari qanday maqsadda ishlatiladi?



Katta boldir suyagining pastki va ustki qismi teriga yopishgan bo‘lib, uni muskul-lar qayishqoqlik o‘rab olmaganligi sababli yetishmaydi. Shuningdek, berilgan zarbalar natijasida katta boldir suyagi jarohatlanishi va shikastlanishiga moyil bo‘ladi. Oyoq suyaklarida og‘riqni sezuvchi to‘qimalar ko‘p bo‘lganligi sababli bunday jarohatlanish juda ham ayanchli hisoblanadi.

Futbol qalqonchalari turlari:



Futbol qalqonchalari himoyalovchi darajasiga qarab ikki turga bo'linadi: oyoqning to'piq qismi, axil payini va ularsiz. Birinchi turdagi qalqoncha ko'proq to'piqni himoyalash vazifasini ta'minlaydi. Ikkinchi turdagisi esa yengil, qulay, arzon, ammo bu turdagi qalqonchalar olinadigan jarohat va shikastlar etkazilishining oldinini kamroq oladi. Futbolchilar ko'pincha ikkinchi turdagi qalqonchalar bilan o'ynashni

afzal ko'rishadi. Ammo sport shifokorlari o'rtoqlik o'yinlari bo'lsa ham oyoqlarni maksimal darajada himoyalashni maslahat berishadi, chunki bu o'yinlarda ham sportchi jiddiy jarohat olishi mumkin. Shuningdek, qalqonchalar jipslashgan va ichiga qo'yiladigan kabi turlariga bo'linadi (yengillashtirganlari). Osonlashtirilgan qalqonchalar, asosan, yosh sportchilar tomonidan ishlatiladi.

Futbol qalqonchalari oyoqlarni bir qator jiddiy jarohlardan saqlaydi. Zamonaviy professional futbolda ulardan foydalanish (taqish) zarur hisoblanadi.

4.4. Darvozabonlar kiyimi (futbol kasi)

Bu borada ham darvozabonlar qo'lqoplari singari ham tanlash imkoniyatlari katta. Darvozabon kamzuli yoki futbol kasi uzun yoki kalta yengli bo'lishi mumkin va agar maydon yaxshi holatda yumshoq bo'lsa, yengil kalta kiyim kiyilishi yaxshi hisoblanadi, agar maydon sifati yomon bo'lib, buning ustiga toshloq bo'lsa, qo'llarning tirsakdan bilakkacha bo'lgan qismining jarohat olishi ko'proq yuzaga kelishi mumkin. Toshloq va sifati pastroq bo'lgan maydonda uzun yengil kamzulda o'yinga tushish maqsadga muvofiqdir. Ularni ikki turga: himoya vositasi (odatda himoya vositasi o'rniga porolondan yoki unga o'xshash matodan qilingan himoya vositalari) va himoyasiz vositalarga ajratsa bo'ladi.

Darvozabon o'ziga forma (sviter) tanlashda maydon holati va sifatini hisobga olishi kerak. Toshli maydonda himoya vositali forma kiyish maqsadga muvofiq, sun'iy qoplamali maydonda esa ham himoya vositali, ham himoya vositasisiz bo'lgan forma kiya bo'laveradi. Boshqa bir variant ham bor, ya'ni tagdan kiyiladigan futbolkani himoya vositalisi tanlanib kiyiladi, ustidan esa o'yin uchun mo'ljallangan sviter kiyiladi. Ichki futbolkaning himoya vositasi ekanligi shunisi bilan afzalki, u tana (qo'l, oyoq va tirsaklar)ni zich qoplab, himoya vositalari kerakli joyni himoya qila oladi, lekin forma (sviter)lar futbolkalarga qaraganda ancha keng qilib tikiladi va forma (sviter)lardagi himoya vositalari ko'p hollarda darvozabon to'pni qaytarish uchun sakraganda kerakli joyni himoya qila olmaydi, chunki u badanga bevosita qoplangan bo'lmaydi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, himoya vositalari asosan yiqilganda tananing ma'lum bir qismining shilinishi va chandiقدan himoya qilinishi uchun ishlatiladi. Ammo ular suyakning sinishi va qo'l-oyoqning chiqishi kabi jarohatlardan himoya qila olmaydi. Agar darvozabon jarohat olishni xohlamasa, o'zi ustida ko'proq ishlab, yiqilganda to'g'ri tusha bilishni mashq qilishi kerak, chunki to'pga sakraganda yerga to'g'ri tusha olmagan darvozabon jiddiy jarohat olishi mumkin, bunda hatto himoya vositalari ham yordam bera olmaydi. Darvozabon formalarini (sviter) tanlashda juda ham e'tiborli bo'lishi kerak. Agar darvozabonning formasi (sviter) sintetik matodan qilingan bo'lsa, o'yinda darvozabon unda qizib ketadi, chunki tana sintetik mato ichida nafas ololmaydi. O'yin davomida u ho'l bo'lib, tanaga yopishadigan bo'lib qoladi. Hozirda buning oldini olish uchun ko'pgina texnologiyalar qo'llanilmoqda. Hamma yirik korxonalar ("**Adidas**", "**Nike**" va h.k.) sportchilar talabini inobatga olgan holda darvozabon forma (sviter)larini ishlab chiqarishmoqda. Mashg'ulotlar uchun ob-havoga qarab yengi uzun bo'lgan istalgan forma (sviter)larni ishlatish mumkin. Sovuq havo uchun esa qalin paxtadan qilingan forma (sviter)lardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ayrim ishlab chiqaruvchilar sviterlarning ko'krak va yeng qismida silikon himoya vositasidan foydalanishni afzal ko'rishadi. Bu esa to'pni yaxshi ushlab olishga imkon beradi. Darvozabon sviterning o'rtacha narxi 35 – 100 \$ (dollar)ni tashkil etadi, bunda "**Nike**", "**Adidas**", "**Umbro**" korxonalarining sviterlariga asosiy e'tibor qaratish joizdir.

Darvozabonlar shimi va shortigi. Shortik va shim tanlashda asosiy e'tibor ob-havoga va maydon qoplamasiga hamda darvozabon istagiga bog'liqdir. Kech bahordan erta kuz fasligacha shortikda darvozani himoya qilish juda ham maroqli. O'yinda shortiklarda harakatlanish juda ham qulay, ular asosan noqulaylik tug'dirmaydi. Futbol shortiklari yonoq (son, chanoq)da himoya bilan va himoya vositasisiz bo'lishi mumkin. Bunda forma singari ob-havo va maydon holati hisobga olinishi kerak. Odatda, yonoqlarda himoya vositalarining bo'lishi maqsadga muvofiqdir, negaki ko'p holatda sakraganda va yerga tushganda asosiy zarba kuchi yonoqlarga to'g'ri keladi. Lekin toshloq yerda o'ynaganda, yonoqdan tashqari tizzada ham himoya bo'lishi kerak. Chunki tizza ham turli xil zarbalarga duch keladi va ularni shilinishdan himoya qilishda tizza himoya vositalarining o'rni beqiyosdir. Agar o'yinda darvozabon to'g'ri va aniq harakat qilsa, u kam hollarda tizzadan jarohatlanadi. Darvozabonlar shimida ham tizza va yonoq qismida himoya vositalari bo'ladi. Yana takror aytib o'tish joizki, bu himoya vositalaridan yerga yiqilgandan yuzaga keladigan og'riqning kamayishini kutish kerak emas, ular yerga tushgandagi shilinishlardan himoya qilishi mumkin, lekin suyak sinishining oldinini ola bilmaydi. Bu himoya vositalaridan yomon ahvoldagi maydonda o'ynaganda foydalanish to'g'ri hisoblanadi. Darvozabonlar shimining o'rtacha narxi 25 – 70 \$ (dollar)dir. Darvozabonlar kiyim tanlaganda “Nike” va “Reusch” ishlab chiqaruvchilariga ko'proq yon bosishadi.

Qalqoncha, tizza va tirsak himoya vositalari

Qalqonchalar odatda suyak qismini, ya'ni oyoq qismining pastki qismini himoya qiladigan turiga bo'linishi mumkin yoki usiz ham bo'lishi mumkin. Futbol qalqonchalarini tanlashda, ularning ustki qismiga e'tibor qaratish kerak. Iloji boricha qalqonchalar aylana shaklga ega bo'lishi kerak. Aks holda, yarim yotgan holda raqib o'yinchisi oyog'i ostidagi to'pni tepib yuborish paytida yoki yerda sirg'alishda getri, qalqoncha va yerga tekkan joyidan yirtilishi mumkin. Tizza va tirsak himoya vositalarini tajribali futbolchi – darvozabon deyarli hech qachon ishlatmaydi, ularni futbol havaskorlari ishlatishadi, chunki havaskorlar to'p suradigan maydonlar holat jihatidan ancha yomon ahvolda bo'lib, o'ynaganda jiddiy jarohatlanish mumkin. Darvozabon qaltis va tez harakat qilishga majbur bo'lgani uchun ham odatda, tirsak va tizza himoya vositalari ularga kerak

emas (havaskorlarning toshloq yerda futbol o‘ynayotgan holati bundan mustasno), chunki ular darvozabonning erkin harakatlanishiga to‘sqinlik qiladi. Tizza himoya vositalarini ishlab chiqaruvchilar ichida “Uhlspport” va “Lotto” korxonasi mahsulotlari sifatli hisoblanadi.

4.5. Darvozabon qo‘lqopi



Qo‘lqoplar tarixi qadim zamonlarga borib taqaladi. Hozirgi ko‘rinishidagi qo‘lqoplar miloddan avvalgi X – XVIII asrlarda paydo bo‘lgan. Ungacha esa odatda qo‘llar uchun xaltachalar ishlatilib, ularda barmoqlar uchun bo‘shliqchalar yo‘q edi. Eng qadimgi qo‘lqoplar qadimiy Misr fir‘avni Tutankhamon qabridan topilgan.

Qadimgi rimliklar qo‘lqoplardan o‘ta og‘ir mehnat bajarishganda, sovuqdan himoya qilish va ovqat tanovul qilganda foydalanishgan. O‘rta asr va Renessans davri (XI – XV asrlar) Yevropada qo‘lqoplar ommalashuvi davri bo‘ldi. Odatiy vazifasidan tashqari, qo‘lqoplar hukmronlik belgisining ajralmas bo‘lagiga aylandi, ya‘ni qo‘lqoplar – qirol va qirolicha, sud hakamlari va ruhoniylar (yepiskoplar) kundalik hayotida odatiy bo‘lgan edi. Qo‘lqop ritzarlik etiketida katta o‘ringa ega bo‘lib, muhr singari katta kuchga ega bo‘lib, qo‘lqop egasining ijtimoiy hayotda qanday mavqega ega ekanligini ko‘rsatib turar edi.



Qo‘lqop taqib yurish davri XIX asr oxirigacha davom etdi, o‘sha davrlarda qo‘lqopsiz tashqariga chiqish odobsizlik sanalgan. O‘zini hurmat qilgan har bir ayol o‘z kiyim javonida kamida o‘n juft qo‘lqopga ega edi. Keyinchalik XX asrda qo‘lqoplar o‘z ahamiyatini yo‘qotdi va bezak sifatida ham qo‘llanilmay qo‘ydi.

Qo‘lqoplar endilikda o‘zining odatiy vazifasini, ya‘ni qo‘llarni sovuqdan

himoya qiladigan odatiy narsaga aylandi. X asrning 60 – yillarga kelib odatiy charm qo‘lqoplar o‘z o‘rnini sport qo‘lqoplariga bo‘shatib berdi. Biroq XX asrning 80-yillaridan jahon modasi qo‘lqoplarni kiyadigan kishilar asosiy kiyim sifatida ular javonidan muhim o‘rin egallagan. Charmdan qilingan bejirim qo‘lqoplar ishlab chiqarilishi boshlandi. Hozirgi kunda zamondoshlarimizning kiyim jovonidan uch juft qo‘lqopning topilishi yoki topilmasligi katta so‘roq ostida. Lekin XIX asrning boshida har bir erkak kishi kunida olti marotaba qo‘lqopini almashtirishi majburiy sanalib, bu odatiy kundalik vazifaga aylangan edi. Birinchi qo‘lqoplar bejirim ko‘rinishga ega bo‘lib, qo‘l uchun xaltacha sifatida tikilgan va bilakka bog‘lab qo‘yilgan. Bunday qo‘lqoplar qadimgi Misrda miloddan oldingi ming yillar oldin bo‘lgan, deb olimlar ta’kidlashgan. Keyinchalik o‘sha qo‘lqoplarda katta barmoq uchun alohida joy tikilib, Misrlik ayollar ushbu qo‘lqoplardan ovqat iste’mol qilish vaqtida foydalanishgan. Qo‘lqoplarning eng qadimiysi Misr fir’avni Tut-anxamon qabridan topilgan bo‘lib, Misr ayollari kiygan qo‘lqopdan farqli o‘laroq, har bir barmoq uchun alohida joy ajratilgan. Qadimgi gretsiyaliklar qo‘lqop kiyadigan odamlarni yoqtirishmagan, ularning fikricha, qo‘lqop kiyadiganlar nozik kishilar bo‘lib, ular ko‘pchilik tomondan qoralangan. Bolqon yarim orolida ob-havo xuddi hozirgidek iliq bo‘lib, qo‘lqop kiyishga hojat bo‘lmagan. Greklar, asosan, qo‘lqopni jismoniy mehnat bajarishganda kiyishgan. Hatto, grek yozuvchisi Gomerning “Odisseya” asarida qo‘lqop haqida so‘z yuritilgan. Biroq qadimgi rimda deyarli hamma odamlar qo‘lqop kiyishgan. Rimliklar qo‘llarini nafaqat sovuqdan turli xil chang-to‘zondan, balki issiq ovqatdan ham himoya qilish maqsadida qo‘lqop kiyishgan. Rimliklarning oshxonasida ovqatni olish uchun asboblari bo‘lmagani sababli, ular qalin qo‘lqoplarda issiq quyuk ovqat bo‘laklarini olishgan, bu esa ular uchun ancha qulay hisoblanib, ovqat qo‘lni kuydirmagan.

O‘rta asrlarda qo‘lqoplardan foydalanish ommalashdi. Qizig‘i, qo‘lqoplarda faqat katta barmoq va kift qism bo‘lib, alohida har bir barmoq uchun joy ajratilmagan va ular shaklan askarlar va ovchilar kiyadigan qo‘lqoplariga o‘xshab ketgan. Eng chiroyli va qimmat qo‘lqoplar qirol va din peshvolariga tegishli bo‘lib, ular kumush, oltin va qimmatbaho toshlar bilan tikilgan.

Tarixchilar fikricha, qo‘lqoplarning ommalashishi o‘rta asrga to‘g‘ri kelgan bo‘lib, aynan o‘sha paytlarda qo‘lqop insonlarning ajralmas kiyimlaridan biriga aylangan.

Birinchi navbatda qo‘lqop kuch-qudrat ramzi bo‘lgan. Ya’ni yepiskoplar lavozimga tayinlanganida, ritsarlar qasamyod qabul qilishganida va shahar vakillaridan biron-biri kengashga saylanganda, ularga kuch-qudrat ramzi sifatida qo‘lqop berilgan. Misol uchun tijorat qilish va tanga zarb qilish huquqi qirol qo‘lqopini olish bilan kuchga kirar edi. Hatto sud hakamlari ham o‘z ishini qo‘lqop kiyish bilan boshlashar edi. Albatta, qo‘lqoplar o‘rta asrlarda ritsarlar hayotida muhim o‘ringa ega edi. Ya’ni, kishining yuziga tashlangan qo‘lqop nafsoniyatga tegishning eng jiddiy usuli bo‘lib, u orqali duelga chaqirishgan. Ayol kishidan olingan qo‘lqop o‘sha ayolning samimiy munosabatidan darak berib, odatda ritsarlar bunday qo‘lqoplarni kechalari ham o‘zlari bilan saqlab, bel yoki tomoqdagi maxsus ajratilgan xaltachalarda saqlangan. XII asrga kelib, Yevropada maxsus kasb - qo‘lqopchi paydo bo‘ldi, bu kasb o‘ta hurmat belgisi hisoblangan. Albatta, qo‘lqopni qo‘l o‘lchamlariga moslab tikish va qimmatbaho toshlar yoki naqshlar bilan bezash uchun ko‘p mehnat talab etilgan. Bunday san’at asarini o‘sha paytlarda hamma ham o‘ziga ep ko‘ra olmagan. Shunday qilib, qo‘lqoplar to‘laligini to‘kin – sochinlik belgisi sifatida qaray boshlashdi va qo‘lqopni nafis va chiroyli ishlanganligi uning ko‘payishining mavqeini belgilab bergan.

Renessans davrining kirib kelishi hech nimani o‘zgartirmadi. Qo‘lqoplar qanday qimmat va zamonaviy bo‘lsa, shundayligicha bo‘lib qolaverdi.

Qo‘lqoplar turli xil gazlama, chizimchaak va albatta, charmdan qilingan bo‘lib, uni oltin, kumush va marjon bilan bezatishgan. XV asrda esa qo‘lqoplarga atir (dusi) bilan sepish urf-odat bo‘lgan va bu o‘ziga hoslik sanalgan. Afsonalarga ko‘ra, Ekaterina Medichi ham nevarrillik qirol xotini qo‘lqopini zaharlagan, qirol xotini uzoq qiynalgandan so‘ng o‘lim topgan. XVI asrga kelib odob qoidalari Yevropa davlatlarida ancha o‘zgarib, erkaklarga o‘z qo‘lqoplarini kunida bir necha marotaba yechib qayta kiyishlariga to‘g‘ri kelgan. Erkaklar qo‘lqoplarida quyidagilarni qilish ta’qiqlangan edi:

- Qo‘l berib salomlashish
- Dafn marosimlarida ishtirok etish
- Turli xil tantana va diniy marosimlarda ishtirok etish.

Bundan tashqari, qirol huzurida qo‘lqopni yechish majburiy hisoblangan. Qo‘lqoplarni mijozlar uchun qulay qilish maqsadida qo‘lqoplar ancha kengaygan bo‘lsa ham, ko‘pchilik erkaklar qo‘lqoplarni bel qismida qistirib yurishni afzal ko‘rishgan. Ayollarga bunday qoidalar qo‘llanilmaganligi sababli qo‘lqop tikuvchilari ko‘proq ayollarga mos keladigan qo‘lqoplar ishlab chiqarishgan. Qo‘lqoplarda asosan ayollar uchun hos bo‘lgan gullar, naqshlar, zeb-ziynat turlari joylashtirilgan. Qo‘lqoplar olamidagi shov-shuvli yangilik qo‘lqoplarning uzayishi bilan bog‘liq bo‘lgan, chunki ayollar kiyimi javonida yengsiz ko‘ylaklarning paydo bo‘lishi bilan uzun qo‘lqoplar paydo bo‘ldi. Endilikda qo‘lqoplar ayollar tirsagini ham yopishi kerak bo‘lgan. 1566-yilda Angliya qirolichasi Elizaveta I Oksforddagi rasmiy marosimda uzun qo‘lqopni kiyishi tufayli uzun qo‘lqoplarning ommalashishiga sababchi bo‘lgan. Biroq uzun qo‘lqoplar faqatgina XVIII asrga kelib nozik didli ayollar ko‘nglini to‘laligicha zabt etdi. Biroq Barokko davrida paydo bo‘lgan uzun yengil manjetlarni erkaklar orasida ommalashishi, uzun qo‘lqoplarning erkaklar orasida keng yoyilishiga to‘sqinlik qilgan, chunki qo‘lni butunligicha yopib turgan manjet bilan uzun qo‘lqopni kiyish mantiqsizlik deb hisoblangan. Ular bu ikkala qo‘lqopdan birini tanlashgan. Lekin, o‘ziga hos bir faktni aytib o‘tish kerakki, qo‘lqop fransuz mushketyorlarida qisman, ya‘ni mushket ushlaydigan qo‘lda saqlanib qolgan. Erkaklarning qo‘lqoplarga bo‘lgan qiziqishi frantsuz generali Napoleon Bonapart nomi bilan bog‘liq, chunki Napoleonning fikricha, qo‘lqop erkak kishiga savlat va jasurlik ko‘rinishini bergan va barcha uni o‘rab turganlardan qo‘lqop kiyib yurishlarini talab qilgan. Zamondoshlarining ma‘lumot berishiga qaraganda, 1806-yilda Napoleonda 240 juft qo‘lqoplar jamlangan. Tez orada qo‘lqoplar yana erkaklar orasida ommalashgan. Biroq Bonapartning rafiqasi Jozefina erining qo‘lqoplarga bo‘lgan qiziqishini xushlamasa ham, doim odamlar oldiga chiqqanida uzun qo‘lqopda omma oldida paydo bo‘lar edi, hech kimning hatto tasavvuriga emas ediki, Jozefinaning uzun qo‘lqoplarni kiyishiga asosiy sabab o‘zining xunuk qo‘llarini odamlardan bekitish bo‘lgan.

XIX asr talablariga mos kelish maqsadida erkaklar qo‘lqoplari rasmiy ko‘rinishga kelib, turli xil bezak va qimmatbaho toshlar bilan bezatishdan xoli bo‘lgan holda, jiddiy tus olgan. Asosiy urg‘u ularning tikilishi va materialiga berilgan. Ayrim boyvachchalar bir vaqtning o‘zida qo‘lqopni tik-

tirish uchun bir nechta qo‘lqop tikuvchi ustalarga buyurtma bergan, chunki bir usta qo‘lqopning tikilishi bilan, ikkinchisi bilak qismi, uchinchi esa barmoqlar joylashishini tikish bilan shug‘ullanib, qo‘lqoplar uchun charm chet eldan keltirilgan. Qo‘lqopga bo‘lgan ehtiyoj ortaverdi va ko‘pchilik qo‘lqop kiyishga ishtiyoqmand edi, lekin qo‘lqoplar hali ham qo‘lda va aynan buyurtma asosida ishlab chiqarilar edi. 1807-yilda angliyalik Jeyms Vinter charm buyumlar ishlab chiqaradigan dastgohini yaratishi bilan qo‘lqoplarni ishlab chiqarish ko‘paydi va qo‘lqoplar tanqisligi muammasiga barham berildi. Endilikda kayfiyati, kiyimi va ob-havoga qarab, kishilar qo‘lqoplarini almashtirib kiyish imkoniyatiga ega bo‘lganlar.


Ayollarda esa o‘ziga hos xursandchilikka sabab bo‘ladigan holatlar mavjud edi, barmoqsiz qo‘lqoplar ommalashib ketdi. Gulli va naqsh tushirilgan paypoqlardan so‘ng xuddi shunday qo‘lqoplar chiqdi. Shu o‘rinda aytib o‘tish kerakki, aynan shu paytda, yumshoq va cho‘ziluvchan laykolic qo‘lqoplar ommalashdi, ular toza tug‘ilgan echki va qo‘zichoqlar terisidan qilinar edi. Darvoqe, rus podshosi Nikolay I kiyinish madaniyatini yoqtirib va unga amal qilishni qat’iy talab etardi va o‘tkazilgan bayram (ballar)da hammaning oq qo‘lqop kiygan bo‘lishlari shart, deb belgilangan. O‘yin (vals) tushayotganlardan birini ko‘rib tanbeh bergan va ofitser qo‘lqoplarini yo‘qotganini aytgach, Nikolay I unga o‘z qo‘lqoplarini echib bergan. XX asr hammasini o‘z o‘rniga qo‘ydi, endilikda ayollar qo‘lqoplari uchun echki terisi, erkaklar qo‘lqopi uchun cho‘chqa terisi, sport qo‘lqoplari uchun esa it terisidan tayyorlanadigan bo‘lganlar. Qo‘lqoplarga ortiqcha bezash berish sur’ati pasaygan bo‘lsa ham, ayrim injiq xaridorlarga naqshli, patli va soxta brilliantlardan ishlab berilgan qo‘lqoplarni ham taklif etganlar. Qo‘lqoplarga bo‘lgan qiziqish o‘tgan asrning o‘rtalariga kelib butkul so‘ndi, o‘z vaqtining mashhur aktrisalari bo‘lgan Sara Bernar, Viven Li, Odri Xepbern va Merilin Monrodek mashhur insonlar jozibali va hayratlanarli qo‘lqoplar kiyishar va muxlislar ularga taqlid qilish maqsadida do‘konlarda soatlab navbatda turib, ularnikiga o‘xshagan qo‘lqop sotib olishgan.

Hozirgi kundagi qo‘lqoplar aynan bir maqsad uchun mo‘ljallanganligi va zerikarliligi bilan ahamiyatlidir. Shifokorlar, sportchilar, elektriklar va oddiy fuqarolar uchun mo‘ljallangan qo‘lqoplar mavjud. Aytishlaricha, yaqinda aerazol orqali qo‘lga sepiladigan qo‘lqoplar udum bo‘lar ekan, ularni suvda yuvib tashlash orqali ketkizish mumkin ekan.



Darvozabonlar qo‘lqopining tarixi. Hozirgi kunda darvozabonlarni qo‘lqopsiz tasavvur etish qiyin. Futbol o‘yini rivojlangan uzoq muddat davr, hatto 1960 – 1970 - yillarda ham darvozabonlar qo‘lqopi mavjud bo‘lmagan. Darvozabonlar faqatgina o‘z qo‘llariga ishonishlari va to‘pni qaytarishda paydo bo‘ladigan og‘riqlarga chidashlariga to‘g‘ri kelgan. Shukrki, bu davrlar o‘tmishda qoldi. Oxirgi 40 yil darvozabonlar uchun har tomonlama, ya’ni ilmiy – texnikaviy jihatdan mukammal bo‘lgan darvozabonlar qo‘lqoplari 3, 4 va 5 mm qoplamli lateks ko‘pigi yotqizilgan qo‘lqopdan tortib, ularning turi va tikilishi, ob-havo va maydon holatigacha bo‘lgan holatlarni inobatga olib, junga qarab har bir darvozabon o‘zi uchun kerakli bo‘lgan qo‘lqopini tanlash imkoniyatiga ega bo‘lishdi. Zamonaviy futbol darvozabonlari san’ati bevosita darvozabonlar qo‘lqopining rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘ldi.

Futbol to‘pining ushlab olinishi, qaytarilishi, to‘pni o‘yinga kiritish – zamonaviy darvozabonlar malakasi, darvozabonlar qo‘lqopining taraqqiy etishsiz mumkin emas edi.



Darvozabonlar qo‘lqopi sirli paydo bo‘lishi, turli xil qarashlarning borligiga qaramay, hech kim qachon va qaysi futbol o‘yinida aniq birinchi darvozabonlar qo‘lqopi ishlatilganini yozib qoldirmagan. Lekin, 1885-yilda futbol to‘plarini ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi Uilyam Sayks ko‘rxonasi darvozabonlar qo‘lqopini ishlab chiqarishga patent olgan bo‘lib, u charmdan qilingan edi. Kauchukdan ham qo‘lqoplarni ishlab chiqarishda foydalanishgan. 1945-yildan 1970-yilgacha to‘p surgan argentinalik mashhur darvozabon Amitdeo Karrizo darvozabonlar orasida birinchi marta darvozabonlar qo‘lqopini kiygan.

102

Darvozabonlar qo‘lqopini ishlab chiqaruvchi korxonalar



Darvozabonlar qo‘lqopini uzoq muddat davomida turli xil korxonalar ishlab chiqarmoqda, lekin ularning ko‘pchiligi nisbatan yaqinda qo‘lqoplarni ishlab chiqarishni boshlashgan, ya‘ni avval ko‘pchilik korxonalar darvozabonlar qo‘lqopini ishlab chiqarishmagan. Misol uchun “Nike” korxonasi 1970-yilda darvozabonlar qo‘lqopini ishlab chiqarishni boshlagan bo‘lib, bu

borada yaqin yillardan jiddiy shug‘ullana boshlagan. 1934-yilda asos solingan “Reusch” korxonasi darvozabonlar qo‘lqoplarini ishlab chiqarishni boshlagan birinchi korxonalardan bo‘lib, 1970-yillarga kelib bu bilan jiddiy shug‘ullana boshladi va bu kompaniya mashhur germaniyalik darvozabon Zep Maer uchun qo‘lqop ishlab chiqargan. “Uhlspor” korxonasi ham darvozabonlar qo‘lqopini ishlab chiqarishda uzoq va boy tarixga ega. “Sondico” korxonasi esa darvozabonlar qo‘lqopini 1960-yillardan ishlab chiqarishni boshlagan. Lekin darvozabonlar qo‘lqoplarini ishlab chiqaruvchi ilk korxonalardan biri bu – “Stanno”, uning tarixi Neapolda (Italiya) boshlangan. Iqtidorli futbol darvozaboni Stefano Stano Andreotti ilk uchrashuvida muhim bo‘lgan mehmondagi o‘yinda o‘z jamoasi darvozasini himoya qilgan. O‘yin yomg‘irli havoda davom etgan va to‘p vaqt – vaqti bilan Stefano Stano qo‘lidan chiqib ketgan va shunday vaziyatlarning birida Stefano qo‘riqlayotgan darvozaga to‘p kiritilishi bilan tugagan. Stefano o‘ziga to‘la ishonch bilan harakat qilib, kelajakda u bilan boshqa hech qachon bunday hodisa ro‘y bermasligiga so‘z bergan. U barmoqlarsiz bo‘lgan qo‘lqopni ishlab chiqqan. Qo‘lqoplar bir parcha charmdan tikilgan bo‘lib, qo‘l atrofida maxsus bog‘lagichlar orqali qisib qo‘yilgan edi. Lekin Stefano shunga amin bo‘ldiki, qo‘llar qo‘lqop ichida haddan tashqari erkin harakatlanadi, shu maqsadda u qo‘shimcha ushlagichlar sifatida charm shnurovkalardan foydalangan. Keyinchalik Stefano qo‘lqoplarning tashqi tomoniga rezina yopishtirib, bu bilan u

to'pni ushlab olishni yaxshilab, qo'lqoplarni yanada darvozabonlar qo'lqopiga aniq o'xshashiga erishgan va bugunda bunday qo'lqoplar darvozabonlar tomonidan keng qo'llanilmoqda. Stefano o'zi bevosita tanigan darvozabonlarga bunday qo'lqoplarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yadi. Vaqt o'tishi bilan bu mashg'ulot oilaviy biznesga aylandi va "Standreo" brendi (savdo belgisi) ostida sotilishiga zamin yaratdi. Biroq Stefano ishlab chiqargan darvozabon qo'lqoplarini Frantsiyaga eksport qilganida "Standreo" nomining qisqaroq shakli bo'lgan "Stanno"ga o'zgartirishga to'g'ri kelgan. Biroq o'sha paytlar qo'lqoplarda o'yinda ishtirok etish darvozabonlar orasida unchalik keng yoyilmadi va ko'pchilik darvozabonlar qo'lqopsiz o'ynashni afzal ko'rishgan. Stefano o'z davridan ancha oldingi davrni ko'ra olishini ko'rsatgan, ya'ni 1960-yilgacha kamdan – kam holatda maydonda qo'lqop kiygan darvozabonlarni ko'rish mumkin edi, faqatgina o'ta yomon ob-havodagina darvozabonlar qo'lqop kiyishar edi, u ham bo'lsa, qo'llarni issiqda saqlash uchun kiyilardi. Stefano vaqtinchalik futbol oyoq kiyimlari va to'plarni ishlab chiqarishni boshlagan. 1960-yillarga kelib, Stefanoning korxonasi "Stanno" darvozabonlar qo'lqoplarini ishlab chiqarishni yana yo'lga qo'ydi va hozirda dunyo futbolida qo'llaniladigan aksariyat darvozabon qo'lqoplari shu korxonaga taalluqlidir.

Darvozabon kiyimi. Bu qismda biz darvozabonlar kiyimi haqida batafsil ma'lumot berishga harakat qilamiz. Nimadan foydalanish kerakligi va vaziyatga qarab qanday darvozabonlar kiyimini kiyish kerakligini tuchuntirib berishga harakat qilamiz. Oldindan shuni aytishimiz mumkinki, asosiy urg'u futbol bilan endigina shug'ullanishni boshlagan muxlislarga qaratiladi, chunki tajribali va kerakli malakaga ega bo'lgan darvozabonlar uchun bu maslahatlar va ma'lumotlar zerikarli tuyulishi mumkin.

Futbol bilan jiddiy shug'ullanuvchilar bilan futbolga qiziquvchilar kiyimi o'rtasida kattagina farq bor, asosiy sabab maydon sifatiga bog'liq. Maydonda to'p surish uchun darvozabonga tabiiy a'lo sifatidagi shortik, uzun yoki yengi kalta futbolka va albatta, qo'lqoplar kerak. Biroq sun'iy chim, o'tsiv va toshli maydonda to'p surish uchun umuman boshqacha kiyim talab etiladi. Darvozabonlar qo'lqoplari bir necha xil bo'ladi, darvozabonlar qo'lqoplarini tanlashda quyidagilar hisobga olinadi: maydon sifati va qanday o'yin bo'lishi (mashg'ulot yoki bellashuv). Qimmatbaho

qo‘lqoplar asosan yaxshi va yumshoq chimda o‘ynash uchun sotib olinadi. Qimmatbaho qo‘lqoplarni toshli maydonda o‘tadigan o‘yin uchun sotib olish maqsadga muvofiq emas. Qimmatbaho qo‘lqoplar toshli maydonda bir nechta o‘yindan keyin yaroqsiz holga keladi. Bundan tashqari, qimmatbaho qo‘lqoplarning afzalliklarini toshli maydonda o‘tkazilgan o‘yinda his qilish qiyin bo‘ladi. Toshli maydonda chang va tuproq ko‘p bo‘lib, ular qo‘lqoplar kaftiga yopishib to‘pni ilib olish xususiyatini yo‘qotadi. Qo‘lqoplarning kaft qismini ho‘llash ham hech qanday yordam bermaydi. O‘rta sifatdagi sun‘iy chim yotqizilgan maydonlar haqida so‘z ketganda, bu holatda to‘p surishga toshli maydonga qaraganda to‘p surishdan yaxshiroq bo‘lsa ham, qimmatbaho qo‘lqoplar tez yaroqsiz holga keladi. Lekin, o‘ta arzon darvozabon qo‘lqoplarini olish ham yaxshi fikr emas. Eng yaxshi qaror o‘rta narxdagi qo‘lqoplarni harid qilishdir.

Qo‘lqop sotib olganda qo‘lqoplarning havoni yaxshi o‘tkazish sifatiga e‘tibor qaratish kerak. Unda matodan bo‘laklar va to‘rlar bo‘lishi kerak. Qo‘lqopning kaft qismi lateksdan qilingan bo‘lishi kerak. Ammo bu qo‘lqoplar ham uzoq xizmat qila olmaydi. Qo‘lqoplarni uzoq kiyish uchun darvozabon o‘zining o‘yin texnikasini yaxshilab borishi kerak. Qanchalik darvozabon yerga to‘g‘ri tushsa, qo‘lqoplar shunchalik o‘z xo‘jayinlariga uzoq xizmat qiladi. Kamida ikki juft qo‘lqoplar darvozabon ixtiyorida bo‘lishi kerak. Bir jufti o‘yin uchun, ikkinchi jufti mashg‘ulotlarda kiyish uchun mo‘ljallangan bo‘ladi.

O‘yinda ishlatiladigan qo‘lqoplar to‘pni bir martaga olish xususiyatini yo‘qotsa, bu qo‘lqoplarni mashg‘ulotlar uchun ishlatish kerak bo‘ladi, o‘yin uchun esa yangi qo‘lqoplar xarid qilishga to‘g‘ri keladi. Ayrim qo‘lqoplarda barmoqlarni himoya qiladigan himoya tizimi mavjud. Qo‘lqoplar ichida plastmass plastinalar o‘rnatilib, barmoqlarning qarama-qarshi tomonga egilishiga yo‘l qo‘ymay, pay cho‘zilishi yoki suyak chiqishi kabi noxush holatlarning oldi olinadi. Bunday qo‘lqoplarning futbol havaskorlari uchun qo‘llanilishi maqsadga muvofiq-mi? Havaskorlar uchun bu ayni muddao, chunki tajribali futbolchilarning, ayniqsa, darvozabonlar qo‘llarining muskullari yaxshi rivojlangan bo‘lib, havaskor futbolchi – darvozabonlarning qo‘llari unchalik yaxshi rivojlanmagan va havaskorlar o‘rtasida qo‘lning shikastlanish hollari ko‘proq uchraydi. Bunday qo‘lqoplar birmuncha qimmatroq, ularda to‘pni his qilish ham yomonroqdir. Tajribali darvozabonlar bunday qo‘lqoplardan kamdan

– kam foydalanishadi, lekin ayrim tajribali darvozabonlar ham ba’zi hol-
larda bunday qo‘lqoplardan doimiy foydalanishadi. Ma’lum bo‘lishicha,
barmoq himoyasi uchun qo‘lqoplar unchalik to‘g‘ri bo‘lmagan malakaning
rivojlanishiga hamda qo‘l suyaklarining mustahkamlanishini ortga surishi
mumkin ekan. Shuni ham inobatga olish kerakki, ho‘l va quruq havoga qa-
rab qo‘lqoplar ham turlicha bo‘lishi mumkin. Ho‘l havoga mo‘ljallangan
qo‘lqoplarni yomg‘irda ishlatish – ishlatmaslik har kimning o‘ziga havola,
lekin sifatli qo‘lqoplar har qanday ob-havoda ham to‘pni ushlay bilishi shart.

Nam ob-havoda ishlatadigan darvozabonlar qo‘lqopi odatiy qo‘lqop-
lardan shunisi bilan farq qiladiki, ventilyatsiya turlari o‘rniga vinil yoki
bo‘lmasa biror-bir boshqa suv o‘tkazmaydigan mato ishlatiladi. Bu mato
qo‘lni namlikdan himoya qilgani bilan qo‘lni “nafas” olishga qo‘ymaydi.
“Puma”, “Reusch”, “Adidas”, “Sells”, “HO Soccer” va boshqa shunga
o‘xshash savdo belgilari ostida ishlab chiqariladigan darvozabon qo‘lqoplari
korxonalarida juda ko‘p.

Darvozabonlar qo‘lqopini saqlash sharoiti. O‘yinda kiyiladigan dar-
vozabon qo‘lqoplari har bir o‘yindan keyin yuvilib quritiladi. Bunda
gubkani sovun bilan ishlatish orqali bajarish mumkin. Bundan tashqari,
darvozabonlar qo‘lqoplarini asrash va yuvish uchun maxsus suyuqliklar
mavjud. *O‘yinda ishlatiladigan qo‘lqoplar mashg‘ulotda ishlatiladigan
qo‘lqopga aylangandan so‘ng onda-sonda yuvib turiladi. Mashg‘ulotlardan
so‘ng quritiladi va vaqt-vaqti bilan kir yuvish mashinasida past harorat-
da yuviladi. Darvozabon qo‘lqoplarini ishlab chiqaruvchilar bunday qil-
ishni ta’qiqlashadi, lekin faqatgina bir kishi yoki ayrim kishilar bu usulda
qo‘lqopni yuvishmaydi, ko‘pgina darvozabonlar bu usulni tanlashgan va
hech qanday zararli oqibatini ko‘rganlari yo‘q.*

4.6. Futbol to‘plari



Futbol to‘pi. To‘p aylana (sfera)ga ega bo‘lgan charmdan yasalgan jismdir. Uning o‘lchamlari futbol o‘yinining ikki qoidasi bilan tartibga solinadi.

Tarixi. Ilk futbol to‘plari hayvonlarning siydik qovuqchalaridan qilingan bo‘lib, unga qattiq zarba berilgach, yaroqsiz holga kelib qolar edi. Futbol to‘pining ishlab chiqarish usuli 1838-yilda Charlz Gudier tomonidan vulkanizatsiyalashtirilgan kauchuk ixtiro qilinishi bilan o‘zgardi. 1855-yilda Gudier rezinadan ishlab chiqarilgan to‘pni birinchi bo‘lib omma e‘tiboriga havola etgan. To‘pga rezinani qo‘llash to‘pning sakrash xususiyati va mustahkamligini oshiradi.

Yeti yildan so‘ng, 1862-yilda boshqa bir ixtirochi Richard Lindon birinchi dam (havo) uriladigan rezinali kamerani kashf etdi, keyinchalik to‘p uchun ixtiro qilgan rezina kameraga qo‘shimcha sifatida nasos ixtiro qildi va Londonda bo‘lgan ko‘rgazmada uning ixtirosi medalni qo‘lga kiritdi. Kauchukning ixtiro qilinishi, dam uriladigan kameraning ixtiro qilinishi futbol to‘plarini ishlab chiqarish uchun zaruriy texnik sharoitni



yaratib berdi. 1863-yilga kelib, Angliya futbol assosiat-siyasiga asos solindi va u futbol qoidalarini tartibga solishga kirishdi. O‘sha paytlar qoidalarda to‘p haqida hech nima deyilmagan edi. 1872-yilda futbol to‘pining aniq va qat’iy hajmi va og‘irligi belgilab qo‘yildi. Ungacha futbol o‘yinida to‘p og‘irligi va hajmi o‘zaro ikki tomonning roziligi

bilan kelishilgan bo‘lsa, endi qat’iy qonunga binoan futbol to‘pi aylana shaklda bo‘lib, 68,6 dan 71,7 smgacha bo‘lgan hajmga ega bo‘lishi kerak. To‘pning og‘irligi esa o‘rtacha 368 dan 425 gramm bo‘lishi belgilab qo‘yildi. 1937-yilda esa to‘pning og‘irligi 410-450 (396-453) gramm deb belgilab qo‘yildi va shundan buyon bu qoida o‘zgargani yo‘q. 1888-yili Angliyada futbol ligasiga asos solindi. Bu liganing buyurtmasiga binoan futbol kompaniyalari bo‘lmish “Mitre” (Mitre) va “Tomlinson” (Thomlinson) tomonidan ommaviy sur’atda to‘plar ishlab chiqarila boshlandi. XX asrda to‘pning sifati kauchukli kamera va pokrishka tufayli to‘p katta bosimga ham chidamli bo‘ldi. Pokrishka tabiiy teridan ishlab chiqarilib, 18 paneldan tashkil topgan bo‘lib, ularning har biri chizimcha (shnurki) bilan

tikilar edi. 1960- yillarga kelib to‘liq sintetikadan qilingan futbol to‘plari ishlab chiqarila boshlandi. Tabiiy teri hali ham ishlatilar edi, lekin 1980-yillarga kelib, futbol to‘plarini ishlab chiqarishda sintetikaga to‘liq o‘tildi.

Futbol to‘pining tarkibiy qismlari:

1. qoplama; 2. astar; 3. havo.

Qoplama – asosan, sintetikadan ishlab chiqariladi, chunki tabiiy teri namni o‘ziga so‘rib olib, to‘pning og‘irligini oshiradi. Hozirda sintetikaning tabiiy teriga qaraganda bir qancha afzalliklari bo‘lganligi sababli tabiiy teri unchalik ishlatilmay qo‘yildi. Odatda, PU (poliuretan), PVC (polivinilxlorid) pokrishka ishlab chiqarishda ishlatiladi. Ko‘pchilik futbol to‘plari suv o‘tkazmaydigan 32 panellardan iborat bo‘lib, panellarning 12 tasi beshburchak va 20 tasi oltiburchak shakliga ega. Panellarni mashinada yoki qo‘lda tikishadi yoki bo‘lmasa kley bilan yopishtirishadi. Bu 32 panelli ko‘pburchaklardan tashkil topgan shakl – ikosaedr sharga unchalik o‘xshamaydigan geometrik shakl, faqatgina shu orqali bo‘laklar orasida yetarlicha tikuv joyi qoldirilib, aylana (sfera) shakli esa havodonga berilgan dam hisobiga erishiladi. Bu usulda birinchi to‘pni 1950-yilda Daniya mamlakatida ishlab chiqishdi va uni “Select” kompaniyasi ommaga taqdim etdi. Bu to‘p tez orada butun Yevropada mashhurlikka erishdi. 1970-yilgi jahon futbol chempionatida bu turdagi to‘plar “Adidas” firmasi tomonidan ishlab chiqildi va undan avvalgi to‘plar 18 panelli qismdan tashkil topgan bo‘lib, chizimcha (shnurok) orqali bir-biriga birlashtirilgani uchun shakl va ko‘rinish jihatidan zamonaviy voleybol to‘ppilariga o‘xshab ketgan.

2004-yil “Adidas” kompaniyasi Yevropa chempionati uchun “Roteiro” nomli to‘plarini etiborga havola etdi. “Roteiro” to‘plarining qismlari bir-biriga mutlaqo yangi usul bilan, ya’ni issiqlik texnologiyasi usulida birikkan edi. 2006-yili Germaniyadagi Jahon chempionati finali “Teamgeist” nomli to‘p bilan o‘tkazilgan. Shu yili “Adidas” an’anaviy 32 panelli futbol to‘ppisidan chekingan holda 14 panelli ishlab chiqargan to‘pni ommaga havola etdi. Panellar bir-biriga termal birikish usuli orqali yopishtirilgan edi.

2010-yilgi Janubiy Afrikada o‘tkazilgan Jahon futbol chempionatining rasmiy to‘pi sifatida “Adidas” korxonasi “Jabulani” nomli to‘pni taqdim etdi. Futbol to‘pi 8 ta termal birikish orqali yopishtirilgan qismlardan tashkil topgan edi.



Astar. Qoplama va havo oʻrtasida qoʻyiladigan material – astar boʻlib, futbol toʻpining sifati, asosan, oʻsha podkladkaning qalinligiga bogʻliq. Podkladka toʻpning sakrash xususiyati va uning shaklini saqlashga xizmat qiladi. Uni ishlab chiqarishda poliester yoki boʻlmasa, presslangan paxta ishlatiladi. Zamonaviy futbol toʻplar toʻrt va undan ortiq qavatdan iborat boʻlishi mumkin.

Havodon – odatda, sintetik butil yoki boʻlmasa tabiiy lateksdan, gohida esa poliuretandan ishlab chiqariladi. Lateksdan qilingan havodonlarda dam butildan qilingan havodonlarga qaraganda kam vaqt saqlanadi. Lekin lateksdan qilingan havodonlarning butil yoki poliuretandan qilingan havodonlardan 3 asosiy oʻlchamlari bilan ustundir: 1 – yumshoqlik; 2 – sakrash xususiyati; 3 – qayishqoqlik.

Toʻpning sifat va xususiyatlari. Toʻp aylana (sfera) shakliga ega charm yoki shu maqsadda ishlatiladigan boshqa bir materialdan ishlab chiqariladi. Aylana uzunligi 70 smdan oshmasligi va 68 smdan kam boʻlmasligi kerak. Toʻpning oʻlchami standart 5 (ingl Size 5) boʻlishi kerak.

Oʻyin boshida (396-453 g) 450 grammdan oshmasligi va 410 grammdan kam boʻlmasligi kerak (quruq toʻp uchun);

0,6 – 1,1 atmosferaga teng keladigan bosimga (600 – 1100 g/kv. sm) dengiz sathida.

Toʻplarning oʻlchamlari. (1 dan 5 oʻlchamdagi boʻlgan toʻplarga tasnifi).

1 – oʻlchamli toʻplar. Bu turdagi toʻplar, asosan, reklama maqsadida ishlab chiqarilib, biror-bir firmaning belgisi ostida sotuvga chiqariladi va odatda 32 paneldan tashkil topgan boʻladi (12 beshburchak, 20 oltiburchak). Ularning aylana uzunligi 43 sm dan oshmaydi. Bu oʻlchamdagi toʻplar odatiy futbol toʻplaridan faqatgina oʻlchamlari jihati bilan farqlanadi.

2 – oʻlchamdagi toʻplar. Bu turdagi toʻplar ham asosan reklama maqsadida va toʻrt yoshgacha boʻlgan bolalarni mashq qildirish uchun ishlatiladi. Toʻp, asosan, sintetik moddalardan, plastik yoki polivinil-

xloriddan ishlab chiqariladi. Aylanasining uzunligi 56 smga teng. Bu to'pning og'irligi 283,5 grammdan oshmasligi kerak. Bu o'lchamdagi to'plar asosan mashqlar va to'ppi ushlab turish malakasini oshirish uchun ishlatiladi. Bu to'p odatda 32 yoki 26 paneldan tashkil topishi mumkin. Gohida to'pda turli xildagi logotchizimchalar, belgilar va tijorat reklamlari tasvirlanadi.

3 – o'lchamdagi to'plar. Bu turdagi to'plar asosan, 8 yoshgacha bo'lgan bolalarni mashq qildirish uchun ishlatiladi. To'pning og'irligi 340 grammdan va diametri 61 smdan oshmasligi kerak. Odatda bu turdagi to'plar 32 ta tikilgan paneldan iborat bo'lishi va sintetik material yoki bo'lmasa polivinilxloriddan bo'lishi mumkin. Gohida bu turdagi to'plar 18 yoki 26 paneldan iborat bo'lishi ham mumkin.

4 – o'lchamdagi to'plar. Bu turdagi to'plar asosan mini-futbol sport o'yinlarida hamda 12 yoshgacha bo'lgan bolalarni mashq qildirish uchun ishlatiladi. FIFA qoidalariga ko'ra, bu to'p charm yoki boshqa shunga mos keladigan materialdan, og'irligi 369-425 gr atrofida ishlab chiqarilgani belgilab qo'yilgan. Aylana uzunligi 63,5 – 66 smda bo'lishi kerak.

5 – o'lchamdagi to'plar. Bu turdagi to'plar FIFA tomonidan o'tkaziladigan barcha o'yinlarda qo'llaniladi. Undan 12 yoshdan va undan kattalarni mashq qildirish uchun foydalaniladi. Bu o'lchamdagi to'p futbolda juda ham keng qo'llanilib, boshqa barcha o'lchamdagi to'plarning hammasini qo'shganda ham 5 – o'lchamdagi to'p turining umumiy ishlab chiqariladigan miqdori kattadir.



Billur to'p futbolchiga futboldagi yaxshi o'yini uchun beriladi.

Yaroqsiz holga kelgan to‘plarni almashtirish. Agar to‘p o‘yin paytida yorilsa yoki yaroqsiz holga kelsa futbol o‘yini to‘xtatiladi. O‘yin zahiradagi to‘p bilan aynan oldingi to‘ppi yaroqsiz holga kelgan joyda ikki raqib jamoa o‘yinchilari o‘rtasiga hakam tomonidan tashlab berish orqali davom ettiriladi (sporniy myach).

Agar to‘p o‘yin paytida emas, balki o‘yin boshlanishida, darvozabon to‘pni o‘yinga kiritayotganda, jarima to‘pi o‘yinga kiritilayotgan vaziyatda, erkin zarbada, 11 metrlik nuqtada va to‘pni o‘yinga tashlab berilayotganda yorilsa yoki bo‘lmasa yaroqsiz holga kelsa, to‘p qaytadan o‘sha vaziyatda o‘yinga kiritiladi. To‘p faqatgina bosh hakam buyrug‘i bilan almashtirilishi mumkin.



Eski to‘plar bir xil rangli (monoxromniy), jigarrang, keyinchalik oq rangda bo‘lgan. Keyinchalik aynan teletomoshabinlarga qulaylik tug‘dirish maqsadida jahon orqali o‘yinlarini namoyish etishda televidenie uchun qora beshburchak va oq oltiburchakli panelli to‘plar paydo bo‘lgan. Bu shakldagi rang to‘plar uchun odatiy tusga aylandi va o‘ziga hos belgi bo‘lib xizmat qildi.

«Total 90 Aerow» to‘plari ham mavjud bo‘lib, ular “Nike” sport korxonasi tomonidan ishlab chiqarilib, to‘plarga doiralar tasviri tushirilgan bo‘lib, bu darvozabonlar uchun to‘p havolanib kelayotganda aniq ko‘rish imkonini berar ekan. Ayrim futbol o‘yini uchrashuvlari qorbo‘ronda yoki bo‘lmasa qor yog‘gan maydonda bo‘lib o‘tganida, odatda yorqin rangli to‘plardan, ko‘p hollarda qizil yoki och sariq rangli to‘plardan foydalaniladi.

FIFA qaroriga ko‘ra, rasmiy o‘tkaziladigan o‘yinlarda turli xildagi tasvir yoki reklamaning to‘plarda aks ettirilishi ta‘qiqlangan, bundan faqat quyidagilar to‘plarda aks ettirilishi mumkin:

- musobaqa yoki musobaqani tashkillashtirgan tashkilot belgisi;
- to‘pni ishlab chiqargan korxonaga belgisi.

To‘plar sifati ustidan nazorat qilish. FIFAning to‘plar sifati ustidan nazorat amalga oshirish tuzilmasi talabiga ko‘ra, FIFA nomidan o‘tkazi-

layotgan barcha musobaqalarda to'ppilar FIFA APPROVED (FIFA tomonidan ruxsat berilgan) va FIFA INSPECTED (FIFA tomonidan tekshirishda o'tkazilgan) belgisini olishlari kerak, faqat shundan so'nggina ushbu to'plar FIFA tomonidan o'tkazilgan o'yinlarda ishlatilishi mumkin. FIFA INSPECTED belgisini olish uchun to'plar o'z ichiga og'irlik, namlikni singdirish, sakrash, aylanalik, aylana uzunligi va bosimni nazorat qilish xususiyati tekshiruvlaridan o'tishi kerak. FIFA APPROVED belgisini olish uchun to'plar shakl va o'lchamlarni saqlash bo'yicha tekshiruvlardan o'tishi kerak.

To'plarni ishlab chiqarish bo'yicha Pokiston 80% ni (bu butun dunyoda 60% ni tashkil qiladi) shundan 75% i Sialkot shaxrida ishlab chiqariladi. Avvallari to'p ishlab chiqarishda asosan yosh bolalar mehnatidan foydalanilar edi, lekin 2004-yilgi Yevropa futbol chempionatidan so'ng bu borada ayrim maqolalar ro'znomalarda chop etildi va bu masala bo'yicha bir qancha bolalarni himoya qiladigan, ayniqsa, "YUNISEF" tashkiloti bunga jiddiy e'tibor qaratdi. Germaniyada o'tkazilgan jahon futbol chempionatida to'plar Tailand davlatida ishlab chiqarilgan edi. "Adidas" korxonasi 1970-yildan buyon birinchi bor to'plarni Sialkot shahrida emas, balki Tailand davlatida ishlab chiqargan. Lekin savdo uchun mo'ljallangan 60 mln. ta to'pning hammasi Sialkot shahrida ishlab chiqarilgan.

Select futbol to'plari

Bu korxonaga 1945-yilda Oygil Nilsen asos soldi, aynan shu yil u



o'zining ilk futbol to'pini ishlab chiqib, uni "Select" deb atadi. Aynan shu yil Daniya mamlakati futbol assotsiatsiyasi "Select" to'plari bilan o'ynashga o'tgan.

O'sha paytlarda 18 panelli va yon tomonidan chizimcha (shnurok) (voleybol to'piga o'xshash)dan qilingan to'plarda futbol o'ynalgan. Ular yetarlicha aylana shaklga ega bo'lishmay, tez orada yaroqsiz holga kelar va yon tomonidagi chizimcha (shnurok) bu to'pning eng katta kamchiligi bo'lgan. Oygil boshchiligida "Select" futbol to'plarini ishlab chiqarishda yengillik

amalga oshirildi. “Select” to‘plari birinchilardan bo‘lib charmni tortish va ho‘llash usulini qo‘llab, futbol to‘plarining sifatini yaxshiladi. Birinchilardan bo‘lib “Select” to‘plarining kamerasiga nipel qo‘yishdi. 1951-yilda “Select Super” to‘plari dunyoda birinchi marta chizimcha (shnurok)siz futbol to‘plari ishlab chiqarilgan. 1952-yilda “Select Super” to‘plari Xel-sinkida o‘tkazilgan Olimpiada o‘yinlarining rasmiy to‘plariga aylandi va 1956-yilga kelib “Select Super” ikki marotaba Melburndagi Olimpiada o‘yinlarining rasmiy to‘pisiga aylandi. 1962-yilda “Select” 32 paneldan (12 beshburchak va 20 oltiburchak) iborat o‘zining yangi to‘plarini ishlab chiqdi. Bu esa hozirgi ko‘rinishdagi futbol to‘plarining ishlab chiqarilishga turtki bo‘lgan. Lekin, “Select” korxonasi shu bilan chegaralanib qolishni xohlamadi, bu korxonada suv, sovuq va iflosga chidamli to‘plarni ishlab chiqarishga qaror qildi. 1965- yili “Select” o‘ziga namni tortmaydigan, PU (poliuretan) moddasini o‘zida mujassamlashtirgan to‘plarini om-maga taqdim etdi. 1970-yilda “Select” mutlaqo yangi turdagi to‘plarini kashf qildi, ya‘ni u namni o‘ziga tortmaydigan, tez ishdan chiqmaydigan va mustahkam PU (poliuretan) to‘plarini ishlab chiqara boshladi. Matoni sintetik teri deb atashdi va “Select” PUDan to‘p ishlab chiqaradigan bi-rinchi korxonaga aylandi. 1996- yilda FIFA “Select” bilan hamkorlikda futbol to‘plari uchun universal standartlarni ishlab chiqqan. “Select”ning eng zo‘r to‘p modeli **“Select Brilliant Super”** modeli bo‘lib, u o‘z ishin-ing ustalari, o‘yinlarda ko‘p ishlatiladigan to‘pga aylandi. Boshqa ishlab chiqaruvchilarga qaraganda, bu to‘plarning futbol o‘yinida o‘zining sifa-tini uzoq vaqt o‘zida saqlab qoladigan xususiyatlari ko‘proqdir. Bu to‘plar quruq yoki ho‘l o‘t (chim, gazon)da, qorda, turli xil chang va to‘fondan himoya qilib, uni qattiq va toshloq maydonda ham o‘ynash mumkin.


Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, “Select” futbol to‘plari futbol-chilar o‘rtasida juda mashhurdir. “Select” korxonasining barcha futbol to‘plari uzoq vaqt ishlatilishiga qaramay, o‘zining sakrash xususiyati, shaklini va balansini saqlay oladi.

4.7. Futbol hushtagi



Hushtak futbol hakamining eng muhim va ajratib bo‘lmaydigan an-jomi hisoblanadi.

Hakamning kichik yordamchilari. Futbol o‘yinchilaridan farqli o‘laroq, futbol hakamlari yangi texnologiyalar bilan tez-tez uchrashib turadilar. 130 yil davr mobaynida futbol hushtagi evolyutsiyasi printsi-pial o‘zgarishlarga duch kelmabdi. Angliyada birmengemlik (uncha boy bo‘lmagan) usto Jozef Xadson tomonidan XIX asrda labli (gubnoy) hushtak ishlab chiqarilgan. O‘zining tirikchiligi uchun Jozef cho‘ntak soati-dan to eski oyoq kiyim (botinka)larini tuzatish ishlarini bajargan. Lekin, o‘zining bo‘sh



vaqtlarida Jozefning yaxshi ko‘radigan ishi hushtaklarni yaratish va ularning yangi turlarini tajribadan o‘tkazish bo‘lgan. Ular esa bir-birlarining ovozi bilan farqlanardi.

1860-1870 – yillar mobaynida Jozefning labli turdagi hushtaklari yaratilgan edi.

Ko‘plab tomoshabinlar birinchi bor Xadsonning ixtirosini 1878-yili bilib olishgan. Aytishlaricha, Angliya mamlakati klublari “Nottingham Forest” – “Sheffild ” o‘rtasidagi o‘yinda hakamlik qilgan paytida o‘zicha, o‘yin qoidasini buzgan futbolchilarning e‘tiborini qaratish uchun ro‘molchani silkitishdan charchagan va u hushtakdan foydalanishga qaror qilgan.

Ammo bu o‘yin haqida biror xil tarixiy manba topilmagan. Jozef Xadson tomonidan tayyorlab berilgan hushtakni Yangi Zelandiyalik futbol hakami Uilm Etek 1884-yilda ishlatgan.



Bir yil oldin esa Xadsonning bu xob-bisi unga yetarli darajada moddiy tomondan muvaffaqiyat keltirgan. Skotland-Yardda politsiyachilarning qo‘l (treshotkasi)ni almashinadigan narsa axtarishar edi, Xadsonning futbol hushtagi London politsiyachilariga qo‘l keldi. Politsiyachilar tomonidan Jozefga hushtak ishlab chiqarish bora-

sida ulkan buyurtma kelgan. Jozef bu voqea bo‘yicha maxsus politsiya-chilar modeli “Metropolitan” nomli hushtaklarini yaratdi. Qiziqarlisi

shundaki, ixtirochi o'zining skripkasining yuzi (sim, tori) bilan yerga (polga) yiqitganida politsiya hushtagi qanday ovoz, tovush chiqarishini bilib olgan. Musiqa asbobi cho'ziq (dissoniruyushiy) tovush berganida Jozef politsiya hushtagiga aynan shu tovush mos keladi deb hisoblagan. Keyinchalik 1884-yili Xadson tarixda o'zining eng muvaffaqiyatli hushtagini ishlab chiqaradi.

“Acme Thunderer”. Keyinchalik butun dunyo futbol hakamlari ro' - molcha silkitishni bas qilib, barchalari bu sharikli hushtakni olib, futbol o'yinlarida qo'llay boshlagan.



Shunday xususiyatlarga qaramasdan, futbol hushtagi oddiy xushtakdan biroz 7 \$ ga farq qiladi. Dunyo sportida Birmengem korxonasi jiddiy raqobatchi faqatgina bitta, u ham Kanadalik korxonasi “Fox40 International” hisoblanadi. Angliyalik mutaxassis sheriklardan farqli o'laroq, kanadaliklar an'anaviy

sharikli hushtak modellaridan voz kechishdi. Kanadaliklarning fikricha, bu futbol hushtaklarining tovushi nafaqat past, balki ularning gigienik tozaligi ham kam darajada. Bundan tashqari, kanadalik mutaxassislar agar odam qattiq puflesa, sharik hushtakning devoriga qisiladi va kerakli paytda tovush bermaydi deb ta'kidlashadi.

Eng qiziqarlisi, ingliz va kanadalik mutaxassislar yangi futbol hushtagi modelining yaratilishida butun bir bo'lim tekshiruvchilari va ishlab chiqaruvchilarini jalb qilishgan. Futbol hushtaklari konstruksiyasi har doim mukammallashib bormoqda, oddiy hushtaklardan tashqari it, delfin, kitlar uchun maxsus hushtaklar ishlab chiqarilmoqda. Albatta ingliz, kanadalik mutaxassislar qaysi futbol hushtaklari eng zo'r qilinganligi doirasida va futbol hakamlarining (referi) bu borada qaysi futbol xushtaklarini e'tirof etishlari va tan olishlari uchun bir-birlari bilan musobaqalashib kelmoqdalari.

Ko'pincha (qoida tarzda) futbol uchrashuvi o'yini qaysi hushtak ostida boshqarilishi va o'yin tugashini futbol hakamlarining o'zi tanlashi natijasida ma'lum bo'ladi.

Angliya mamlakatida futbol arbitrlari birinchi hushtakdan foydalanishgan. Hakamlar esa maydonda 1873-yili ko'rinishgan. O'sha davrda hakam-

lar o‘zlarining tashabbuskorligi bilan o‘yinga qo‘shilishi kerak emas, deb hisoblangan. Hakamlarning vazifasi vaqtni kuzatish, o‘yinda imo-ishora (pometka) qilish, o‘yinchilarni chetlashtirish va tayinlash, shu bilan birgalikda, jamoa vakillari bir-biri bilan kelisha olmasa va bahs-munozara bo‘lsa, ularni adolatli yechish hisoblangan. Hozirda futbol sharhlovchilari-ning aytishlaricha, “Eng zo‘r hakam o‘yinni boshqaradi, ammo maydonda uning ishtirok etishi noma‘lum (ko‘rinmaydi)”.

1878-yilgacha futbol hakamlarida hushtak yo‘q edi, ular o‘yinni boshqarish uchun o‘zlarining tovushlari, ko‘rsatma, ishoralar berishardi



yoki o‘zlariga e‘tiborni qaratish yoki qaror chiqarish uchun qo‘ng‘iroq (kolo-kolchik)ni jaranglatishardi.

Futbol hushtagining tug‘ilgan kuni va uning kirib kelishi bilan g‘alati bir tarixiy voqea bor. O‘sha vaqtlarda futbol uchrashuvlarini professionalarga emas, balki havaskorlarga futbol o‘yinida hakamlik qilishlarini berishni afzal ko‘rishgan. Shuning uchun hakamlar va arbitrlar rolini futbol havaskorlari olishgan. Ko‘pincha bular shifokorlar, yozuvchilar, shoirlar (klerklar) bo‘lishgan... Ma‘lumki, **(yozuvchi)** ser Artur Konan Doyl ham futbol hakami(arbitr) bo‘lgan.

1878-yil 10-iyulda futbol o‘yinida hakamlik qilishni politsiyachiga ishonishgan, o‘yin paytida esa janjal boshlaganida politsiyachi hakam hech ham o‘ylamasdan o‘z hushtagini chalgan. Hayratda qolgan va qo‘rqgan futbol o‘yinchilari o‘sha zahoti janjalni bas qilishgan. O‘sha vaqtdan keyin arbitrlar hushtakdan foydalanishgan.

Hakamlar hushtagi haqida:

- futbol hakamlarida hushtaklarning paydo bo‘lishidan oldin, arbitrlar o‘yin qoidalarining buzilishi yoki o‘yin to‘xtatilishi haqidagi ishoralarni ro‘molchalar bilan bildirishgan (bu borada juda ko‘p qarama-qarshi taxminlar mavjud – sirenalalar (signal beradigan asbob), qo‘ng‘iroqchalar va baqiriqlar, dod urishlar).

- Futbol hushtagining tan olinishi norasmiy tarzda 1960-yili futbol rahbarlik tashkiloti FIFA bu borada hech qanaqa qoida qabul qilmagan.

- Manchester shahrida ligaga kirmaydigan “Sent-Kass” va “Paynvud” klublari o‘rtasidagi uchrashuvda hakam hushtagini esdan chiqargan va og‘zi bilan hushtak chalgan.

- Eng mashhur hushtaklar “Akme Tanderer” markasi hushtagi hisoblanadi, ular britaniyalik usta (instrumentalshik) Jozef Xadson tomonidan birinchi bo‘lib yaratilgan. “Xadson end Kompani” korxonasi 160 mln. dan ortiq hushtaklarni ishlab chiqargan.

- Zamonaviy arbitrlar “Fox” (Kanada) korxonasi shariksiz hushtagidan foydalanishadi. Ular plastmassadan ishlab chiqarilgan, chunki temir hushtaklari jarohat olishga xavfli hisoblanadi va sovuqda lablarni og‘ritadi.

- Eng kuchli futbol hushtagi “Tornado T-2000” nomli korxonadan 1989-yili chiqarilgan va bu hushtak futbol hakamlari tomonidan keng tan olingan.

4.8. Futbol varoqchalari

Sariq varoqcha – futbol va boshqa sport turida o‘yinchiga ogohlantiruvchi jazo belgisini bildiradigan o‘yinni boshqarayotgan hakam qarori. Bu varoqcha o‘yinchi tomonidan quyidagi o‘yin qoidalari burilgan paytda hakam tomonidan o‘yinchiga ko‘rsatiladi:

- Futbolchi harakatidagi shartga hiloflik paytida;
- hakam qaroridan bilan bo‘lmagan o‘yinchi tomonidan norozili namoyish etganda;
- o‘yinchi tomonidan o‘yin qoidasi muntazam buzilganda;



- o‘yinda o‘yin vaqti boshlanishini atayin cho‘zgan o‘yinchiga;
- o‘yinda, burchak to‘pi, jarima yoki erkin zarba vaqtida kerakli masofada turishga rioya qilmagan o‘yinchiga;
- hakam ruxsatisiz maydonga tushgan yoki maydondan chiqqan o‘yinchiga;
- hakam ruxsatisiz maydondan

o‘zboshimchalik bilan chiqib ketgan o‘yinchiga.

Maydonda o‘yin qoidasini qo‘pol buzgan o‘yinchilar hakam tomonidan ogohlantirishsiz qizil varoqcha ko‘rsatiladi va maydondan chetlash-

tiriladi. Bitta futbol o‘yinida ikkita sariq varoqcha olgan futbolchi ham maydondan chetlashtirilishiga olib keladi (chunki, bitta o‘yinda ikkita sariq varoqcha kuchi bitta qizil varoqcha kuchiga aylanadi).

Aynan regbi sport turida sariq varoqcha o‘yinchiga berilgan bo‘lsa, u o‘yinchi maydondan 10 daqiqaga chiqariladi.

Sariq varoqchanning tarixi. 1966-yilgi futbol jahon chempionatida Argentina va Angliya futbol terma jamoalari orasida bo‘lgan futbol uchrashuvida tang holat vujudga kelgan, gap shundaki, futbol hakami argentinalik o‘yinchini og‘zaki tarzda maydondan chetlashtirgan bilan o‘yinchi maydonda yana 9 daqiqa bo‘lgan. Yuz bergan voqeadan angliyalik o‘yinchilar ham o‘zlariga hakam tomonidan berilgan ogohlantirishlarga quloq solmay, hattoki o‘yinni kuzatayotgan muxlis va ishqibozlar ham tuchunmaydiganlar safiga kirganlar.

O‘yinda bunday tuchunmovchiliklar yuz bermasligi uchun angliyalik hakam Ken Aston hammaga tanish bo‘lgan halqaro mashhur svetofor sxemasidan kelib chiqib qizil va sariq varoqchalarni tatbiq etishni tavsiya qilgan.

1970-yili futbol bo‘yicha jahon chempionati amaliyotida birinchi marta sariq varoqcha ko‘rsatishi boshlanilgan. Shundan keyin ular qoida bo‘lib qoldi. Rasmiy uchrashuvda birinchi bo‘lib sariq varoqcha ko‘rsatgan germaniyalik hakam Kutr Chencher edi. Bu Meksika – sobiq Ittifoq futbol terma jamoalari o‘yinida edi, birinchi sariq varoqcha olgan o‘yinchi esa sobiq Ittifoq terma jamoasi o‘yinchisi Givi Nodiya edi.



O‘yinda hakam tomonidan o‘yinchiga sariq varoqcha ko‘rsatilishi

Qiziqarli faktlar

- 2006-yilgi futbol bo'yicha jahon chempionatida Xorvatiya va Avstraliya futbol terma jamoalari orasida bo'lib o'tgan uchrashuvda kulgili voqea ro'y berdi. Qizig'i shundaki, o'yinning 88-daqiqasida arbitr Grem Poll xorvatiyalik himoyachi Yosin Shimunichga sariq varoqcha ko'rsatdi, bu sariq varoqcha esa uning o'yindagi ikkinchi sariq varoqchasi bo'ldi. Ammo, xorvatiyalik o'yinchi o'yinni tark etmadi va bir necha daqiqa o'yinni davom ettirdi. Faqat bir necha daqiqadan (o'yinda qo'shib berilgan vaqtda) keyin hakam Grem Poll xorvatiyalik Shimunich o'ynayotganiga diqqatini qaratib, unga uchinchi sariq varoqchani ko'rsatib, uni o'yindan chetlashtirdi, o'yinchi esa oxir-oqibat maydondan chiqib ketishga majbur bo'lgan.

- 2010-yil 12-martdagi Italiya mamlakati chempionatida "Inter" va "Kataniya" futbol klublari o'yinida ketma-ket ikkita sariq varoqcha olgan "Inter"lik Salli Muntariga atigi bir yarim daqiqa yetarli bo'lgan.

- 2006-yili 25-iyundagi futbol bo'yicha jahon chempionatida Portugaliya va Gollandiya futbol terma jamoalari uchrashuvida rossiyalik hakam Valentin Ivanov bitta o'yinda 16 ta sariq varoqcha ko'rsatgan, 4 ta futbolchini maydondan chaqirib yubordi. Bu futbol bo'yicha jahon chempionatida yangi rekord bo'ldi. Chunki, bundan oldin jahon chempionatlarida hakam tomonidan bitta o'yinda uch kishidan ko'p o'yinchilar o'yindan chetlashtirilmagan edi.

Qizil varoqcha



Qizil varoqcha – futbolda, shu bilan birga, gandbol, xokkey (to'p bilan), regbi, yengil atletika kabi sport turlarida hakam tomonidan maydondan chetlashtirish, chiqarib yuborish ko'rsatmasi belgisi tarzida ko'rsatiladi. Futbol qoidasiga ko'ra, hakam tomonidan qizil varoqcha ko'rsatilgan sportchi o'yinni va maydonni albatta,

shu zahoti tark etishi lozim (o'yin oxirigacha o'yinga kirmaydi). Uning jamoasi esa uni boshqa o'yinchiga almashtirish huquqiga ega emas.

Bundan gandbol sport turi istisno. Bu sportda qizil varoqcha olgan o'yinchi maydondan chiqib ketganidan keyin uning o'rniga ikki daqiqadan so'ng shu jamoa a'zosi o'yinchisi kirishi mumkin. Futbolda esa ko'pincha qizil varoqcha olgan o'yinchilar bir nechta o'yinlarni tark etishga majbur bo'ladi.

Qizil varoqcha o'yinda o'yinchining qo'pol ravishda qoida buzganligi, rejalashtirilgan, atayin zarba berishi yoki haqorat qilishi oqibatida ko'rsatiladi. Shu bilan birga quyidagi sabablarga ko'ra o'yinda o'yinchiga qizil varoqcha beriladi:

- Futbolda o'yinchi tomonidan o'yin qoidasining jiddiy buzilishi;
- O'yinchi tomonidan tajovuzkor harakat yoki tartibsizlik qilinishi;
- O'yinchi tomonidan raqib yuziga tuflash yoki boshqa shunga o'xshash xatti – harakatlar;
- Raqib o'yinchisining gol kiritishiga unga nisbatan o'yin qoidasini buzgan holda xalaqit berib, uni gol urish imkoniyatidan mahrum qilganda yoki qo'l bilan atayin o'ynaganda (darvozaabonlar o'z jarima maydoni ichida bo'lgan vaqtda bundan istisno);
- O'yinchi raqib darvozasi tomon harakatlanganida yoki gol urish imkoniyatini qo'pol buzib, uni mahrum qilsa, bunda hakam tomonidan erkin zarba berish yoki jarima to'p belgilash yoki 11 metrlik masofadan darvozaga zarba berishi amalga oshiriladi;
- O'yinchini kamsitadigan, xafa qiladigan va boshqa shunga o'xshash so'zlarni aytganda yoki raqib o'yinchisi bilan o'zaro aytishuvlar yoki unga nisbatan qo'pol xatti-harakatlar, imo-ishoralar va boshqalar uchun;
- O'yin davomida ikkinchi sariq varoqcha bilan jazolanganda.



O'yinda hakam tomonidan o'yinchiga qizil varoqcha ko'rsatilishi

Yengil atletika – yugurish sport turida qizil varoqcha sprinter yugurishda ikki marta soxta start yoki sportcha yugurish musobaqalarida uch marta yurish texnikasini buzganda ko‘rsatiladi.

Qizil varoqcha ko‘rsatiladi o‘yinchiga o‘yindan keyin videoanaliz natijasida ham berilishi mumkin. Bunga sabab o‘yinchining qo‘pol tartibsizligi va boshqa shu kabi xatti-harakatlari bo‘lishi mumkin.

Qiziqarli faktlar

- 2009-yil 6-avgust kuni Rossiya mamlakatining birinchi liga klubi Novorossiysk Chernomorets hujumchisi Roman Oreshuk “Vityaz” klubiga qarshi o‘yinda maydonga zahiradan o‘yinga chiqib, 40 soniyadan keyin qizil varoqcha ishlab o‘yindan chetlashtirilgan.

Futbol tarixida o‘yindan eng tez chetlatilgan futbolchilar

- Eng tez (barvaqt) maydondan chetlatilgan darvozabonlarga “Boksum” klubi darvozaboni Daniel Fernandeshni aytsa bo‘ladi. U hakam tomonidan qizil varoqchani qo‘polligi uchun o‘yinning beshinchi daqiqasida olgan.

Osiyoda maydondan eng tez chetlatilganlar

- Bu natijalarning peshqadamligiga yaponiyalik o‘yinchi da’vogarlik qiladi. Bu yerda eng tez (barvaqt) qizil varoqcha o‘yinning to‘qqizinchi soniyasida olingan. Yaponiyaning ikkinchi divizion “Verdi” va “Sagan” klublari o‘yinida yarim himoyachi Toto Sugavaraga qizil varoqcha ko‘rsatilib, maydondan chetlatilgan.

Janubiy Amerikada maydondan eng tez chetlatilganlar

“Kruzeyro” klubi hujumchisi Ze Karlos “Atletiko Mineyro” klubi bilan bo‘lib o‘tgan o‘yinda o‘yinning 15-daqiqasida raqib himoyachisi Renanuning yuziga urib, qizil varoqcha bilan jazolangan. **Ze Karlos** *“Men to‘p uchun kurashdim va mening qo‘lim Renanu yuziga tegib ketdi, bu atayin qilingan emas, shu uchun men tezda kechirim so‘radim, ammo shunga qaramasdan hakam meni maydondan haydadi”, - deb tuchuntirdi qoida buzuvchi.* Bu natija bilan u Braziliya chempionatida antirekord egasi hisoblanadi.

Jahon chempionatidagi maydondan eng tez chetlatilgan futbolchilar

- 1986-yilgi jahon futbol chempionati o‘yinlaridagi eng tez, ya’ni 56-soniyada qizil varoqcha sohibi bo‘lgan urugvaylik futbolchi Hose Batista hisoblanadi.

Boshqa qiziqarli voqealar

- 1990 yili Italiya – A seriyasida “Bolonya” va “Parma” klublari orasidagi uchrashuvda italiyalik Djuzeppe Lorentso 10 soniyada qizil varoqcha egasiga aylandi.

- “Sheffild Yunayted” klubi o‘yinchisi bo‘lgan Vini Djons Angliya kubogi “Chelsi” klubiga qarshi o‘yinda uning qizil varoqcha olishiga atigi to‘rt soniya yetarli bo‘ldi.

- O‘yindan eng tez chetlatilgan darvozabon “Sheffild Uensdey” darvozaboni Kevin Pressmanga tegishli. U o‘yinning 13-soniyasida jarima maydonidan tashqarida “Vulverxempton” hujumchisi Timur Ketsbaiga qarab qo‘li bilan atayin to‘pga zarba bergani uchun qizil varoqcha egasiga aylangan.

Havaskorlar futbolida

- Angliyaning yettinchi divizioni “Chchizimchapenxem” klubi o‘yinchisi Devid Pratt “Beshli” klubi bilan o‘yinning uchinchi soniyasida qizil varoqcha olishga muvaffaq bo‘lgan.

Britaniya ommaviy axborotida inglizlar “... **havaskorlar** futboli tarixida eng tez qizil varoqcha olgan futbolchi...”, - deb **shoshilib** aytishgan. Bu natijani ular Angliyaning ettinchi divizioni “Chippenxen taun” va “Beshli” klublari orasidagi o‘yinning uchinchi soniyasida Devid raqib o‘yinchi oyog‘iga ikki oyog‘i bilan tashlanib, qizil varoqcha sohibiga aylanganligini asos qilib ko‘rsatishgan. Lekin aslida Angliyaning yettinchi divizionida o‘ynaydigan klublar havaskor klublar safiga kirmaydi.

Devid Pratt o‘yindan keyin: *“Jahon rekordi men uchun juda ham katta ish emas va bu bilan men faxrlanmayman. Men atayin jarohat yetkazadigan o‘yinchilardan emasman. Men o‘yinga juda ham berilib ketaman, shu uchun to‘pni ko‘rishim bilan men tezda ikki oyoqlab to‘pni olib qo‘yish (podkat)harakatini qildim”.*

- Shu bilan birga 2000-yili hujumchi Li Todd ham o‘yindan tez chetlashtirilgan. Hakam o‘yin boshida hushtakni katta kuch bilan puflaganida, u hakamga haqorat qilgani uchun maydondan chetlashtirilgan. Todd hakamga orqasi bilan turgan bo‘lsa ham, hakam uning harakatidan ogoh bo‘lganidan hayratda qolgan.

- **Li Todd:** *“O‘yindan keyin, boshqa kishi ham shunday qilgan bo‘lardi, mening quloqlarim pardasi teshilishiga qoldi”, - deb aytdi.*

4.9. Futbol maydoni



Maydon uzunligi har doim uning enidan katta bo'lishi lozim.

MAYDON CHIZIQLARI (BELGILARI). Maydon eni 12 sm. dan katta bo'lmagan aniq ko'rinuvchi chiziqlar bilan belgilangan bo'lishi kerak va ular maydon yuzasiga chizilishi shart.

Maydonni uzunasiga chizilgan chegaralovchi chiziqlar, maydon enini chegaralovchi chiziqlari esa **DARVOZA CHIZIQLARI** deyiladi.

Maydon o'rtasidan uning eniga tortilgan chiziq **O'RTA CHIZIQ** bo'lib, unda **MAYDON MARKAZI** belgilanadi. Maydon markazi belgisi radiusi 9 metrli aylana chiziladi. Chiziqlar o'lchami (qalinligi) maydonning o'lchoviga kiradi. Maydonning burchaklariga yuqori qismi o'tkir bo'lmagan va balandligi 1,5 metrdan kam bo'lmagan bayroqlar o'rnatiladi. Maydon o'rta chizig'ining ikkala tomonidan ham yon chiziqdan 1 metr uzoklikda xam bayroqlar o'rnatilishi mumkin.

DARVOZA MAYDONCHASI. Darvoza ustunlari ichidan 5,5 metr masofadagi nuqtadan darvoza chizig'iga perpendikulyar qilib ikkita 5,5 m.li chiziq chiziladi va ularning uchlari o'zaro tutashtiriladi. Hosil bo'lgan chiziqlar bilan chegaralangan maydonga **DARVOZA MAYDONI** deyiladi.

JARIMA MAYDONCHASI. Darvoza chizig'ida darvoza ustunlarining ichidan 16,5 m. masofadagi nuqtadan unga perpendikulyar bo'lgan

ikkita 16,5 m. chiziq chiziladi. Chiziqning uchlari dargyula chizig'iga parallel qilib o'tkazilgan chiziq bilan o'zaro tutashtiriladi. Chizilgan chiziq bilan chegaralangan maydonga JARIMA MAYDONI, deyiladi. Har bir jarima maydonida darvoza o'rtasining qarshisidagi 11 m. masofada belgi qo'yiladi. 11 metrli jarima to'pi shu belgiga qo'yib tepiladi. Bu belgidan o'lchanib jarima maydoni tashqarisiga radiusi 9 m. li yoy chiziladi.

BURChAK SEKTORI. Maydonning har bir burchagi ichidan radiusi 1 m. bo'lgan yoy chiziladi. Mazkur yoy hosil qilgan maydonchaga BURChAK SEKTORI deyiladi.

DARVOZA. Darvoza chizig'ida burchakdagi bayroqlardan teng uzoqlikdagi masofada darvoza o'rnatiladi. U bir-biridan 7,32 m. Masofada o'rnatilgan ikkita vertikal ustun va ularni birlashtiruvchi gori-zontal joylashgan to'sindan iborat. Yerdan to'singacha bo'lgan masofa 2,44 m. bo'lishi kerak. To'sin va ustunlarning diametri 12 sm. dan ortiq bo'lmasligi kerak.



To'sin va ustunlar diametri o'lchami bir xil bo'lishi lozim, ularga, ya'ni darvozaning orqa tomonidan orqaga to'r tortiladi, va u yaxshi mustahkamlangan bo'lib darvozabonga xalaqit bermasligi kerak.

IZOH: Darvozaga kapron, neylon, kanop yoki shunga o'xshash materialdan tayyorlangan to'r tutiladi. Kapron va neylondan tayyorlashda to'rni juda ingichka chizimchalardan qilmaslik maslahat beriladi.

Xalqaro va mamlakat chempionati musobaqalarini o'tkazish uchun o'lchamlari quyidagicha bo'lgan maydonlarga ruxsat etiladi:

Ko'pi bilan – 110 x 75 metr, kamida –100 x 64 metr.

Ko'pgina musobaqalarda ishtirok etuvchi jamoalar, klublar va sport tashkilotlari o'yinlari 1-qoidada ko'rsatilgan o'lchamli maydonlarda o'tkaziladi.

Darvoza chizig'i, to'siq va ustunlar qalinligi bilan bir xil, chizilgan darvoza chizig'i esa ustunlar ichida va tashqarisida bir xil bo'lishi kerak.

Darvoza maydoni va jarima maydoni uchun o'lhangan 5,5 m. va 16,5 m. masofalar darvoza chizig'i bo'ylab o'lchanganda ustunlar ichidan o'lchanadi.

Har bir maydonni belgilovchi (chegaralovchi) chiziq kengligi shu maydon o'lchamiga kiradi.

Futbol federatsiyalari, klublar, sport tashkilotlari o'yinlarni standart jihozlar bilan ta'minlashi shart. Ularga nisbatan ayniqsa to'p, darvoza va boshqa jihozlarning o'lchamiga nisbatan qoida talablariga rioya etishlari lozim.

Darvoza to'sini yoki ustunlari rasmiy uchrashuvlarda o'rnidan qo'zg'algan yoki shikastlangan bo'lsa, ularni shu zahoti tuzatish imkoni bo'lmasa, hakam o'yinni to'xtatishi shart.

Har qanday xalqaro futbol o'yinlari (to'liq yoki qisqartirilgan vaqt bilan) maydonni, jamoalarni va xakamlarning holatini o'yindan oldin hisobga olib, tegishli futbol tashkiloti roziligi bilan o'tkaziladi.

Xalqaro va mamlakat birinchiligi o'yinlarini o'tkazayotganda maydon ma'muriyati quyidagi shartlarga rioya qilishi shart:

– burchak to'pi tepilayotganda himoyalananayotgan jamoa o'yinchisining qoidaga asosan belgilangan uzoqlikda turishini belgilash uchun burchak bayroqchasidan 10 metr masofada darvoza chizig'iga perpendikulyar ravishda undan 30 sm. Tashlab 40 sm. uzunlikdagi chiziq chizishi;

– darvoza yaqinidagi fotoreportyorlar sonini cheklashi;

– maydon tashqarisida «fotoreportyorlar chizig'i»ni o'tkazish; u burchak bayroqchasidan 2m uzoqlikda va darvoza chizig'idan 3,5 m. kam bo'lmagan masofa chiziladi. Chiziq darvoza ortida ustunlardan 6 m. masofada o'tkaziladi;

– o'yin vaqtida fotoreportyorlarning yoki o'yinda qatnashayotgan boshqa kishilarning «fotoreportyorlar chizig'idan ichkariga kirishiga yo'l qo'ymasligi;

– o'yin vaqtida fotoreportyorlarga rasmga olish uchun «fotochaqmoq»dan foydalanishni ta'qiqlash.

V BOB. FUTBOL HAQIDA

5.1. Penalti



Penalti (inglizcha “penaltu” – jazolash, “penaltu kick”, – jari-ma zarba) – futbolda darvoza chizig‘idan, maxsus darvoza to-mon belgilanadigan zarba, faqat-gina darvozabon tomonidan hi-moyalanadigan, 11 metrli belgi-dan tepiladi (dastlabki britaniya-liklar qoidalariga ko‘ra, 12 yard masofadan, u ham esa amaldagi o‘sha belgi). Futbolda penalti-ning vujudga kelishi to‘g‘risida bir qancha taxminlar mavjud. Ulardan biri 1891-yilgi futbol qoidalari bo‘yicha irlandiyalik ekspert Djon Penalti o‘yinda jarima maydoni ichida o‘yin qoidalarining qo‘pol buzilishi yoki to‘pni o‘yinchi qo‘l bilan atayin o‘ynashi sababli darvoza tomon 11 metrlik jarima belgilashni qoidaga kiritishni taklif qilgan.

Birinchi marta esa bunday zarba Irlandiya futbol ligasi o‘yinida amal-ga oshirilgan edi. Hozirda o‘yinlardagi bu zarbani butun dunyoda **11 metrlik jarima zarbasi** deb aytishadi.

Ikkinchi taxmin esa 1890-yilda shimoliy Irlandiya Milforddidan dar-voza Vilyam Makkram o‘ylab chiqqan deb takidlashadilar. Dastlabki penaltilar darvoza chizig‘idan keyin 12 yard (10 metr 97 sm) masofadan, o‘yinchilar xohlagan belgidan urishlari mumkin bo‘lgan (hozir 11 metrlik zarba faqat qat‘iy belgilangan joydan beriladi).

Uchinchi taxminga ko‘ra Angliyaning “Stok-Siti” klubi raxbarlarining sa’y-harakatiga ko‘ra, futbol o‘yinida penalti vujudga keldi. Butun dunyo futboli 11 metrli zarba (penalti)ning joriy qilinishida “Stok-Siti” klubiga ko‘p tasannolar deyishlari kerak.

1891-yilda Angliya mamlakati futbol kubogi uchrashuvida “Stok-Siti” klubi “Notts Kaunti” klubi bilan uchrashuvda 0:1 hisobida mag‘lubiyatga uchragan. O‘yin taqdirini hal qiluvchi vaziyat, ya‘ni “Notts Kaunti” klubi himoyachisi o‘zining ochiq turgan darvozasiga ketayotgan to‘pni qo‘li bi-lan qaytargan. Qoidaga binoan jarima to‘pi qoida buzilgan joydan urilardi, o‘yinda “Notts Kaunti”ning barcha o‘yinchilari darvoza chizig‘iga kelib to‘da bo‘lishdi va qattiq zarbani o‘zlariga qabul qilishgan. Mag‘lubiyatga uchraganlar “Jin ursin bunday qoidani”,– deb futbol federatsiyasiga arz qilishgan. Ariza ko‘rib chiqilgan va zarba to‘siqsiz ya‘ni “devorsiz” 12

yard (10 m 97 sm) belgidan darvoza tomon tepilishi kerak, degan yangi qoida chiqqan. Tezda qoidani takomillashtirishga to'g'ri keldi. Bu safar ham "Stok-Siti" klubi futbolchilari mag'lubiyatga uchrashgan, "Aston Villa" klubiga 0:1 hisobida yutqazgan. Gap shundaki, o'yin tugashiga 30 soniya qolganida "Stok-Siti" klubi futbolchilari penalti urish huquqiga ega bo'lishdi. O'sha paytda esa "Aston Villa" klubi murabbiyi o'yinchilariga o'yin tugashini ishora qildi, o'yinchilar esa jentelmen bo'lmagan tarzda to'pni tribunaga tepishgan. To'p qaytargunga qadar o'yin vaqti ham tugadi, hakam esa hushtak chalib o'yin tugashini bildirdi va "Stok-Siti" klubi bu safar penaltini tepmasdan mag'lubiyatga uchrab maydonni tark etishdi. "Stok-Siti" rahbariyati yana Futbol assosiasiyasiga arz qilishgan. O'shandan beri penalti uchun o'yin vaqti cho'ziladi.

1891-yilda 3 ta turdagi qoidabuzarlik uchun 11 metrlik penalti, jarima zarba tepilishiga sabab bo'lgan; raqibni chalib yiqitish, o'yinchini ataylab to'xtatish yoki ataylab to'pni qo'l bilan o'ynash.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, 1891 yillarda o'yinlarni boshqargan hakamlar jamoalarning iltimosiga ko'ra 11 metrlik jarima zarbasini belgilashi mumkin bo'lgan. 1903 yildan esa penalti maxsus joydan tepiladigan bo'lgan. O'sha yillar qoidalar bo'yicha Halqaro kengash maydonga 11 metrlik jarima belgisi darvoza chizig'idan 12 yard (10,97 metr) bo'lishi va darvozabon penalti urilayotganida 6 yardgacha oldinga chiqishiga ruxsat etilgan edi. Xuddi mini-futbol kabi darvozabon penalti tepuvchi o'yinchiga halaqit qilishi mumkin bo'lgan. O'sha davrda hamma darvozabonlar bunday imtiyozlardan foydalanishar edi, bu orqali darvozabonlar bunday alamli va nohaq jazoga qarshi chiqishardi. 1905 yildagi futbol qoidalari bo'yicha esa darvozabon faqat darvoza chizig'ida turishi va chap yoki o'ngga harakatlanishi mumkin edi. 1929 yilda esa penalti vaqtida o'yinchi to'pga zarba bermagunicha darvozabon umuman joyidan qimirlashi mumkin emas edi, lekin vaqt o'tishi bilan futbol qoidalari-ga o'zgartirishlar kiritila boshlandi va qo'shimchalar asosan hakamlarga tegishli edi. Halqaro futbol qoidalari kengashi 1893 yildayoq o'yin vaqti tugagan bo'lsa ham hakam tomonidan belgilangan penalti tepilishi kerak, deb qaror qilingan.

O'yindan so'ng tepiladigan penaltilar Jahon futbol chempionatlarida 1982 yil Fransiya va Germaniya terma jamoalarining uchrashuvi yarim finalida birinchi marta kuzatilgan va unda Germaniya terma jamoasi

futbolchilarining qo‘li baland kelgan. Bundan avvalgi 1950 – 1970 yillardagi Jahon futbol chempionatlari saralash o‘yinlarida bir marta ham durang hisobi bo‘lmagan, shuning uchun g‘olib jamoani aniqlash qiyinchilik tug‘dirmagan. Faqatgina 1934 va 1938 yilgi Jahon futbol chempionatlarida to‘rtta (durang) o‘yinda jamoalar qaytadan o‘ynashgan.



Bugungi kunda penalti ana shunday uriladi

O‘n bir metrlik zarba (penalti)

Bu futbolda faqatgina darvozabon himoya qilayotgan darvozaga 11 metrlik masofadan beriladigan zarbaga aytiladi. 11 – metrlik zarba odatda o‘yinchi o‘z jarima maydonchasida raqib jamoasi o‘yinчисiga nisbatan o‘yin qoidasini buzganda belgilanadi.

11 metrlik zarbaning amalga oshirilish qoidasi:

- to‘p 11 metrlik nuqta (belgi)ga qo‘yiladi;
- zarbani amalga oshiradigan o‘yinchi aniqlanadi;
- darvozabon 11 metrlik zarbasini qaytarishi kerak, darvoza chizig‘ida turib, chiziq bo‘ylab harakatlanishiga, zarba berilmaganiga qadar darvoza chizig‘i ustida turishi kerak;
- darvozabon va zarbani amalga oshiruvchi futbolchidan tashqari barcha o‘yinçilar 11 metrlik belgining ortida, ya’ni undan kamida 9,15 metr uzoqlikda turishlari kerak;
- zarbani amalga oshiradigan futbolchi hakam buyrug‘i bilan to‘pni tepadi va to‘p boshqa biror kishiga tegmaguncha unga qayta zarba berishi mumkin emas;
- agarda penalti bo‘lim (taym) oxirida hakam tomonidan belgilansa, ammo o‘yin vaqti tugasa unda hakam tomonidan penalti urilishi uchun qo‘shimcha vaqt beriladi.

Qoida buzilishi va jazo:

Agar hakam zarba berishga buyruq (ruxsat) berganda (yuqoridagi qoidalarga asoslanib), zarba natijasi yoki o‘yin qoidasini qaysi jamoa vakili buzganligiga qaramasdan hakam yana qaytadan zarbani amalga oshirishga imkon beradi va fikr bildiradi.

1. 11 metrlik zarbani amalga oshiruvchi yoki uning jamoadoshi o‘yin qoidasini buzganida:

- Agar to‘p darvozaga tegsa, zarba qaytadan tepiladi.
- Agar to‘p darvozaga tegmasa, raqib jamoa 11 metrlik jarima zarbasi bilan erkin zarba bilan to‘pni o‘yinga kiritadi.

2. Darvozbahon yoki uning jamoadoshi o‘yin qoidasini buzganida:

- Agar to‘p darvozaga kirsam, gol hisobga olinadi.
- Agar to‘p darvozaga kirmasam, zarba qaytadan bajariladi.

3. Ikki jamoaning ham o‘yinchilari to‘p tepilayotganida qoidalarni buzmasalar:

- 11 metrlik zarba qaytadan bajariladi.

Agar to‘p 11 metrlik belgidan tepilib, davozaga to‘sinim, ustuni yoki darvozbahonga tekkunga qadar biror bir begona jism, shaxs, qush yoki muxlislar o‘rindig‘idan tashlangan biror bir jismga tegsam, u holda zarba qaytadan tepiladi. Lekin agar begona jism darvozbahon yoki davozaga to‘siniga tegsam, u holda erkin zarba beriladi. 11 metrlik zarbani amalga oshirayotganida, o‘yinchi yugurib kelayotganida chalg‘ituvchi harakatlarni amalga oshirishi mumkin, lekin yugurib kelib to‘pga zarba berayotganida chalg‘ituvchi harakat, to‘p oldida to‘xtab so‘ng zarba berish qat‘iyan ta‘qiqlanadi. Bu harakat sportchiga hos bo‘lmagan harakat deb baholanib, zarbani bergan o‘yinchi ogohlantirilishi mumkin.

Penalti haqida :

• O‘zining minginchi golini – Pele 1969 yil 19 noyabrda “Santos” klubi tarkibida “Vasko Da Gama” klubiga qarshi kechgan o‘yinda penaltidan kiritgan.

• Ayrim futbol mutaxassislarining e‘tirof etishlaricha sobiq Ittifoq terma jamoasining darvozbahoni Lev Yashin futboldagi faoliyati davomida 150 marotaba penaltilarni qaytargan ekan.

• Mashhur darvozbahon Shovkovskiy darvozbahonlar ichida o‘yindan so‘ng o‘z darvozasiga tepilgan penaltilardan birortasini ham o‘tkazmagan.

- Gollandiyalik o‘yinchi Neeskens futbol tarixida Jahon futbol chempionatida birinchi penalti tepgan o‘yinchi hisoblanadi (1974 yil Germaniya terma jamoasiga qarshi o‘yinda).

- O‘yinning asosiy vaqti tugagandan so‘ng tepiladigan penaltilar seriyasidagi rekord 2005 yil yanvarda Namibiya mamlakati kubogi uchun “KK Palas” va “Siviks” klublari o‘rtasidagi o‘yinda kuzatilgan, bu o‘yinda umumiy hisobda 48 marotaba penalti urilgan, o‘yinda esa “KK Palas” futbol klubi 17:16 hisobida g‘olib bo‘lishgan.



- Hammaga ma’lumki, 11 metrlik jarima zarbasini, ya’ni penaltini qaytarish naqadar qiyin. Marokashning “Far Rabot” klubi darvozaboni Xalid Askri o‘z hissiyotlarining qurboniga aylangan va muxlislar uni “futboldagi eng katta omadsiz” deb atashgan, buning sababi esa “Far Rabot” va “Mag‘rib Fes” (Marokashning ikki klubi) uchrashuvining asosiy va

qo‘shib berilgan daqiqalari tugagach hisob 1:1 bo‘lgani uchun o‘yin taqdirini penaltilar aniqlab berishi kerak edi. Xalid Askri mohirlik bilan 11 metrlik penaltini qaytardi va ko‘kragiga urib futbolkasidagi jamoa belgisi tushirilgan emblemani o‘payotganida to‘p uning orqasidan darvoza chizig‘idan o‘tib, darvoza to‘ridan joy olgan va Xalid Askri “futboldagi eng katta omadsiz” nomiga erishgan.

Qiziqarli voqealar :

- 1938-yil 9-aprelda “Bi-Bi-Si” telekanali dunyoda birinchi marta futbol o‘yinini jonli ravishda televidenie orqali namoyish etdi, bu uchrashuv Angliya va Shotlandiya futbol terma jamoalari o‘rtasida bo‘lib o‘tdi. O‘sha paytlarda butun Angliya mamlakatida 20 ming dona televizor mavjud bo‘lgan.

- Futbol o‘yiniga bo‘lgan qiziqish butun dunyoda nihoyatda kattadir. 2002-yilgi jahon chempionatidagi Braziliya – Belgiya futbol terma jamoalari o‘yini nihoyasida Indoneziya orollaridan biri Sumatradagi qamoqxona qo‘riqchilari bu o‘yinga shunchalik berilib ketishganki, qamoqxonadan 48 ta mahbusning qochib ketganini payqashmagan. Keyinchalik mahbuslarning hech birini tutib olishmagan.

- Yoshingiz nechada bo‘lsa ham, siz futbol o‘yinini tomosha qilishingiz va futbol o‘ynashingiz mumkin. Meksikalik futbolchi Entike Alkoser “Reforma Atletik” klubiga 1952-yilda qabul qilinib, 2003-yili 79 yoshida hali ham jamoada o‘ynayotgan edi.

- 2003-yilda Gabriela Fereyra Braziliya mamlakati radiosida futbol sharhlovchisi bo‘lib ishlay boshlagan, o‘sha paytda u 10 yoshga to‘lgan edi.

5.2. Futbol haqida. Rekordchilar

- 1995-yilda braziliyalik futbolchi Ronaldoning sobiq xotini to‘pni havoda ushlab, jonglyorlik qilib turish bo‘yicha rekord o‘rnatgan: u to‘pni oyog‘i badani bilan havoda 9 soat 6 daqiqa ushlab tura bilgan.

- Ganalik futbol yulduzi Ferdi Adobe to‘pni havoda urish bo‘yicha rekord sohibidir. 2003-yilda Amerikaning “Tudey” (ya’ni bugun) nomli ko‘rsatuvida u 30 soniya mobaynida yerga tushirmasdan to‘pga oyog‘i bilan 141 marta zarba bergan.

- To‘pni qo‘l bilan uzoqqa tashlash rekordi jahon kubogi finalchisiga emas, balki inglialik himoyachi Deyv Chellinorga tegishlidir. 2000-yilda “Tranmer” klubida to‘p surgan Deyv Chellinor to‘pni o‘yinda 46,34 metr uzoq masofaga otgan.

Jamoalardagi rekordchilar

- Kolumbiyalik Gabriel Ochoa Uribe “Milonarios” klubi tarkibida ikki karra mamlakat chempioni bo‘lgan, ilk bor u 1949 yilda bo‘lgan. Keyinchalik u ushbu klub murabbiysi sifatida faoliyatini davom ettirdi. Va 6 marta sobiq klubi bilan murabbiy sifatida chempion, yana bir marta “Santa-Fe” klubi chempioni “Amerika” klubi bilan esa 7 bor va oxirgi marta 1990-yilda chempion bo‘lgan.

- Bir klub tarkibida chempion bo‘lish rekordi Shotlandiyaning “Reyndjer” klubida 1920-yildan 1954-yilga qadar to‘p surgan Uilyam Stratga tegishli, u “Reyndjer” klubi safida 18 marta chempion bo‘lgan.

- Karolina Morache erkak futbolchilarga murabbiylik qilgan birinchi ayol murabbiy edi. U 1999-yilda Italiya “S” - turkumining “Viterbeze” klubida murabbiylik qilgan.

- Kamdan-kam holatlarda klublar, jamoalar murabbiylari uzoq va omadli faoliyat yuritganlar. Gi Rustal Frantsiyaning “Oser” klubiga 1961-yilda murabbiy bo‘lib keldi va qisqa muddatli klubni tark etishni

inobatga olmaganda, u klubga 2000-yilga qadar murabbiylik qilgan. (1961 – 2000). Keyinchalik uning o‘rmini Daniel Rolan egalladi, biroq u bu lavozimda atigi 1 yil ishladi va Gi Rustal yana o‘z klubiga murabbiy lavozimiga qaytgan (2001 – 2005).

- Irlandiyalik Martin Onil klub mutasaddilari tomonidan ishdan hech qachon bo‘shatilmagan yagona murabbiy bo‘lib, u o‘z faoliyatini Angliyaning “Uokomb Uonderers” klubida boshlagan bo‘lsa-da, keyinchalik u “Norvich” klubida, “Lester Siti” va Shotlandiyaning “Seltik” klublarida ham faoliyatini davom ettirdi va 2005-yilda oilasi bilan ko‘proq vaqt o‘tkazish uchun “Seltik” klubini tark etgan. Mutaxassislarning fikricha, Martin Onil murabbiylikka yana qaytishi mumkin.

- Murabbiy Ser Aleks Fergysonni esa faqat bir marotaba ishdan haydashgan, u ham bo‘lsa 1978-yili Shotlandiyaning “Sent-Mirren” klubi Prezidenti bilan fikri bir joydan chiqmagani va kelishmagani uchun ishdan bo‘shatishgan. Fergyson “Manchester Yunayted” klubini 1986-yildan buyon bosh murabbiy sifatida boshqara boshlagan. 2004-yil “Manchester Yunayted” klubi murabbiysi Ser Aleks Fergyson bilan o‘zining 1000 chi o‘yinini o‘tkazgan.

- Rouli Xovud ham mashhur murabbiylardan biri, chunki “Ginness rekordlar kitobi”ga ko‘ra, u bir klubda eng uzoq muddat murabbiylik qilgan. Uning Angliya shimoliy ligasining “Meri” klubi murabbiyligiga 33 yil bo‘lgan.

Mashhurlar va futbol

- Sherlok Xolms haqidagi sarguzashtlari bilan mashhur Artur Konan Doyl AS Smit nomi bilan 1880-yillarda Angliyaning “Portsmut” klubida darvozabon bo‘lgan.

- “So Solid Crew” rok-guruhining a‘zosi Xarvi “Chelsi” o‘smirlar futbol klubi tarkibida o‘ynagan. 2003-yilda esa u “Uimbldon” havaskorlar klubi tarkibiga o‘tib ketgan.

- Mashhur ispaniyalik qo‘shiqchi Xulio Iglesias esa “Real Madrid” klubida darvozabon bo‘lgan va 1963-yilda avtohalokatga uchrab, kasalxonadalgida xamshira unga gitara olib kelgan va shundan so‘ng Xulio Iglesiasning musiqa sohasidagi mashhurligi boshlangan.

- Mashhur faylasuf va yozuvchi Alber Kamyu esa 1920-yillarda Jazoir futbol terma jamoasida darvozabon bo‘lgan. Kamyu shunday deb yozgan edi: “Burch va hulq-atvor haqida nimani bilsam, hammasi futbol o‘yini sharofati bilandir”.

- Qo‘shiqchi Rod Styuart 1960-yilda Angliya mamlakatining “Brentford” klubiga a‘zo bo‘lgan.
- Vest-Indiyaning kriket bo‘yicha terma jamoasi o‘yinchi Viven Richards yoshligida futbol o‘ynagan va hatto Antigua va Barbuda mamlakatining terma jamoa azosi sifatida 1974-yilgi futbol bo‘yicha jahon chempionatining saralash o‘yinlarida ishtirok etgan.

Ishqibozlar

Ishqibozlarsiz futbol o‘yinini tasavvur qilish juda ham qiyin. Ishqibozlar o‘zlarining harakatlari bilan futbol o‘yining ruhiyati va shijoatini ko‘taradi. Muxlislar faqatgina jamoa o‘yini uchun chipta olib, faqatgina jamoani qo‘llab-quvvatlab qolmay, balki jamoalari og‘ir ahvolda qolganda doim yordamga yetib kelishadi.

- Angliyaning “Shryusberi Taun” klubining maydoni Severn daryosi bo‘yida joylashgan bo‘lib, 1986-yil nafaqaga chiqqunga qadar stadion xodimi Fred Devis bir mavsumda maydondan daryo tomon uchib ketayotgan 130 ta to‘pni tutib olgan.

- Yan Van Kook – “Feyenord” klubi muxlisi 1998/1999-yilgi futbol mavsumi uchun mavsumiy ikkita chipta xarid qildi, bittasi o‘zi uchun ikkinchisi esa iti “Bo” uchun.

- Golland politsiyachisi Evro – 2000 o‘tkazilayotgan paytda golland muxlisi ijaraga olgan uyini Gollandiya milliy futbol terma jamoasi rangiga – qizg‘ishga bo‘yagani uchun uni qamoqqa olgan.

- 2000-yilda sud Martin Zdravkovning iltimosini rad etdi. Gap shundaki, u sudga o‘z ismini “Manchester Yunayted”ga almashtirib berish iltimosi bilan chiqqan edi.

- Angliyaning “Nottingem Forest” klubining germaniyalik muxlisi Ebby Klyaynrensing o‘z sevimli klubining har bir o‘yiniga Germaniyaning Dyusseldorf shahridan Angliya mamlakatiga uchib boradi va har yil 15 ming funt sterling (o‘rtacha 30000 \$) pulni shunga sarflaydi. 2000-yilda Ebby Klyaynrensing o‘z sevimli klubi “Nottingem Forest” klubi maydonida 20 ming muxlis ko‘z o‘ngida Xayke Atkinson bilan nikohdan o‘tdi.

- Pedro Gatika Buenos-Ayresdagi uyidan Meksika mamlakatigacha bo‘lgan masofani 1986-yilgi futbol bo‘yicha jahon chempionatida o‘z terma jamoasi Argentinani qo‘llab quvvatlash uchun 7300 km masofani velosipedda bosib o‘tgan. Afsuski u o‘z jamoasining o‘yiniga chipta sotib ololmagan va stadionga kirishga urinayotgan paytida uning velosipedini o‘g‘irlashgan.

Ishqibozlar o‘yinga aralashishi natijasida durang

- O‘tgan asrning 50 – yillarida janubiy Germaniyaning ikki klubining o‘zaro o‘yinida kamdan-kam uchraydigan hol yuz berdi. O‘yin nihoyasiga yetayotgan, hisob 3:3 bo‘lib turgan bir paytda, to‘satdan mehmonlar hujumchisiga to‘p kelib tushdi, u chaqqonlik bilan birin-ketin bir nechta mezbonlar himoyachilarini, qarshisiga chiqqan darvozabonni aldab o‘tib, bo‘sh qolgan darvozaga to‘pni sekin tepdi. Butun o‘yingoh muxlislari sukut saqlab, nafasini yutdi, bu vaziyatda faqatgina bir kishi-mezbonlar ishqibozi o‘zini yo‘qotib qo‘ymadi va to‘p endigina darvoza chizig‘ini kesib o‘taman deganida to‘pni maydondan chiqarib yuborgan. Hisob o‘zgartmadi, hakam o‘yin qaydnomasida esa quyidagi so‘zlarni yozib qo‘ydi: “o‘yin futbol ishqibozlarining aralashuvi tufayli durang natija bilan yakunlandi”

O‘yingohga tibbiy yordam ko‘rsatadigan mashinada yetib borgan ishqiboz

- “Napoli” klubining ashadiy muxlisi Jovanni Mannini “Napoli” va “Roma” futbol klublari o‘yiniga chipta sotib ololmagach, xiyla ishlatishga majbur bo‘lgan. Ya’ni Jovanni o‘ziga eng yaqin bo‘lgan tez tibbiy yordam ko‘rsatish markazi aynan uning klubi to‘p suradigan maydonning ichida joylashganini bilgani uchun yurak xuruji kasalligini bahona qilgan va o‘yin boshlanishiga sanoqli daqiqalar qolganida tez tibbiy yordam mashinasi Jovanini “Napoli” o‘yingohida joylashgan tibbiy maskanga olib kelgan va hamshiralalar “bemor” ni mashinadan tushirish uchun mashina eshigini ochganida Jovanni mashinadan yugurib tushib o‘yingohda ko‘pchilik ichida g‘oyib bo‘lgan va o‘z klubining o‘yinini bevosita o‘yingohda kuzatish huquqini kiritgan.

Futbol ishqiboziga aylangan (o‘zgargan) futbolchi

- Bu voqea Fransiya janubidagi bir kichkina shaharda yuz bergan. O‘yinda hakam o‘ziga nisbatan noma’qul so‘zlar bilan so‘kingan futbolchini maydondan chetlatgan. Lekin, hech qancha vaqt o‘tmay hakam o‘ziga tanish bo‘lgan yana o‘sha ovozni va yana haqoratomuz so‘zlarni eshitgan va ular ichida (ishqibozlar) eng muloyimi “Hakamni maydondan ob chiqib tashlanglar!”, “E, Sen, qora kiyimdagi ahmoq ko‘zoynak

taqsangchi!” – degan iboralar edi. Hakam bu gaplarni kim aytayotganini qidirib o‘rindiqlarga ko‘z yugurtirgan, bir necha daqiqa oldin maydondan chetlatilgan futbolchining ishqibozlar kiyimida ovozi boricha qichqirayotganini ko‘rib qolgan. Boshida hakam bunga e‘tibor bermaslikning harakatini qilib, o‘yinni davom ettirgan, lekin maydondan chetlatilgan futbolchining ovozi borgan sari hakam jig‘iga tega boshlagach, hakam maydondagi politsiyachilardan birini yoniga chorlab, maydondan chetlatilgan va futbol ishqibozlari orasida o‘tirib qolgan, uni “odobsiz so‘zlar bilan haqoratlagan” futbolchi – ishqibozni o‘yingohdan chiqarib yuborishni so‘radi. Ammo, politsiyachi bunday qilolmasligini, aks holda o‘yingohdagi deyarli yarim muxlisni haydab chiqarishga to‘g‘ri kelishini aytgan. Shu sababli hakam o‘yinni davom ettirishga majbur bo‘lgan.

Eng shovqinli futbol ishqibozlari

- 2005 yilgi Angliya mamlakati futbol ligasi kubogi finalida muxlislarning shovqin rekordi qayd etilgan. “Liverpool” klubi o‘yinchisi Risingning Londonning “Chelsi” klubi darvozasiga kiritgan golidan so‘ng mersisaydlilik muxlislar hayqiriqlari kuchi 130,8 detsiballga yetib, bu ko‘rsatgich “Ginness rekordlar kitobi”ga kiritildi.
- Keyingi rekord 2000-yilda Amerika klubi “Denver Bronkos” o‘yinida 128,74 detsibal kuchga ega bo‘lgan rekord qayd etildi.

Birozgina shovqin

- Futbol o‘yini paytida muxlislarning birin-ketin butun maydonda turib-o‘tirib, to‘lqin shaklini berishi 1986-yilda Meksikada o‘tkazilgan futbol bo‘yicha jahon chempionatidan so‘ng “Meksika to‘lqini” nomi bilan mashhur bo‘ldi. Vengriyalik olim “Meksika to‘lqini” ning o‘rtacha tezligini 12 m/sek deb hisoblagan.
- Braziliya futbol terma jamoasi 1966-yilgi jahon chempionatida omadsizlikka uchragan, Braziliya muxlislari terma jamoani “baland ovozdagi salomlashish” bilan qarshi olishmoqchi edilar va bundan qattiq qo‘rqqan Braziliya futbol terma jamoasining murabbiysi Visente Feola musobaqa tugaganidan so‘ng yana bir oy Yevropada qolishga qaror qilgan edi.
- “Rapid”ning 15 daqiqasi – bu Venaning “Rapid” klubi ishqibozlarining odatiy marosimidir. Har bir o‘yinda o‘yin tugashiga 15 daqiqa qol-

ganda klub ishqibozlari tinmasdan qarsak chalishadi. Hech kim bu marosim qachon va nima uchun boshlanganini bilmaydi. Ammo bu ishni necha o‘n yillar davomida bajarib kelishmoqda.

- Afg‘oniston mamlakati futbol ishqibozlari esa o‘z terma jamoalarining rasmiy uchrashuvlarida yana ishtirok etishini eshitib xursand bo‘lishgan, lekin hukumat tepasida o‘sha paytida tolibonlar bo‘lganligi sababli, ular o‘z futbol jamoalarini qo‘llab-quvvatlay olmaganlar, chunki tolibonlar o‘yin paytida qarsak chalish, ortiqcha ovoz chiqarishni ta‘qiqlaganlar.

Jamoalarning eng zo‘r boshqaruvchilari va murabbiylari

- Eng zo‘r boshqaruvchilar va murabbiylar futbol jamoalarining ulkan cho‘qqilarini egallashda muhim rol o‘ynashgan. Ammo jamoalar omadsizlikka uchrasa, u holda ular ishdan bo‘shatilishi kutilgan. 1998-yilda “Real Madrid” klubiga bosh murabbiy etib bir vaqtlar Ispaniya futbol terma jamoasining yulduzi bo‘lgan Hose Antonio Kamacho atigi 23 kun jamoaga bosh murabbiylik qilgan.

- Belgiya mamlakatida esa “Tentu” klubiga 6:1 hisobida mag‘lub bo‘lgan “Billem II” klubining murabbiysi Ko Adrianse g‘azablanib, o‘yin bo‘lgan stadiondan 13 km uzoqlikda mashinada borib, qaytib stadiongacha mashinasiz piyoda yurib kelgan.

- Fransuz Raymon Gutalsu murabbiyligida Marselning “Olimpik” klubini Yevropa ligasi g‘olibligigacha olib chiqqanida u 71 yoshda edi, biroq afsus “Olimpik” klubining prezidenti Bernar Tagi korrupsiyada ayblanganligi uchun “Olimpik” klubidan Yevropa ligasi kubogi tortib olingan.

- 1930-yili Xuan Hose Tramutole atigi 27 yoshda bo‘lganida Argentina futbol terma jamoasi bosh murabbiysi bo‘lib ish boshladi.

- 2004-yili 88 yoshida Ayvor Verden Pauell “Tim Bat” universiteti jamoasini Angliya kubogining birinchi davrasiga chiqara olgan murabbiy sanaladi. U 53 yil murabbiylik qilgani uchun Angliya futbol assosiatsiyasining maxsus mukofoti bilan taqdirlandi.

Jahon kubogi

- Bu turnir futbol sport turi bo‘yicha dunyodagi eng yirik musobaqa hisoblanadi. Millionlab odamlar jahon futbol kubogi musobaqalarini tele-

videnie, radio, gazeta va internet orqali kuzatishadi. 2002-yildagi jahon futbol kubogi musobaqalarining final o'yinida Germaniya – Braziliya futbol terma jamoalari o'rtasidagi o'yinni dunyodagi 1,1 mlrd odam, yer yuzi aholisining 1/6 qismi oynai jahon orqali tomosha qilishgan. 2002-yilgi jahon futbol kubogi o'yinlarini tomoshabinlarga 260 ta kamera suratga tushirdi, tushirilgan tasvirlar 41000 soatni tashkil etadi, uni to'liq ko'rib chiqish uchun 4,5 yil vaqt kerak bo'ladi.

- 2006-yilgi jahon futbol chempionati Germaniya mamlakatida o'tkazildi. Final o'yini esa Myunxendagi "Alliants Arena" stadionida o'tkazildi. Stadion shaffof devorlariga elektr lampochkalar o'rnatilgan bo'lib, bu stadionning turli xil ranglarda jilovlanishini ta'minlagan.

- 1930-yilgi jahon futbol kubogi final bosqichida atigi 13 ta futbol terma jamoalari ishtirok etgan.

Sovrin (kubok) haqida

- Jahon futbol kubogining ilk namunasi fransuz haykaltaroshi Abel Laffer tomonidan yasali; balandligi 35 sm, og'irligi 3,8 kg bo'lgan. Sovrin oliy navli kumushdan ishlangan bo'lib, ustidan tilla suvi yurgizilgan, tag qismi lazurit toshidan yasalgan bo'lib 1950-yildan bu kubok "Jyul Rime" kubogi deb atala boshlangan. Ikkinchi jahon urushi paytida Ottorino Barassi, Italiya futbol mutaxassisi sovrinni o'g'irlab ketmasliklari uchun uni krovati tagiga yashirib uxlagan. 1970-yilda Braziliya futbol terma jamoasi 3 karra jahon chempioni bo'lgandan so'ng "Jyul Rime" kubogini umrbod o'zida saqlash huquqini qo'lga kiritgan. Afsuski, 1983-yilda



kubok o'g'irlangan va taxminlarga qaraganda, u allaqachon eritilgan. Hozirda Braziliya mamlakatida uning nusxasi saqlanmoqda. Jahon futbol kubogining yangi loyihasi uchun 53 ta namunalari FIFA tomonidan ko'rib chiqildi va oxir-oqibat yangi kubok uchun italiyalik rassom Silvio Gazzanjinining loyihasi ma'qullanib tasdiqlandi. Uning og'irligi 4,97 kg bo'lib, 17 ta g'oliblarning nomini

yo'zishga yetadigan tub qismi bor va undagi bo'sh joy 2038-yilgacha

gʻoliblarning nomini yozish uchun yetishi kerak. Yangi kubok gʻolib futbol terma jamoasiga vaqtinchalik beriladi va u FIFA ning mulki boʻlib qolaveradi. Buning ajablanarli tomoni yoʻq, axir u kubok 18 karat boʻlib, 8 mln. funt sterling qiymatga egadir.

Ekzotik tovarlar

- 1999-yilda Italiya mamlakatining “Fiorentina” klubi oʻz stadionidan havo joylashgan bankalarni sotishni boshladi: uch xil hidli bankalarni xarid qilish mumkin edi: 1) “Tribunalar ruhi”. 2) “Gʻalaba shukuhi”. 3) “Futbolchilarning yechinish xonasidagi hidlar”.

- 2002-yilgi jahon futbol chempionatida Yaponiya futbol terma jamoasining aʼzosi Tsuneyasu Miyamoto burnini himoyalash maqsadida yuziga qora niqob kiyib olgan edi, muxlislar ham oʻz jamoalarini va oʻyinchini qoʻllab-quvvatlash maqsadida oʻyinlarda qora niqob kiyishgan edi.

- 1997-yilda Italiyaning “Inter” futbol klubi braziliyalik Luis Ronaldo bilan shartnoma imzolagach, sotuvga Ronaldo ismi va uning sevimli raqami tushirilgan qalbaki “9” raqamli futbolkalar butun Italiyada sotildi, klub esa moʻmaygina daromad koʻrdi. Lekin aslida klub mutasaddilari Ronaldoga “10” raqami yozilgan futbolkaga Ronaldo ismini yozib berishgan edi.

Talismanlar

- Jahon futbol chempionatining ilk talismani “Villi” ismli yoʻlbars boʻlgan. U mundialda 1966-yilda paydo boʻlgan. Undan soʻng frantsuz xoʻrozi “Futiks”, quvnoq Amerika iti “Strayker va bir nechta bolalar”, Yaponiya/Koreyadagi robotlar – “Kaks, Ato va Nik “ lar ham talisman boʻlishgan. Kulib turgan ispaniyalik apelsin “Naranxito” va meksikalik oʻrik charm qorisi “Pike” ham talisman boʻlgan.

Super yulduzlar

- Millionlar uchun buyuk oʻyin boʻlmish futbol koʻpgina yaxshi futbolchilarni super yulduzlarga aylantirdi. Mashhur Pele, Zidan, Bekxem va Raul singari yulduzlar qayoqqa bormasin, orqalaridan odamlar ergashardilar. 2005-yilda millionlab odamlar Indoneziyadagi tsunamidan zarar koʻrgan, bu odamlarga moddiy yordam berish maqsadida Yevropa futbol terma jamoasi va Jahon futbol terma jamoasi oʻrtasidagi “Futbol-

umid uchun” o‘yini oynai jahon orqali namoyish etildi va bu o‘yinni tomosha qilishdi. O‘yinda 1 mlrd. funt sterling mablag‘ to‘planib, Indoneziyaga yordam sifatida berilgan.

- Angliyaning ilk eng yaxshi futbolchisi nomiga 1948-yilda ser Stenli Metyuz sazovor bo‘lgan. Stenli professional futbolchilik faoliyatini davom ettirgan, “qariya futbolchi” nomiga sazovor bo‘lgan, u 50 yoshga to‘lganda ham futbol o‘ynashni davom ettirayotgan edi.

- Fransiya futbol terma jamoasining yarim himoyachisi Mishel Platini Yevropaning eng yaxshi futbolchisi nomiga ketma-ket 3 marotaba sazovor bo‘lgan yagona futbolchi hisoblanadi (1983,1984,1985).

Gollar

Gol - bu futbol o‘ynashining asosiy natijasi va sababidir. O‘yinda to‘p kiritmay, unda g‘olib bo‘lish mumkin emas. Tez–tez raqib jamoasiga to‘p kiritadigan futbolchilar katta maosh to‘lanadigan futbolchilar hisoblanishadi.

- Futbol tarixida Pele eng ko‘p to‘purar futbolchi bo‘lgan, u rasmiy uchrashuvlarda, ya’ni 1363 ta o‘yinda raqib darvozasiga 1281 ta to‘p kiritgan.

- Romario de Souza Faria uchta turli xil mamlakatlarda to‘purar bo‘lgan – bular: Vatani Braziliya, Gollandiya va Ispaniya mamlakatlaridir. U 13 marotaba dunyo futbol ligalarining eng to‘purar futbolchisi deb topilgan. Hozirda u Braziliyanig “Vasko da Gama” klubi tarkibida to‘p surmoqda.

- Alan Shirer Angliya mamlakati futbol chempionatida eng sermahsul to‘purar futbolchi hisoblangan. 2004-2005 - yilgi futbol mavsumi oxirida uning hisobida 250 ta urgan goli bor edi.

- 1964-yilda “Bavariya” (Myunxen) klubi bosh murabbiysi Chaykovski xohish-istagiga qarshi o‘laroq Gerd Myuller bilan shartnoma imzoladi. Chaykovski o‘shanda Myuller haqida shunday degan: “Men bu beso‘naqay filni o‘zimga asl zotli tulporlarim bilan aralashishiga yo‘l qo‘ya olmayman”. Keyinchalik Myuller milliy terma jamoada to‘purar bo‘lib, umumiy hisobda raqib darvozalariga 628 ta to‘p kiritdi, shulardan 14 tasi jahon futbol chempionati final bosqichidagi to‘plar edi. Bu natijalari bilan u jahon futbol chempionati to‘purarlar ro‘yxatida yuqori o‘rinda turgan.

- “Benfika” klubi murabbiysi Bel Guttmanga o‘z jamoasi uchun eng yax-

shi o'yinchini topishiga sartaroshxonadagi uchrashuv sabab bo'ldi. 1961-yili sartaroshxonada Bel Guttmanga hamkasb murabbiylaridan biri yosh hujumchi – Eysebio haqida so'zlashdi. Guttmann vaqtini boy bermay, Eysebio bilan shartnoma imzoladi. “Benfika” klubi tarkibida Eysebio 291 o'yinda kutilmaganda 317 marta raqib darvozasiga to'p kiritishga erishdi.

Yakka gollar

- 1 - darajali (klass, liga) klublari ichida bir o'yinchi tomonidan eng ko'p kiritilgan to'plar soni “Reysing Klub de Lans” klubida to'p surgan Stefan Stanisga tegishlidir. U bir o'yinda o'n oltita (16) gol kiritgan. U 1942-yil 13-dekabrda Fransiya mamlakati kubogi uchun bo'lgan o'yinlarda Stefan Stanis “Obri Astyuri” klubiga qarshi o'yinda darvozaga 16 ta to'p kiritgan.

- Halqaro o'yinlarda eng ko'p to'p kiritgan o'yinchi 10 ta gol bilan Sofus Nilsenga tegishlidir. 1908-yildagi Olimpiada o'yinlarida Sofus Nilsen Daniya terma jamoa safida Fransiya darvozasiga 10 ta gol kiritgan (yakuniy hisob 17:1).

- Shuncha gol (10 ta) Gotfrid Fuks tomonidan Germaniya terma jamoasi tarkibida 1912-yilda Shvetsiya mamlakatida o'tkazilgan Olimpiada o'yinlarida Rossiya terma jamoasi darvozasiga kiritilgan, yakuniy hisob (16:0).

Bir mavsumdagi rekordlar

- 1927/1928-yillardagi liga rekordsmenlari Uilyam Ralf “Diksi” Din bo'lib, 39 o'yinda raqib darvozasiga 60 to'p kiritib “Everton” futbol klubi vakili bo'lib, bu klub birinchi divizionda o'ynagan.

- Djeyms Smit 38 o'yinda, 66 to'p kiritgan u Shotlandiya mamlakatining “Eyr Yunayted” ikkinchi divizionida o'ynagan. Kubok o'yinlaridagi 19 ta to'pni qo'shsak Smit hisobida 1927/1928-yillardagi mavsumlarda 82 ta gol bo'ladi.

Rekordsmen futbolchilar

- Braziliyalik Artur Fridenrayx tasdiqlanmagan ma'lumotlarga qaraganda 26 yillik futbol faoliyati davomida ya'ni 1909-yildan 1935-yilgacha umumiy hisobda 1329 golni raqib darvozasiga kiritgan.

- Fransiyalik “Bimbo” Binder Avstriya va Germaniya mamlakat futbol klublaridagi o'yinlarida, ya'ni 756 o'yinda raqib darvozasiga 1006 to'p kiritgan.

Aniq vaqt oralig'ida eng ko'p to'p kiritilgan natijalar

- Bu ko'rsatkich 1281 golga teng bo'lib, afsonaviy Braziliyalik o'yinchi Pele tomonidan 1363 o'yinda, 1956-yil 7-sentyabrdan 1977-yil 1-oktyabrga qadar bo'lgan vaqt oralig'ida kiritilgan. Pele uchun eng omadlisi 1969-yil bo'lib, o'shanda u raqib darvozasiga 126 ta to'p kiritgan. O'zining minginchi golini 909-o'yinida "Santos" klubi tarkibida "Marakana" o'yingohida 1968-yil 19-noyabrda kiritgan. Pele o'zining 111 g'alabasi va Braziliya terma jamoasi tarkibidagi oxirgi xalqaro o'yinida 1971-yilda kiritib, o'z futbol faoliyatini tugatganini 1974-yilda e'lon qilgan. Ammo bu uzoq cho'zilmadi, 1975-yilda Pele 4,5 mln. dollarga Nyu-Yorkning "Kosmos" klubi bilan shartnoma imzolagan. Pele katta sportdan 1977-yilda ketgan va qaytib hech bir jamoada to'p surmagan.

Gollarni nishonlash

Gollar ilgari qo'lni qisib qo'yish yoki belga ohista urib qo'yish bilan nishonlanar edi. Lekin, endilikda gollarni nishonlash ba'zi vaqtlarda sirkdagi tomoshalarga o'xshab ketadi.

- Ekvadorlik hujumchi Fakundo Savi gol urgan paytida har doim getrilari ichidan "Zorro" usulidagi niqobni olib taqib nishonlagan.

- Argentalik hujumchi Martin Palermo 2001-yildagi Ispaniya kubogi uchun bo'lgan uchrashuvda "Vilyareal" klubi tarkibida qo'shib berilgan vaqtda to'p kiritdi va buni muxlislar bilan nishonlash uchun ular tomon yugurib bordi va maydonni muxlislardan ajratib turgan devor futbolchi ustiga qulab tushdi. Natijada Palermoning oyog'i ikki joyidan sinib, futbolchi 6 oygacha o'yinlarda ishtirok eta olmagan.

- 1997-yilgi mavsumdagi ilk o'yinida ishtirok etishdan oldin o'tkazilgan o'yinda Selestin Babayaro "Chelsi" klubi tarkibida o'zining ilk golini urdi va buni nishonlash uchun u salto qilganida oyog'idan jarohat oldi, aniqrog'i, oyog'i sinib, bir necha oy maydonga tusha olmadi.

Tezkor gollar

- Ma'lumotlarga qaraganda, futbol tarixida eng tezkor gol 1995-yilda "Adelaida Siti" klubi futbolchisi avstraliyalik Demen Moriga tegishli bo'lib, FIFA bergan ma'lumotiga ko'ra, Mori "Sidney Yunayted" klubi darvozasiga o'yinning 3,67 soniyasida to'p kiritgan.

- 1982-yilgi jahon futbol chempionatida Fransiya futbol terma jamoasiga qarshi boʻlgan uchrashuvda Angliya futbol terma jamoasi vakili Brayyan Robson oʻyinning 27-soniyasida toʻp kiritdi va eng tezkor gol sifatida 20 yil davomida rekord sifatida saqlanib kelgan.

- 2002-yilgi jahon futbol chempionati oʻyinlarining uchinchi oʻrni uchun kechgan uchrashuvda Turkiya futbol terma jamoasi vakili Xoqon Shukur oʻyinning 11-soniyasida raqib darvozasini ishgʻol etdi.

- Futbol terma jamoalari oʻrtasidagi eng tezkor gol egasi kim deb oʻylaysiz? Pelemi yoki Ronaldomi, Klinsmann, Myullermi, yoki ispaniyalik Raulmi? Yoʻq, jahon futbol chempionati saralash oʻyinlarida eng tezkor gol sohibi “San-Marino” futbol terma jamoa futbolchisi David Gualteri boʻlib, u Angliya futbol terma jamoasi darvozasiga oʻyinning 8,3 soniyasida toʻp kiritgan.

Moʻjiza gol

- Ilgarigi belorussiyalik “Bate” klubi darvozaboni (hozirda FK “Moskva” darvozaboni) Yuriy Jevnov 2004-yil eng gʻaroyib gollardan birining muallifi boʻldi. UEFA Kubogining saralash bahslarida “Bate” klubi Gruziyaning “Dinamo” klubi bilan uchrashgan. Doimiy holda Jevnov oʻz jarima maydonidan toʻpni kuchli zarb bilan maydonning raqib tomoniga sheriklariga yoʻllaydi, toʻp 80 metrdan oshiq masofadan uchib borib, yerga bir marta tegdi-da, “Dinamo” darvozaboni Irakliy Zoidze ustidan oʻtib, toʻgʻri darvoza toʻriga borib tushadi. “Roteiro” edi. Aytgancha, Jevnov uchun bunday mohirlik sodir etilishi birinchi marta emas. Bir – ikki yil oldin Turkiya mamlakatida boʻlgan mashgʻulotlardan birida u shunga oʻxshash golni kiritgan edi. Toʻgʻrisi, oʻshanda unga qattiq shamol yordam bergan edi.

Gollar shodasi

- Toʻp kiritish boʻyicha eng yaxshi natija Shotlandiya futbol klubi “Bon Akkord” ga tegishli boʻlib, klub 1885 yilda “Arbrout” futbol klubini 36:0 hisobida magʻlubiyatga uchratgan.

- Yevropa kuboklari turnirida eng yirik gʻalaba “Ayaks” klubiga tegishli boʻlib, u UEFA kubogi oʻyinlaridan birida Lyuksemburgning “Red boys differdanj” klubini 14:0 hisobida magʻlubiyatga uchratgan.

- 2004/2005-yilgi chempionlar ligasi finalida 0:3 hisobida magʻlubi-

yatga uchrayotgan “Liverpool” klubi “Milan” klubi bilan hisobni tenglashtirgandan so‘ng, penaltilar bo‘yicha “Milan” klubini mag‘lubiyatga uchratdi.

- Yana bir hayratga soladigan natija. Faraz qiling, endi sizning jamoangiz “Charlton Atletik” 1957-yilda “Xaddersfeld Taun” ga 1:5 hisobida mag‘lubiyatga uchrayapti va bundan tashqari “Charlton Atletik” jamoasi 10 kishi bo‘lib maydonda harakat qilib hamda o‘yin tugashiga 30 daqiqa vaqt qolgan paytda, siz umidsiz bo‘lib uyga ketardingizmi? Shoshilmang, aslida o‘yin yakuniga ko‘ra, “Charlton Atletik” jamoasi 7:6 hisobida g‘alaba qozongan.

Darvozabonlar

Darvozabonlar jamoadagi boshqa o‘yinchilardan farq qilishadi. Ularning anjomlari ham boshqa va faqat ularga o‘z maydonida o‘yin davomida qo‘l bilan o‘ynashga ruxsat etilgan. 1912-yilgacha darvozabonlar maydonning o‘zlariga tegishli bo‘lgan maydon yarmining istalgan qismida qo‘l bilan o‘ynashi mumkin bo‘lgan. Hatto bir nechta darvozabonlar o‘sha paytlarda qo‘llari bilan raqib jamoasi darvozasiga to‘p kiritishga muvaffaq bo‘lishgan. Ba‘zi insonlar fikricha, darvozabon bo‘lib o‘ynash uchun kishi salgina jinni bo‘lishi kerak ekan. Masalan, 1990-yillarda Uels futbol terma jamoasi sharafini himoya qilgan darvozabon Li Richmond Rouz darvozabonlar kiyadigan paxtali kurtka tagidan unga omad keltiradigan hech qachon yuvilmagan maykasini kiygan.

- Italiyalik darvozabon Janlujji Buffon 2001-yilda “Parma” klubidan “Yuventus” klubiga 32,6 mln. funt sterling shartnomasi asosida o‘tgan. Bufonning oilasi sportchilar oilasi bo‘lib, otasi og‘ir atletika bo‘yicha yoshlar o‘rtasida chempion bo‘lgan, onasi Stella Italiya terma jamoasida yengil atletika bo‘yicha musobaqalarda qatnashgan, opalari Gvendolina va Veronika esa voleybol bo‘yicha Italiya terma jamoasida o‘ynashgan.

- 1992-yilda “Barselona” klubining darvozaboni Xesus Angoy o‘z klubi bilan Yevropa futbol chempionlar kubogini qo‘lga kiritdi va 1999-yilda futbol sport turini regbi sport turiga almashtirib “Denver Bronkos” klubida to‘p surdi.

- Moskvaning “Dinamo” klubi darvozaboni Lev Yashin darvozabonlar orasida “Yevropaning eng yaxshi futbolchisi” nomiga sazovor bo‘lgan (1963). Mashhur rossiyalik darvozabonning laqabi – “Qora panterra” bo‘lgan.

Darvozabon hakamni ko‘z shifokoriga yubordi

- Italiyalik darvozabon Grosso o‘yin paytida hakamga ko‘z oynak taqib yurishni tavsiya qildi va hakam uni bu gap uchun maydondan chetlatdi. Surishtirishlar natijasida aniqlandiki, darvozabon Grosso optik ko‘zoynak sotiladigan do‘kon egasi bo‘lib, hakamning esa haqiqatdan ham ko‘zi yaxshi ko‘rmas ekan. Shu sababli ham tartibga chaqirish komissiyasi darvozabon Grossoning gaplarini haqorat sifatida emas, balki maslahat sifatida qabul qilish kerakligi haqida xulosa bergan. Hodisa darvozabonning kechirilishi va hakam tomonidan Grossoning do‘konidan ko‘z oynak sotib olishi bilan yakunlangan.

Hakam o‘yinchini tahqirladi

- Germaniya mamlakati futbol chempionatidagi o‘yinlarning birida “Ayntraxt” (Frankfurt) va Myunxenning “Bavariya” futbol klublari o‘yinlarida yon hakam o‘yinchini, ya’ni Yurgen Grabovskini haqoratladi, uning sha’niga yomon gaplar aytdi. Tartibga chaqirish komissiyasi qarori bilan hakam o‘yinlardan chetlatildi.

Hakamlar uchun gurzi

O‘tgan asrning 50 – yillarida Eronning Al Xarvas (Fors qo‘ltig‘iga yaqin joy) tumanida hokimiyat vakillari futbol hakamlariga cheklanmagan vakolatlar berishgan. Ular hakamlarga maydonga nafaqat hushtak, balki rezina gurzi olib chiqishga ruxsat berib, kezi kelganda hakamlar futbolchilarni nafaqat ogohlantirishi yoki maydondan chetlatishi kabi jazolarni, balki rezina gurzidan foydalanish huquqini ham berishgan. Bu tuman paytida futbol qoidalariga qat’iy amal qilinishiga yordam beradi.

Hakam o‘yinchiga gapirish qobiliyatini qaytargan

- 1967-yil Tunis mamlakatining bir o‘yingohiga yig‘ilgan muxlislar o‘zi-ga hos antiqa voqeaga shohid bo‘lishgan. Maydondan hakam tomonidan chetlatilgan o‘yinchi juda ham baxtiyor edi. O‘yinning aynan ma’lum bir vaqtida, yoshligidan saqov bo‘lgan o‘yinchi, hakam qaroridan shunchalik norozi bo‘lganki, ko‘nglidan (ichidan) hakamga haqorat so‘zlar va gaplar aytayotganida to‘satdan o‘yinchining tilidan chiqa, eshitila boshlandi va bu

kutilmagan voqea bo‘lgani uchun o‘yinchi hakamni ovoz chiqarib haqoratlay ketgan, albatta hakam bunday holatda o‘yinchini maydondan chetlatishi zarur bo‘lgan. O‘yinchi esa maydondan chetlatilganidan hech ham xafa bo‘lmagan edi, chunki u yana gapira olar va eshitar edi.

Hakamlar futboli

- O‘tgan asrning 50 – yillarida Italiya mamlakatining Siena shahrida futbol hakamlari futbol jamoalariga bo‘linib, futbol o‘ynashga qaror qilishgan. Yigirma ikkita hakam ikki jamoaga bo‘linib, futbol o‘ynashni boshlagach, dastavval hammasi risolagidek ketayotgan edi, lekin bahsga sabab bo‘luvchi to‘p darvozaga kiritilgach, vaziyat izdan chiqdi. Futbol qonun – qoidalarini juda yaxshi bilgan 22 hakamning har biri gol kiritilgan vaziyatga o‘zining nuqtai nazarini bildirishga harakat qilib, oxir-oqibat bu bahs o‘zaro katta to‘qnashuvga sabab bo‘lgan va faqat politsiyachilarning aralashuvi bilan vaziyat o‘z yechimini topgan.

Har bir o‘yinchiga varoqcha

- Kamdan-kam kuzatiladigan holat Ispaniyaning ikkinchi liga klublari “San Isidro” va “Olimpiko Karrante” futbol klublari o‘rtasidagi uchrashuvda ro‘y bergan. O‘yin tugashiga uch daqiqa qolganida ikki klub o‘yinchilarining hammasi hakam qaroridan norozi bo‘lib, uni qurshab olishganida va o‘z shikoyatlarini so‘z, ishoralar, xatti-harakatlar, kuch ishlatib hakamga bir nimalarni uqtirmoqchi bo‘lishganida, hakam xotirjamlik bilan shoshilmay cho‘ntagidan qizil varoqchani olib maydondagi 22 futbolchining barchasiga ko‘rsatib jazolagan!

Gretsiya mamlakatidagi kulgili xodisa

- 1978-yilgi Gretsiya mamlakati futbol birinchiligida “Etnikos” klubi o‘z maydonida “PAOK” klubini qabul qilgan edi, mehmonlar “PAOK” futbol klubi “Etnikos” klubi darvozasiga to‘p kiritib, o‘z xursandchiliklarini butun tarkib bo‘lib, zahira o‘rindig‘ida o‘tirganlar bilan birga nishonlashga tushib ketishganida, hakam allaqachon to‘pni o‘yinga kiritish uchun ruxsat bergan va hushtak chalgan edi, lekin “PAOK” futbol klubi o‘yinchilari hali ham jamoa bo‘lib kiritilgan to‘pni nishonlashayotgan edi, bundan mezbonlar “Etnikos” klubi o‘yinchilari foydalanib, o‘yinni boshlab, mehmonlar darvozasiga gol kiritib, hisobni tenglashtirganlar.

Futbol o‘yinlarida eng ko‘p qatnashgan o‘yinchilar

- Milliy terma jamoa safida rekord o‘yinlarda ishtirok etish bo‘yicha g‘oliblik Saud Arabistoni terma jamoasi safida 1978-1994-yillarda 147 uchrashuvda maydonga tushgan Madjid Abdullo Muhammadga tegishlidir.
- Britaniyalik darvozabon Piter Shilton 1390 marotaba maydonga tushib, shulardan 1005 tasini milliy liga o‘yinlarida o‘ynagan.

Futbol tarixida eng yosh sardor

- 2010-yilgi jahon futbol chempionatida Argentina terma jamoasi guruhdagi uchinchi, Gretsiya futbol terma jamoasi bilan bo‘lgan uchrashuvda Argentina terma jamoasi sardori Xaver Maskeranoning bayrami bo‘lganligi sababli Diego Maradona Messiga sardorlik bog‘ichini ishon-di. Jahon futbol chempionati va Argentina futbol tarixida sardorlik bog‘ichini 23 yoshli o‘yinchi olib chiqqanligi futbolda kamdan kam bo‘ladigan holat. Haqiqatdan ham yosh bo‘lganiga qaramasdan, Messida sardorlik bog‘ichini olib yurish malakasi bor edi. “Barselona” klubi safida Messi o‘rtoqlik uchrashuvlarida sardorlik bog‘ichida klubni olib chiqqan.

Futbol jamoalari

- Eng birinchi tashkil etilgan futbol klubi – “Sheffild” FK, uning tashkil etilishi 1850-yillarning o‘rtalarida sodir bo‘ldi. 1863-yilda birinchi futbol assotsiatsiyasining asos solinishiga qadar 12 ta futbol klubi paydo bo‘lgan edi. Bizning davrimizga kelib 1000 dan ortiq futbol klublari mavjud.
- Ma’lum bo‘lishicha, “Manchester Yunayted” klubi eng ko‘p muxlislarga ega bo‘lgan klub sanaladi. Klubning rasman ro‘yxatdan o‘tgan muxlislar soni 152 ming bo‘lib, 45 ming muxlis mavsumiy chiptalar sohibidir. Ijtimoiy so‘rov shuni ko‘rsatdiki, “Manchester Yunayted” klubining 2001 – 2002-yildagi mavsumda ko‘rsatgan o‘ynini butun dunyoda o‘rta hisobda 50 mln muxlis tomosha qilgan.
- Chexiyaning “Bogemians” klubining laqabi “Kenguru” garchi bu klub Avstraliyadan 13 ming km. uzoqlikda joylashgan bo‘lsada. Gap shundaki, 1927-yilda “Bogemians” klubi Avstraliyaga tashrif buyurganda, ular ikkita tirik kengurularni sovg‘a qilishgan, ular keyinchalik bu kengurularni Pragadagi hayvonot bog‘iga topshirishgan. Klubga esa ko‘krak ramzi sifatida kenguru tasvirini kiyimlariga tushirishgan.

- Ayrim mashhur klublar kiyimlarining ranglari ular tashkil topgan paytda boshqa rangda bo‘lgan. Masalan, hozirda Italiyaning “Yuventus” klubining asosiy o‘yin kiyimi oq-qora yo‘l-yo‘l kiyim bo‘lsa, avvallari, klub tashkil topgan ilk yillarda ular o‘yin kiyimining rangi pushti rang bo‘lgan.

- “Liverpool” klubining birinchi besh yillikdagi o‘yin kiyimi qizil rangda emas, balki ko‘k-oq rangda bo‘lgan, ular bu rangda 1960-yilga qadar o‘ynashgan.

- “Lids Yunayted” klubining rasmiy kiyimi ko‘kimir-sarg‘ish rangda bo‘lgan va klub menejeri Don Rivi bu rangni keyinchalik oq rangga o‘zgartirgan.

Nomlardagi o‘zgarish

- 1996-yilda “Llansantfreyd” klubi Uels kubogini qo‘lga kiritib, keyinchalik o‘zining bosh homiysi bo‘lgan “Total Netuork Solyushn” nomiga klub nomini o‘zgartirgan. U hozirda Uels futbol chempionatida o‘ynaydi va 2005/2006-yilgi chempionlar ligasi o‘yinlarida “Liverpool” klubiga o‘yinni yutqazgan.

- Shunaqa fikr mavjudki, “Dayel Skver”, “Nyuton Xels” va “Temz Ayron Uork” klublari nomi hozirgi – Angliyaning mashhur “Arsenal”, “Manchester Yunayted” va “Vest Xem Yunayted” klublarining ilk nomlari bo‘lgan.

Pul katta ahamiyatga ega

- 1899-yilda Angliya Futbol assosiatsiyasi futbol klublariga o‘yinчилarning bir klubdan boshqa futbol klubiga o‘tish transferini 10 funt sterling deb belgilagan edi. Ammo, 102 yil o‘tgach Frantsuz futbolchisi Zinedin Zidan “Yuventus” klubidan “Real” klubiga 45,6 mln funt sterling pul evaziga o‘tganida, bu o‘ziga hos rekord hisoblangan. Futbol – ulkan biznesga aylandi, unda eng zo‘r jamoalar xuddi yirik korxonalarni boshqargan kabi boshqariladi.

- 1963-yilda “Everton” futbol klubi Angliya futbol chempionatida g‘olib bo‘ldi, bunga asosiy sabab klubning 1962-yilda 100 ming funt sterlingga futbolchilarni xarid qilgani uchun, klub **“championlikni chek kitobchasi orqali egallagan”**, - deb atashgan, vaholanki, 2004-2005-yilgi mavsumda Angliya futbol chempionatida g‘alaba qozongan “Chelsi”

klubining egasi Roman Abramovich faqatgina klubga futbolchilar xarid qilish uchun o'sha mavsumda 200 mln. funt sterling mablag' sarflagan.

- Italiyadagi kichik bir qishloqda ("Peskichi") 1998-yilda lotoreya o'yinida 23 mln funt yutishgan. Qishloq fuqarolari o'sha zahoti braziliyalik mashhur futbolchi Luis Ronaldoni sotib olishga qaror qilishdi, ular Ronaldoning qishloq sharafiga himoya qilayotgan mahalliy klubda o'ynashini istashgan.

- 2000-yilda Milanning "Inter" klubi o'yinchi Freddi Adu uchun 500 ming funt sterling berishini ma'lum qildi, lekin, Adu ota-onasi "Inter" klubi taklifini rad etdi, chunki Adu endigina 10 yoshga kirgan edi.

- 1993-yilda Albaniya futbol federatsiyasi futbolchilarga Ispaniya futbol terma jamoasi bilan bo'lgan uchrashuv oxirida o'zaro futbolka almashtirishni ta'qiqlagan, chunki terma jamoada qo'shimcha futbolka xarid qilish uchun mablag' bo'lmagan.

- 2005-yil Ruminiyaning "Universitaty Krayova" klubi egasi Din Stayku o'z klubini tekinga shahar kengashiga berish istagi borligini bildirdi, chunki u keyinchalik klubini auksionda sotib olmoqchi edi.

- 2002-yilda Daniyaning "Lyungbyu" FK o'zini bankrot deb e'lon qildi. Klub mamlakatdagi ikki futbol divizioniga, pastga tushib ketdi va klub havaskor klubga aylandi.

Transferlar

Sanoqli futbolchilar 10 mln. funt sterlingga bir klubdan ikkinchisiga sotiladi. Lekin ko'pgina oddiy futbolchilar kamroq pulga erkin agent sifatida bir klubdan ikkinchisiga o'tishi mumkin, ayrim hollarda futbolchilar bepul ham bir klubdan ikkinchisiga o'tishlari mumkin, hattoki mazmunan kulgili bo'lgan shartnomalar imzolangan holatlar ham kuzatilgan.

- 1979-yil Daniel Alende Urugvayning "Sentral Espanol" klubi bilan unga 550 ta bifshteksni haftasiga 25 donadan berilish sharti bilan shartnoma imzolagan.

- 1982-yilda Toni Kaskarino FK "Krokenxill" dan "Jellingem" klubiga berildi, evaziga klub bir nechta metall panell oldi, ular stadionning remonti uchun juda zarur edi. Keyinchalik Toni "Aston Villa" va "Marsel" klublari safida ham o'ynadi va Irlandiya futbol terma jamoasi tarkibida eng ko'p maydonga tushgan futbolchi bo'ldi. U 88 uchrashuvda Irlandiya futbol terma jamoasi tarkibida maydonga tushgan.

- “Manchester Yunayted” klubi eng qimmat transferni amalga oshirgan klub bo‘lib, 2002-yilda Rio Ferdinanddek futbolchini xarid qilishi uchun klub 30 mln. funt sterling sarflagan.

Maydon (stadion)lar

Maydon (stadion) – futbol o‘yinlari o‘tkaziladigan joydir. Braziliyadagi “Marakana”, Italiyadagi “San-Siro” va Ispaniyadagi “Nou Kamp” o‘yingohlari eng mashhur futbol o‘yingohlari bo‘lib, butun dunyoga mashhurdir. Yangi o‘yingoh qurish uchun katta mablag‘ kerak.

- 1910 yilda “Old Trafford” o‘yingohining qurilishini tugatish uchun 60 ming funt sterling kerak bo‘lgan.

- Ma‘lum bo‘lishicha, yangi “Uembli” o‘yingohini qurib bitkazish uchun 757 mln. funt sterling mablag‘ zarur edi.

- Angliyaning shimoliy konferentsiyadagi o‘yinlar o‘tkaziladigan o‘yingohlari ichida Drill Filddagi “Norvich Viktoriya” eng eski o‘yingohlaridan biri sanaladi, u 1874-yili qurilgan.

- Ozarboyjon milliy o‘yingohi 1966-yilda Angliya futbol terma jamoasining final o‘yinida kiritilgan uchinchi golni hisobga olgan qanot hakami Tofik Baxramov nomiga qo‘yilgan.

- Avstriyaning “Shturm” klubi o‘z uyidagi o‘yinlarni Arnold Shvartsnegger nomi bilan ataladigan o‘yingohda o‘tkazishadi.

- “Uayt Xaret Leyn” “Tottenxem Xotspur” klubining o‘yingohi sanalib, urush vaqtida bu stadionda **protivogaz** ishlab chiqaradigan zavod bo‘lgan.

- Germaniyaning “Borussiya” (Dortmund shahri) klubi o‘yinda tashrif buyuruvchilar sonining yuqori ekanligi bilan faxrlanadi. 2004-2005–yilgi mavsumda o‘rtacha hisobda ichki chempionatda “Borussiya” o‘yinlariga o‘rtacha hisobda 77 353 ta tomoshabin o‘yinga tashrif buyurgan. “Borussiya” klubi raqibi “Shalke 04” klubida esa bu ko‘rsatkich mavsumda 61 241 kishiga teng.

- Tomoshabinlar eng ko‘p tashrif buyurgan jahon futbol chempionati final o‘yini “Marakana” o‘yingohida 1950-yilda qayd qilingan (199850 kishi).

- Eng kam futbol ishqibozi tashrif buyurgan o‘yin 1921-yildagi “Stokport Kaunti” va “Lester Siti” klublari o‘rtasidagi o‘yinda kuzatilgan, atigi 13 kishi.

- Jahon futbol chempionati o‘yinlaridagi eng kam tomoshabin tashrif buyurgan o‘yin 1930-yilda Rumuniya va Peru (3:1) futbol terma jamoalari o‘rtasida bo‘lgan. Unda faqat 300 ta tomoshabin tashrif buyurgan.
- Angliya Futbol Assosiatyasi 1930-yilda o‘yingohlarda yoritgichlardan foydalanishni ta’qiqqlab qo‘ydi va bu ta’qiq 1950-yilgacha amal qilgan.
- 1995-1996–yilgi mavsumda Angliyaning “Blekpul” klubi zahirada o‘tiradigan o‘z futbolchilari uchun o‘rindiqlarda isitish moslamasini o‘rnatishi natijasida zahiradagi mezbonlar o‘yinchilari ham sovuq havoda o‘zlarini yaxshi his qilishar edi, lekin mehmon jamoa zahira o‘yinchilari uchun mo‘ljallangan o‘rindiqlar esa sovuq va qattiq holatda qolgan.
- 1976-yili Vankuverdagi jahon futbol chempionatida Kanada va AQSh futbol terma jamoalari o‘rtasidagi saralash o‘yini birinchi marta sun‘iy qoplamli maydonda o‘tkazilgan.

Maydonlar tuzilishi

- 1880-yilda Buyuk Britaniyadagi “Aberdina” – “Pittodri” o‘yingohi mamlakatda o‘yinni o‘tirib tomosha qilish uchun to‘liq o‘rindiqlar bilan jihozlangan birinchi o‘yingoh bo‘ldi. Bir yil o‘tgach, “Koventri Siti” klubining o‘yingohi “Xayfild Roud” Angliyadagi o‘rindiqli birinchi o‘yingoh bo‘ldi.
- Braziliyada sun‘iy yoritish vositalaridan ilk bor 1923-yil 23 - iyundagi AA “Respublika” va SE “Linyas e Kabush” klublari o‘rtasidagi o‘yinda foydalanilgan. O‘yin vaqtida maydon tramvay faralari orqali yoritilib, Braziliyada haqiqiy proyektor bilan jihozlangan o‘yingoh bu – “Vasko Da Gama” klubining o‘yingohidir.

Futbol maydonidagi korrida

- Ispaniyaning Fuente shaxrida mahalliy futbol jamoasi “Gonsha” futbol jamoasini qabul qilayotganda, bir necha daqiqa o‘tgan bo‘lsa ham mehmonlar “Gonsha” futbol jamoasi 0:2 hisobida oldinda borayotgan edi. Shu payt allaqayerdan korrida o‘yinlarida foydalanadigan buqalar birin-ketin maydonga kirishdi. Hakamlar va o‘yinchilar buqalarni ko‘rishlari bilan maydondan chiqib xavfsiz joy qidira boshlashgan. O‘yin shu zahoti to‘xtatilgan. Keyinchalik o‘tkazilgan surishtiruv shuni ko‘rsatdiki, korrida musobaqasi uchun tayyorlab qo‘ygan buqalarni mezbonlar jamoasining ashadiy muxlislaridan biri jamoasi yirik hisobda mag‘lubiyatga uchramasligi uchun maydonga korrida buqalarini qo‘yib yuborgan.

Futbolchilarning o‘g‘irliklari

- Senegal futbol terma jamoa o‘yinchilariga 2002-yilgi jahon futbol chempionatida har bir uchrashuvdagi g‘alaba uchun mukofot to‘lashlarini va‘da qilganlar. Ammo terma jamoaning bu muvaffaqiyatiga barcha o‘yinchilar ishonmagan shekilli. Ayrim futbolchilar pul ishlashning boshqa usulini axtarishdi. Koreya politsiyachilari tomonidan senegallik yarimhimoyachi Xalilu Fadiga yuvelir magazinidagi oltin taqinchoqni o‘g‘irlaganligida aybdor deb hisoblagan. O‘g‘irlik Fransiya futbol terma jamoasi bilan o‘yin oldidan sodir etilgan edi va o‘yinchining qamoq jazosi bilan jazolanishiga sal qolgan edi. Ammo koreys huquq organlari “qiymati arzimaydigan o‘g‘irlik” uchun jinoyat ishi qo‘zg‘atmaslikka qaror qilgan.

- 1970-yil Meksikadagi jahon futbol chempionatida Angliya futbol terma jamoasi sardori Bobbi Mur ham yuvelir magazinidagi o‘g‘irlikda gumon qilingan edi, lekin keyinchalik u aybsiz deb topildi.

Ob – havo injiqliklari

- 1973/1974-yilgi futbol mavsumida Shotlandiya mamlakatining “Inverness Tyostl” va “Falkirk” futbol klublari o‘zaro 30 marotaba kuch sinashga harakat qilishgan, 29 marta o‘yin ob-havo tufayli futbol o‘ynashga imkon bermagani uchun ham to‘xtatilgan ekan. So‘nggi o‘ttizinchi uchrashuvda klublar maydonga tushishgan va “Falkirk” klubi 4:0 hisobida g‘alaba qozongan.

- 1945-yilda Angliya mamlakatining “Arsenal” klubi o‘z maydonida Moskvaning o‘sha paytdagi eng kuchli “Dinamo” klubini qabul qilgan. O‘yin boshlanishi bilan maydonga qalin tuman tushib, maydonda ko‘rish imkoni yomonlashdi, lekin o‘yin davom ettirildi. Aytishlaricha, “Arsenal” klubining maydondan chetlatilgan o‘yinchisi maydonga qaytib o‘yinda ishtirok etgan. “Dinamo” esa zahiradagi o‘yinchilarini maydonga tushirgan va 3:2 hisobida g‘alaba qozongan.

“Tumanli” futbol

- Britaniya orollarida tuman odatiy holdir. Lekin, Shotlandiya mamlakati futbol klublarining o‘zaro o‘yinida bir qiziq voqea ro‘y bergan. Tuman maydonda shunchalik qalin bo‘lib, tushganki, o‘yinchilar uzoq vaqt davomida to‘pni, jamoadoshlari va raqiblarini qidirishgan.

O‘yinning ma’lum bir daqiqasida hakamga maydonda o‘yinчилarning soni ko‘paygandek tuyulgan. Hakamning birinchi qilgan ishi jamoalarning zahira o‘rindig‘ini tekshirgan va shu narsa ma’lum bo‘lganki, ikki jamoaning zahira o‘rindig‘i bo‘sh bo‘lgan, ya’ni maydonda 22 futbolchi emas 30 ta futbolchi to‘p surayotgan bo‘lib, hakam shu zahoti o‘yinni to‘xtatgan.

Qorbo‘roni

- Angliya mamlakati futbol birinchiligida “Nottingham Forest” va “Lester Siti” futbol klublari o‘rtasidagi o‘yinda qorbo‘ron borgan sari kuchayib, maydonni ko‘rish iloji umuman yo‘qolgach, o‘yinni boshqargan hakam ikkinchi bo‘lim boshida o‘yinni to‘xtatishga majbur bo‘lgan.

Odatlar

Odatlar – avval orttirib olgan qandaydir o‘zgarishning tirik mavjudotlar tomonidan saqlanishi va qayta ko‘rsatishini bajarishdir.



Odatlar o‘rgatish va ko‘rsatish mahsuli bo‘lishi mumkin. Ko‘pincha odatlar bir maqsadda va ataylab qilinadi, kamdan-kam holda to‘satdan sodir qilinadi. Odatlar turlarga bo‘linadi: ular foydali va zararli, doimiy va vaqtinchalik, umumiy yoki bo‘lmasa takrorlanmas bo‘lishi mumkin. Tirik jonzotlarda odat faol xususiyatga ega. Qandaydir o‘zgarish odatni odatiy yoki takrorlanib turishi odatni mustaqil ravishda qayta ko‘rsatishga undaydi.

Jismoniy odat – muskullardagi tez-tez qisqarishlar bilan bog‘liq bo‘lsa, aqliy odat – takrorlanib turadigan o‘xshashlik bilan, xususiy odat esa – takrorlanib turadigan harakat bilan bog‘liqdir. Har bir insonda o‘ziga hos qandaydir odat mavjuddir. Menda odat bo‘lsa, albatta, sizda ham odat bo‘ladi, futbolchilar ham odat xususiyati bo‘lishidan xoli emas. Futbolchilarda ko‘pincha ikki xil odat bo‘ladi: 1) har doimgi (o‘rtacha); 2) boshqalarga yoqmaydigan. Masalan, futbolchilarning maydonda burun qoqishlari odamlarni asabiylashtiradi, jahlni chiqaradi. Nahotki, ular bunday qilishdan uyalmasa?!


Axir millionlab odamlar ularga ko‘z tikib turgandi-ku?!



Shunday odatlar borki, ular futbolchilarga o‘yin paytida yordam beradi. Masalan: argentinalik mashhur darvozabon Serxio Goykochea mashhur futbolchi Maradona bilan birga o‘ynagan paytida, 11 metrlik jarima to‘plarini qaytarish bo‘yicha eng tajribali darvozabon sanalib, uning gazetalarga bergan intervyusida buning siri – u har safar 11 metrlik jarima berilganda, hech kimga bilintirmasdan kichik hojatini maydonda chiqargan va hech kim buni sezmagani.

Chunki u bu odatini ishni hech kim ko‘rmaydigan usulda qilgan va uning bu odati unga 11 metrlik penaltilarni qaytarishga yordam bergan.

Ayrim futbolchilarda qo‘pollik qilish boshqa futbolchining nafsoniyatiga tegadigan gaplar aytish odatlari ham bor. Ko‘pgina odatlar ruxiyat bilan yoki bo‘lmasa miyaga kislorod tanqisligi bilan bog‘liqdir. Agar miyada qandaydir shikastlanish bo‘lsa, zudlik bilan shifokorga murojaat qilish kerak. Asabiy odatga futbolchi Rivining o‘yinda har doim yengini shimarib o‘ynashi misol bo‘lishi mumkin.



Chunki, hatto qishda ham u yengini shimarib futbol maydoniga tushar edi.

Keling, endi futbolchilarning yaxshi odatlari haqida aytib o‘tamiz. Endi futbolchilar gol urganda golni nishonlash odatlari haqida aytib o‘tamiz. Gol urgan har bir o‘yinchi uni o‘zgacha odatda nishonlaydi. Rossiya mamlakatida golni nishonlash odatini Andrey Arshavin olib

kirdi. U bu odatni bir necha yillar oldin ishlatar edi. A.Arshavin o‘zining usulida to‘p kiritganda ko‘rsatkich barmog‘ini labi ustiga qo‘yar edi.



Muxlislar Arshavinning bu odatini turlicha talqin qilishgan. Ularning fikricha, u bu odati bilan muxlislardan to‘p kiritilish usulidan unchalik ajablanmaslik kerak, deb aytmoqchi deb hisoblashishgan, lekin keyinchalik Arshavin bergan intervyusida shuni aytib o‘tdiki, uning odatida hech qanday ma‘no yo‘q, bu faqatgina odatdir.

“Manchester Yunayted” klubida to‘p surgan mashhur o‘yinchi Erik Kantona esa bir safar gol urganda golni nishonlash uchun futbolkasining yoqasini ko‘targan va bu unga odat bo‘lib, har safar o‘yinga tushganda yoqasini ko‘targan holda o‘yinda ishtirok etadigan bo‘lgan.

Muxlislarga ham bu ma‘qul bo‘lib, frantsiyalik Erik Kantana va “Manchester Yunayted” klubi ishqibozlari faqat ko‘tarilgan yoqalarda yuradigan bo‘ldilar.

Ayrim hollarda esa muxlislar ba‘zi bir futbolchilarning golni nishonlash odatlarini qoralab, ularga o‘z e‘tirozlarini bildirishadi. Masalan: “Liverpool” klubining hujumchisi Piter Krauch kiritgan to‘plarini “robot yurish” sifatida nishonlashini muxlislar ochiqchasiga yoqtirishmagan. Ko‘pchilik muxlislarning fikricha, Piter Krauchning harakatlarini bachkana va g‘alati deb baho berishgan bo‘lsa, OAV (ommaviy axborot vositalari) uning bu harakatlarini “mazmunsiz va ahmoqona harakat” deb atadi.



FIFA qoidasi bo‘yicha golni nishonlaganda, o‘yinchi futbolkasini yechib tashlasa, sariq varoqcha bilan jazolanadi. FIFA futbolchilarning maydonda o‘yin vaqtida tanasini ko‘z-ko‘z qilishlarini yoqtirmaydi.

Ispaniya futbol terma jamoasi o‘yinchisi Inesta ham gol urganda ehtiroslarini jilovlay olmasligini bilib, bir necha qavat kiyim kiygan.

Mashhur “Barselona” klubi o‘yinchisi Leonel Messi esa to‘p kiritganda, osmonni barmoqlari bilan ko‘rsatib, Olloh unga madadkor ekanligini ko‘rsatadi.

Do‘stlar, yomon odatga o‘rganib qolmang, agar sizda yomon odat bo‘lsa, darhol uni bartaraf qilishga harakat qiling. Shu mavzuga doir yaxshi bir naql (tsitata) bor: odat bu insonning ikkinchi qiyofasidir.



VI BOB.

JAHON FUTBOL YULDUZLARI

6.1. Edson Arantes do Nascimento - Pele haqida



Edson Arantes do Nascimento Pele nomi bilan mashhurdir. Braziliyalik futbolchi hujumchi «Santos» va «Nyu-York Kosmos» klublarida to'p surgan. Braziliya futbol terma jamoasi tarkibida 92 ta uchrashuvda maydonga tushib, raqib darvozasiga 77 ta gol kiritgan. Jahon futbol chempionatlarida g'olib bo'lgan futbolchilar ichida rekordchi 3 marta jahon futbol chempionatida g'alaba qozongan. 1970-yilgi jahon futbol chempionati eng

yaxshi o'yinchisi. Pele 1958-yilgi jahon futbol chempionatining eng yosh va eng yaxshi o'yinchisidir. 1973 yilda Janubiy Amerikadagi eng yaxshi futbolchi. Ramziy jahon futbol terma jamoasining ikki marotaba o'yinchisi. Qit'alararo kubok va Libertadores kubogining ikki karra sovrindori. Qit'alararo chempionlarning superkubok g'olibi, San-Paulu shtatining ikki karra chempioni. «Santos» klubi tarkibida Rio-San-Paulu turnirining to'rt karra g'olibi. FIFA qo'mitasining fikriga ko'ra, XX asrning jahondagi eng zo'r futbolchisi, Xalqaro Olimpiya qo'mitasining fikriga ko'ra, XX asrning eng zo'r sportchisi, "World Soccer" jurnali, "France Football" nashri, "Guerin Sportivo" nashrlarining so'rovnomasiga ko'ra XX asrning eng zo'r futbol o'yinchisi, "Placar" nashri so'rovnomasiga ko'ra, futbol tarixida eng zo'r futbolchi. "The Times" gazetasi so'rovnomasiga ko'ra, jahon futbol chempionatlari tarixida ikkinchi raqamli futbolchi hisoblanadi.

FIFA fikriga ko'ra, barcha jahon futbol chempionatidagi ramziy dunyo futbol terma jamoasining faxriy a'zosi, Janubiy Amerika futbol tarixidagi ramziy eng yaxshi futbol o'yinchilari terma jamoasi a'zosi, "Time" jurnali fikriga ko'ra, dunyodagi eng e'tiborli (qudratli) 100 odamdan biri.

Tarjimai holi. Pele 1940-yil 23-oktyabr Braziliyaning Minas-Jerays shtatining Tres-Korasoyns shahrida kambag'al oilada dunyoga keldi. Futbol yosh Edson (Pelening asl ismi)ning eng sevimli mashg'ulotlaridan

edi. Uning otasi Dondino oʻtmishda futbolchi boʻlgan, Pelening ilk ustozlari boʻlib, unga futbolning bir nechta sirlarini oʻrgatgan. Yetti yoshdan Edson mahalliy jamoalarning birida toʻp sura boshlab, hujumdagi jozibali va maftunkor oʻyini bilan boshqalarning diqqatini tortgan. Maʼlum muddat Braziliya futbol terma jamoasida oʻynagan Valdemar de Brito, Pele mashgʻulotlarda qatnashgan jamoaga murabbiylik qilib, bu ham qandaydir maʼnoda uning kelajagini belgilab bergan. Shu murabbiy Pelening oʻyinini tomosha qilish uchun «Santos» (San-Paulu shtati) klubi mutasaddilari bilan uchrashuv uyushtirdi va 15 yoshli Pele keyinchalik butun jahonda mashhur boʻlgan «Santos» futbol klubida toʻp sura boshladi.

Professional karyera. 1956-yil sentyabrda hali 16 yoshga toʻlmasdan «Santos» futbol klubi tarkibida «Korintians» klubiga qarshi rasmiy uchrashuvga maydonga tushib, bitta gol kiritgan. «Santos» futbol klubi tarkibida u toʻp surgan davrida (1956-1974) Pele 11 marotaba San-Paul shtati kubogi chempioni, shuncha marotaba (11 marta) toʻpurar, eng sermahsul oʻyini 1958-yilda 58 ta toʻp uning hisobida boʻlgan. Olti marotaba Braziliya mamlakati kubogi sohibi, ikki marotaba “Libertadores” va qitʼalraro kubok sohibi.



Montevideodagi futbol muzeyida Pelening yiqilish paytidagi zarbasi hamda chempionlik futbolkalari namoyish qilingan tasviri namunasini

Braziliya futbol terma jamoasi tarkibidagi ilk oʻyinini 1958-yil Shvetsiyadagi jahon futbol chempionatida oʻtkazgan. Uning oʻyinlari xuddi «Santos» klubidagi kabi jozibador va maftunkor edi, vahlanki u chempionatga kasal holatda kelgan edi. Sobiq Ittifoq futbol terma jamoasiga qarshi boʻlgan uchrashuv-

da asosiy tarkibda maydonga tushdi. Chorak finalda “Uels” futbol terma jamoasiga qarshi boʻlgan oʻyinda hal qiluvchi toʻpni kiritdi. Yarim finalda Fransiya futbol terma jamoasi darvozasiga uchta toʻp kiritdi, finalda esa maydon egalari Shvetsiya futbol terma jamoasiga qarshi kechgan

o'yinda ular darvozasiga ikkita to'p kiritib, muxlislar, mutaxassislar va raqiblar hurmatini qozonib, 17 yoshida futbol bo'yicha jahon chempioni bo'lib, o'ziga hos rekord sohibiga aylandi, ya'ni futbol bo'yicha jahon chempionatlari tarixida eng yosh jahon chempioni unvonini qo'lga kiritdi.

1962-1966 - yilgi jahon futbol chempionati Pelening olgan jarohatlari tufayli uning o'z o'yinini ko'rsatish uchun to'sqinlik qildi. 1970-yilgi jahon futbol chempionati (Pele hayotida to'rtinchisi edi) u va uning terma futbol jamoasi uchun ahamiyatli bo'ldi, chunki o'sha yilgi tarkib muxlis va mutaxassislar e'tirofiga ko'ra, eng kuchli sanalgan. Braziliyalik futbolchilar uch marotaba "Jyul Rime" sovrinini olgach, uni doimiy o'zlarida saqlash huquqini qo'lga kiritishgan. Meksika mamlakatida o'tgan 1970-yilgi jahon futbol chempionatida Pele dunyo futbol tarixida uchinchi marta futbol bo'yicha jahon chempioni bo'lgan yagona futbolchi bo'ldi. Shunisi ham ramziy ma'no kasb etadiki, aynan Pele Braziliya futbol terma jamoasining jahon chempionatlari tarixidagi 100 golini darvozaga kiritdi. Pelening o'zi futbol bo'yicha jahon chempionatining 14 ta uchrashuvida maydonga tushib, raqiblar darvozasiga 12 ta gol kiritishga muvaffaq bo'lgan. Shu bilan birga, u biror marotaba jamoasini sardorlik bog'lagichi bilan maydonga chiqarmagan.

«Santos» futbol klubi va Braziliya terma jamoasidan ketganidan so'ng, Pele 1975-yilda Amerikaning "Kosmos" professional klubi bilan shartnoma imzoladi, bu esa katta sportda Pelening qaytishi sifatida shov-shuvga aylandi. Pelening katta futbolga qaytishiga asosiy sabab moliyaviy muammolarga borib taqalgan, Pelening o'zi ham bu haqda gapirgan. Amerika klubi bilan shartnoma imzolashishdan maqsad, AQShda ham futbolni ommalashtirish va AQShda futbolni targ'ib qilishdir. Xuddi shunday moliyaviy qiyinchiliklarni Pele 1960-yillarda boshidan kechirgan edi va o'shanda Pele "Santos" futbol klubi mutasaddilaridan mablag' olib, evaziga bir yil tekinga ishlab (o'ynab) berishi kerak edi va u buning uddasidan a'lo darajada chiqdi.

Pele "Kosmos" futbol klubi tarkibida to'p surganida stadionlarni to'ldirish bo'yicha o'ziga hos rekord o'rnatilgan, ya'ni o'yinlarga tashrif buyuradigan muxlislar soni 10 baravarga oshdi.

1977-yil 1-oktyabrda Pele o'zining boy kolleksiyasiga AQSh chempioni qo'shib qo'ydi va o'zining so'nggi uchrashuvi bir taymini "Santos" klubi va 1 taymini "Kosmos" futbol klubi tarkibida o'ynab, futboldagi faoliyatini yakunladi.

Hayotimning eng ajoyib onlarida siz bilan ekanligimdan baxtiyor-man... Men ishonaman, muhabbat... – uning ko‘zlari yoshga to‘ldi, - muhabbat hayotdagi hissiyotlarning eng keraklisidir. Agar so‘zlarimga qo‘shilsangiz, aytganlarimni qaytarib ko‘ring - chi...”

Mahorat. Pelening mashhurlik va o‘z ishining ustasi bo‘lganligi siri, uning mehnatsevarligi va jismoniy baquvvatligidadir. Ma’lumki, faoliyatining eng cho‘qqisida Pele 100 metrni 11 soniyadan kamroq vaqt ichidan chopib o‘tgan va bu bilan yengil atletikachi-sprinteriga biroz soniyaga yutqazgan, vaholanki, uning bo‘yi 173 smni tashkil etgan bo‘lib, ikki metr balandlikka sakray olgan. O‘z paytida o‘tkazilgan tekshiruvlar shuni ko‘rsatganki, Pelening ko‘rish burchagi juda ham keng bo‘lib, u kerakli paytda kerakli o‘yinchini maydonda ko‘ra bilib, vaziyatni to‘g‘ri baholay bilgan va ko‘p hollarda tezkor qaror qabul qilishda uning bu qobiliyati qo‘l kelgan. Shunday bo‘lsa ham, Pele ko‘p vaqtini maydonda ma’lum bir futbol usulini, to‘p oshirish yoki bo‘lmasa zarbani maromiga yetkazish bo‘yicha mashq olib borgan va o‘z ustida ishlash uni yulduzlik darajasiga yetkazgan. Pele o‘ta mahorat bilan to‘pni o‘zida saqlay olish xususiyatidan tashqari, u yo‘l-yo‘lakay hujumni qanday qilib davom ettirish mumkinligini oldindan ko‘ra biladigan futbolchi edi. Shaxsiy xususiyatlariga qaramay, Pele shunday degan: “Umumiy xatti-harakatsiz futbolda g‘alaba qozonish ancha mushkul, futbol bu bir kishi o‘ynaydigan o‘yin emas, balki u jamoaviy o‘yindir, 2-3 yulduzdan tashkil topgan jamoa-jamoa emas, unda o‘zaro bir-birini to‘g‘ri tuchunish va birgalikda o‘ynash talab etiladi”. Pele to‘p yetkazib berish bo‘yicha «grossmeyster» hisoblangan, uning to‘pni yetkazib berishi aniqligi va o‘z vaqtidaligi bilan muhim bo‘lib, raqib himoyachilarini shoshirib qo‘ygan. Mutaxassislar fikricha, Pele mahoratida hech bir nuqson bo‘lmagan va uning o‘yin usuli futbol haqidagi umumiy tasavvurni o‘zgartirib yuborgan. Uning maydondagi “mo‘jizalari” afsonaviy bo‘lib, 1961-yili “Marakana” o‘yingohida «Fluminense» klubi darvozasiga o‘z jarima maydonchasidan hujumni boshlab, deyarli hamma raqib o‘yinchilarini aldab o‘tib fantastik to‘p kiritishi “asrga tatigulik gol” deb e’tirof etildi va buning sharafiga “Marakana” (dunyodagi eng katta) o‘yingohida esdalik belgisi o‘rnatilgan. Pele Braziliya terma jamoasidagi “Santos” va “Kosmos” klublaridagi o‘yinlarini qo‘shib sanasak, 1363 o‘yinda raqib darvozasiga 1281 ta kiritgan gollari rasmiy ro‘yxatga kiritilgan. Uning

hayotidagi eng sermahsul o‘yin davri 1959- yilga to‘g‘ri keladi, shu yili u 126 ta to‘p kiritdi. Pelening hisobida 92 ta xetrik, 30 o‘yinda to‘rttadan to‘p, 6 ta o‘yinda – 5 tadan to‘p kiritgan o‘ziga hos natijani Pele 1964-yilda ko‘rsatdi, «Botafago» futbol klubi darvozasiga 8 ta to‘p kiritgan. O‘zining 1000-golini Pele 1969-yil 19- noyabrda “Santos” klubi tarkibida o‘ynab «Vasko da Gama» klubi darvozasiga kiritgan. Shu munosabat bilan Braziliyaning aloqa vazirligi bir futbolchining yutuqlariga bag‘ishlab dunyodagi yagona hisoblangan markalarni muomalaga kiritdi. “Santos” futbol klubi har yili 19- noyabrni “Pele kuni” sifatida nishonlaydi.

Erishgan muvaffaqiyatlariga qaramay, biz Peleni “Gollar qirol” deb atay olmaymiz, chunki bu nomga 512 o‘yinda 528 ta to‘p kiritgan vengriyalik futbolchi Ferents Pushkash (Vengriya va Ispaniyada 1940-1960) o‘ynagan bu nomga sazovor bo‘lgan. Biroq futbol statistikasi aniq emas, shu sababli to‘purar qirol nomiga Braziliyada boshqa bir futbolchi ham qaralmoqda, bunday futbolchilardan Artur Fridenrayx ham sazovor bo‘lishi mumkin. Pelening erishgan yutuqlariga ko‘z yumish mumkin emas. Pele ham ajoyib to‘purarlik natijasiga ega. Pelening mashhurligi o‘ziga hos bo‘lgan va hozirda ham butun dunyoda mashhur.



Mashhurlik

Pelening Marakana stadionidagi oyoq izlari

Uning mashhurligi turli voqeliklarda o‘z aksini topgan, ya‘ni “Santos” futbol klubi rahbari xalqaro musobaqa tashkilotchilari bilan tuzgan shartnomasiga ko‘ra, Pelening har bir ishtirok etmagan o‘yini uchun “Santos” futbol klubi qo‘shimcha puldan quruq qolishgan. Bir yili esa, ya‘ni 1970-yilda “Santos” klubi va Nigeriyaning bir klubi o‘rtasida o‘tkazilishi kerak bo‘lgan uchrashuv xabari tufayli Nigeriyada aholi o‘rtasidagi o‘zaro urushlar ikki kunga to‘xtatildi, bunga Pelening “Santos” klubi tarkibida maydonga tushishi sabab bo‘lgan.

Pele o‘zining tarjimai holi sifatida “Men – Pele” nomli kitob yozganida, ko‘pgina savodi bo‘lmagan braziliyaliklar aynan Pelening kitobini o‘qish maqsadida o‘qishni o‘rganishgan va bu bilan savod chiqarishgan. Hatto Braziliya ta‘lim vazirligi Peleni oltin medal bilan mukofotlagan

va Pele bu mukofotni boshqa medallari singari juda qattiq qadrlaydi. Pele mamlakatning ramzi bo‘ldi va Braziliya Prezidenti Peleni boshqa Yevropa klublari xarid qila olmasliklari uchun uni “milliy yodgorlik” deb e‘lon qildi.



Pele va uning sobiq 1958 va 1962-yillardagi terma jamoa a‘zosi sherigi, shuningdek, 1970-yildagi Braziliya futbol terma jamoasi murabbiysi Mario Zagallo

1970-yilda o‘tkazilgan maxsus so‘rovnoma (dunyoning turli burchaklarida) shuni ko‘rsatdiki, 100 odamdan 95 tasi Pelening kimligini bilishgan. Ma‘lumotlar natijasiga qaraganda, so‘rovnomalar va berilgan intervyular bo‘yicha o‘ziga hos rekordga ega. Pelening ismi va imiji sport anjomlari va kofedan tortib qo‘l soatlarigacha reklama qilish uchun ishlatilmoqda.

Maseyo shahridagi 30 ming kishilik o‘yingoh (stadion) “Qirol Pele” deb nomlangan bo‘lib, unda 1920-yili mahalliy klub “Alagoas” va “Santos” (Pele jamoasi) klublari o‘rtasida bitta o‘yin o‘tkazilgan. Mehmonlar “Santos” klubi 5:0 hisobida hech qanday qiyinchiliksiz raqib ustidan g‘alaba qozonishgan.

Pele 1981-yilda “G‘alaba tomon qochish” filmida suratga tushgan.

1999-yilda Xalqaro Olimpiada qo‘mitasi Peleni 100 yillikning eng mashhur sportchisi deb e‘lon qildi (vaholanki, Pele hech qachon olimpiada o‘yinlarida qatnashmagan) FIFA esa uni mashhur futbol yulduzi argentinalik Diego Maradonadan so‘ng eng yaxshi futbolchi deb topgan.

Pele 1990-yilning ikkinchi yarmida Braziliyada yoshlar, turizm va sport ishlari vaziri lavozimiga tayinlagan. Pele vaqtining ma'lum bir qismini jamoat ishlariga sarflamoqda. BMT (Birlashgan Mamlakatlar Tashkiloti) va Yunisef (bolalarni himoya qilish bo'yicha) tashkilotining elchisi.

Pele futbol va sportni butun dunyoda tashviqot qilishga katta e'tibor berdi. Braziliyada maxsus ta'lim dasturi bo'yicha bolalarga mo'ljallangan futbol filmini yaratishda qatnashgan. U kinoaktyor, komentator, biznesmen (Cafe Pele markasidagi kofe butun dunyoda mashhur) va o'zi yozgan qo'shiqlar ijrochisi sifatida mashhurdir. Pelening ishini o'g'li Edino davom ettirib, u ham "Santos" futbol klubi tarkibida darvozabon sifatida o'yinaydi.

Sovrindor klublar: Santos klubi (rasmiy turnirlar)

Paulista ligasi	– 10 marotaba: 1958, 1960, 1961, 1962, 1964, 1965, 1967, 1968, 1969, 1973 yy.
Rio-San-Paulu turniri	– 3 marotaba: 1959, 1963, 1964 yy.
Robertao kubogi	– 1 marotaba 1968 yil.
Braziliya kubogi	– 5 marotaba 1961, 1962, 1963, 1964, 1965 yy.
Libertadores kubogi	– 2 marotaba 1962, 1963 yy.
Qit'alararo kubogi	– 2 marotaba 1962, 1963 yy.
Qit'alararo chempionlar superkubogi	– 1 marotaba : 1968 yil.
Nyu-York "Kosmos" chempioni	– 1977 yil.
<i>Braziliya terma jamoasi:</i>	
Jahon chempionati	– 3 marotaba 1958, 1962, 1970 yy.
Ishtirokchi	– 4 marotaba 1958, 1962, 1966, 1970
Roka kubogi g'olibi	– 2 marotaba 1957, 1963 yy.

Futbol bo'yicha jahon chempionatining final bosqichida Pele 12 ta to'p kiritgan.

Pele uch karra jahon futbol chempioni bo'lgan dunyodagi yagona o'yinchi. Lekin shu o'rinda u faqatgina ikki final uchrashuvda maydonga tushgan (1962 yilgi final o'yinni jarohat tufayli o'tkazib yuborishga majbur bo'lgan).

1969-yil 19-noyabrda «Marakana» stadionida Pele o'z futbol faoliyatida 1000-golini penaltidan kiritdi.

Pele o'zining 1363 o'yinda istirok etib, 1281 ta gol kiritishga muvaffaq bo'lgan.

Braziliya terma jamoasi tarkibida oʻtkazgan 92 oʻyinda 77 ta toʻp kiritgan.

1973-yilda Janubiy Amerikaning yil futbolchisi.

Katta futboldan ketgandan keyin Pele:

- 1995-yilda Pele Braziliya sport vaziri lavozimiga tayinlandi;
- 1998-yilda Britaniyaning ritsari-komandor ordeniga kiritildi, lekin Britaniya fuqarosi boʻlmagani sababli - «Ser» soʻzini ismidan oldin qoʻllay olmaydi;
- 2000-yilda FIFA Peleni “XX asrning eng zoʻr futbolchisi” deb tan oldi;
- Pele “YuNESKO elchisi” deb tan olingan;
- Pele bir nechta tarjimai hol mazmunidagi kitoblar chop etgan, bir nechta filmlarda suratga tushgan, kuy bastalagan.

1958-yilgi jahon futbol chempionatida
Braziliya terma jamoasi chempion oʻyinchilari



- 1 Kastilo
- (d) • 2 Bellini
- 3 Jilmar
- (d) • 4 Jalma Santos
- 5 Dino Sani
- 6 Didi
- 7 Zagallo
- 8 Oreko
- 9 Zozimo
- 10 Pele • 11 Garrincha
- 12 Nilton Santos
- 13 Moasir
- 14 de Sordi
- 15 Orlando
- 16 Mauro Ramos
- 17 Joel
- 18 Altafini
- 19 Zito
- 20 Vava
- 21 Dida
- 22 Pepe
- murabbiy: Visente Feola

Janubiy Amerika futbol chempionati
Braziliya terma jamoasi (1959) — Ikkinchi oʻrin

- 1 Kastilo
- (d) • 2 Jilmar
- (d) • 3 Bellini
- 4 Koronel
- 5 Jalma Santos
- 6 Nilton Santos
- 7 Orlando
- 8 Paulino
- 9 Shinesino
- 10 Didi
- 11 Dino Sani
- 12 Dorval
- 13 Esteves
- 14 Formiga
- 15 Zito
- 16 Almir Pernambukino
- 17 Garrincha
- 18 Enrike
- 19 Mauro Ramos
- 20 Paulo Valentim
- 21 Pele • 22 Zagallo
- murabbiy: Visente Feola



1962-yilgi jahon futbol chempionati
Braziliya terma jamoasi chempion



- 1 Jilmar
(d) • 2 Djalma Santos
• 3 Mauro Ramos
• 4 Zito
• 5 Zozimo
• 6 Nilton Santos
• 7 Garrincha
• 8 Didi
• 9 Koutino
• 10 Pele • 11 Pepe
• 12 Jair Marino
• 13 Bellini
• 14 Jurandir
• 15 Altair
• 16 Zekinya
• 17 Mengalvio
• 18 Jair
• 19 Vava
• 20 Amarildo
• 21 Zagallo
• 22 Kastilo
(v) • murabbiy: Aymore Moreyra

1966-yilgi jahon futbol chempionatidagi
Braziliya terma jamoasi o'yinchilari



- 1 Jilmar
- (d) • 2 Djalma Santos
- 3 Fidelis
- 4 Bellini
- 5 Brito
- 6 Altair
- 7 Orlando
- 8 Paulo Enrike
- 9 Rildo
- 10 Pele • 11 Jerson
- 12 Manga
- (d) • 13 Denilson
- 14 Lima
- 15 Zito
- 16 Garrincha
- 17 Jairzino
- 18 Alsindo
- 19 Silva
- 20 Tostao
- 21 Parana
- 22 Edu
- murabbiy: Visente Feola

1970-yilgi jahon futbol chempionati
Braziliya terma jamoasi chempion



- 1 Feliks Mieli
- (d) • 2 Brito
- 3 Piatstsa
- 4 Karlos Alberto
- 5 Klodoaldo
- 6 Marko Antonio
- 7 Jairzino
- 8 Jerson
- 9 Tostao
- 10 Pele • 11 Rivelino
- 12 Adu
- (d) • 13 Miranda
- 14 Baldokki
- 15 Fontana
- 16 Everaldo
- 17 Joel Kamargo
- 18 Paulo Sezar Kaju
- 19 Edu
- 20 Dario
- 21 Ze Mariya
- 22 Emerson Leao
- (v) • murabbiy: Mario Zagallo

Janubiy Amerika yil futbolchilari

O'yinchilar	sovrindor yili
Tostao	1971
Kubilyas	1972
Pele	1973
Figeroa	1974
Figeroa	1975
Figeroa	1976
Ziko	1977
Kempes	1978
Maradona	1979
Maradona	1980
Ziko	1981

Ziko	1982
Sokrates	1983
Francheskoli	1984
Romerito	1985
Alsamendi	1986
Valderrama	1987
Pas	1988
Bebeto	1989
Amarilya	1990
Rudjeri	1991
Rai	1992
Valderrama	1993
Kafu	1994
Francheskoli	1995
Chilavert	1996
Salas	1997
Palermo	1998
Saviola	1999
Romario	2000
Rikelme	2001
Kardoso	2002
Teves	2003
Teves	2004
Teves	2005
Fernandes	2006
Kabanyas	2007
Veron	2008
Veron	2009

6.2 Diego Armando Maradona haqida Diego Armando Maradona



Diego Armando Maradona 1960-yil 30 -oktyabrda Lanus, Buenos-Ayres shahrida tug‘ilgan. Argentinalik futbolchi o‘yin karerasini yarim himoyachi va hujumchi pozitsiyalarida o‘ynagan. U ishtirok etgan klublar: “Arxentinos Xuniors”, “Boka Xuniors”, “Barselona”, “Napoli”, “Sevilya”, va “Nyuelles Old Boyz” klublaridir. Argentina futbol terma jamoasi tarkibida 91 marta maydonga

tushib, 34 marotaba raqib darvozasini ishg‘ol etishga muvaffaq bo‘lgan.

Maradona 1986-yilgi jahon futbol chempioni. 1990-yilda jahon futbol vitse – chempioni. To‘rt karra jahon futbol chempionati qatnashchisi. 1979-yilda futbol bo‘yicha yoshlar terma jamoalari o‘rtasida jahon chempioni. 1986-yilda jahon futbol chempionatining eng yaxshi o‘yinchisi. 1979 - va 1980-yillarda Janubiy Amerikada yilning eng yaxshi futbolchisi. Jahon futbol terma jamoasi ikki karra a‘zosi.

Argentinaning “Boka Xuniors” futbol klubi chempioni, Italiyaning “Napoli” futbol klubi ikki karra chempioni.

FIFA saytida rasman va ovoz berish natijasiga ko‘ra, Maradona “XX asrning eng yaxshi futbolchisi” nomini 53,6% ovoz to‘plash orqali erishgan. FIFA futbol komissiyasi ma’lumotiga ko‘ra, Maradona XX asrning uchinchi futbolchisi, “World Soccer” jurnalining ma’lumotiga ko‘ra, XX asrning eng yaxshi o‘yinчилari o‘rtasida Maradona 2 – o‘rinni egallagan. “France Football” jurnalining ma’lumotiga ko‘ra, XX asrning eng yaxshi o‘yinчилari o‘rtasida u 2 - o‘rinni egallagan. “Guerin Sportivo” jurnalining ma’lumotiga binoan, Maradona XX asrning eng yaxshi o‘yiinchilari o‘rtasida 2 – o‘rinni egallagan. “Placar” jurnali ma’lumotiga ko‘ra, butun tarixda eng yaxshi o‘yinчилar o‘rtasida 2 – o‘rinni egallagan. “The Times” ro‘znomasining ma’lumotiga ko‘ra, u jahon futbol chempionati tarixida eng yaxshi futbolchi nomini olgan.

FIFA tashkilotining fikriga ko‘ra, futbol bo‘yicha jahonning barcha chempionatlarida eng yaxshi terma jamoasi a‘zosi va o‘yinchisi.

Janubiy Amerika tarixida eng yaxshi terma jamoa o‘yinchisi a‘zosi. 1999-yilda Argentinada “XX asrning eng yaxshi sportchisi” deb Maradona tan olingan. Angliya futbol terma jamoasi darvozasiga Maradona kiritgan mualliflik goli “Yuz yillik gol” nomini oldi va jahon futbol chempionati tarixida eng yaxshi gol deb tan olingan, o‘sha o‘yinda Maradona qo‘li bilan ham darvozaga kiritgan to‘pi “O‘lloh qo‘li” nomi bilan mashhur bo‘lgan.

Maradona Buenos-Ayres shahrining mashhur fuqarolaridan hisoblanadi. “Arxentinos Xuniors” klubi stadioni “Diego” nomi bilan nomlanib, u 2003-yil 26-dekabrda ochilib, 26-dekabr kuni uning ilk jamoa tarkibiga kirgan kuni edi. 2005-yil iyunda Maradona Argentina Senatidan “Faus-tino Sarmiento” nomli mukofotini qo‘lga kiritdi.

Maradoning futbol karerasi tugangandan so‘ng, u Argentina va Italiyada telekomentator bo‘lib ishladi, 2005-yil iyundan 2006-yil avgust-gacha “Boka Xuniors” futbol klubida vitse-prezident bo‘ldi. Bir qancha filmlarda ishtirok etdi.

2008-yil oktyabrdan 2010-yil iyuligacha Maradona Argentina futbol terma jamoasida bosh murabbiy bo‘lib ishlab, 2010-yil jahon futbol chempionatida Argentina futbol terma jamoasini chempionatning chorak finaligacha olib bordi.

Maradoning bolaligi, o‘smirligi

Diego Armando Maradona 1960-yil 30-oktyabr ertalab soat 5 da yakshanba kuni Lanus shahridagi “Evita” poliklinikasida tug‘ilgan. U ishchi oilasida, uning xotini Dalma Salvadora Franko (uy bekasi) oilasida tug‘ilgan. Maradona beshinchi farzand, lekin birinchi o‘g‘il bo‘lib, unga cha to‘rt qiz tug‘ilgan. Ular Rita, Ana, Elza va Mariyalardir. Keyinchalik, Dalma Salvadora aytgan: “U (Maradona)ni dunyoga keltirish menga boshqa farzandlardan osonroq tug‘ildi, shanba kuni edi, men o‘zimni yaxshi his qilgandim, kechasi meni kasalxonaga etishdi. U juda ham oson dunyoga keldi. O‘sha payt men xudoga yolvordim: farzandim sog‘lom va yaxshi inson bo‘lsin deb, baxtinga mening aytganlarim ortig‘i bilan bo‘ldi”.

Maradona oilasining ildizi Italiyadan kelib chiqqan bo‘lib, u Marko Polo ajdodlariga borib taqaladi. Shuningdek, Diego xorvatiyalik hamdir, uning buvisi Salvadora qizlik payti Kariolich familiyasida bo‘lgan, uning otasi esa Korchula orolidandir.

Diego 10 oylik paytida yura boshlagan. Ko‘p bolalar singari Argentinada Maradona yoshligidan to‘p sura boshlaydi. O‘sha paytlar bolalar o‘ynagan o‘yinini futbol o‘yini deb aytish qiyin, chunki bolalar shuncha-ki yugurishgan va to‘p surishgan.

Maradona yetti yoshga to‘lgach, uning akasi Beto Neno (xolasining o‘g‘li) unga ilk marta koptok sovg‘a qilgan. Diego shunchalik quvonganki, o‘sha kecha koptokni quchoqlab uxlagan. Keyin Diego hammaga maqtanish niyatida koptokni ko‘chaga chiqaradi, lekin o‘sha kuni koptokni hech kimga bermay, uni qaytib uyiga olib kiradi. Qish fasli davomida koptok Diegoning uyida bo‘lib, faqat ayrim vaqtlarda opalari bilan o‘ynagan. Bahorda Diego to‘pni chiqarishga qaror qiladi: otasi unga qanday to‘p urishni o‘rgatadi, u esa devorga chap oyog‘i bilan tepishni mashq qiladi. Uzoq mashqlardan so‘ng Diego to‘pni yaxshi ura boshlagach, u endi o‘zidan katta bolalar bilan haqiqiy futbol o‘ynar edi. O‘yinda kichik Diego ulgurmadi, katta bolalar to‘pni undan aylantirib (o‘tib) olib o‘tishardi, shunga xafa bo‘lgan Maradona to‘pni qo‘liga olib quchoqlardi. Asta-sekin Maradona futbolni o‘rganib, boshqalar kabi maydonda o‘ynashni boshlagan. U soatlab o‘zining mahallasida “Sem Polyan” deb nomlanuvchi o‘yinlar o‘tkaziladigan joyda o‘ynashi mumkin edi. Diego kattaroq o‘yinda o‘ynashni xohlardi. Asta-sekin Maradona mahallasining eng yaxshi futbolchisi bo‘ldi va har bir o‘yinda bolalar Diego ularning jamoasida o‘ynashini xohlashardi. Maradona “Romedijs de Eskalada San-Martin” maktabiga borgandan so‘ng, u darhol “Eskalada” futbol jamoasiga birlashtirildi. Unda kichik yoshdagi bolalar o‘ynashardi. 1999-yilda Diego o‘zining kitobida: “Men doimo shu haqda aytamanki, eng kichik yoshimdan boshlab professional bo‘ldim, meni qaysi jamoa birinchi bo‘lib taklif qilsa, o‘sha jamoa uchun o‘ynardim. Ba‘zan meni uydan chiqarishmasdi, shunda men o‘zimni jinnidek tutardim, va o‘yin boshlanishiga 5 daqiqa qolganida Tota menga ruxsat berardi. Otamni rozi qilish undan-da qiyin edi. Men otamni tuchunar edim, u kuchdan qolganda bizni yedirishga va o‘qitishga harakat qilardi, u meni o‘qimishli bo‘lishimni juda ham xohlardi”.

Diego oilasi Vilya Fiorito tumani, Asamor va Mario Bravo tutashgan ko'chada, uch xonali uyda, shimoliy Buenos-Ayresning eng qashshoq shahrida yashardi. Maradonaning oilasi ham kambag'al edi, shuning uchun ham bolalar ota-onalariga yordam berish maqsadida gul uchun tuvaklarni bozorda sotib, topgan pullarini onalariga berishardi. Bu bilan Diego ham shug'ullanardi, keyinchalik u shunday degan: *“Agar mening ota-onam mendan oyni olib ber deb so'rasalar, men uni olish uchun hamma narsani muhayyo qilsam ham, lekin bu ularning menga qilganlari oldida hech narsa emasdi”*.

Maradona 8 yoshga to'lganida, u Goyo Karriso bilan tanishadi, Karriso 10 yoshda edi va “Arxentinos Xuniors” bolalar klubida o'ynardi. Karriso futbol o'yiniga juda ishqiboz edi, shu sabab bolalar bir-birlari bilan do'stlashishgan. Karriso Maradonaga o'tgan buyuk futbolchilar haqida gapirib berar edi, Maradona esa bunga juda ham qiziqardi.

1969-yilning o'rtalarida Karriso Maradonani “Arxentinos Xuniors” va 14 yoshgacha bo'lgan jamoa treneri Fransisko Kornexo bilan tanishtiradi. Birinchi ko'rishda Diego jamoada shunday yaxshi o'ynardiki, shunda Kornexo Maradonaning juda yoshligiga ishonmagan. Kornexo Maradonani katta klubga mashq qilishga taklif qildi, shunda Diego boshqa yosh bolalar singari futbolchilardan to'p oshirishni o'rgandi. Bu bolalardan Kornexo jamoa tuzdi. Bu jamoa “Los Sebolitas” (Lukovichki) bo'lib, “Arxentinos Xuniors”ning yoshlar klubi edi. U bolalarni sport kiyimi va mashq qilish uchun stadion bilan ta'minlardi. Jamoa kuchli bo'lib, yosh futbolchilar atrofidagi barcha yosh jamoalardan ustun edi. Jamoada Maradona o'zining texnikasi, maydonda to'pni to'g'ri qabul qilishi, ajoyib sport formasi, ikki taymda ham charchamay o'ynashi bilan ajralib turardi va albatta jamoaning lideri edi. Yana uning qiymati shunda ediki, Diegoning oyog'iga urganlaridan so'ng ham yiqilmasdi. Fransisko Kornexo shunday degan: *“O'sha paytda Diego Maradona to'p bilan hamma narsa qila olardi. U yog'och qo'g'irchoqqa o'xshardi, o'yin vaqtida qancha uni turtmang, u doim oyog'ida mustahkam turardi. Undan tashqari Diego boshqa o'yinchilardan uch yosh kichik edi”*.

1973-yilda Maradona

1971-yil 28-sentyabrda bo'lgan o'yinda Maradona qatnashgan jamoa yoshlar o'rtasida bo'lib, “River Pleyt” yoshlar jamoasi ustidan 7:1 hisobida g'olib bo'lishdi. Bu o'yinda Diego hali 10 yoshga to'lmagan bola bo'lib, u 5 ta golni urishga muvaffaq bo'lgan. Bu haqda u o'yin boshlan-

masdan o‘zining jamoasiga 2 ta golni o‘zi uchun va 3 ta golni ular, ya’ni o‘z jamoasi uchun urishga so‘z berdi: *“Maydonda biz mashinani eslatardik, biz barchani, hattoki 20:0 hisobi bilan ham yutardik. Bizning orzuimiz Argentinaning mashhur “River Pleyt” nomli futbol jamoasiga qarshi o‘ynash edi, nihoyat bu o‘yin bo‘ldi. Biz raqiblarimiz ustidan 7:1 hisobida g‘olib bo‘ldim va o‘zim 5 ta golni so‘z berganimdek urishga muvaffaq bo‘ldim. Bu o‘yinni ko‘rish kerak edi; raqibim jahl bilan maydonda orqamdan yugurardi”*.

O‘sha o‘yindan keyin Maradona haqida argentinalik yulduz sifatida gapirishgan, “Clarín” ro‘znomasi esa Diego haqidagi maqolasida uning ismini “Karadona” deb yozib xato qilishgan. Jamoa shunday kuchli o‘ynardiki, natijada 136 ta o‘yinni ketma-ket mag‘lubiyatsiz o‘ynashga muvaffaq bo‘ldi. Yoshlar futbol jamoasi “Banfilda” jamoasi bilan o‘yindan oldin Diego qo‘lini qattiq yaraladi, unga ko‘ra uni 7 ta joyidan shof qo‘yib tikishdi. Kornexo uni maydonga kiritishni xohlamadi, lekin Maradona murabbiysini ko‘ndirib, o‘yinda 5 ta to‘p urib jamoasi 7:1 hisobida g‘olib bo‘ldi. Ichki o‘yinlarda qatnashgan jamoa Peru va Urugvayda bo‘ladigan turnirda ham qatnashdi.

“Lukovichki” jamoasidagi o‘yini tufayli Maradona “Arxentinos Xuniors” o‘yinlarida ham ishtirok etdi. Shundan so‘ng uni televideniya “Sabados Circulares” dasturiga chaqirishdi.

12 yoshidan boshlab Maradona “Arxentinos Xuniors” yoshlar jamoasida o‘ynadi. Diego “Xuniors”da o‘ynashi uchun jamoa bosh murabbiysi Diegoning yoshini yashirishga majbur bo‘ldi, sababi u ancha yosh edi. Shuning uchun ham Maradona begona nomi ostida o‘ynadi. 1973-yilda yoshlar jamoasi “Arxentinos” Evita final kubogida “River Pleyt” jamoasini 5:4 hisobida yutdi, bu o‘yinda Maradona 7 kishini aldab gol urishga muvaffaq bo‘ldi. O‘yindan bir hafta o‘tgandan so‘ng “River Pleyt” prezidenti Uilyam Keyt Diegoning otasiga Maradonani jamoaga sotish haqida taklif qildi, lekin Maradonaning otasi buni rad etdi. Keyingi yilda jamoa Argentinaning 9 – ligasida g‘olib bo‘ldi va 8 – ligaga chiqdi. 8 – ligada ishtirok etishiga qaramay, 1975-yilda klub chempionatda 10 ochko jamg‘ardi va Diegoni 7-liga “Arxentinos”ga yuborishdi. Yettinchi ligada u faqat 2 ta o‘yinda ishtirok etdi va uni darhol beshinchi ligaga o‘tkazishdi. Beshinchi ligada u 4 ta o‘yinda ishtirok etdi, so‘ng uni 3-liga klubiga o‘tkazishdi. Uchinchi liga klubida Diego 3 ta o‘yinda ishtirok etdi. Shundan so‘ng Maradonani asosiy tarkib “Arxentinos Xuniors” klubiga o‘tkazishadi.

Maradonaning shuncha harakatlariga qaramay, oilasi avvalgidek qashshoq edi. Diegoning ukalari Raul va Ugo, soʻng inglisi Klaudiya tugʻilishdi. Otasi oʻgʻlining qiziqishlarini toʻgʻri qabul qildi, har kuni ishdan keyin uni klubga mashq qilishga olib borardi, otasi oʻgʻlining kelajakda mashhur futbolchi boʻlishiga ishonardi. Maradona oilasini qashshoqlikdan olib chiqqanda ham baribir otasi tegirmonda ishlashni davom ettirdi, u ikki smenada ertalab va kechqurun ishlab, ishdan charchab kelardi. Tegirmonga bugʻdoy deyarli har kuni keltirilardi. Shunga qaramay, tushlikdan soʻng otasi Diegoni klubga olib borardi.

Maradonaning yoshligi. Maradona futbol faoliyatida eng yuqori choʻqqiga chiqdi. Ammo keyingi “Nyuels Old Boyz” futbol klubi bilan qarshi oʻyin Maradona uchun ham, klub uchun ham omadli kelmay, 2:4 hisobida magʻlub boʻlishgan. Shundan soʻng yosh oʻyinchini bir necha oyga ikkinchi tarkib “Xuniors” klubiga yuborishdi. Faqat 14-noyabrda u yana maydonga “San-Lorenzo” futbol klubiga qarshi oʻyinga chiqdi. Shunda ham ikkinchi taymning oxirida zahiradan Gyakobetti nomli oʻyinchi oʻrniga maydonga chiqdi. Bu oʻyinda ham Maradona oʻzining isteʼdodini koʻrsatdi, qisqa vaqt ichida 2 ta gol urdi. Nashriyot esa yosh futbolchining oʻyini haqida iliq fikrlar bildirdi, lekin u hali futbolda koʻp narsalarni oʻrganishi kerakligi aytildi.

1977 va 1978 - yillar: 1977-yilda Argentina futbol terma jamoasining bosh murabbiysi Sesar Luis Menotti 27-fevralda Vengriya futbol terma jamoasiga qarshi boʻlib oʻtadigan oʻyinga Maradonani chaqirdi. Maradona oʻzini oʻyinda koʻrsata olmagan Leopoldo Luke oʻrniga (oʻyin tugashiga 20 daqiqa qolganida) maydonga kiritildi. Diego esa bu oʻyinda oʻzining oʻyinidan qoniqmagan. Oʻsha paytlar Argentina futbol terma jamoasi bosh murabbiyi Menotti tomonidan (hali 16 yoshga toʻlmagan) Maradonaning Argentina futbol terma jamoasiga chaqirilishi kutilmagan edi, oʻsha paytda Maradona “Xuniors” futbol klubi tarkibida faqatgina 12 ta oʻyinda ishtirok etgan edi, xolos.

Maradona: *“Men, fevralda 16 yoshga toʻlganimda ilk bor menga tanish boʻlgan “Boka Xuniors” futbol klubi stadionida venger futbol terma jamoasiga qarshi oʻynadim. Meni Menottining oʻzi taklif qildi. Menotti menga qoʻngʻiroq qilib: “Maradona, Maradona bu senmisan? - deb ikki marta soʻradi. Men seni vengerlar bilan boʻladigan oʻyinga qoʻshdim. Sen kelasanmi?” Menotti qaysi argentinalik futbolchini chaqirmasin, u oʻyinchi tezda oʻyinga yetib kelishini bilardi. Oʻsha yili 3 – aprelda*

Maradona ilk marta Argentinaning futbol bo'yicha yoshlar terma jamoasi tarkibida Janubiy Amerikada o'smirlar chempionati, ya'ni Venesuela mamlakatida o'tkazilgan o'yinda ishtirok etdi. U yerda Diego milliy jamoada 3 ta o'yinda qatnashdi. Argentinalik yosh o'yinchini janubiy amerikalik va Yevropalik mutaxassis va murabbiylar "ov qilishga" harakat qilishardi, ular Maradonaning o'z klublarida o'ynashini xohlashardi, lekin Maradona hammaga rad javobini berardi, chunki 1978-yilgi jahon futbol chempionatiga boradigan futbolchilar o'rtasida uning ham nomzodi bor edi. Maradona shuni bilib, tinmay mashq qilardi.

Ammo, jahon futbol chempionati boshlanishiga 13 kun qolganida Maradonaning futbol bo'yicha jahon chempionatiga bormasligi ma'lum bo'ldi. Bu Maradonaning qattiq ranjishiga sabab bo'ldi. Uch kundan so'ng esa Maradona, hattoki Argentina futbol terma jamoasi bosh murabbiysi Menottiga qo'ng'iroq qilib, o'zining jahon futbol chempionatida qatnashishini iltimos qilardi, ammo Maradona murabbiydan rad javobini eshitdi. Maradona: *"Bu mening hayotimdagi eng og'ir yutqazish bo'ldi"*, - deb aytgan.

Maradona 1980 yilda

Men haligacha Menottini kechirmadim va haligacha u o'zining imkonini qo'yib yubordi deb o'ylayman. Lekin men undan nafratlanmayman. Nafratlanish – bu kechirmaslik degani. O'sha paytdagi mening ahvolim yomon edi, chunki men uyda edim. Bu voqea ta'ziyaga o'xshab ketgandi. Onam yig'lagandilar, otam ham, akalarim va opalarim ham yig'lagandilar. Ular meni qo'llab-quvvatlagandilar va yana 5 ta (jahon) chempionatlarda o'ynaysan, deb aytgandilar. Mening kareramda o'sha kun eng yomon kunlardan bo'ldi. Oyoqlarim, yuragim, hayolim bilan his qilgandim, hali ularning hammasiga ko'rsataman, men hali ko'p jahon futbol chempionatlarida qatnashaman, deb o'zimga va'da berdim.

Maradonani 1978 yilgi jahon futbol chempionatiga taklif qilinmaganligi sababi, terma jamoa Menottiga uning xarakteri yoqmaganligidir. Murabbiy uni "yovvoyi" deb aytgandi va uni pul uchun axborot berganlikda ayblashdi. Argentina terma jamoasining lideri Daniel Passarella uni yosh futbolchilar jamoasida ko'rmoqchi emasligini bildirgan. Jamoa tarkibiga kirolmagan Maradona "Arxentinos" klubiga qaytib, "Chakarito Xuniors" klubi bilan o'yinda maydonga tushib raqib darvozasiga 2 ta gol kiritib, 2

ta gollik vaziyatga asistenlik qilib, o‘yin yakunida Maradona jamoasi 5:0 hisobiga g‘olib bo‘ldi. O‘sha mavsumda Maradona 35 ta o‘yinda maydonga tushib, raqib darvozasiga 25 ta gol kiritgan. 1978-yilgi jahon futbol chempionatida Argentina terma jamoasi tarixida birinchi marta jahon chempioni nomiga sazovor bo‘ldi. Argentina terma jamoasi murabbiysi Menotti bir-ikkita yosh futbolchilarni Argentina terma jamoasiga taklif qildi va ularning ichida Maradona ham bor edi.

Yosh Maradona jahon kubogi bilan. 1979 yil.



1979-yilda Janubiy Amerikada Maradona o‘smirlar jamoasi tarkibida qatnashdi. U yerda argentinaliklar Urugvay terma jamoasiga mag‘lub bo‘lib, 2-o‘rinni egalladilar. Bu turnirda Diego 6 ta o‘yindan 5 tasini o‘tkazdi. Shu yilning o‘zida Yaponiya mamlakatida bo‘lib o‘tgan yoshlar o‘rtasidagi jahon futbol chempionatida Maradona Argentina jamoasini sardor sifatida maydonga olib chiqdi. Birinchi marta 26-avgust kuni Indoneziya terma jamoasiga qarshi o‘yinda argentinaliklar

5:0 hisobida g‘olib bo‘lishdi. O‘yindagi 2 ta golni Maradona kiritdi. Bu turnirda argentinaliklar barcha o‘yinlarda g‘olib bo‘ldilar. Argentina-lıklar bu turnirda o‘z darvozalariga faqatgina 2 ta gol qo‘yib yuborishgan va dunyoning eng kuchli jamoasi nomiga sazovor bo‘lishgan. Maradona esa chempionatda faqatgina Aljir terma jamoasi bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda qatnasholmagan. U chempionatda “Eng yaxshi o‘yinchi” nomiga sazovor bo‘lib, har bir o‘yinda uchrashuvga raqib darvozasiga to‘p kiritishga muvaffaq bo‘lgan. Maradona finalda sobiq Ittifoq terma jamoasi darvozasiga chempionatdagi oxirgi to‘pni kiritib, chempionatdagi gollarga yakun yasagan. Maradonaning fikricha, 1979-yilgi Argentina yoshlar terma jamoasi uning karerasi davomida eng yaxshi ko‘rsatkichga ega bo‘lgan jamoa hisoblanadi. Futbol mavsumi yakuniga yetganida Maradonaning klubi ichki chempionatda unchalik yaxshi qatnashmagan

bo'lsa-da, ammo Maradona Argentina mamlakatining eng yaxshi futbolchisi va eng yaxshi sportchisi nomiga sazovor bo'lgan.

1980-yil Maradona Argentina terma jamoasi tarkibida 10 ta o'yinda qatnashib, 6 ta golni raqib darvozasiga kiritdi. Diego uchun o'sha yildagi eng natijali o'yin bu Avstriya terma jamoasiga qarshi o'yinda (21-mayda o'tgan o'yinda) Maradona birinchi marta Argentina milliy terma jamoasi safida o'ynaydi.



1982-yilgi jahon futbol chempionatida Maradona terma jamoasi

omadsiz qatnashdi. Argentina terma jamoasi 3-guruhdan Italiya va Braziliya mamlakatlari bilan bir guruhdan joy olib, Italiya jamoasiga 1:2, Braziliya jamoasiga 1:3 hisobida mag'lubiyatga uchrab uyga qaytishadi. Bu natija bilan Argentina terma jamoasi ishonchni oqlamagan, deb hisoblangan.

Yevropadagi karera. 1982-yil Maradona "Barselona" futbol klubi tarkibiga o'tdi. Maradona bu klub bilan 6 yilga shartnoma imzoladi. "Kataloniya" klubi Maradonani taniqli yulduzday kutib oldi. Uning birinchi o'yini 1982-yil 4-sentyabrda bo'lib o'tdi, bu o'yinda "Valensiya" klubiga qarshi o'yinda "Barselona" 2:1 hisobida g'olib bo'ldi. Birinchi o'yindan keyin hammaning Maradonaga nisbatan hurmati yanada oshdi. Maradona Ispaniya chempionatida 15 ta o'yin o'tkazib, 6 ta gol urdi. Dekabr oylarida u geppatit kasalligiga uchradi va katta futbolni 3 oyga tark etishga majbur bo'ldi.

1983-1984 yil Maradona uchun omadsiz bo'ldi. Ispaniya ichki chempionatida 24 sentyabr "Barselona" – "Atletiko" klubi bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda Maradonaning klubi 4:0 hisobida yutayotgan bir paytda "Atletiko" o'yinchisi Andoni Goykoechea o'yin davomida Diegoni oyog'iga zarba beradi, 59-daqiqada Maradona oyog'idan lat yedi. Maydonda jamoalar o'rtasida to'polon va urush bo'lib o'tdi. Bo'lib o'tgan voqeadan keyin Maradonaning oyog'ini operatsiya qilishadi va Diego olingan jarohat tufayli bir necha vaqt katta futbolga qayta olmaydi.

“*Napoli*”. 1984-yil 29-iyunda sobiq “*Napoli*” o‘yinchisi, klub menejjeri Antonio Yuliano “*Barselona*” klubi rahbariyati va Maradona bilan kelishuv asosida Diegoni “*Napoli*” klubi tarkibiga qo‘shib olishga kelishadilar.

1984-1985 yillar. Maradona birinchi marta “*Napoli*” klubi bilan “*Verona*” klubiga qarshi o‘yinda 3:1 hisobida g‘olib bo‘ladilar. Ikkinchi o‘yinda “*Sampdoriya*” klubi bilan qarshi o‘yinda Maradona raqib darvozasiga to‘p kiritganida to‘pni olib o‘padi va bu hozirgi kungacha futbolchilar orasida an‘anaga aylangan. Birinchi mavsumda Maradona “*Napoli*” tarkibida unchalik yaxshi o‘ynamadi, ammo keyingi omadli o‘yinlardan so‘ng klub 8-o‘rinni egallaydi. Maradona: “Bu mening Italiyada birinchi yutug‘im”- deb aytadi.

1985-1986 yillar. Mavsumning boshida (1985-86 yillar) “*Napoli*” klubi o‘zining tarkibini yangi o‘yinchilar bilan mustahkamladi. Klubga darvozabon Garella, Italiyaning chempioni “*Verona*” klubidan Djordano va Renika qo‘shilishadi. Mavsum oxirida klub Italiya chempionatida 3-o‘rinni egal-ladi.

1986-yil jahon chempionati. 1986-yilgi jahon futbol chempionatida Argentina terma jamoasini Karlos Bilardo boshqardi. Uning birinchi ishi, Maradonani Argentina terma jamoasi sardori etib tayinlash bo‘ldi.

Angliya terma jamoasi bilan bo‘lib o‘tgan o‘yin. Jahon chempionatining 1/4 bosqichida Argentina terma jamoasi Angliya bilan uchrashdi. 22-iyun Meksikaning “*Atsteka*” o‘yingohida bo‘lib o‘tgan uchrashuvda o‘yinning 51-daqiqasida Maradona ingliz darvozaboni Piter Shiltondan oldinroq harakat qilib, havodagi to‘pni chap qo‘li bilan darvozaga yo‘llaydi. Uchrashuv hakami o‘yin qoidasi buzilganiga e‘tiborni qaratmay, golni argentinaliklar foydasiga hisoblaydi. Bundan g‘azablangan ingliz futbol ishqibozlari argentinlik muxlislar bilan urush-to‘polon qilishadi. O‘yindan keyin Diego o‘z goliga: “Bu mening qo‘lim emas edi, bu Ollohning qo‘li”, - deb izoh berdi.

Yarim final. O‘yin boshida hamma ikkita jamoadan bittasi, ya‘ni Argentina Maradona ishtiroki bilan, yoki “*Yevropa chempioni*” Fransiya Mishel Platini bilan jahon chempioni bo‘lishadi, deb taxmin qilishgan edi. Yarim final uchrashuvida Argentina terma jamoasi Belgiya terma jamoasi bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda Maradona raqib darvozasiga 2 ta to‘p kiritib, umumiy hisobda (2:0) Belgiya terma jamoasi ustidan g‘olib bo‘lishadi. O‘yin yakunlanishi bilan belgiyalik darvozabon Jan-Mari Pfaff maydon o‘rtasigacha yugurib borib, Maradona bilan futbolkasini

almashtiradi. O'yindan keyin Belgiya terma jamoasi murabbiyi Gi Tis Maradona haqida shunday deydi: "Agar Maradona bizning jamoamiz uchun o'ynaganida edi, biz finalga chiqardik, ammo bu haqda faqatgina orzu qilish mumkin".

Final o'yini. Jahon futbol chempionati finali "Atsteka" o'yingohida Argentina terma jamoasi Germaniya terma jamoasi bilan kuch sinashdi. Juda qizg'in va mashaqqatli o'yinda argentinaliklar 3:2 hisobida g'olib bo'lishdi va jahon chempioni nomiga sazovor bo'lishdi.

1988-1989 yildagi mavsumlar Maradona uchun unchalik ham omadli kechmaydi, chunki Maradona tizzasidan og'ir jarohat olib, bir nechta o'yinda qatnasholmaydi. Maradona birinchi chiqishini 3-turda boshlab berdi. "Napoli" klubi "Peskaru" klubi bilan qarshi o'yinda 8:2 hisobida g'alaba qozonadi. Uchrashuvda 2 ta golni Maradona raqib darvozasiga kiritadi.

1989-1990 yildagi mavsumda "Napoli" klubining murabbiysi etib Alberto Bigon tayinlanadi. Maradona jarohati tufayli yana o'ynay olmaydi uning o'rniga Janfranko Zola chiqadi.

1990-yilgi jahon futbol chempionati. Jahon chempionatiga bir necha kun qolganida Maradonaning o'ng oyog'i bosh barmog'idagi tirnog'i tushadi. Shuning uchun u mashq qila olmaydi. 3-iyun Dal Monte institutida Maradonaning oyog'iga karbon toladan himoyalovchi bog'lam qo'yiladi, Maradona esa mashg'ulotlarda qatnashadi. 1990-yilning 8-iyunida Argentina uchun birinchi uchrashuv boshlanadi. "San-Siro" o'yingohida Kamerun terma jamoasi bilan qarshi uchrashuvda argentinaliklar 0:1 hisobida mag'lubiyatga uchrashadi. Maradonaning fikricha, mag'lubiyatning asosiy sababi-Klaudio Kanidjaning maydonga chiqmagani, boshqa futbolchilarning o'ynay olmaganliklari va kamerunliklarning o'ta qo'pol o'ynashlari edi. Ikkinchi o'yinda sobiq Ittifoq terma jamoasiga qarshi bo'lib o'tgan qarshi uchrashuvda argentinaliklar 2:0 hisobida g'olib bo'ldi. Ruminiya terma jamoasi bilan bo'lib o'tgan o'yinda hisob durang 1:1 bo'ladi. Ruminiyaliklar bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda Maradona chap oyog'ining to'piq qismidan og'ir jarohat oladi va qolgan o'yinlarda og'riq qoldiruvchi muolaja olib maydonga tushadi. 1/8 finalda Argentina terma jamoasi Braziliya terma jamoasi bilan uchrashadi. Bu o'yinda Maradonaning "Napoli" klubida o'ynagan Koreka va Alemao do'stlari Braziliya terma jamoasida o'ynaydilar. O'yin yarmidan ko'p qismi teng

o'tadi, ammo o'yinning 81-daqiqasida Maradonaning uzatgan to'g'ri to'pini Klaudio Kanidja Braziliya terma jamoasi darvozasiga kiritadi. 1\4 finalda Argentina terma jamoasi Yugoslaviya terma jamoasini penaltalarda yutadi. Yarim finalda argentinaliklar Neapol maydonida Italiya terma jamoasi bilan o'ynashadi, o'yin 1:1 hisobida tugaydi, penaltida Maradona Italiya terma jamoasi darvozasiga hal qiluvchi golni kiritadi va ular o'yinda g'olib bo'ladilar. Finalda Argentina terma jamoasi Germaniya terma jamoasi bilan uchrashadi Argentina 0:1 hisobida mag'lubiyatga uchraydi. Bu o'yinni Maradonaning oxirgi marta sariq varoqcha olgani bilan esida qoladi. O'yinning omadsiz bo'lganiga Diego germaniyalik Lotar Matteusni ayblaydi, o'yin davomida Lotar Maradonaga halaqit berib o'ynaydi. O'yin tugaganidan so'ng Maradona maydonda yig'lab yuboradi. Taqdirlash marosimi esa janjal bilan tugaydi Maradona FIFA prezidenti Joao Avelanjuga qo'l bermadi, chunki Maradonaning fikricha Avelanju hammasini argentinaliklar yutmasliklari uchun uyushtirgan, deb hisoblaydi. Shu o'yin uchun Diego 1990-yilgi jahon futbol chempionatining uchinchi o'yinchisi sifatida "Bronza to'p" oladi.

11-oktyabr, bir necha oydan so'ng Maradona shunday xulosaga keldi: Men milliy terma jamoada o'ynamayman. Men buni ko'p o'yladim va qaror qildim. Bu menga og'ir botsa ham, men shunga majburman.

1990-yilgi jahon futbol chempionatidan so'ng Maradona "Napoli" tarkibida o'ynashda davom etadi. Mavsum "Napoli" uchun ijobiy boshlanadi. "Napoli" Italiya mamlakati superkubogini yutib oladi. Shundan so'ng Maradona yana 24 o'yinda o'ynab raqiblar darvozasiga 10 ta gol kiritishga muvaffaq bo'ldi.

1991-yil 17-mart "Bari" klubi bilan bo'lgan uchrashuvdan so'ng Maradona "doping" tekshiruvidan o'tishi kerak edi. Natijalarga ko'ra, Diegoning organizmida kokain borligi aniqlandi. Shundan so'ng Italiya futbol federatsiyasi Maradonani futboldan 15 oyga chetlashtiradi. Maradonaning advokatlari bu qarorni bekor qilishga urindilar, ammo sud o'z qarorini o'zgartirmadi.


1992-yil 1-iyul kuni Maradona yana futbolga qaytadi. "Napoli" klubi Diegoni o'z safida ko'rishni xoxlashardi, ammo Maradona klubni tark etib, Ispaniyaning "Sevilya" klubiga o'tadi. Maradona jamoasidagi birinchi o'yinni 28-sentyabr kuni o'tkazadi. Maradonaga "Sevilya" klubida o'ynaganida uning eski jarohatlari xalaqit berardi.

1994-yilgi jahon chempionati. 21-iyunda Gretsiya terma jamoasi bilan bo‘lib o‘tgan birinchi uchrashuvda Argentina terma jamoasi 4:0 hisobida g‘olib bo‘lishadi. Ikkinchi o‘yinda Nigeriya bilan bo‘lgan uchrashuvda argentinaliklar 2:1 hisobida g‘olib bo‘lishadi. Bu o‘yindan so‘ng Maradona “doping” testida yana narkotik qabul qilgani ma’lum bo‘lib, 15 oyga futbol o‘ynash qonunan taqiqlanadi. Chempionatdan Maradona ketganidan so‘ng Argentina terma jamoasi 2 ta o‘yinda mag‘lub bo‘lishadi. Nigeriya terma jamoasi bilan bo‘lgan uchrashuv Maradona uchun Argentina milliy terma jamoasida o‘ynagan eng oxirgi o‘yin edi. Maradona hammasi bo‘lib Argentina milliy termasida 91 ta o‘yinda maydonga tushib 34 ta gol kiritishga muvaffaq bo‘lgan.

Diego Maradona



Umumiy ma’lumotlar


To‘liq ismi	Diego Armando Maradona
Laqabi	<i>Oltin bola, O‘ntalik, Futbolning mikelandjelosi</i>
Tug‘ilgan	30 oktyabr 1960 <u>Lanus, Argentina</u>
Fuqarosi	 <u>Argentina</u>
Bo‘yi	167 <u>sm</u>
Pozitsiyasi	Hujum qiladigan yarim himoyachi, hujumchi <i>Jamoa haqida ma’lumot</i>
Jamoada	<i>Karerasini tugatdi</i>

Karerasi

Yosh klublar

1970—1976	 <u>Argentinos Xuniors</u>	
Klubdagi faoliyati		
1976—1981	 <u>Argentinos Xuniors</u>	166 (116)
1981—1982	 <u>Boka Xuniors</u>	42 (28)
1982—1984	 <u>Barselona</u>	36 (22)
1984—1991	 <u>Napoli</u>	188 (81)
1992—1993	 <u>Sevilya</u>	26 (5)
1993	 <u>Nyuells Old Boyz</u>	5 (0)
1995—1997	 <u>Boka Xuniors</u>	30 (7)

Milliy terma jamoa**

1977—1979	 Argentina (20 yoshgacha)	24 (13)
1977—1994	 <u>Argentina</u>	91 (34)

Murabbiylik faoliyati

1994	 <u>Mandiyu</u>
1995	 <u>Rasing (Avelyaneda)</u>
2008—2010	 <u>Argentina</u>

Sport yutuqlari

Futbol

Jahon chempioanti

Oltin	Meksika 1986
Kumush	Italiya 1990

VII BOB
JAHON FUTBOL HAKAMLARI
7.1.Ermatov Ravshan Sayfiddinovich

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, sportga, jumladan, millionlar o‘yiniga hukumatimiz miqyosida katta e‘tibor qaratildi. Shaxsan Prezidentimiz rahnamoligida O‘zbekistonda futbolni rivojlantirish borasida tarixiy qarorlar qabul qilindi.

Mana bugun qisqa muddat ichida ushbu uzoqni ko‘zlab qilingan harakatlarni o‘z samarasini bermoqda. Yurtboshimiz “Hech narsa mamlakatni sport kabi olamga tezda mashhur qila olmaydi”, - degan so‘zlari yana bir marta o‘z isbotini topmoqda.

Ermatov Ravshán Sayfiddínovich, 1977 yil 9 avgustda, Toshkent shahrida tug‘ilgan.

Futbol karerasi

1996 yil O‘zbekiston birinchi liga chempionati «G‘azalkent» klubi safida o‘ynab, oyog‘ining to‘piq qismidan jarohat oldi. Ravshan Ermatovning otasi mashhur O‘zbekiston futbol hakami hisoblanib, sobiq Ittifoq chempionati o‘yinlarida hakamlik qilgan. U o‘g‘liga ham hakamlik karerasini maslahat berdi.


Futbolda hakamlik karerasi



2003 yil 25 yoshida FIFAga qabul qilinib, o‘sha yilning o‘zida futbol bo‘yicha o‘smirlar jahon chempionatida hakamlik qilgan. 2007 yilda futbol bo‘yicha yoshlar jahon chempionatining ikkita o‘yinida hakamlik qilishga muvaffaq bo‘ldi. Bir yildan so‘ng klublar o‘rtasidagi jahon chempionati final o‘yinlarida qatnashdi. Bir necha marta Osiyo kubogi o‘yinlarida hakamlik qildi. 2008-2009 yillarda Ravshan Ermatov Osiyo qit‘asining eng yaxshi hakami deb tan olindi.

2010 yilda Ravshan Ermatov jahon futbol chempionatida birinchi **JAR – Meksika** terma jamoalari o‘yinlarida juda a‘lo darajada hakamlik

qildi. Undan keyin Angliya – Aljir, Gretsiya – Argentina, Germaniya – Argentina va yarim final Urugvay – Niderlandiya futbol terma jamoalari o'rtasidagi uchrashuvlarda hakamlik qildi. Ravshan Ermatov futbol tarixida, futbol bo'yicha jahon chempionatlarida 5 ta o'yinda hakamlik qilgan uchinchi hakam bo'ldi.



2010 yilning eng nufuzli sport anjumani, deb tan olingan jahon futbol chempionati nafaqat O'zbekiston, balki Osiyo va jahon sporti tarixida yangi sahifa ochgani bilan ham biz uchun ahamiyatli sanaladi. Ravshan Ermatov yosh bo'lishiga qaramay, Janubiy Afrika Respublikasidagi jahon chempionatidagi eng ko'p – beshta uchrashuvda bosh hakamlik qildi. Uning bu ko'rsatkichi Osiyoning o'ziga hos rekordidir. Bungacha hech bir osiyolik hakamga bitta jahon chempionatida nafaqat beshta, balki to'rtta o'yinni boshqarish ham nasib etmagan. Jahon futboli tarixida esa faqat argentinalik Orasio Elisondo hamda meksikalik Benito Archundia 2006 yilgi jahon chempionatida beshtadan uchrashuvda qatnashgan. Demak, jahon futbol chempionatlarining 80 yillik tarixida R.Ermatov, O.Elisondo va B. Archundiadan tashqari hech qaysi hakamga bu qadar ishonch bildirilmagan.

Umuman olganda, 2010 yilgi futbol jahon chempionatida hakamlar mavzusi eng dolzarb masalalardan biri sifatida gavdalanadi. FIFA Hakamlar qo'mitasi musobaqaga jalb qilingan hakamlarni uch yil davomida saralab olgandi. Biroq bellashuvlarni bexato boshqarish hammaga ham nasib etmadi. Ayniqsa, futboli rivojlangan mamlakatlar vakillari – italiyalik Roberto Rozetti, shvetsariyalik Massimo Buzakka, urugvaylik Xorxe Larrionda kabi taniqli hakamlarning qo'pol xatolari ayrim uchrashuvlar natijasiga ta'sir qildi.

Ravshan Ermatov va uning assistentlari – hamyurtimiz Rafael Ilyosov hamda qirg'izistonlik Bahodir Qo'chqorov jahon chempionati davomida eng ko'p uchrashuvda ishtirok etgan bo'lsa-da, ular biror marotaba ham qo'pol xatoga yo'l qo'ymadi. Albatta, mazkur hakamlar brigadasi

ishlagan uchrashuvlarda, ayniqsa, Janubiy Afrika Respublikasi – Meksika o‘rtasidagi chempionatning birinchi o‘yinida va Gollandiya – Urugvay ishtirokidagi yarim final bellashuvida gol kiritilishi bilan bog‘liq o‘ta murakkab vaziyatlar yuzaga keldi. Lekin Ravshan Ermatovning o‘sha holatlarda qabul qilgan qarorlari FIFA hakamlar qo‘mitasi tomonidan o‘tkazilgan tekshiruvlardan so‘ng yuz foiz to‘g‘ri ekani o‘z isbotini topdi. Bu kabi bahsli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilingani Ravshan Ermatov brigadasining nufuzini yanada oshirdi.

Prezidentimiz Islom Karimov mamlakatni dunyoda tanitishda sportning ahamiyati beqiyos ekanini alohida ta‘kidlagan edi. Yurtboshimizning bu purma‘no so‘zlari yana bir karra o‘z tasdig‘ini topdi. Afrikadagi futbol musobaqasini bir oy davomida butun er kurrasi bo‘yicha millionlab, milliardlab ishqibozlar tomosha qildi. Ravshan Ermatov o‘zining odilona, tezkor va qat’iy qarorlari, o‘yinni “o‘qish”, maydonni “ko‘ra bilish”, futbolchilar bilan til topishish, vaziyatlarni to‘liq tahlil etish qobiliyati orqali jahon chempionatining eng mashhur hakamlaridan biri sifatida nom qozondi. JARdagi musobaqani kuzatgan muxlislar borki, O‘zbekiston va Ravshan Ermatov to‘g‘risida yangi ma‘lumotlarga ega bo‘ldi.

Shuningdek, o‘zbekistonlik FIFA referisining faoliyati taniqli hakamlar, mutaxassislar, futbolchilar, sportga, xususan, futbolga ixtisoslashgan nashrlar, ro‘znomalar, ko‘rsatuvlar, internet saytlari orqali ko‘p marotaba tahlil qilinib, uning jahon chempionatidagi ishtiroki yuksak e‘tirofga sazovor bo‘ldi. Ravshan – yuksak aql-zakovat, mustahkam iroda, azmu shijoat, chuqur bilim, jismoniy va ruhiy barkamollikka ega bo‘lgan xalqimizning salohiyatli o‘g‘lonidir. Bugun uning muvaffaqiyati Mustaqil Davlatlar va Osiyo mamlakatlarining ham yutug‘i sifatida baholanmoqda.

Jahon chempionatida ishtirok etish, har bir futbolchi va murabbiy kabi hakamlarning ham eng oliy maqsadidir. Dunyoning eng adolatli va tajribali referilaridan biri sifatida tan olingan hamyurtimiz bu yuksak cho‘qqini ham zabt etdi. Oldinda esa uni yangidan-yangi nufuzli musobaqalar: mamlakat, qit‘a va jahon miqyosida navbatdagi mas‘uliyatli bellashuvlar kutmoqda. XIX jahon futbol chempionati o‘yinlarida hamyurtlarimiz Ravshan Ermatov hamda Rafael Ilyosovlar O‘ZBEKISTON nomini butun dunyo bo‘ylab yana bir marta jaranglashiga sababchi bo‘lishdi. Nufuzli xalqaro tashkilotlardan biri sanalmish FIFA bizning mamlakatimiz vakillariga – o‘zbekistonliklarga katta ishonch bildirdi. Halqimizning

ori, g‘urur va sha’ni, salohiyati, tafakkuri, bilimi, aql-idroki, naqadar oliy ekanligi, metin irodasi, sobit qadamligi va botirligi barchaga havas qilgulik darajadiligini jahon hamjamiyatiga ko‘rsatib qo‘ygan bu yigitlarga “Balli”, deymiz!!!

Ommaviy axborot vositasi Ravshan Ermatov haqida...

Ravshan Ermatov... ..otrabotal v YuAR na pyati matchax, v tom chisle v polufinale Urugvay — Niderlandi i ne dopustil v nix ni odnoy serezhnoy oshibki. Referi otlichno chitaet igru, slavitsya psixologicheskoy ustoychivostyu i reshitelnostyu.

Yutuqlari

2010 yilgi Jahon futbol chempionati o‘z nihoyasiga yetgandan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov qarori bilan Ravshan Ermatov “O‘zbekiston iftixori” unvoni bilan taqdirlandi. Uning 2010-yilgi jahon futbol chempionatidagi yordamchisi, yon hakam (laynsmen) Rafael Ilyosov “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlandi.

Ravshan Ermatovning asosiy ishi futbol bilan bog‘liq bo‘lib, u futbol instruktori bo‘lib ishlaydi. Ravshan Ermatov o‘zbek, rus va ingliz tillarida bemalol gaplasha oladi.

7.2. Per Luiji Kollina

Mashhur futbol hakami Per Luiji Kollina 1960 yilda Italiya mamlakatida tug‘ilgan. 1977 yilda (17 yoshida) u hakamlik kurslariga yozilgan. Oradan uch yil o‘tib shahar musobaqalarida hakamlik qilishni boshlagan.

1988 yilda Kollina Italiya – “S” seriyasi bahslarini boshqarishga kirishgan bo‘lsa, 1991 yilga kelib, u Italiya mamlakati futbol chempionatining “A” seriya uchrashuvlarida hakamlik qilgan. 1995 yili u FIFA hakami bo‘lishga erishdi. Yildan-yilga uning mahorati bilan birga obro‘si ham oshib bordi. 2006 yilgacha Kollina barcha yirik musobaqalarda ishtirok etdi.

Kollina 1998 va 2002 yilgi jahon chempionatlari, Olimpiada o‘yinlari, Yevropa chempionatlarida, chempionlar ligasi, UEFA kuboklari va boshqa musobaqalarda bosh hakam vazifasini bajarib kelgan. Jumladan, 1996 yil Atlanta olimpiadasi finali, 1999 yil Chempionlar ligasi finali (“Manchester Yunayted” – “Bavariya”), 2002 yil jahon chempionati finalida (Braziliya – Germaniya) bosh hakami bo‘lgan.

Kollina dunyoning barcha futbol ishqibozlari orasida juda mashhur shaxs hisoblanadi. Uni bilmagan futbol ishqibozi kam topiladi.



Kollinaning ko‘rinishiga qarab muxlislar unga hazilomuz tarzda “Fantomas”, deb laqab qo‘yib olishgan. Muxlislar va mutaxassislar ovozlari ko‘ra Kollina 5 marta “Dunyoning eng yaxshi hakami” unvonini qo‘lga kiritgan. Bu yuksak natija hisoblanadi, albatta. Shu bilan birgalikda u Italiya “A” seriyasining ham bir necha marta eng yaxshi hakami deb tan olingan.

Hozirda esa Kollina hakamlik faoliyatini yakunladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2008-y. 5-7-betlar
2. “Xalq so‘zi” (gazetasi). “Barkamol avlod yili” davlat dasturi to‘g‘risida. 2010-yil 28-yanvar, № 19(4934)son,1-3 betlar.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent, “Sharq”, 1997-yil.
4. O‘zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent, “Sharq”, 1997-yil.
5. Azizxo‘jaev A. Hujum himoyadan boshlanadi. Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2006-yil, 3-5 betlar.
6. Avanesov E. Marshruti “Zolotoy bogini”, Toshkent, 1971-yil 3-7 betlar.
7. Aliev M.B. Usmonxo‘jaev T.S. Sagdiev X.X. Sport o‘yinlari futbol. Toshkent, “Ilm Ziyo”, 2007-yil, 5-7 betlar.
8. Grindler K.G. Futbol. Moskva, 1989-yil.
9. Davronov I. Futbol musobaqa qoidalari. Toshkent, 1990-yil, 20-21 betlar.
10. Ibragimov M.B. Zamonaviy futbolda texnika va taktika. Buxoro, 2010-yil.
11. Lopachev Yu.N. Keling, to‘p tepamiz. Toshkent,1988-yil.
12. Mahkamjonov K.M. Salomov R.S. Sarkisyan R.S. Matomedova M.X. Futbol o‘yini texnikasi. Toshkent, 1999-yil, 10-45 betlar.
13. Safarov V.A. Paxtakor match dlinoyu v 40 let. Toshkent, 1995-yil, 22-25 betlar.
14. Xemo X, Palke X. Futbol musobaqa qoidalari. Moskva., 1998-yil.
15. Qo‘shbaxtiev I.A. Futbol mahorati sari. Toshkent, 1990-yil, 4-32 betlar.
16. Uzfootball.uz tarmog‘idan olingan ma’lumotlar.
17. [http://wikipedia.org/wiki/tarmog‘idan olingan ma’lumotlar.](http://wikipedia.org/wiki/tarmog%27idan_olingan_ma%27lumotlar)
18. [http://www.football.by.ru/tarmog‘idan olingan ma’lumotlar.](http://www.football.by.ru/tarmog%27idan_olingan_ma%27lumotlar)
19. www.krugosvet.ru va news.kyiv.ru. tarmog‘idan olingan ma’lumotlar.

20. <http://www.goalarea.ru/forma/> tarmogʻidan olingan maʼlumotlar.
21. <http://www.sports.ru/tribuna/blogs/referee> tarmogʻidan olingan maʼlumotlar.

MUNDARIJA:

Soʻzboshi.....	3
I BOB. Futbol madaniyati va kelib chiqish tarixi.....	6
1.1. Qadimgi futbol oʻyini.....	6
1.2. Oʻrta asrda futbol oʻyini.....	13
1.3. Yangi davrda futbol oʻyini.....	16
1.4. Hozirgi kunda futbol oʻyini.....	20
II BOB. Futbolning sanʼatda tutgan oʻrni.....	22
2.1. Futbol va rangli tasvir.....	22
2.2. Futbol va adabiyot.....	23
2.3. Futbol va teatr.....	24
2.4. Futbol kinematografiya.....	24
III BOB. Futbolni tashkil etuvchi ijtimoiy holat.....	27
3.1. Derbi.....	27
3.2. Futbol dasturchalari.....	36
3.3. Futbol va roʻznoma.....	37
3.4. Fan-zinlar.....	37
3.5. Futbol bannerlari.....	38
3.6. Futbolda tatuirovka.....	39
3.7. Futbol graffitlari va trafaretlari.....	41
3.8. Futbol bezorilari.....	47
IV BOB. Futbol anjomlari.....	57
4.1. Futbolchining shaxsiy ust-boshi.....	57
4.2. Futbol Butsilari.....	79
4.3. Futbol qalqonchalari.....	92
4.4. Darvozabonlar kiyimi (futbol kasi).....	94
4.5. Darvozabon qoʻlqoplari.....	97
4.6. Futbol toʻplari.....	106
4.7. Futbol hushtagi.....	113
4.8. Futbol varoqchalari. Sariq va qizil varoqchalar.....	117
4.9. Futbol maydoni.....	123
V BOB. Futbol haqida.....	126
5.1. Futbolda penaltining paydo boʻlishi.....	126
5.2. Futbol haqida.....	131
VI BOB. Jahon futbol yulduzlari.....	156
6.1. Edson Arantes do Nascimento - Pele haqida.....	156

6.2 Diego Armando Maradona haqida	169
VII BOB. Jahon futbol hakamlari.....	183
7.1. Ermatov Ravshan Sayfiddinovich.....	183
7.2. Per Luidji Kalina.....	186
Adabiyotlar ro‘yxati.....	188

